

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**Djumayev A.X., Sharifov Sh.S.,
Nizamov A.N., Ergashev I.I.**

GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH

Samarqand davlat universiteti ilmiy Kengashi tomonidan 5230101–Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya
etilgan

Samarqand – 2021

UDK 330.101.5(575.1)

BBK 65. 05 Uz

N 57

Global iqtisodiy rivojlanish. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 256 bet.

Ushbu qo‘llanma 5230101 “Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan namunaviy va ishchi dasturlari, O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Davlat ta’lim standarti asosida tayyorlangan.

O‘quv qo‘llanma mazmunini bayon etishda Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari, respublika qonunlari va boshqa me‘yoriy hujjatlardan, mamlakatimizda nashr etilgan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalardan, jumladan, O‘zbekiston milliy universitetining “Makroiqtisodiyot” kafedrasining mudiri, professor i.f.d. A.V.Vahobovning “Global iqtisodiy rivojlanish” fani bo‘yicha yozgan materiallaridan va TDIUning professor-o‘qituvchilari B.B.Berkinov, D.S.Ashurova, M.K.Abdullayeva, J.M.Raximovlar tomonidan “Global iqtisodiy rivojlanish” fani bo‘yicha yozilgan o‘quv qo‘llanmasidan foydalanildi. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmani ilmiy va amaliy jihatdan mukammallik darajasini oshirish maqsadida monografiya, dissertatsiya va avtoreferatlar, statistik materiallardan keng foydalanilgan. Qo‘llanma oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida dars beruvchi o‘qituvchilar, aspirant, magistratura va bakalavriat talabalari, malaka oshirish instituti tinglovchilari uchun mo‘ljallangan. Bundan tashqari, aynan shu fan bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishi mumkin.

**Ma’sul muxarrir
Taqrizchilar:**

**i.f.n. dots. Boboqulov B.M.
i.f.f.d. dots. Norqulova D.Z.
i.f.n. dots. Alibekova S.L.
i.f.d. prof. Arabov N.U.**

O‘quv qo‘llanma SamDU Kengashining 2021 yil 30 noyabrdagi (5-sonli bayonnoma) yig‘ilishi qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-5943-3-3

© A.X.Djumayev., Sh.S.Sharifov., A.N.Nizamov., I.I.Ergashev, 2021

KIRISH		5
I-BOB.JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING UMUMIY ASOSLARI		
1	Global iqtisodiy rivojlanish fanining predmeti va uslubiyati hamda vazifalari.	6
2	Jahon iqtisodiyotini globallashuvi to'g'risidagi kontseptsialarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy yo'nalishlari.	18
3	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining harakatlantiruvchi kuchlari, omillari va rivojlanish bosqichlari.	26
II-BOB.JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING MUAMMOLARI		
4	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining muammolari va ularning guruhlanishi.	32
5	Jahon iqtisodiyotini globaddashuvi jarayonlarida milliy xo'jaliklar o'rtasidagi integratsion jarayonlarning va ilmiy-texnikaviy hamkorlikning rivojlanishi.	41
6	Globallashuv va xalqaro savdoning rivojlanish tendentsiyalari.	51
III-BOB. GLOBAL BOZORLARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI		
7	Global, mintaqaviy va milliy moliyaviy bozorlar	60
8	Globallashuv sharoitida ishchi kuchi bozori va migratsiyasi muammolari.	69
9	Jahon iqtisodiyotini globallashuvi sharoitida transmilliy korporatsiyalar.	79
IV-BOB. GLOBAL IQTISODIY TIZIMNING FUNDAMENTAL ASOSLARI VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.		
10	Global tizimning fundamental asoslari va iqtisodiyotni tartibga solishning global tizimi.	88
11	Xalqaro institutlar faoliyatining umumiqtisodiy vazifalari. Xalqaro tizimning norasmiy institutlari.	100
12	Iqtisodiy hamkorlikning xalqaro me'yorlari va tamoyillari.	108
V-BOB. GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA VA ISHLAB CHIQRISHNING HAMDA XALQARO IQTISODIY TASHKILOTLARNING BAYNALMINALLASHUVI		
13	Globallashuv sharoitida sanoatning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlanishi.	119
14	Xalqaro savdo tashkilotini liberallashuvi va uning huquqiy asoslari.	127
15	Xalqaro moliyaviy tashkilotlar tizimi va uning vazifalari.	138

16	Global iqtisodiy tizimda xalqaro turizmning rivojlanishi.	156
VI-BOB. GLOBAL IQTISODIY MUAMMOLAR		
17	Tabiiy yonilg'i resurslarini eksport qiluvchi mamlakatlarning o'zaro hamkorligi va muammolari.	167
18	Global ekologik muammolar va ekologik tahdid.	190
19	Jahon iqtisodiyotini globallasuvi sharoitida iqtisodiy xavfsizlik va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash muammolari.	199
20	Globallasuvga qarshi harakatlar, norasmiy tashkilotlar va antiglobalizm fenomeni.	209
	Xulosa	216
	Glossariy	218
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	241

Kirish

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda¹. Ushbu muammolar va hayotning o'zi oldimizga qo'ygan murakkab vazifalarni tezroq hal qilish, ularning echimini izlab topish, ko'p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmunini, ularning talablari, ziddiyatli va chalkash xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan strategik dasturlar mazmunini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir.

Hozirgi kunda butun dunyo olimlari uchun hozirgi zamon globalashuv nazariyalarini o'rganish, tahlil qilish va shu asosda strategiyani belgilash masalalari asosiy vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Shu sababli Global iqtisodiy rivojlanish fanining talabalarga o'rgatilishi dolzarb ahamiyatga ega. Ana shundan kelib chiqib ushbu masalalarni samarali hal qilish ko'p jihatdan iqtisodchilarning Global iqtisodiy rivojlanish, g'oyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.

Global iqtisodiy rivojlanish fanini talabalarga o'qitishning asosiy vazifalari talabalarni hozirgi kundagi zamonaviy kontseptsiya va g'oyalarning mazmuni-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va shu kabi bir qator nazariy bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Ushbu fanni o'rganish jarayonida o'qitishning ochiq, muammoli va vizual ma'ruzalar o'tkazish, insert, klaster va aqliy hujum kabi ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalari qo'llaniladi.

Global iqtisodiy rivojlanish fani Iqtisodiyot nazariyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning asosiy bilimlarini shakllantirish negizi hisoblanadi. Mazkur fan o'quv rejasidagi iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, mikroiktisodiyot, iqtisodiy transformatsiya nazariyasi, ijtimoiy soha iqtisodiyoti, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, monetar siyosat, davlatning iqtisodiy siyosati va shu kabi bir qator fanlar bilan yaqin bog'langan bo'lib, o'zining predmetini o'rganishda yuqoridagi fanlar kategoriyalari, muammolari va yutuqlaridan foydalanadi.

¹ Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar.

I-BOB.JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING UMUMIY ASOSLARI.

1-MAVZU: “GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH” FANINING PREDMETI VA USLUBIYATI HAMDA VAZIFALARI.

REJA:

- 1.1. Global iqtisodiy rivojlanish fanning mazmuni hamda jahon iqtisodiyoti tizimidagi globallashuv tendentsiyalari;**
- 1.2. O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlardagi iqtisodiy holatlar;**
- 1.3. Dunyo taraqqiyotidagi ijobiy o'zgarishlar va jahon iqtisodiyotining hozirgi holati;**
- 1.4. Globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalminalashuvining eng yuqori bosqichi sifatida.**
- 1.5.Global iqtisodiy rivojlanish fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti va uslubi.**

1.1. Global iqtisodiy rivojlanish fanning mazmuni hamda jahon iqtisodiyoti tizimidagi globallashuv tendentsiyalari.

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li kontseptsiyasiga amal qilib iqtisodiyotda tub institutsional va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va davlat tasarrufidagi korxonani xususilashtirish asosida mulkchilik munosabatlari qayta ko'rilmogda, yangi bozor mexanizmlari va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. SHu bilan birga respublikaning XXI asrga qadam qo'yishi milliy tizimlarga yuksak talablar qo'yuvchi iqtisodiy integratsiya asosida globallashuvning jahon tendentsiyalari kuchaygan bir sharoitga to'g'ri keldi.

Globallashuv davlatlarning iqtisodiy siyosat sohasidagi ustamonlik bilan harakat qilishlarini cheklaydi, lekin hech ham uni bekor qilmaydi. Hukumatlar davlatdagi investitsiya iqlimini investorlar uchun qiziqish uyg'otishini quyidagi tadbirlar orqali farqini belgilaydilar:

infrastrukturani rivojlantirish;
maorifni, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini qo'llab-quvvatlash;

-ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish bilan birga xizmat ko'rsatish sohasidagi narxlarni pasaytirish;

-erkin raqobat uchun sharoit yaratish yoki normalarni tartibga solishni o'zgartirish;

-mehnat bozorlari ishini takomillashtirish.

Boz ustiga, bir yo'nalishda hukumat bevosita o'z ta'sirini yo'qotmaydi. Qochqinlar va immigrantlar muammosi o'z dolzarbligini yo'qotmasa hali, imigratsion nazorat va aholini ro'yxatdan o'tkazish tizimi shunga olib keladiki,



ommaviy ko'chishlar iqtisodiyotning ko'rsatkichi bo'lib qolmaydi. Fuqarolik va yashash huquqini berish ustidan borilayotgan qattiqqo'l nazorat davlat tomonidan an'anaviy chegaralar va hududlarni saqlab qoluvchi yagona sohaga aylanadi. Globallashuvning tahlili davlatlarni global dunyodagi funktsiyalarni oydinlashtirib beradi, negaki ayrim sohalarda globallashuvning ta'siri uncha katta ahamiyatga ega emas.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotining sovrindori,
Kolumbiya universitetining professori Jozef Stiglits

- Globallashuv - insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi hayoti yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo'nalishlari hozirning o'zida, masalan, ilmning globallashuvi sog'liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib kelmoqda"

Kaliforniya universiteti professori M.Kastels

- Globallashuv jarayonini "yangi kapitalistik iqtisod", unda axborot, bilim va informatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik o'sishning asosiy manbasi.

1.1-rasm. Globallashuv haqida iqtisodchi olimlarning fikrlari²

Har qanday chegaradan yuqori turgan global jihatdan qanchalik uzoqdaligimizni anglasak ham, bir necha yo'nalishlar bo'yicha davlatlarning roli o'zgargan. Davlatlar kapitalni jalb qilish va ushlab qolish va mustaqil iqtisodiy siyosatini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, ularning roli nazoratda emas, balki iqtisodiyotni tartibga solishdan iborat.

Global iqtisodiyot - bu ulkan ishlab chiqarish va savdo, global moliyaviy va planetar miqyosda axborot tarmog'i tomonidan shakllangan ajralmas global tizimga bosqichma-bosqich aylanib borayotgan jahon iqtisodiyoti rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichidir.

Global iqtisodiyotining funktsional bloklari(elementlari):

1. Ishlab chiqarishning globallashuvi va global ishlab chiqarish;
2. Global moliyaviy tizim;
3. Tovar va xizmatlar savdosining global tizimi;
4. Kapital, ishchi kuchi va informatsion(axborot) texnologiyalarining global bozorlari;
5. Intelektual faoliyat natijalari bilan ayirboshlashning global tizimi.

Global iqtisodiyot elementlarini shakllanish jarayoni bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda. Ulardan birinchisi, mamlakatning ichki

² Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

bozorida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sotish, bir tomondan, ishlab chiqarish ko'lamining sezilarli darajada oshishi va boshqa tomondan, mamlakat ichidagi ehtiyojlarning aynan milliy ishlab chiqarish tovarlari va xizmatlariga nisbatan to'yinganligi bilan bog'liq bo'lmoqda. SHu asosda mamlakatda yaratilgan yalpi mahsulotni qiymat va natural-ashyoviy shaklda sotish uchun tashqi bozorlarni doim izlash ehtiyoji vujudga keladi. YAna bir boshqa yo'nalish uning teskarisi bo'lib, u milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va kengayishini ta'minlaydigan barcha mehnat vositalari va predmetlarining etishmasligi sababli jahon bozoriga keng ko'lamli chiqishni taqqozo etadi.

Global iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xalqaro savdo asosidagi rivojlangan xalqaro tovar ayirboshlash sohasi;
- ishlab chiqarish omillari (kapital, ishchi kuchi, texnologiya) xalqaro harakatining rivojlangan sohasi;
- bir nechta mamlakatlarda joylashgan korxonalarning xalqaro ishlab chiqarishning shakllari;
- tovarlar va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan mustaqil xalqaro moliyaviy soha;
- iqtisodiy taraqqiyotning muvozanati va barqarorligini ta'minlash maqsadida xalqaro va davlatlararo, davlatlararo va nodavlat tartibga solishning xalqaro mexanizmlari tizimi;
- Davlatlarning ochiq iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosati.

Dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyoti yanada ochiq bo'lib bormoqda, bu esa ularning jahon iqtisodiy jarayonlarida faol ishtirok etishiga yordam beradi va tovar eksportining jahon YAMdagi ulushini barqaror o'sish tendentsiyasini ta'minlaydi. Masalan, 1913 yildagi 7,9% dan. 1929 yilda 9% gacha, 1960 yilda 10%, 1970 yilda 14,5% gacha, 2000 yilda 19%, 2018 yilda 21,7% tashkil etdi va yuqori daromadli mamlakatlarda - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo (Evropa Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti) - tovarlar va xizmatlar eksportining ulushi (YAIMga nisbatan%) 70% ni tashkil qiladi. Tovarlarni eksportining o'rtacha yillik o'sish sur'ati YAIM o'sishidan qariyb ikki baravar yuqori.

Jahon iqtisodiyotining muhim xususiyati mintaqalashuvdir - boshqa xarakterdagi savdo-iqtisodiy kelishuvlar asosida mintaqaviy integratsiya shakllanishlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi; APEC, evropa Ittifoqi. NAFTA. ASEAN, MERCOSUR va boshqalar, uning asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Jahon savdosining yarmini, ishlov beriladigan maydonning 80 foizini boshqaradigan ko'p millatli tadbirkorlik va TMK faoliyatining diversifikatsiyasi jahon iqtisodiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, ular xalqaro texnologik

almashinuv, nou-xau, patentlar, litsenziyalarning 7 foizini tashkil etadi. Jahon iqtisodiyotidagi TMKlarning tezkor faoliyatlarining asosiy sabablari:

- gorizontal va vertikal integratsiyani rivojlantirish orqali bozorni sezilarli darajada kengaytirish;

- sinergiya qonuni (ishlab chiqarish ko‘lamining oshishi tufayli) va arzon ishchi kuchini jalb qilish natijasida ishlab chiqarish xarajatlarining sezilarli darajada pasayishi:

- hozirgi bosqichda ahamiyati tez sur‘atlarda o‘sib borayotgan texnologik transferlarni nazorat qilish.

Global firmalar bitta tashkiliy, moliyaviy, texnologik rejimda, ishlab chiqarish jarayoni, xalqaro operatsiyalar, menejment, marketing, ilmiy-texnik tadqiqotlar va boshqa strategik faoliyat elementlarini birlashtirgan ko‘p millatli ishlab chiqarishning asosiy sub’ektlariga aylanmoqda.

1.2. O‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlardagi iqtisodiy holatlar.

Jahon bozori yanada birlashib, unga o‘tish iqtisodiga ega bo‘lgan mamlakatlar ham kirib kelmoqda. Oxirgi o‘n besh yil ichida jahon savdo sotig‘i ishlab chiqarishdan ko‘ra ancha tez rivojlandi. Jumladan, xorijiy sarmoyalarning rivojlanayotgan mamlakatlarga bo‘lgan oqimi o‘n yil ichida olti marotaba ortgan. Integratsiyaga yordam ko‘rsatish hamda yuzaga kelgan muammolarni hal etish maqsadida umumiy qoidalar ishlab chiqilgan va ularga aloqador bo‘lgan institutlar tashkil etilgan. Ayniqsa, bu borada Jahon savdo tashkiloti alohida o‘ringa ega.

Rivojlangan mamlakatlardan ko‘pchiligi keyingi vaqtda ochiq iqtisodiyot yo‘liga o‘tganligi sababli, jahon xo‘jalik tizimida faol rol o‘ynamoqdalar. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning eksport va import hissasi yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotning 49% ini tashkil etadi. O‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar ko‘p yillik yakkalanishdan so‘ng jahon bozoriga chiqib, birlashishdan manfaat ko‘rmoqdalar, islohot yo‘nalishida turgan boshqa mamlakatlardan ko‘ra ko‘proq yutuqqa ega bo‘lmoqdalar. Umumjahon savdosining foydasi ichki bozor murosasizligi bilan bog‘liq iqtisodiy ustunlikdan ham ancha ko‘proqdir.

Mamlakatlararo kapital, tovar va mehnat resurslarining harakati yagona markaziy rahbariyat tomonidan emas, balki ehtiyoj va takliflar asosida boshqarilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashuviga, savdo ko‘lamini va milliy daromadni tobora o‘shirishga olib keladi.

Ochiq savdo siyosatini va chet el sarmoyalarning jalb etilishini muntazam ravishda muhokama qilish g‘oyatda muhimdir. Chunki, tashqi dunyo bilan o‘zaro hamkorlikni o‘rnatish, ya‘ni tijorat oqimlari va ularning jahon savdosiga ta‘siri, tezkorlik bilan JSTga kirish va uning haqqoniy a‘zosi bo‘lish, mintaqaviy savdo bitimlarini tuzish, yangi sanoatlashgan iqtisodiyot yo‘liga o‘tgan mamlakatlardan kapitalning oqib kelishi va ularning boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga ta‘siri sezilarli darajada oshgan.



1.3-rasm. Global xo'jalik makrotizimi tuzilmasi³

Er yuzining chorak qismini, dunyo aholisining uchdan bir qismini tashkil etuvchi mamlakatlarning o'zaro muvaffaqiyatli uyushmasi butun jahondagi iqtisodiy tizimga o'zining samarali ta'sirini o'tkazmoqda. SHu bilan bir qatorda, avvalgi iqtisodiy yo'nalishda bo'lgan mamlakatlarning umumjahon bozoriga o'tishi natijasida ayrim mamlakatning manfaatlari cheklanib qolmasmikan, degan xavotir ko'pchilikda yo'q emas, bu xavotirlanishda jon bor.


1.3. Dunyo taraqqiyotidagi ijobiy o'zgarishlar va jahon iqtisodiyotining hozirgi holati.

Ayni paytda jahon matbuotida yirik xalqaro iqtisodchilar, moliya mutaxassislarining dunyo iqtisodiyotidagi o'zgarishlar tahlili bilan bog'liq qizg'in bahs-munozaralari boshlanib ketdi. E'tiborga molik tomoni shundaki, o'tgan yil oxiri va shu yil boshida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi turg'unlik va pasayishga qaramasdan, xalqaro iqtisodchilar kelgusi yilda yuz berishi kutilayotgan iqtisodiy inqiroz xavfi yo'qolgan deb, hisoblamogdalar.

—Financial Times , —New York Times , —Wall Street Journal nashrlarida bu mavzuda bir qator tahliliy maqolalar e'lon qilindi. Ularda aytilishicha, dunyo iqtisodiyotining bugungi ko'rsatkichlariga tayangan holda, yaqin kelajakda ijobiy moliyaviy o'zgarishlar kutish mumkin. Bunga jiddiy asoslar bor.

Dunyo iqtisodiyotida eng katta ulushga ega bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotidagi o'sishning to'xtashi u qadar katta xavf tug'dirmaydi. So'nggi o'n yil mobaynida yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishning yiliga 4,5 foizdan to'xtovsiz o'sishidan so'ng bunday pasayish muqarrar edi. SHu bois, Amerika fond birjalaridagi asosiy indeks bo'lmish Nasdaqning bir yil ichida 50 foizi pasayishi dunyo ishbilarmon doiralarini jiddiy tashvishlantirmadi.

³ Xajiyev B, Mamaraximov B. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan o'quv uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2017.



1.4-rasm. Globallashuv haqida iqtisodchi olimlarning fikrlari⁴

Hatto global iqtisodiyotining yirik pasayishi yuz bersa ham, uni bartaraf etish uchun rivojlangan mamlakatlar ilgari inqirozlarga qaraganda ko'proq zahiralarga ega. Yaponiyadan boshqa barcha rivojlangan davlatlarda byudjet kamomadi qattiq nazoratga olingan. Ko'plab mamlakatlarning liberal va demokratik qoidalarga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'ta boshlaganiga asoslanib, ishonch bilan aytilish mumkinki, iqtisodiy bo'ron yuz bersada, 1970 yillardagi xatolar qaytarilmaydi. Sotsialistik va kapitalistik lagerlar o'rtasidagi siyosiy ziddiyatning yo'qolgani ham dunyo iqtisodiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jahon iqtisodiyotining hozirgi holati. Jahon xo'jaligining turli mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishi bo'yicha bir xil emasligi xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy munoobatlarida sezilarli aks etadi.

XXI asr busag'asida jahon xo'jaligi bozor iqtisodiyoti tamoyillari, xalqaro mehnat taqsimotining ob'ektiv qonuniyatlari, ishlab chiqarish va kapitalning internatsionallashuviga asoslanadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari savdo, ishlab chiqarish va kredit-moliya sohasining birlashganlik darajasi xalqaro xo'jalik kompleksi shakllanayotganligining belgisi bo'lib xizmat qiladi. O'z mohiyatiga ko'ra, jahon xo'jaligi faqat bir xil emas, balki tobora baynalminal tus olmoqda.

Rossiyalik iqtisodchi olim I.G.Vladimirova

- Globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalmilallashuvining eng yuqori bosqichidir.

1.2-rasm. Globallashuv haqida iqtisodchi olimlarning fikrlari⁵

Zamonaviy xalqaro iqtisodiyot va unga mos keladigan xalqaro iqtisodiy

⁴ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

⁵ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

munosabatlar tizimini quyidagilar tavsiflaydi: -xalqaro mehnat taqsimoti ishlab chiqarishining xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi; -ishlab chiqarish omillari: kapital, ishchi kuchi, texnologiya, axborotning xalqaro harakati jadalligining yuqori darajadaliligi; -xalqaro tovar almashuvi, kapital oqimlari, mehnat migratsiyasi, axborot sohalarining globalligi; ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvi. Turli mamlakatlarda joylashgan korxonalardagi ishlab chiqarish shakllarining, avvalambor, yirik xalqaro korporatsiyalar doirasida ko‘payishi; -ochiq turdagi milliy iqtisodiyotlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, tashqi iqtisodiy aloqalarning umumiy liberallashtirish; -bevosita tovarlar harakati va ishlab chiqarish omillari bilan bog‘liq bo‘lmagan mustaqil xalqaro moliya sohasining shakllanishi; -axborotlashtirish, axborot texnologiyalari xalqaro iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biriga aylanmoqda; xalqaro miqyosda joriy iqtisodiy va valyuta-moliyaviy jarayonlarni milliy darajada tartibga solishdan yuqori turuvchi, davlatlararo tartibga solishga intilishning kuchayib borishi.


Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiyotida muhim rol o‘ynovchi bir nechta xalqaro institutlarni ajratib ko‘rsatish zarur.

Bu avvalambor davlatlararo tashkilotlar, muassasalar va konferentsiyalardir, chunki xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish tizimida davlat markaziy o‘rin tutadi. Aynan davlat xalqaro huquqning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xalqaro iqtisodiy huquqning asosiy sub’ektlaridan biri hisoblanadi.

1.4. Globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalminallashuvining eng yuqori bosqichi sifatida.

Globallashuv zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi eng asosiy jarayonlarning biri bo‘lib, xo‘jalik hayoti baynalminallashuvining yuqori bosqichi hisoblanadi.


Xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllari rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro aloqasi va bir biriga bog‘liqligi tobora kuchaymoqda. Hozirgi davrda tashqi omillarni hisobga olmasdan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash mumkin emas.



3.1-rasm. Globallashuvning asosiy bosqichlari

Ma'lumki, mamlakatlar iqtisodiyotlarining bir-biriga bog‘liqligi kuchayishi,

tashqi iqtisodiy aloqalarning milliy iqtisodiyotlarga ta'sirining ortishi, katta-kichik davlatlarning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki faollashuvi xo'jalik faoliyatining baynalminallashuvidir. Iqtisodiyot baynalminallashuvi bir qator bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, dastlabkisi xalqaro iqtisodiy hamkorlik hisoblanadi va bunda tashqi savdoning roli g'oyat muhimdir. Davlatlar o'rtasidagi xalqaro xo'jalik aloqalarining me'yoriy-huquqiy ta'minlanishi, qayta ishlab chiqarish jarayonlarining milliy chegaralardan tashqariga chiqishi xalqaro iqtisodiy hamkorlikdir.



3.2-rasm. Globallashuvning asosiy bosqichlari

Baynalminallashuvning keyingi bosqichi —xalqaro iqtisodiy integratsiya atamasi bilan bog'liq. Bu davr xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kapital harakati jo'shqinligining kuchayishi, ilmiy-texnik rivojlanish umumbashariy xarakterga ega bo'lganligi, milliy iqtisodiyotning ochiqligi va erkin savdo darajasi ortishi bilan izohlanadi.

Globallashuvning asosiy jihatlar

	Taxminiy	Proqnozlar	2017 yil oktyabr oyidan farq WEO proqnozlar 1 /	Taxminiy	Proqnozlar
	20162017	2018 2019	2018 2019	2017	2018 2019
Jahon chiqishi	3.2 3.7	3.9 3.9	0.2 0.2	3.9	3.9 3.8
Rivojlangan davlatlar	1.7 2.3	2.3 2.2	0.3 0.4	2.4	2.3 2.0
Rivojlanayotgan va rivojlanayotgan Osiyo	6.4 6.5	6.5 6.6	0.0 0.1	6.8	6.5 6.5

Integratsiya (integratsion)so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, ma'lum bir qismlarning umumlashishi, yagona bir shaklga kelishi va birlashishini anglatadi. Mintaqalar doirasida ayrim mamlakatlar iqtisodiyotlarining o'zaro yaqinlashib, bir-birini to'ldirishi hamda baynalminallashuv jarayonida yagona bir ishlab chiqarish va boshqarish tizimida faoliyat yuritishi mintaqaviy integratsiya deb ataladi.

(Yaqin yillarda jahon miqyosida) Global tiklanish kuchaytirildi

- 2016 yil o'rtalaridan boshlab davom etayotgan sikllar o'sishi davom etmoqda. Dunyo yalpi ichki mahsulotining to'rt dan uch qismini hisobga olgan holda 120 ta iqtisodiyot 2017 yilda o'sish sur'atlarini 2017 yilda boshlagan, bu esa 2010 yildan buyon global miqyosda kengayib borayotgan o'sishdir.

3.3-rasm. Globallashuvning asosiy jihatlari¹⁴

Xalqaro iqtisodiy integratsiya mehnat taqsimoti asosida ma'lum bir davlatlar xo'jaliklarining birlashishi hamda o'zaro aloqalarining samarali rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarga turli shakl va darajada ta'sir o'tkazishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy integratsiya xo'jalik munosabatlari baynalmillallashuvining yangi va shu bilan birga murakkab bosqichi bo'lib, jahon iqtisodiyotining yuqori, samarali va kelajakka yo'naltirilgan rivojlanish nuqtasi hisoblanadi. Bunda faqatgina milliy xo'jaliklar birlashibgina qolmasdan, balki iqtisodiy muammolarning echimi hamkorlikda hal etilishi ta'minlanadi. Shu o'rinda aytish joizki, iqtisodiy integratsiya mamlakatlarni birgalikda faoliyat yuritishga etaklovchi jarayon sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

turli mamlakatlarning milliy xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlik hamda ularning to'liq yoki qisman umumiylashuvi;

mamlakatlar o'rtasida tovar, xizmat, kapital va ishchi kuchi harakatidagi to'siqlarning qisman yoki to'liq bartaraf etilishi;

yagona bozor yaratish maqsadida ma'lum bir davlatlar bozorlarining bosqichma-bosqich birlashuvi;

turli mamlakatlarga taalluqli bo'lgan xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi farqlarning birin-ketin bartaraf etilishi;

har bir hamkor davlatda iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi chet el sub'ektlarining kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlari ikki tomonlama, bir nechta mamlakatlar va hududlararo bo'lishi mumkin. Hozirgi zamonda integratsion birlashmalarning asosiy masalalaridan biri ularning hududiy darajada rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Bu masalada odatda davlatlararo boshqaruv tizimi joriy etilib, yakka umumiy mintaqaviy xo'jalik majmui tashkil etiladi. Hozirgi bosqichda xalqaro aloqalar tizimining barcha jabhalarida izchil o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Uning aksariyati globallashuv jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Globallashuv baynalmillallashuvning eng yuqori bosqichi bo'lib, shu nuqtai nazardan bu faqatgina inson va tovarlar harakatining kuchayishigina emas, balki ko'p jihatdan bilimlar va ma'lumotlar almashuviga asoslanadi.

Globallashuvga atroflicha ta'rif berilganda, aholining erkin migratsiyasi tovar va xizmatlar, texnologiya va ma'lumotlarning milliy chegaralardan to'siqsiz erkin o'tishi, xorijiy investitsiyalar hajmining kengayishi, hududiy va ixtisoslashgan bozorlarning o'zaro integratsiyalashuvi, ekologik, demografik muammolarning umumbashariy masalaga aylanganligi tushuniladi.



1.5-rasm. Globallashuv haqida iqtisodchi olimlarning fikrlari⁶

1.5.Global iqtisodiy rivojlanish fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti va uslubiyati.

YUqorida ko'rib chiqilgan globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib va bu borada berilgan turlicha ta'riflarning umumiy jihatlarini e'tiborga olib, ayni davrda malga oshayotgan globallashuv jarayonlarini o'rganadigan global iqtisodiy rivojlanish fanini predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin. *Global iqtisodiy rivojlanish fanining predmeti bo'lib, jahon iqtisodiyoti tarkibiga kiruvchi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarida tovarlar va xizmatlar oqimi, kapital va mehnat resurslari migratsiyasining baynalminallashuvi hamda ekologiya va demografiya muammolari bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.*

Demak, global iqtisodiy rivojlanish fanining tadqiqot ob'ekti bo'lib, jahon iqtisodiyoti tizimidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarida tovarlar va xizmatlar oqimi, kapital va mehnat resurslari migratsiyasining baynalminallashuvi hamda ekologiya va demografiya muammolari bilan bog'liq global iqtisodiy jarayonlar hisoblanadi.

Bunday iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlaridan kelib chiqib globallashuv jarayonlarini tartibga solib boruvchi tartib-qoidalarning ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi natijasida uning fundamental huquqiy asoslari yaratiladi.

Global iqtisodiy rivojlanish fanining uslubiyati, o'zining tadqiqot ob'ekti va premetidan kelib chiqqan holda, fundamental iqtisodiy fanlar tizimidagi "iqtisodiy nazariya" va "jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar"

⁶ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

fanlarida qo'llanadigan uslublar bilan bir xil bo'lib, faqat ekologiya va demografiya muammolari bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan pozitiv(kuzatish) va matematik tahlil uslublariga asoslanadi.

Xulosa. Jahon iqtisodiyoti tarkibiga kiruvchi barcha mamlakatlar, rivojlangan va rivojlanayotgan hamda "uchinchi" dunyo mamlakatlari globallashuv jarayonlari girdobiga tortilmoqda. Ma'lumki, globallashuv jarayonlari jahon iqtisodiyoti tizimida XX asrning 70-80 yillari yaqqol nomoyon bo'la boshladi. Bularga, ishlab chiqarishning kontsentratsiyalashuvi va integratsiyalashuvi natijasida, uning globallashuvi va global ishlab chiqarishning vujudga kelishi, natijada kapital va mehnat resurslariga hamda moliyaviy vositalarga bo'lgan talabning ortib borishi, kapital va mehnat resurslarini migratsiyasining kuchayishiga, toarlar va xizmatlar savdosining global tizimini hamda global moliyaviy tizimni shakllanishiga olib keldi. Bu jarayonlarning natijasi o'laroq kapital, ishchi kuchi va informatsion (axborot) texnologiyalarning global bozorlari shakllandi. Umuman, zamonaviy globallashuv jarayonlarining asosini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot(ITT) tashkil etadi. ITTning XX asrning ikkinchi yarmida yangi sifat bosqichiga o'tishi(ilmiy-texnika inqilobiga), butunjahon miqiyosida fanning beshinchi ishlab chiqarish omiliga aylantirdi va natijada ilmiy-texnik ishlanmalar bozorlari vujudga kelib, intellektual faoliyat natijalari bilan ayirboshlashning global tizimi shakllandi. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi natijasida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarish va kapitalning baynallminallashuvi transmilliy korporatsiyalarni yanada ulkanlashuviga hamda yirik xalqaro korportsiyalar doirasini kengayishiga, natijada bu jarayonlar tashqi iqtisodiy aloqalarning umumiy liberallashuviga hamda ochiq turdagi milliy iqtisodiyotlarni paydo bo'lishiga va rivojlanishiga olib keldi.

Bugungi kunda axborotlashtirish, axborot texnologiyalari xalqaro iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biriga aylanmoqda; xalqaro miqyosda joriy iqtisodiy va valyuta-moliyaviy jarayonlarni milliy darajada tartibga solishdan yuqori turuvchi, davlatlararo tartibga solishga intilishning kuchayib borayotganligi ham globallashuv jarayonlarini chuqurlashtirmoqda. Natjada, milliy iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni himoya qilish maqsadida antiglobalistlar harakati ham vujudga keldi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

- 1.Mamlakatimiz iqtisodiyotiga globallashuv jarayonlari ta'sirini qanday izolaysiz?
- 2.Globallashuv to'g'risidagi dastlabki g'oyalar qachon va qaerda paydo bo'la boshladi?
- 3.Hozirgi zamon globallashuv tendentsiyasining asosiy belgilari nimalardan iborat?
- 4.Davlatni, iqtisodiyotni tartibga solish roliga globallashuv jarayonlari qanday ta'sir qiladi?
5. Rivojlangan va aksariat rivojdanayotgan mamlakatlarning "ochiq iqtisodiyot" tamoyillariga o'tishi sabablarini ko'rsatib bering?

6. Sizning fikringizcha fanning asosiy manbalari nimalardan iborat?
7. Jahon xo‘jaligi mamlakatlari o‘rtasida qanday sohalarning birlashuvi xalqaro xo‘jalik komplekslarini(majmualarini) vujudga keltiradi?
8. Global iqtisodiy rivojlanish fanining tadqiqot ob’ektiga qanday jarayonlar kiradi?
9. Sizning fikringizcha «Global iqtisodiy rivojlanish» fanining predmeti deb nimaga aytiladi?
10. Bu fanni o‘rganishning asosiy vazifasi va ahamiyatini siz qanday izohlaysiz?
11. Global jahon xo‘jaligi tizimidagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni qanday tavsiflash mumkin?
12. Iqtisodiy integratsiya va iqtisodiyotni baynalminallashuv jarayonlari deb nimaga aytiladi?
13. Global iqtisodiyotning funktsional bloklari(elementlari)ga nimalar kiradi?
14. Global iqtisodiyotni o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib nimalar hisoblanadi?

Bibliografik ma’lumotnoma:

1. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. “Global iqtisodiyot” (O‘quv qo‘llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –bet.
2. Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T. «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.
3. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
4. Global’nye tendentsii 2030: Alternativnye miry [Elektronnyy resurs]. Natsional’nyy Sovet po razvedke. — Dekabr’ 2012. — Rejim dostupa:<http://www.nkibrics.ru/system/asset/publications/data/53c7/b3a1/676c/7631/400a/0000/original/Global-Trends-2030-RUS.pdf?1408971903>.
5. Zaytseva I.A. Global’nye riski, kak faktory, vliyayushchie na sovremennuyu sistemu mejdunarodnykh otnosheniy // Problemy postsovetskogo prostranstva. — 2017. — T. 4. — № 4. — С. 356–363.
6. K seredine veka 68% naseleniya planety budet zhit’ v gorodax [Elektronnyy resurs]. Organizatsiya Ob’edinennykh Natsiy, Departament po ekonomicheskim i sotsial’nyim voprosam. — Nyu-York. — May 2018y.

2-MAVZU: JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI TO‘G‘RISIDAGI KONTSEPTSIYALARINING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA YO‘NALISHLARI

REJA:

- 2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy tendentsiyalari to‘g‘risidagi kontsepsiyalar;**
- 2.2. Globallashuvning ob‘ektiv asoslari to‘g‘risidagi kontsepsiyalar;**
- 2.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlarining natijalari.**

2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy tendentsiyalari to‘g‘risidagi kontsepsiyalar.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida. globallashuv jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendentsiyasiga aylandi. Biroq, faol iqtisodiy globallashuv, uning istiqbollari va oqibatlari to‘g‘risidagi qarama-qarshi tushunchalarni va fikrlarni keltirib chiqardi, bu esa jahon iqtisodiy tizimida sodir bo‘layotgan jarayonlarning mohiyatini anglashni talab qiladi.

"Globallashuv" tushunchasi keng qo‘llanilishiga qaramay, uning mohiyatini aniqlash bir qator qarama-qarshiliklar bilan birga keladi: talqin va ta‘riflarning ko‘pligi, ushbu hodisaning sabablari va tarixiy asoslarining noaniqligi, shuningdek globallashuv natijalarining xiralashgan talqini va uning rivojlanish istiqbollarinin noaniqligidan kelib chiqadi. "Globallashuv" tushunchasi ta‘riflarining ko‘pligi insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab olganligi bilan bog‘liq. Biroq, taklif qilingan va ishlatilgan ta‘riflar har doim ham mavjud bo‘lgan voqelikni aks ettirmaydi, jarayonlarni barcha xilma-xilligi bilan qamrab olmaydi va sifat jihatidan yangi hodisalarga e‘tibor bermaydi.

Aksariyat hollarda globallashuv deganda “iqtisodiy ochiqlikning ko‘payishi, savdo va xalqaro kapitalning erkinlashuvi” tushuniladi. G. Kolodko shunday yozadi: "Globallashuv - bu ilgari ma‘lum darajada yakka holda ishlagan tovarlar, kapital va ishchi kuchi bozorlarini yagona jahon bozoriga qo‘shilishi va erkinlashtirilishining tarixiy jarayonidir". Boshqa mualliflar globallashuvni butun XX-asr davomida sodir bo‘lgan iqtisodiy baynalmilallashuvning rivojlanishi bilan bog‘lashadi, buning natijasida nafaqat ayrim mamlakatlar, balki mintaqalar iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liqligi oshadi. M. Intrilligatorning fikriga ko‘ra, globallashuv "ko‘proq ochiqlik, integratsiya va chegaralarning yo‘qligi tomon aniq ravshan tendentsiya bilan xalqaro savdo-sotiq va xalqaro iqtisodiyotdagi barcha turdagi almashinuvlarni sezilarli darajada kengayishini" anglatadi. Globallashuv talqinlarining noaniqligi va ko‘pligini sababi ushbu jarayonning boshlanishini aniqlashdan kelib chiqadi.

"Globallashuv" tushunchasini o‘zi birinchi marta 1980-yillarning boshlarida T. Levitt tomonidan kiritilgan bo‘lib, u orqali TMKlar tomonidan ishlab chiqarilgan alohida mahsulotlar bozorlarining birlashishi hodisasini tushungan. V.I.Pantin bu jarayon qadimgi davrlarda boshlangan deb hisoblaydi, ammo globallashuv

haqidagi g'oyalar faqat XX-asrda keng tarqaldi. E.A. Azroyants globallashuv qo'shnilarning o'zaro ta'siridan boshlangan deb taxmin qilmoqda. Jahon banki mutaxassislari globallashuvning boshlanishini 1970 yilda, aholining migratsiya oqimlari, kapital oqimining ko'payishi va xalqaro savdoning o'sishi bilan bog'lashadi. 1980 yillarga kelib, ular rivojlanayotgan mamlakatlarning global bozorlarga chiqishi, xalqaro migratsiyasining o'sishi va kapital harakati bilan bog'liq bo'lgan globallashuvning uchinchi to'lqinining boshlanishini nazarda tutadi. M.M.Kovalevning fikricha, dunyo mamlakatlari tovar, xizmat va kapitalga o'zlarining milliy bozorlarini tobora yaqinroq integratsiyalashuvi (birlashishi) natijasida o'zaro bog'liqlikning ortib borishi jarayonini vujudga keltiradi va uning boshlanishi o'tgan asrning so'nggi o'n yilliklariga to'g'ri keladi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining zamonaviy rivojlanish bosqichi sifatida globallashuv 1990 yillarda shakllangan, buning uchun yuqorida aytib o'tilgan bir qator tarixiy zarurlarga ega bo'lganligi haqida bahslashish mumkin. Jahon sotsialistik tizimi va SSSRning parchalanishi globallashuvning insoniyat taraqqiyotini sifat jihatidan yangi bosqichi sifatida shakllanishiga hissa qo'shdi, natijada geosiyosiy ta'sir markazi yanada torayib bordi. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti - bu yagona iqtisodiy qonunlarga muvofiq, yagona mexanizm vazifasini o'taydigan yagona global iqtisodiy tizimdir. J. Sorosning fikriga ko'ra, "kapitalistik tuzumni ilgari mavjud bo'lgan imperiyalarga qaraganda global bo'lgan imperiya bilan taqqoslash mumkin".

Globallashuv mohiyatining ta'rifi uning ikkilangan tabiati bilan to'qnashadi. Bir tomondan, globallashuv jahon iqtisodiyotining baynalmilallashuvida ifodalangan ob'ektiv asosga ega. Boshqa tomondan, bu globallashuv sub'ektlarining maqsadli yo'nalishida namoyon bo'ladigan sub'ektiv xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

SHunday qilib, jahon xo'jaligini globallashuvi – XX asrning 1980 yillar oxiri 1990 yillar boshida keng ilmiy aylanmaga kiritilgan nisbatan yangi tushunchadir. Bu davrga qadar —globallashuv atamasi zamonaviy iqtisodiyotda yirik xalqaro kompaniyalar mahsulotlarining alohida savdo bozorlari va muvofiq tarzda yagona milliy yoki xorijiy bozorni egallashga emas, balki hamma bozorlarda, ya'ni global miqyosda savdo qilishga yo'naltirilgan korporativ strategiyalarni birlashtirish kabi muayyan, o'ziga xos hodisani belgilash uchun foydalanilgan.

Globallashuvga nisbatan turlicha yondoshuvlar, turli ta'riflar mazkur tushunchaning mazmuni va hatto uning muvaqqat chegaralari ifodalanishi saqlanib kelmoqda. Jumladan, globallashuv jarayonlari antik davrdan buyon yoki boshqa variantlarda, dastlabki jahon bozorlari yoki yaxlit jahon xo'jaligi yuzaga kelgan vaqtlardan e'tiboran rivojlanib kelayotgani to'g'risidagi tasdiqni ham uchratish mumkin. Globallashuv butun dunyo - tarixiy jarayon sifatida XVIII asr boshlaridan e'tiboran yuzaga kelgan deb hisoblaydi.

Jahon iqtisodiyotini globallashuvi – xo'jalik hayotini zamonaviy butunjahon baynalmilallashuvi bosqichidir, uning doirasida jahon xo'jaligi sifat jihatdan yangi, rivojlanishning avval notanish bo'lgan tavsiflari va xususiyatlariga ega

bo'ladi. SHunday tavsiflar sifatida jahon xo'jaligining muvofiq tarzda ortib borayotgan yaxlitligi hamda deyarli jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiyotining keskin kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqligi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga dastlab yopiq bo'lgan mamlakatlarni jalb etilishi, global tovar va ayniqsa moliya bozorlarini shakllanishi, jahon iqtisodiy tizimiga ba'zan izchil bo'lmagan yo'nalishlarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi.

Jahon xo'jaligi katta yoki kichik yaxlit iqtisodiy tizimdan nafaqat xalqaro mehnat taqsimoti, balki ulkan xalqaro, ko'pincha butunjahon, ishlab chiqaruvchi savdo tuzilmalari, global moliyaviy tizim hamda planetar miqiyosdagi axborot tarmog'i bilan biriktirilgan yagona butunjahon iqtisodiy tashkilotga aylana boshladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashtirilishi, investitsiyalarning tarmoqli tuzilmasi, ishlab chiqarish va xalqaro savdo xususiyatining o'zgarib borishi, xo'jalik hayoti sub'ektlari tomonidan global kon'yunktura hisobga olingan holda belgilanadi, natijada iqtisodiy o'sishlar va pasayishlar butunjahon miqyosini qamrab oladi.

Xalqaro valyuta fondi taftishchilari jahon xo'jaligining globallashuvini —tovarlar, xizmatlar va jahon kapital oqimi bo'yicha xalqaro bitimlarning turi va hajmining ortishi, shuningdek, texnologiyalarning nisbatan jadal va keng diffuziyasi natijasida jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiyotini oshib boruvchi o'zaro bog'liqligi sifatida ta'riflaydilar.



2.1-rasm. Globallashuvning asosiy jihatlari⁷

⁷ Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2010.

2.2. Globallashuvning ob'ektiv asoslari to'g'risidagi kontseptsiyalar.

Globallashuvning ob'ektiv asoslari - bu jahon iqtisodiyotining tobora kuchayib borayotgan baynalminallashuvi, ya'ni hozirgi kungacha davom etayotgan ob'ektiv ravishda o'sib borayotgan iqtisodiy o'zaro bog'liqligidir. Bunga XX-asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnikaviy inqilob yordam berdi. M. Delyaginning fikricha – «globallashuv - bu yangi, asosan, kompyuter texnologiyalariga asoslangan yagona global moliyaviy-iqtisodiy makonni shakllanishi va keyinchalik rivojlanish jarayonidir». E. Kochetov jahon iqtisodiyotining yangi sifatini ijtimoiy mehnat taqsimotining yangi xarakteri bilan bog'laydi. Keng ko'lamli ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish va investitsiya kooperatsiyasining jadal rivojlanishi, uning so'zlariga ko'ra, global miqyosda korporatsiyalararo mehnat taqsimotining shakllanishiga olib keldi - tadbirkorlik sub'ektlari ixtisoslashdi. Umuman olganda ob'ektiv global tendentsiyalarni tahlil qilishda uchta yo'nalishni ajratish mumkin: ***tovar va xizmatlar bozori, moliya bozori va ishlab chiqarish omillari bozori.***

1. *Tovar va xizmatlar bozori.* Mehnat unumdorligining o'sishi va yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq Tovarlar holda ijtimoiy ishlab chiqarishning yangi tarkibi shakllandi. Xizmat ko'rsatish sohasi hukmronlik qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu tarmoq YAIMning 65-75 foizini tashkil etadi. An'anaviy mehnat va energiya talab qiladigan ishlab chiqarish uchinchi dunyo mamlakatlariga o'tkazilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishining eng tez o'sib borayotgani va eng muhim omili bu texnologiya, ayniqsa, bilimlarni talab qiladigan fan sig'imkorligi yuqori ishlanma natijalarining qo'llanishidir. Hozirgi vaqtda yuqori texnologiyalar bozori 3,5-3,7 trillion dollarga baholanmoqda. AQSHda taxminlarga ko'ra bu ko'rsatgich 10-15 yil ichida 9,5-9,9 trillion dollarga o'sadi. Tovarlar va xizmatlarning tashqi savdosi sohasi globallashuv tendentsiyalarini yaqqol o'zida aks ettiradi. Global savdo YAIMga nisbatan 70-yillarning boshlarida taxminan 20% dan oshdi. 2008 yilda bu ko'rsatgich 65% gacha ko'tarildi. Bunga transport, aloqa va transaksiya xarajatlarining sezilarli pasayishi va savdo to'siqlarining kamayishi yordam berdi.

2. *Moliyaviy bozor.* Moliyaviy xizmatlar bozorining globallashuvi moliyaviy integratsiyani kuchayishiga, moliya institutlarining birlashishi va qo'shilishlari sonining ko'payishiga va milliy to'siqlarning pasayishiga olib keldi. Masalan, kunlik valyuta aylanmasi AQSHda 2007 yilda 15 milliard dollardan oshdi. AQSHda 1973 yili yillik valyuta aylanmasi 3 trln.dollarni tashkil qilgan edi. Xalqaro moliyaviy integratsiya moliyaviy texnologiyalarda chuqur sifat o'zgarishlarini keltirib chiqardi, bunga telekommunikatsiya sohasiga eng yangi texnologiyalarning kiritilishi yordam berdi. Jahon moliyaviy inqirozi arafasida, XVF ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan iqtisodiyot bozorlari va rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari milliy moliya bozorlari hajmlarining 30-50 foizigacha bo'lgan qismi moliyaviy globallashuv jarayonlariga to'liq qo'shildi.

3. Ishlab chiqarish omillari bozorlari. Hozirgi vaqtda kapital zamonaviy milliy iqtisodiyotni o'zgartirish shartlariga faol ta'sir ko'rsatib, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga yo'naltirilgan: yagona makonni shakllantirish, rivojlanish tamoyillari, me'yorlari, shartlarini birlashtirish, iqtisodiyotning real sektorini rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tkazish, rivojlangan mamlakatlarning sarmoyaviy jozibadorligini oshirish. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakatlararo kapital oqimida tobora ortib borayotgan rol o'ynamoqda. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, ularning global hajmi 2009 yilda pasayib, 1,2 trln.dollarni tashkil qilgan edi. 2008 yilda esa bu ko'rsatgich 1,7 trillion dollarni tashkil qilgan edi.

Mehnat bozori ham xalqaro miqyosga aylanib bormoqda. Globallashuv jarayonlarida xalqaro migratsion xizmatlarning takomillashuvi va liberiallashuvi qulayroq shartlarda ish topish yoki ishga joylashish uchun butun dunyo bo'ylab erkin yurish imkonini beradi. Xalqaro migratsiyaning zamonaviy tendentsiyalari rivojlanayotgan mamlakatlarga noqonuniy va majburiy migratsiyaning o'sishi bilan bog'liq (buning sababi dunyoda qurolli to'qnashuvlarning ko'payishi, millatlararo munosabatlarning keskinlashuvidir), shuningdek, yuqori malakali mutaxassislarining rivojlangan mamlakatlarga ko'chishi hozirgi paytda odatiy tus olmoqda.

Globallashuvning sub'ektiv xususiyati dunyo mamlakatlarini birlashtirish bo'yicha ataylab maqsadga muvofiq faoliyatida namoyon bo'ladi. Aynan globallashuvning sub'ektivligi jahon integratsiyasi jarayonlarining tezligini belgilaydi. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy tuzilishi mamlakatlar va mintaqalarning o'zaro bog'liqligini o'sib borishi bilan tavsiflanadi, ammo bu munosabatlar assimetrikdir, ya'ni ziddiyatli. Globallashuv jarayonlaridan keng-ko'lamli foydalanuvchilar - bu "katta ettilik" deb nomlangan birlashgan sanoat va harbiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatlarning kichik guruhidir. Hozirgi kunda dunyoda jahon iqtisodiyotini boshqaradigan va jahon iqtisodiyotida "o'yin qoidalarini" o'rnatadigan muassasalar va tashkilotlarning qat'iy ierarxiyasi rivojlandi. "Periferiya" mamlakatlari ("uchunchi dunyo" mamlakatlari) globallashuv ob'ekti bo'lib, unga nisbatan global hukmronlik siyosati amalga oshirilmoqda. Albatta, milliy davlatlarning rivojlanishini global taraqqiyotdan tashqarida ko'rib chiqish mumkin emas: tashqi, global omillar va holatlar mamlakat suverenitetini cheklash yoki rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ichki rivojlanish imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Globallashuv g'oyasi ilmiy dunyo elitasi va global institutlarni qamrab oldi. Biroq, ushbu kontseptsianing ko'p qirrali va tez-tez ishlatilishi tufayli u o'zida juda ko'p xayoliy yoki kerakli g'oyalarni to'plagan. Globallashuv ko'pincha muqarrar va raqobatsiz jarayon sifatida taqdim etiladi, unga barcha mamlakatlar va mintaqalar bo'ysunishi kerak degan fikr yuritiladi. G. Sorosning fikriga ko'ra, "dunyo kapitalizmi tizimi hech qachon muvozanatni izlamaydi, balki kengayish bilan ovora. Hali ham uning orbitasida qatnashmagan bozorlar yoki manbalar mavjud bo'lganda tinch turolmaydi».

A.B.Veber globallashuv xususiyatini ikkitomonlamaligini ta’kidlaydi: «Globallashuv oʻziga xos kentavrga oʻxshaydi, birinchidan, uning «tanasi» informatika va telekommunikatsiya sohasidagi texnologik inqilob, transmilliy kapital oʻtkazmalari va xalqaro savdoning jadal oʻsib borishi ta’minlasa, ikkinchidan, jamiyatlarning oʻzaro bogʻliqligining "bosh" va "qoʻllari" - Amerika Qoʻshma SHtatlari hukumatlari, Rivojlangan “ettilik” mamlakatlarining boshqa mamlakatlar va ular tomonidan nazorat qilinadigan xalqaro moliya tashkilotlari, Vashington konsensusining tamoyillari asosida, mafkura ruhida harakat qilish va neoliberal bozor globallashuvi siyosati”ni olib borish orqali amalga oshiriladi”. Globallashuvning mohiyatini inobatga olgan holda, global rivojlanish juda koʻp spekulativ yoki afsonani toʻplaganligini hisobga olish kerak. Globallashuv sub’ektlaridan ilhomlangan afsonalar barcha mamlakatlarning global jarayonga jalb qilinishini taqozo etmoqda.

2.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlarining natijalari

Alohida mamlakatlar va jahon hamjamiyati mamlakatlari guruhi uchun iqtisodiy globallashuv jarayonlarining natijalari haqidagi masalaning qoʻyilishi tan olingan masala hisoblanadi. Bir tomondan, xalqaro iqtisodiyot nazariyasi xorijiy raqobatchilar uchun bozorlarning ochilishi, xalqaro savdoning kuchayishi moliyaviy resurslar va investitsiyalarning mamlakatlararo joylashtirilishi, xalqaro ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish, xalqaro ishlab chiqarishni oshirish uchun imkoniyatlar yaratishidan dalolat beradi.



- Globallashuvning aytib boʻlmas oʻzgarishlari mamlakat tashqi savdosi shartlariga oʻtkazadigan ijobiy taʼsirlarini maksimallashtirish va uning tahdidlarini minimallashtirishda iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi tashqi savdoda ham olib boriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega.



- Chunki valuta bozorini erkinlashtirish orqali eksport-import operatsiyalarini ragʻbatlantirish, erkin raqobat muhitida ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali tashqi savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshirish, sanoat siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotning strategik muhim eksport tovarlari jahon bozori konyukturasining oʻzgarishlariga bogʻliqlik darajasini kamaytirishga erishish mumkin.

2.4-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlari natijalari⁸

⁸ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

Natijada globallashuv mazkur jarayonda ishtirok etadigan mamlakatlarning katta muvaffaqiyati bilan muvofiqlashadi. Shu bilan bir vaqtda, xususan, globallashuvning neoliberal modelining asosiy mazmuni bo'lgan xo'jalik hayotining keng qamrovli liberalizatsiyasini globallashuvi bilan birlashishi sharoitlarida global tovar va moliyaviy bozorlarda integratsiyalashgan raqobatning kuchayishi, raqobat kurashida kuchlilarga yon bosuvchi alohida kompaniyalar hamda alohida mamlakatlar uchun ham muqarrar risklarni anglatadi. Modomiki, rivojlangan mamlakatlar uchun globallashuvning eng katta foydalari etarli darajada yuqori, alohida ishlab chiqarishni qisqartirish, daromadlarni qayta taqsimlash, ijtimoiy tengsizlikni kutilayotgan o'sishi ko'rinishidagi risklar, davlatning ijtimoiy(sotsial) siyosati bilan qayta taqsimlanib qoplanadi.

- Ikkinchi variant – odil savdo nazariyasi. Uning mazmuni turli mamlakatlarda savdodan olinadigan nafning birmuncha tekis taqsimlanishi hamda ijtimoiy va ekologik standartlarning tenglashtirilishi maqsadida xalqaro tashkilotlar yordamida rivojlanayotgan mamlakatlar mahsulotlariga qiyosiy narxlar o'rnatishda. Bu nazariyani Laura Tayson qo'llab quvvatlaydi.

- Bu kabi yondashuvning sababi - birinchidan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning savdodan oladigan salmoqli nafning kamayishi hamda pirovard natijada umumiy boyliklarning qisqarishidir

2.5-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlari natijalari

Xulosa qilib aytish mumkinki, globallashuv jarayonlari ko'p hollarda ilg'or iqtisodiyotning rivojlanishi darajasini oshirishga va unchalik rivojlanmagan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'raining kuchsizlanishiga olib keladi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar rivojlangan mamlakatlarga texnologik jihatdan bog'liq bo'ladilar: zamonaviy texnologiyalarning murakkablashuvi ularning ishlanmalari xarajatlarini juda oshirib yuboradi, o'zlashtirilgan texnologiyalar esa komplementar omillarning, birinchi navbatda yuqori malakali va o'qitilgan mutaxassislarning yo'qligi tufayli yaxshi samara bermasligi mumkin.

Globallashuv jahon iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy qonunchiligini uning tengsizligini bekor qilmaydi, undan, rivojlangan mamlakatlar guruhlar uchun jahon bozoridagi etakchilikning o'ziga xos kurashidan qochib qutilib bo'lmaydi.

Globallashuvning, eng avvalo, moliyaviy foydasi, o'z hududida ta'sis qilingan, alohida mamlakatlar, offshor hududlar, xorij kapitalini jalb qilish maqsadida soliqdan ozod qilinganligini olishlari mumkin. To'rt asosiy hududiy guruhni birlashtiruvchi offshor hududlarning yaxlit pleyadasi yuzaga keldi. Karib havzasining offshor hududlari Nyu-York bilan bir vaqtinchalik mintaqada bo'lgan

Shimoliy va janubiy Amerika mamlakatlariga xizmat qiladi.

Bu rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham to'g'ri hisoblanadi, chunki ular ishlab chiqargan tovarlarga nisbatan rivojlangan mamlakatlar tomonidan import cheklashlari tovar egalarining savdo shartlarini yomonlashtiradi.

Boshqa tarafdin, xorij tovarlari uchun chegaralarning butkul yopiqligi monopolizmga, iste'molchilarning yuqori narxlarga duch kelishiga va nihoyat, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xorijiy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan raqobatga moyilligining yo'qolishiga olib keladi.

Shu tufayli, bozorning optimallik shartlariga ko'ra aniqlanadigan bir qismi xorij ishlab chiqaruvchilari uchun ochiq bo'lishi kerak: savdodan olinadigan naf ushbu ishlab chiqarish va eksport darajasiga muvofiq tarzda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajatlarining 120 %dan kam bo'lmasligi kerak.

2.6-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlari natijalari

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Globallashuv tushunchasini dastlab qaysi iqtisodchi olim ilmiy muomalaga kiritgan va u nimani nazarda tutgan?
2. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy globallashuv jarayonlari asosan nechanchi yillardan boshlangan va uni o'ziga xos xususiyatlari?
3. Globallashuvni ob'ektiv asoslarini nimalardan iborat?
4. Globallashuvning sub'ektiv xususiyatlari qanday nomoyon bo'ladi?
5. A.B Veber globallashuvning xususiyatlarini kanday tavsiflaydi?
6. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy natijalarini izohlab bering?
7. Jahon iqtisodiyoti globallashuvini mamlakatlar uchun ijobiy natijalarini nimalardan iborat?
8. Siz nima deb o'ylaysiz, globallashuv jahon iqtisodiyotining qaysi jabhalarida namoyon bo'lmoqda?
9. Sizning fikringizcha jahon iqtisodiyotini globallashuvining yo'nalishlari qanday?
10. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining omillariga nimalar kiradi?
11. Sizning fikringizcha jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonlarining natijalarini o'rganishdan maqsad nima?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
2. Livshits A. Prisoedinenie stran SNG k VTO: problemy i resheniya Vneshneekonomicheskiiy byulleten. – M. 2003. №2.

3. L.S. Chernoy. Globalizatsiya: proshloe ili budushee? Transformatsiya rynochnykh khozyaystvenno-ekonomicheskix sistem. M.: IKTs «Akademkniga», 2003 g.
4. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.
5. Daniltsev A.V. Mejdunarodnaya trgovlya. Instrumenty regulirovaniya: O'quv-amaliy qo'llanma. Ikkinchi tahrir. – M.: Delovaya literatura, Paleotip, 2004.

3-MAVZU: JAHON IQTISODIYOTNI LOBALLASHUVINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLARI, OMILLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

REJA:


- 3.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining harakatlantiruvchi kuchlari;**
- 3.2. Global jarayonlarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri;**
- 3.3. Globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi omillar.**

3.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining harakatlantiruvchi kuchlari.

Globallashuv tahlilining keyingi mantiqiy bosqichi globallashayotgan jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi, bevosita ularni shakllantiruvchi omillar va globallashuvning harakatlantiruvchi kuchlarini ko'rib chiqishdan iborat bo'lishi lozim. Oxirgisiga jahon iqtisodiyoti doirasida kuch to'playotgan kapitalning jamlanishi va markazlashishini, xo'jalik hayotining transmilliylashuv - yirik transmilliy kompaniyalar va moliyaviy guruhlarining o'sishi va rivojlanishini kiritish mumkin. Zamonaviy globallashuv jarayonlariga nafaqat milliy bozorlarda, shuningdek, jahon miqyosidagi bozorlarda ham globallashuvni rag'batlantiradigan bozor raqobati kabi baquvvat kuch katta ta'sir ko'rsatadi. Raqobatning asosiy vositasi – xarajatlarni kamaytirish, tovar va xizmatlar sifatini oshirish, ularning turlarini kengaytirish globallashuvning motori hisoblanadi. Globallashuvning birdan-bir harakatlantiruvchi kuchi ilmiy texnikaviy taraqqiyotning, texnologik innovatsiyalar taraqqiyotining rivojlanishi bo'lib, u transport va aloqani, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarini modifikatsiya qilishda yanada yaqqol namoyon bo'ladi, tovar va xizmatlar, moliyaviy vositalar, g'oya va axborot mahsulotlarini chegaraviy transport vositalariga tez va kam xarajat bilan joylashtirish uchun kutilmagan imkoniyatlarini yaratadi.


Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining yuzaga kelishi, tez harakatlanuvchi kompyuter texnikasi, signal uzatishning optik to'liq texnologiyasi, sputnik va uyali telefon aloqasi, kibernetika, tarmoq texnologiyalari, kompakt elektron qurilmalar rivojlanishi, internet global tarmog'i yaratilishi bilan, boshqa texnik yutuqlarning yuzaga kelishi bilan paydo bo'ldi.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:



3.1-rasm. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonlari

Butunlay yangi imkoniyatlar axborot va kommunikatsiya texnologiyalari doirasida yangiliklarning kashf qilinishi globallashuv jarayonlari rivojlanishini rag'batlantiruvchi inqilob bilimlariga (knowledge-based) asoslangan haqiqiy axborot innovatsiyalari haqida gapirish imkonini beradi. Jahon iqtisodiyotida transmilliylashuv jarayonlari real va moliyaviy tarmoqlarda transmilliy korporatsiyalar yaratilishi va ularning faoliyati jarayonlarida mujassamlanadi. G'arb iqtisodchilarining ishlarida iqtisodiy faoliyatning bunga o'xshash sub'ektlari transmilliy, xalqaro, mul'timilliy, supermilliy, global va boshqa kompaniyalar deb nomlanishi mumkin. SHunga muvofiq ravishda transmilliy korporatsiya deganda, yirik moliyaviy, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, savdo-servis uyushmalari tushuniladi, ular o'z operatsiyalarini o'zlari tashkil etadilar va boshqa xorijiy mamlakatlarda ham birdek amalga oshiradilar. Ularni shaxsiy ishlab chiqarish, bank, investitsiya, savdo-reklama faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, kadrlarni tayyorlashni o'z ichiga oluvchi murakkab tashkiliy tuzilma bir-biridan ajratib turadi.



3.2-rasm. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonlari

3.2. Global jarayonlarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'siri.

Jahon xo'jaligi zamonaviy globallashuvining asosiy xususiyatlaridan biri kapital, tovar va xizmatlar, ishchi kuchining erkin harakatida inson intellektual qobiliyatidan unumli foydalanish imkoniyatlarining ortishida namoyon bo'ladi. Ushbu omil ta'sirida rivojlanayotgan mamlakatlarning globallashuv afzalliklaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini oshirish imkoniyatlari paydo bo'lib, shu bilan birga iqtisodiy siyosat yuritganda, uning e'tiborga olinmasligi salbiy oqibatlarga olib keluvchi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kapitalning xalqaro migratsiyasi. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar taraqqiyoti natijasida bevosita investitsiyalar, portfel' investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat kapitallar xalqaro harakatining kuchayishi globallashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy resurslar xalqaro oqimining o'sish sur'atlari xalqaro savdo hajmining o'sish sur'atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining jadallashib borayotgani diqqatga sazovordir.

- Rivojlangan mamlakatlar qatorida 2017 yilning uchinchi choragida o'sish kuzatilgan. kuzda, ayniqsa, Germaniya, Yaponiya, Koreya va Qo'shma Shtatlarda. Rivojlanayotgan asosiy bozor va Braziliya, Xitoy va Janubiy Afrikani qamrab oluvchi rivojlanayotgan davlatlar, shuningdek, uchinchi chorakning o'sishini kuzgi prognozlarga qaraganda kuchliroq qildi. Yuqori chastotali qattiq ma'lumotlar va his-tuyg'ular ko'rsatkichlari to'rtinchi chorakda kuchli momentum davom etmoqda.

3.4-rasm. Globallashuvning asosiy jihatlari¹⁵

Kapitalning xalqaro harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikning diversifikatsiyasiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qoʻlga kiritadilar. Odatda investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foiz stavkalari darajalari yuqori boʻlib, bu investorlarning oʻz kapitallarini yuqoriroq foyda miqdorini taʼminlovchi hududlarga yoʻnaltirishiga turtki boʻladi.

Maʼlumki, oʻtish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida milliy xoʻjalik tizimini takomillashtirish, shuningdek ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalashuviga erishish maqsadida mavjud tarmoqlarni rivojlantirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj baland.

Bunday sharoitda jahon kapital bozoriga chuqur integratsiyalashuv ushbu mamlakatlar uchun iqtisodiyotni isloh qilish va oʻsish surʼatlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda investitsiyalarni keng jalb qilish orqali jahon moliya bozorlari afzalliklaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Investitsiya jalb qilish natijasida iqtisodiy oʻsish surʼatlarini oshirish kapitalning qaysi shaklda kirib kelishiga koʻp jihatdan bogʻliqdir. Bevosita xorijiy investitsiyalar koʻrinishidagi xalqaro kapital harakatida ishtirok etish ustuvorligini belgilovchi omillardan biri - bu transmilliy kompaniyalarning intellektual mulki boʻlmish ilgʻor texnologiyalarning jahon bozorida toʻgʻridan-toʻgʻri sotilmasligi boʻlib, oʻtish iqtisodiyoti mamlakatlari bunday imkoniyatga faqatgina bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqaligina ega boʻlishlari mumkin.

Bu jihatdan bevosita xorijiy investitsiyalarning oʻtish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun afcal xususiyatlari: hamkor transmilliy kompaniyalarning mavqei, ularning xom ashyo etkazib beruvchilar bilan aloqasi, tayyor mahsulot sotuv kanallari, jahon bozori doirasida marketning tadqiqotlari, boshqaruv malakasi va ishlab chiqarish sirlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash dasturlaridan iborat boʻlib, bu va boshqa omillardan oqilona foydalanish milliy iqtisodiyot samaradorligi va raqobatbardoshligi darajasining oshishiga olib kelmoqda.

Mamlakatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning tashkil etilishi erkin raqobat muhitini yaratish orqali tovar va xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va avvallari bozorning mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan monopollashtirilgan tarmoqlarida tovar va xizmatlar sifat standartlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Tovar va xizmatlar erkin savdosi globallashtirishning muhim jihatidir. Maʼlumki, milliy iqtisodiyotning nisbiy afzalliklarga ega tarmoqlarda ixtisoslashuvi va xalqaro savdoda ishtirok etishi aholi daromadlari va farovonligi oshishining qoʻshimcha manbai boʻlib hisoblanadi. Fan-texnika yutuqlaridan foydalanish natijalari xalqaro savdo orqali boshqa mamlakatlarga bilvosita va toʻgʻridan-toʻgʻri tarqaladi. Toʻgʻridan-toʻgʻri tarqalish fan-texnika yutuqlarini oʻzida mujassam etgan texnologiyalarning jahon bozorida sotilganida va boshqa mamlakatlar ularni xarid qilganida sodir boʻladi. Bilvosita tarqalish yangi texnika va texnologiya ishlab chiqilgan mamlakat eksport tarmoqlari samaradorligi oshganida va tovarlar sifatining yaxshilanganida roʻy beradi.

3.3. Globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi omillar.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar ilk davlatlar bilan bir paytda ob'ektiv reallik sifatida paydo bo'lgan keng ko'lamdagi rang-barang aloqalar va munosabatlarning muhim tarkibiy qismini ifodalaydi. Uzoq tarixga nazar tashlar ekanmiz, qadimgi tsivilizatsiyalar eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklardayoq iqtisodiy sohada o'zaro aloqalar olib borishganiga doir bir talay misollarga duch kelamiz, chunki ular hoh Qadimiy Misr yoki SHumer madaniyati bo'lsin, xoh Ind vodiysi madaniyati yoki SHan-In davridagi Xitoy bo'lsin, kelib chiqishining avtonomligi va geografik jihatdan ajralganligiga qaramasdan, bir-birlari bilan xo'jalik munosabatlarini o'rnatishga va ularni keyin ham davom ettirishga intilishgan.

- So'nggi oylarda jahon savdosi sarmoyalarni jalb qilish, ayniqsa rivojlangan davlatlar o'rtasida qo'llab-quvvatlangani va Osiyoda yangi ishlab chiqarilgan smartfon modellari ishga tushirilgunga qadar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan mustahkamlanib borgan.

- Xarid qilish menejerlari indeksleri kuchli ishlab chiqaruvchi faoliyatni oldinga suradi va kuchli iste'molchilarning ishonchliligi sog'lom yakuniy talabga ishora qiladi.

3.5-rasm. Globallashuvning asosiy jihatlari⁹

Juda ko'p manbalar shundan guvohlik beradiki, ahyon-ahyonda tartibsiz tabiatdagi natural tovar ayirboshlash ko'rinishdagi munosabatlar o'rniga astasekin antik davr (eramizdan avvalgi I minginchi yillar - eramizning I minginchi yillarining o'rtalari)ga xos bo'lgan tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi asosidagi doimiy xo'jalik aloqalari vujudga keladi.

O'rta asrlarning boshida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilgarilanma harakatida iqtisodiyotning yalpi naturallashuvi, mulkning korporativ-tabaqalangan tuzilmasi va ijtimoiy munosabatlarning sakralizatsiyasiga asoslangan orqaga chekinishni keltirib chiqardi. Biroq shaharlarning o'sishi va savdo-sudxo'rlik kapitalining rivojlanishi Buyuk geografik kashfiyotlar ochilgan davrda mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy sohadagi aloqalarning misli ko'rilmagan darajada kengayishiga va Evropadagi etakchi davlatlar: Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Frantsiya va Britaniyaning kolonial imperiyalarini tashkil topishiga poydevor yaratdi.

Aynan ana shu omil, shuningdek, ishlab chiqarish, transport va aloqa vositalarida ulkan olg'a siljishni ifodalagan XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridagi sanoat to'ntarishi (inqilobi) zamonaviy ko'rinishdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi uchun zarur bo'lgan muhit sifatida global iqtisodiy makrotizimni yuzaga kelish jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. SHunday qilib, insoniyatni XIX-XX asrlar bo'sag'asida taraqqiyotning industrial davriga o'tishi an'anaviy ko'rinishdagi hududiy xo'jalik tizimlari evolyutsiyasidan oldingi davrga

⁹ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

yakun yasadi, jahon miqyosida Evropa bozorli iqtisodiyoti modelining g'alabasini ifodaladi.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan Evropa, SHimoliy Amerika va ma'lum darajada, YAponiya milliy xo'jaliklarini, ikkinchi tomondan keng ko'lamdagi mustamlaka periferiyalarini o'z ichiga olgan jahon iqtisodiy majmuasining yuzaga kelishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining shunday ko'rinishining yaratilishiga olib keldiki, bu ko'rinish shu holatda ma'lum o'zgarishlar bilan hozirgi kunda ham mavjud bo'lib kelmoqda.

Mustamlakachilik imperiyalarining tugatilishi va rivojlanayotgan mamlakatlar deb atalmish guruhlarining vujudga kelishi natijasida iqtisodiy aloqalar uch iqtisodiy markaz, ya'ni AQSH, Evropa, YAponiya bilan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasidagi yosh davlatlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishini oldi. Sobiq SSSRning tarqalib ketishi va sobiq sotsialistik mamlakatlarning tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'liga o'tishi rejalibuyruqbozlik xo'jaligining samarasiz ekanligi va rivojlanishning bozor modeliga keng ko'lamda o'tish muqarrar ekanligini namoyish qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayniqsa keyingi yillarda globallashuv jarayonlarining tezlashuviga bir necha omillar ta'sir etadi, bu omillarning asosiylari quyidagilar hisoblanadi: yopiq tipdagi milliy iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga o'tish; ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi natijasida xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi; davlat tomonidan tartibga solish usullarining takomillashuvi; transmilliy korporatsiyalar doirasining kengayishi; mustaqil yirik moliyaviy korporatsiyalarning vujudga kelishi; investitsion kompaniyalarning ko'payishi; savdo kompaniyalar ko'lamining kengayishi va nihoyat, baynalminal iqtisodiy ayirboshlash mexanizmlarining vujudga kelishi va rivojlanishi, fan va texnikaning xamda intellektual kapitalning rivojlanishi.

Davlatlarning yopiq tipdagi xo'jalik tizimidan qutulishga intilishi haqida gapirganda, etakchi mamlakatlar o'z siyosatlarida global bozor makrotizimini qurishning asosiy sharti bo'lgan barcha uchun barobar raqobat muhitini saqlashni qayd etib o'tish kerak.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Jahon iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuchlari deb nimalarga aytiladi?
2. Jahon xo'jaligi tizimida global raqobatning xususiyati nimalardan iborat?
3. Jahon xo'jaligini transmillaylashuv jarayonlarini tavsiflang?
4. Odil savdo nazariyasini mazmun-mohiyatini tushuntiring?
5. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining omillariga nimalar kiradi?
6. Sizning fikringizcha xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy belgilari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Baynalminalashuv jarayonining rivojlanish bosqichlari sizning fikringizcha qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
8. Sizning fikringizcha nima sababdan globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi jamiyat taraqqiyotining murakkab bosqichi hisoblanadi?
9. Sizning fikringizcha globallashuv va integratsiyalashuv darajalari qanday

o'ziga xos xususiyatlarga ega?

10. Fan-texnika taraqqiyotini globallashtirishning asosiy omillaridan biri ekanligini tavsiflang?

Bibliografik ma'lumotnomalar:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
2. Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.
3. L.S. Chernoy. Globalizatsiya: proshloe ili budushee? Transformatsiya rynochnykh khozyaystvenno-ekonomicheskix sistem. M.: IKTs «Akademkniga», 2003 g.
4. Daniltsev A.V. Mejdunarodnaya trgovlya. Instrumenty regulirovaniya: O'quv-amaliy qo'llanma. Ikkinchi tahrir. – M.: Delovaya literatura, Paleotip, 2004.
5. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.

II-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING MUAMMOLARI.

4-MAVZU: JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV MUAMMOLARI VA ULARNING GURUHLANISHI

REJA:

- 4.1. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning paydo bo'lishi;
- 4.2. Global o'zaro bog'liqlik jarayonining ziddiyatlari;
- 4.3. Global energetik muammo va uni hal etish yo'llari;
- 4.4. Moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar.

4.1. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning paydo bo'lishi

Global muammolar o'zaro bog'liqlikning yaqqol ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida hozirgi davr tsivilizatsiyamiz o'zining rivojlanish jarayonida hech qachon hozirgi kundagidek keskin muammolar girdobiga duch kelmagan. Jahon iqtisodiyotida bu muammolarni hal etmasdan turib, insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan rivojlanib harakat qila olmaydi. Jahon iqtisodiyotida u yoki bu muammoni global, ya'ni, umumjahon miqyosdagi muammolar ekanligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- Uning olamshumul ahamiyat kasb etishi.
- Insonlar hayotining barcha sohalariga taalluqliligi.
- Muammoni hal etishda ko'pchilik davlatlarning birgalikda harakat qilishligi.

Olimlar va jamoat arboblari orasida mamlakatlar yoki hududlar taraqqiyotidagi o'ziga xos masalalarning global muammolarga aylanishi hususida turli fikrlar va qarashlar kontseptsiyasi mavjud. SHuni qayd etib o'tish joizki, bu jarayonga asosiy sabab jahon xo'jaligining XX asr industrial bozor iqtisodiyoti bosqichiga xos bo'lgan ekstensiv rivojlanishi bo'ldi. Ammo oxirgi o'n yilliklarda Evropa, Amerika va Osiyoning rivojlangan mamlakatlari o'z iqtisodiyotlarini intensiv rivojlanish yo'liga o'tkazish uchun qanchalik harakatlar qilayotgan bo'lsalarda, ko'plab qoloq, rivojlanayotgan, shuningdek, bir qator o'tish davri iqtisodiyotli sobiq sotsialistik mamlakatlar uchun intensifikatsiyalash jarayoni echilmagan eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Global muammolar orasida ekologik, oziq-ovqat, demografik muammolar asosiy o'rinni egallaydi.

Ekologik muammo. Jahon iqtisodiyotida ekologik muammolar ko'p asrlik tarixga ega, biroq, XX asrning 70-90 yillariga kelib, takror ishlab chiqarish va insonlarning xo'jalik faoliyati orasidagi muvozanatning buzilishi oqibatida biosfera holatida keskin yomonlashish holatlari kuzatila boshlandi. Jahon iqtisodiyotida ko'plab keltirilgan ma'lumotlarda atrofmuhit degradatsiyasi ko'larni kattalashib borayotganligi qayd etiladi. Keyingi 100 yil ichida sayyoramizdagi o'rmonlarning uchdan ikki qismi yo'qolib ketdi, atmosferadagi karbonat angidrid miqdori 13 foizga ko'paydi, o'nlab turdagi o'simlik va hayvonot dunyosi butunlay qirilib ketdi, inson genofondining o'zi ham oldini olib bo'lmaydigan mutatsion o'zgarishlar xavfi ostiga tushib qoldi.

Ekologik xavf-xatarlarning kuchayishi jahon iqtisodiyotida ekologizatsiyalash jarayonini rivojlantirishga asos bo'ladi, zero tabiatni himoyalash omillari savdo, investitsiyalar, ishchi kuchi migratsiyasi kabilarga ta'sir etadi. Mutaxassislarning qayd etishicha, hozirgi kunda umumiy aylanmasi 150 mlrd. dollarga teng bo'lgan tabiatni asrovchi tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarning maxsus bozorlari vujudga kelmoqda.

Atrof-muhitni himoya qilish tadbirlari eksport qilinadigan mahsulotlarning raqobatbardoshligiga ham ta'sir qiladi, zero iste'molchilar ekologik toza va xavfsiz mahsulotlarni afzal ko'rishadi. Ekologik muammolar ko'plab mamlakatlar rivojlanishining strategik dasturlarida markaziy o'rinlardan birini egallab, global va hududiy xalqaro integratsion tashkilotlarning kun tartibiga olib kirildi. Eng yirik xalqaro tashkilot - BMT 1972 yildan buyon maxsus Atrof-muhit bo'yicha dastur (YUNEP)ni amalga oshirib kelmoqda. 1992 yilda o'tkazilgan atrof-muhit bo'yicha BMT Anjumanining (Rio-de-Janeyro) o'tkazilishi katta ahamiyat kasb etdi.

Ushbu Anjuman qatnashchilari barqaror rivojlanish tamoyilini qabul qilishdi. Bu tamoyil o'z ichiga 27 ta tavsiyaviy harakterdagi printsiplarni olib, ularning mohiyati ekologik xavfsizlikning universal mezonlarini qabul qilish, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, sanoat va harbiy sohadagi chiqindilardan rejali ravishda foydalanish, yangi avlodni atrof-muhitni asrab-avaylashga qarata tarbiyalashdan iboratdir.

Ma'lumki, bizning respublikamiz va shuningdek qo'shni davlatlar aholisi ham Orol dengizi suvining kamayib ketishi bilan bog'liq bo'lgan muammoni o'z boshidan kechirmoqda. Bu faqat bizning respublikamiz muammosigina bo'lib qolmasdan, balki global muammo ekanligini jahon hamjamiyati ham bugungi kunda tan olmoqda.

60-90 yillarda Orol dengizi akvatoriyasi 7 baravar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvi esa o'nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Bugun Orolbo'yida nafaqat ekologik, balki dunyo miqyosida og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo'ldi. Orol dengizining qurishi davom etayotgani va uning atrofida gumanitar faloqat sodir bo'layotgani sababli Orolbo'yining tabiiy biologik fondini asrab-avaylash, Orol inqirozining atrof-muhitga, eng muhimi, bu erda istiqomat qilayotgan yuz minglab va millionlab odamlar hayotiga haloqatli ta'sirini kamaytirish bugungi kundagi eng muhim vazifa hisoblanadi.



Global rivojlanish prognozi 2018 va 2019 yillarda yanada ko'tariladi



2017 yilda yuzaga kelgan kuchli momentumning 2018 va 2019 yillarga borishi kutilmoqda, global o'sish esa har ikki yilda ham 3,9 foizgacha (kuzgi prognozlarga nisbatan 0,2 foiz yuqoriroq) qayta ko'rib chiqilgan. 2017-yilgi global o'sishni kuzda prognoz qilingan ko'rsatkichdan 0,7 foizga yuqoriroq 3,7 foizga baholaydi.



Yuqori o'sish sur'ati ayniqsa Evropada va Osiyoda keng tarqalgan edi, lekin rivojlangan va rivojlanayotgan bozorlar va rivojlanayotgan iqtisodiyot guruhlar uchun kuzgi prognozlarga nisbatan 0,1 foiz darajadan oshishi bilan keng asoslangan.

4.1-rasm. Global rivojlanish prognozi¹⁰

4.2. Global o'zaro bog'liqlik jarayonining ziddiyatlari.

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi, ularning rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an'analardagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o'tdiki, bu bosqichni —globallashuv deb atamoqdalar. Bu tushuncha hozirgi kunda juda ommaviylashib ketdi. Lekin globallashuv ko'pchilik mamlakatlar tomonidan ularning milliy manfaatlari va o'zligiga tahdid sifatida qabul qilinmoqda. O'zbekiston ham globallashuv natijasida ochilayotgan imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavfxatarlarga duch kelmoqda.

¹⁰ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik).– T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

- Ikki yillik prognozga ko'ra, global istiqbolga yo'naltirilgan yuksalishning o'zgarishi, asosan, 2018 va 2019 yillarda o'sishning 2 foizdan oshishi kutilayotgan rivojlangan mamlakatlardan kelib chiqadi.

- Ushbu prognoz global moliyaviy sharoit va ijobiy his-tuyg'ularni qo'llab-quvvatlaydi ayniqsa, sarmoyada talab katta bo'lgan tezlashtirishni saqlab qolish, katta eksportga ega iqtisodlarning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

4.2-rasm. Global rivojlanish prognozi¹¹

So'nggi yillarda turli davlatlarning iqtisodiy globallashuvga moslashuvda turli muammolar vujudga kelmoqda. Bu muammo rivojlanayotgan mamlakatlarning, shu jumladan o'tish iqtisodiyotli mamlakatlarning jahon xo'jaligi tizimiga to'liq integratsiyasida namoyon bo'lmoqda.

Globallashuv borgan sari o'z faoliyatini kengaytirayotgan va mustakil xarakterga ega bo'layotgan moliyaviy bozorlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib bormoqda. Globallashuv farovonlik keltirish bilan birgalikda ko'p imkoniyatlardan maxrum ham etishi mumkin.

Globallashuv jarayonidan ancha uzoq bo'lgan er kurrasining yarim aholisi, ya'ni 3 milliard kishi, kuniga 2 AQSH dollaridan kam pulga yashashga majbur. BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan ta'kidlaganidek, ***"Globallashuv butun insoniyatga foyda keltirishi mumkinligiga men ishonaman. Ammo ko'rinib turibdiki, ayni kunlarda millionlab odamlar, balki, insoniyatning ko'pchilik qismi bundan yuz o'girmoqda. Ular hayotlarida globallashuv mevalarining ko'pligi tufayli emas, balki ozligi yoki butunlay yo'qligi tufayli kambag'aldir"***.

Hozirda tabiiy ravishda faqat bir mamlakat miqyosida hal qilib bo'lmaydigan va samarali hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar vujudga keldi. Mintaqaviy darajadagi texnogen va ekologik salbiy oqibatlarga CHernobil va Orol fojiasini ko'rsatish mumkin. Texnika va texnologiyaning rivojlanishi va shu jarayonga moslashmaganligi tufayli ishchilarning bo'shatilishi va ishsizlikning o'sishi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda keskin tus olmoqda. Kambag'allik, etnik to'qnashuvlar va boshqa lokal fojialar tufayli aholining ommaviy ravishda migratsiyasi ro'y bermoqda (Afg'oniston, Osiyo va Afrikaning alohida mamlakatlari).

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi natijasida jahon xo'jaligi sohalarining bog'liqligi darajasi o'zining yangi pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat bermoqda. O'zaro bog'liqlik darajasining oshishi har tomonlama rivojlanishga sabab bo'lish bilan birgalikda bir qancha xavflarni ham vujudga keltirmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi ta'sir omillari iqtisodiy soha ichida yoki makrodarajadagi xavflar bilan xarakterlanadi.

Tashqi iqtisodiy omillar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavflardan biri

¹¹ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik).– T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

mamlakatning tashqi qarzlarini paydo bo'lishi va uning kuchayishidir. Ma'lumki, tashqi qarzlarining salmog'i mamlakat YAIMning 1/2 qismidan ortishi xavfli hisoblanadi. Qarzni me'yoridan ortishi esa, kelajakda nafaqat mazkur qarzni qaytarishda qiyinchilik tug'diradi, balki investitsiya qilish va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarining qisqarishi, valyuta zahiralarining kamayib ketishi va to'lov balansi inqirozi kabi hodisalarga sababchi bo'ladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQSH davlat tashqi qarzi miqdorining o'sib borganligi va uni YAIMga nisbatan salmog'i o'sganligi 2008 yildagi moliyaviy inqirozni kuchayishining asosiy omillaridan biri bo'ldi (7.1-rasm). Rasmdan ko'rinib turibdiki, keyingi 4 yil mobaynida xususan, AQSH va ayrim MDH davlatlari (Qirg'izistondan tashqari) tashqi qarzlarining YAIMga nisbatan salmog'i ortib borgan. Xususan, 2008 yilda AQSH tashqi qarzlarining YAIMga nisbatan salmog'i qariyb 90% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Rossiyada 37% ni, Qozog'istonda 102% ni, Ukrainada 64% ni tashkil etgan. Qirg'izistonda esa keyingi 3 yil mobaynida pasayish tendentsiyasi kuzatilib, 2008 yilda 81% ni tashkil qilgan.

Axborot texnologiyalari va global moliya bozorlarining taraqqiy etishi kapitalning qisqa muddatda er sharining turli joylarida joylashgan bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga o'tib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu kabi jarayonlar ham keskin iqtisodiy vaziyatga, qolaversa inqirozga ham olib kelishi mumkin.

4. 3. Global energetik muammo va uni hal etish yo'llari.

Butun dunyo mamlakatlari uchun yuzaga keluvchi imkoniyatlarni kengaytirishda hamda turmush sifatini oshirishda energetik resurslar juda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda jahon xo'jaligida energiya resurslariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Markaziy Osiyo va ayrim MDH mamlakatlarida katta hajmda yonilg'i-energiya zahiralarini mavjudligi tufayli mintaqada energetik xavfsizlik muammosi unchalik sezilmaydi. Ayrim MDH davlatlari, neft qazib chiqarish bo'yicha etakchi davlatlar qatoridan joy olgan. 2006 yilda ushbu davlatlar jahon neft savdosining 14,2 foizini ta'minlab berishdi.



4.3-rasm. Global rivojlanish prognozi¹²

Biroq samarali, ishonchli va ekologik jihatdan xavfsiz energiya ta'minoti butun insoniyat oldida turgan global vazifa va xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning asosiy muammosi hisoblanadi. Barcha jihatlarni qamrab olgan ushbu muammoni hal etish uchun bir qancha birinchi darajali va o'zaro aloqador muammolarni hisobga olish zarur, bular:

- neftning yuqori bo'lib borayotgan va o'zgaruvchan narxi;
- energetik resurslarga borgan sari o'sib boruvchi talab (hisoblarga ko'ra, u 2030 yilga borib 1,5 barobardan ko'pga o'sadi va ushbu talabning 80 foizi zahiralari cheklangan qazib olinuvchi yoqilg'i hisobiga ta'minlanadi);
- ko'pgina davlatlarda energiya importiga o'sib boruvchi bog'liqlik;
- energetika sohasining barcha tarmoqlarida yirik investitsiyalarga bo'lgan talab;
- atrof-muhitni himoyalash zaruriyati va iqlim o'zgarishidagi muammolarni hal qilish;
- hayotiy muhim energetik infratuzilmani tabiiy va boshqa tahdidlarga bardosh bera olmasligi.

Ushbu muammolarning global xarakterdaligini hamda energetika resurslarini ishlab chiqaruvchi, tranzit va iste'mol qiluvchi davlatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni borgan sari oshib borishi sababli global energetik xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida barcha manfaatli tomonlar o'rtasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirish zarur.

Mazkur maqsadlarga erishishning eng yaxshi yo'li - samarali, raqobatbardosh jahon energetik bozorlarini tashkil etishdir.

Global energetik muammolarni hal qilishda milliy hukumat va tegishli xalqaro tashkilotlar muhim o'rin egallaydi.

¹² Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik).– T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashovchi 1,6 mlrd. kishini elektr energiyasiga va 2,4 mlrd. kishini yoqilg'i resurlarga hozirda bundan mahrum bo'lgan qat'iy ta'minotini ta'minlamay turib, global energetik xavfsizlikka ham, BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlariga ham erishib bo'lmaydi. Xalqaro hamjamiyat uchta o'zaro aloqador muammoni - energetik xavfsizlik, iqtisodiy o'sish va ekologiya muammolarini samarali hal qilish imkoniyatiga ega.

Energetik kambag'allik hajmini kamaytirish bo'yicha qat'iy chora- tadbirlar bilan birga issiqxonalardan chiquvchi gazlarning hajmini qisqartirish, atrof-muhit holatini global miqyosda yaxshilash, energetik xavfsizlikni mustahkamlash hamda atmosferaning ifloslanish darajasini qisqartirish bo'yicha umumiy maqsadlarni amalga oshirish zarur. Bu borada rivojlanayotgan davlatlarni energiya resurslaridan foydalanishga bo'lgan imkoniyatini kengaytirish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish muhimdir.

Global energetik xavfsizlikni ta'minlashda barcha iste'molchi va ishlab chiqaruvchi davlatlarning umumiy manfaatini hisobga olgan holda, "Sakkizlik guruhi"ga kiruvchi etakchi davlatlar rahbarlarining 2006 yil 16 iyulda Sankt Peterburgdagi yig'ilishida global iqtisodiy o'sishning asosida quyidagilarni e'lon qildilar:

- energetik resurslarni transportirovkasi va tranziti doirasidagi xizmatlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish, foydalanish va etkazib berish uchun bozorlarning ochiqligi, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish;

- energetik xavfsizlik doirasida o'zaro bog'liqlik masalalarini barcha manfaatdor tomonlar orasida dialog va fikrlar almashinuvi va kelishuvlarni rivojlantirish;

- rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi kambag'al qatlamini energetik muammolarini hal qilishga ko'mak berish.

Global energetik xavfsizlikni mustahkamlash quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ko'zda tutadi:


- global energetik bozorlarni barqarorligini oshirish;
- energetik tarmoqlarida investitsiya muhitini yaxshilash;
- energetika samarasini ko'tarish va energiyani tejash;
- energiya turlarini diversifikatsiyalash;
- hayotiy muhim energetika infratuzilmasining xavfsizligini ta'minlash;
- energetik kambag'allik ko'lamini qisqartirish.

4. 4. Moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiyotning ochiqligi rivojlanishni jadallashtirish maqsadida tashqi omillardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. U milliy xo'jalikda xorijda o'zlashtirib bo'lingan ilg'or texnologiyalardan, mashina va uskunalarning yangi avlodlaridan, ishlab chiqarishni va sotishni boshqarishning zamonaviy tajribasidan foydalanish ko'lamlarini kengaytirishga, chet eldan qo'shimcha moddiy va moliyaviy resurslarni jalb qilishga, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasiga qo'shilishga imkoniyat yaratadi.

Biroq iqtisodiyot —ochiqligi nafaqat bozor islohotlarini jadallashtiradi, balki iqtisodiy rivojlanishda, ayniqsa rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotli mamlakatlar uchun ma'lum xavf-xatarlarni ham vujudga keltiradi. Milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatchilar tomonidan siqib chiqarish, alohida tarmoqlarning jahon kon'yunkturasiga, sanoati rivojlangan mamlakatlarning savdo va sanoat siyosatiga bog'liqligining o'sish xavfi paydo bo'ladi.

XX va XXI asrlarda jahon iqtisodiy rivojlanishiga ikkita yangi holatlar ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, kon'yunktura o'zgarishlarini tartibga solishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosat tizimi asta-sekin shakllantirildi. Ikkinchidan, jahon iqtisodiy tuzilmasida moliyaviy (aktsiyadorlik kapitali institutining, kapital, valyuta, qimmatli qog'ozlar va ularning hosilalari bozorlari tizimlarining shakllanishida ifodalanuvchi) soha keskin o'sdi. Jahon iqtisodiyotining mazkur sohasining rivojlanishi natijasida moliyaviy operatsiyalar hajmi moddiy ne'matlar bilan iqtisodiy operatsiyalar hajmidan ancha ortib ketdi.



4.4-rasm. Global rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari¹³

Bozor mexanizmining amal qilishida davriy takrorlanuvchi inqirozlar o'zining namoyon bo'lish shakllarini asta-sekin o'zgartirdi. Agar sanoatlashtirish davrida moliyaviy buzilishlar (banklarning kasodga uchrash shaklida) asosan keyingi sanoat pasayishlariga olib kelgan bo'lsa, sanoatlashtirishdan keyingi davrda

¹³ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik).— T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

bunday yaqqol ketma-ketlik o'z shaklini o'zgartira boshladi.

Moliyaviy soha shunchalik yirik ko'lamga erishdiki, bu uni o'z qonuniyatlari bo'yicha rivojlanuvchi nisbatan mustaqil iqtisodiy blokka aylantirdi. Xususan, moliyaviy sohani ustun ravishda va ishlab chiqarish sohasini nisbatan kamroq qamrab oluvchi inqirozlar kelib chiqdi. Moliyaviy xo'jalikning bunday —mustaqilligi moliyaviy buzilishlarning ham nisbiy —mustaqilligini keltirib chiqardi. Bu esa jahon moliyaviy inqirozlarini ro'y berishiga olib keladi.

Inqiroz shuni ko'rsatdiki, bu mamlakatlarda qanchalik iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lmasin, ammo ularning moliyaviy tizimi barqarorlik bosqichiga etmagan va mintaqadagi boshqa alohida mamlakatlarning moliyaviy bozorlaridagi salbiy jarayonlarga qarshi tura olmaydi.

Bu moliyaviy inqirozlar jahon kapital bozorlari kon'yunkturasini yomonlashishiga va jahon bozorida muhim mineral xomashyolarning narx kon'yunkturasining pasayib ketishiga olib keldi.

Zamonaviy moliyaviy inqirozlarning o'ziga xos xususiyati ularning bir vaqtda bir nechta mamlakatlarda paydo bo'lishi va mintaqa bo'ylab tez tarqalishidan iborat. Moliyaviy —epidemiya ning xususiyati shundaki, ular hatto mamlakatlarning moliyaviy bozorlari iqtisodiy jihatdan o'zaro kam bog'langan vaziyatda ham tarqalish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu eng avvalo, moliya bozorlari shakllanayotgan mamlakatlarga tegishli. Bir mamlakatdagi inqiroz boshqa o'xshash makroiqtisodiy sharoitlarga ega mamlakatlarning valyutalariga chayqovchilik hujumlari uchun turtki bo'lishi mumkin.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarning tajribasida jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarning oldini olish va bartaraf etish choralari orasida har qanday yo'l bilan bank-moliya tizimini saqlab qolishga urinish holatlari keng namoyon bo'ldi. Jumladan, AQSH birinchilardan bo'lib uzoq yillar davomida xususiy banklar sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan to'rtta yirik bankni milliyalashtirdi. SHuningdek, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida bank tizimining yuqori riskli aktivlarini davlat tomonidan kafolatlash orqali uzoq muddatli moliyalashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Natijada, bank-moliya sohasida likvidlik darajasi pasaygan bir pallada davlatlar turli yo'llar bilan yirik hajmdagi mablag'larni ushbu sohaga yo'naltira boshladi.

Xulosa qilib aytganda, jahon iqtisodiyotidagi global muammolarni hal etish borasida, sayyoramizdagi «resurslar chegaralari» bilan bog'liq muammolarni muhokama qilishdan «chiqindilarning chegarasi» haqidagi masalalarga o'tish kuzatilmoqda. Ekologik muammo davlatlar, shuningdek hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari, transmilliy korporatsiyalar, havo havzasi, suv muhiti, er yuzasi va konlarini muhofaza qilish sohasida ishlovchi ekspertlarning birgalikda ishlashini talab qiladi.

Fan-texnika taraqqiyoti ochib berayotgan imkoniyatlarga qaramay, er aholisi hamda insoniyat resurslaridan foydalanish muammosi jahon iqtisodiyotidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Insoniyat soni jihatidan 1 mlrd.li chegaraga XIX asrning birinchi choragida, 2 mlrd.ga esa XX asrning o'rtasida etib keldi, shundan so'ng har 11 yilda 1 mlrd. nafarga ortib bormoqda. Hozirgi paytda sayyoramiz aholisi 7 mlrd.ga etgan. BMT keyingi 50 yil ichida u 9 300 mlrd.ga

etishi haqidagi ma'lumotni keltirgan. Buning aksi, ya'ni uch yovuz kuch: terrorizm, ekstremizm va separatizm, shuningdek mutaxassislarning tadqiqotiga ko'ra, urushlar, tabiiy ofatlar, oziq-ovqat etishmasligi, shahar va qishloqlarning suv ostida qolib ketishi (masalan, Indoneziyadagi bundan besh yil avval sunami oqibatida qariyb 400 ming nafar insonlar qurbon bo'lgan) natijasida er yuzi aholisi 2050–2060-yillarga kelib, 5 mlrd. nafarga tushib qolishi ehtimoli ham mavjud ekan.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Cizning fikringizcha jahon iqtisodiyotida global muammolarning paydo bo'lish sabablari nimadan iborat?
2. Global muammo haqija sizning fikrlaringiz qanday va bu borada qanday tushunchaga egasiz?
3. Sizning fikringizcha global o'zaro bog'liqlik nima va u qanday ziddiyatlarga ega?
4. Global ekologik, oziq-ovqat, demografik muammolar haqida sizning fikrlaringiz qanday?
5. Sizning fikringizcha global energetik muammo va uni hal etish yo'llari qanday?
6. Energetik kambag'allik g'ajmini qanday yo'llar bilan kamaytirish mumkin?
7. Global energetik xavfsizlikni kamaytirish uchun amalga oshiriladigan tadbirlarning asosiy yo'nalishlari?
8. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqishini asosiy sabablari?
9. Moliyaviy tizimni barqarorlik bosqichi mohiyatini tushuntiring?
10. Kishilik jamiyati iqtisodiy tarixida ro'y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarning oqibatlari?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktaria press, 2015. -584 b.
2. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. “Global iqtisodiyot” (O'quv qo'llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –bet.
3. Xodiev B.YU., SHodmonov SH.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: —Barkamol fayz media , 2018. – 783 bet.
4. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva: Ucheb. posobie / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. M.N. Oshmovoy, kand. ekon. nauk, dots. A.V. Boychenko. - M.: INFRA-M, 2006. - VIII, 376 s.
5. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.

**5-MAVZU: JAHON IQTISODIYOTINI GLOBALLASHUVI
JARAYONLARIDA MILLIY XO‘JALIKLAR O‘RTASIDAGI
INTEGRATSION JARAYONLARNING VA ILMIY – TEXNIKAVIY
HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI.**

Reja:

- 5.1. Globallashuv jarayonlarida tashqi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi;**
- 5.2. Global iqtisodiyotga integratsiyalashuvni belgilovchi omillar;**
- 5.3. Milliy xo‘jaliklar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;**
- 5.4. Global iqtisodiyotga integratsiyalashuvda ishlab chiqarish va ilmiy-texnika hamkorligi.**


5.1. Globallashuv jarayonlarida tashqi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi.

Jahon tajribasini o‘rganish shundan dalolat beradiki, integratsiya davlatning jahon xo‘jaligiga kirishini rag‘batlantirish uchun samarali, tashqi iqtisodiy o‘rishni, aholi daromadlari o‘rishini, inson kapitali jamlanishini, iqtisodiyotda ilg‘or texnologik va tarkibiy siljishlar yuz berishini, ishlab chiqarish, investitsiyalarni boshqarish va ularning sifatli ishlashini ta‘minlashidan dalolat beradi. Real iqtisodiy integratsiya o‘zida qatnashuvchi mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining muayyan tengligini nazarda tutuvchi ishlab chiqarishning xalqaro umumlashtirilishi darajasini ifodalaydi.

Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyasi muammosi tahlili tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish muammolarini shakllantirish va milliy iqtisodiyotni isloh qilish jarayonida hal etiladigan ustuvor vazifalarni aniqlash imkonini beradi. Iqtisodiy integratsiya jarayoni sharoitida O‘zbekiston oldida quyidagi muhim muammolarni hal etish zarur: ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, milliy iqtisodiyotda tarkibiy qayta o‘zgarishlarni amalga oshirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish.

Iqtisodiyotning ochiqqligi darajasining oshishi va tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish globallashuv, transnatsionallashuv va milliy iqtisodiyotning baynalminallashuvi sharoitlarida mamlakatlarning jahon xo‘jaligi holatiga bog‘liqligini kuchaytiradi.

Zamonaviy Evropa integratsiyasini tahlil etilishi Evropa integratsiyasi etarlicha murakkab jarayon ekanligini ko‘rsatdi.



5.1-rasm. Tashqi iqtisodiy munosabatlar shakllanishi¹⁴

Davlatlarning har xil mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni kengaytirish O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Evropa Ittifoqi, EKO, NATO, BMT bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining Evropa yo'nalishi kengaydi. Ushbu hamkorlik Evropaning alohida xar bir mamlakati bilan hamkorlikni ham o'z ichiga oladi.


O'zbekistonning ushbu mamlakat bilan munosablari do'stlik va hamkorlik, o'zaro ishonch va hurmat tamoyillariga asoslanadi. Mamlakatlarimiz ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdan birdek manfaatdor, hamkorlikni kengaytirish borasida muntazam muloqot yo'lga qo'yilgan. Xalqaro muammolarga nisbatan qarashlarimiz ham mushtarak.

Mamlakatlarimiz Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning faoliyatiga, terrorchilik va diniy ekstremizmga, noqonuniy muhojirlik va qurol-yarog' savdosiga, uyushgan jinoyatchilik va narkobiznesga qarshi kurashda hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi real integratsiya jarayonlari hali juda kuchsiz ekanligini va xarakteriga, harakatlantiruvchi omillariga, rivojlanish

¹⁴ Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2010.

sur'atlariga ko'ra o'zaro farqlanishini ko'rsatdi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar amalda so'zning tuliq ma'nosida integratsiya jarayonidan tashqarida qolmoqda, ya'ni ham alohida firmalar va korxonalar, ham umuman milliy xo'jaliklar darajasida doimiy ravishda rivojlanib boruvchi bevosita mamlakatlararo aloqalardan tashqarida qolmoqda. Rinojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy hamkorligi, ular tomonidan e'lon qilingan integratsiya maqsadlari real integratsiya jarayonining tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.



5.2-rasm. Global muammolar ko'rinishlari¹⁵

SHarqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy integratsiya rivojlanishi tajribasi —davlat boshchilik qilayotgan iqtisodiyot modeli doirasida mamlakatning muvaffakiyatli rivojlanishi uchun eng avvalo uchta majburiy shartni ta'minlash shartligini ko'rsatadi. Birinchidan, Davlat korxonalari emas, balki xususiy korxonalar iqtisodiy o'sishning ichki dvigatellariga aylanishi kerak. Ikkinchidan, iqtisodiy siyosat eksportga aniq yo'naltirilgan holda qurilishi kerak. Uchinchidan, iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi amalga oshirilishi, rivojlanishning istalayotgan ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lgan kuchli iqtisodiy rag'batlar negiziga qurilishi kerak.

O'zbekiston eksportga yo'naltirilgan siyosat orqali jahon xo'jaligiga iqtisodiy integratsiyalashuvni rivojlantirishning ulkan salohiyatiga ega. SHu bilan birga respublika iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilgan rivojlanishini to'xtatib turgan omillar mavjuddir, jumladan: iqtisodiyotda xususiy sektorning etarlicha rivojlanmaganligi va buning oqibati sifatida xususiy korxonalar eksportining juda oz ekanligi; eksportdan olingan daromadning davlat bilan mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'rtasida nomuqobil taqsimlanishi, qishloq xo'jaligida daromadlarning tekis taqsimlanmaganligi butun iqtisodiyotda ishlab chiqarishning

¹⁵ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik).– T., «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.


potentsial o'sishida salmoqli yo'kotishlarga olib keladi; -sanoat ishlab chiqarishining monopoliya qilinishi. Bu valyuta nazorati orqali yuqori darajadagi proteksionizm ko'rinishida qo'llab-quvvatlanadi. Kichik korxonalar sektorining sust rivojlanganligi, ularning eksportdagi hissasining oz ekanligi iqtisodiyotning nobarqarorligi, monopolizatsiya va inflyatsiya saqlanib qolishiga ko'maklashadi; -moliyaviy sektorning va tashqi bozorga ishlovchi korxonalarni kredit berish yo'li bilan qo'llab-quvvatlashning sust rivojlanganligi; -eksport kiluvchilarning ma'muriy jihatdan etarlicha qo'llab-quvvatlanmasligi, tayyor mahsulotni eksport qilishga ruxsatnomalarni rasmiylashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar va bunday ruxsatnomalar berilishi kechiktirilishi.

5.2.Global iqtisodiyotga integratsiyalashuvni belgilovchi omillar.

Hozirgi vaqtda mutaxassislar orasida integratsiya jarayonlariga nisbatan yagona ilmiy nuqtai nazar mavjud emas. Iqtisodchilarning bir guruhi integratsiya jarayonida mamlakatlar o'rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish hisobiga —resurslarning cheklanganligi omili ni bartaraf etishni eng muhim muammo deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bu bir xildagi qimmatroq tovarlarni alohida olingan bir mamlakat ichida ishlab chiqarishni bartaraf etish yoxud ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga mablag'larni tejash imkonini beradigan texnologiya ayirboshlashni kengaytirishdir.

Olimlarning boshqa bir guruhi tashqi iqtisodiy omillarni, masalan, kollektiv xavfsizlikni mustahkamlashni ustun shart-sharoit sifatida ilgari suradi. Uchinchi guruh olimlar integratsiya guruhlarini barpo etilishi ularning qatnashchilariga ishlab chiqarishning barqaror o'sishi, ijtimoiy barqarorlik va hokazolar kabi maqsadlarga osonroq va tezroq erishish imkonini beradi, deb hisoblaydilar. Ushbu va boshqa nazariy yondoshuvlarni umumlashtirgan holda deyish mumkinki, integratsiya o'zida mintakaviy ko'lamda sifat jihatidan yangi iqtisodiy muhitni shakllantirish yo'li bilan milliy xo'jalik komplekslarining yaqinlashishi va o'zaro bir-biriga kirib borishini ifodalaydi.

Ishlab chiqarishni baynalminallashuvining erishilgan darajasi bo'yicha integratsiya tuzilmalarini farqlash zarur. U rasmiy hamda real tusga ega bo'lishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy integratsiya uch darajali model sifatida qaraladi (ayniqsa, G'arbiy Evropa variantida): -mikro darajada, ya'ni korporativ darajada, bunda ayrim kompaniyalar to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalariga kirishadi, integratsiya jarayonlarini avj oldiradi; -davlatlararo darajada, bunda davlatning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati mamlakatlarning u yoki bu guruhi doirasida mehnat va kapital chatishib ketishi integratsiya jarayonlariga ko'maklashadi, alohida integratsiya vositalari mavjud bo'lishini ta'minlaydi; -milliy manfaatlardan ustun turuvchi darajada, bunda ishtirokchi mamlakatlar bir qancha siyosiy-iqtisodiy funktsiyalarni ushbu sohadagi suverenitetdan voz kechib ittifoqqa ixtiyoriy ravishda boradi.



5.3-rasm. Energetika tarmoqlarida investitsiya muhitini yaxshilash.¹⁶

Iqtisodiy integratsiya o'z asosiga ko'ra bir qancha ob'ektiv omillarga egadir. Ular orasida quyidagilar muhim o'rin tutadi: -xo'jalik baynalminallashuvining o'sishi; -xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi; -xususiyatiga ko'ra umumjahon ilmiy-texnik inqilobi; -milliy iqtisodiyotlar ochiqligi darajasining oshishi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiyotda vujudga kelayotgan va rivojlanayotgan ko'p sonli integratsiya o'z oldiga ko'pincha o'xshash vazifalarni qo'yadi: iqtisodiyot ko'lamlari afzalliklaridan foydalanish; -qulay tashqi siyosiy muhit yaratish; -savdo siyosati vazifalarini hal etish; -iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurilishiga ko'maklashish; -milliy sanoatning endi paydo bo'lgan tarmoqlarini qo'llab quvvatlash.

Xalqaro iqtisodiyot doirasida integratsiya savdoning ko'p darajada erkin bo'lishi tomon qo'yilgan qadammi yoki aksincha, savdo oqimlari bo'limidagi cheklanish ekanligi nuqtai nazaridan baholanishi kerak.

U yoki bu integratsiya guruhining tashkil etilishi umuman olganda xalqaro iqtisodiyotning manfaatlariga qanchalik muvofiq ekanligini baholash uchun Jahon banki mutaxassisleri bir qancha mezonlarni ishlab chiqdi:

Mintaqaviy savdo bitimlari istisnosiz iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olishi kerak;

¹⁶ Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Iqtisod moliya» nashriyoti, 2010.

O'tish davri 10 yildan ortiq bo'lmasligi kerak va ayrim sohalarda savdoning erkinlashtirishining aniq jadvalini o'z ichiga olishi kerak;

Eng ko'p qulaylik rejimi asosida erkinlashtirishdan oldin tariflar azaldan yuqori bo'lsa, istalgan yangi integratsiya guruhi tashkil etilishi kerak;

Bojxona ittifoqi doirasida tashkil etiladigan umumiy bojxona tarifi tarmoqda mavjud bo'lgan eng past tarifdan yoki hatto eng ko'p qulaylik rejimi doirasidagi eng past tarifdan ortiq bo'lmasligi kerak;

Integratsiya bitimlariga yangi a'zolari qabul qilish qoidalari erkin bo'lishi va a'zolar soni, kengayishiga to'sqinlik qilmasligi kerak; Tovarning qaysi mamlakatdan kelib chiqishini aniqlash qoidalari ochiq-oydin bo'lishi va guruh ichida proteksionizm vositasiga aylanmasligi kerak;

Integratsiyaning eng rivojlangan shakllariga tezroq o'tish zarur, integratsiyaning rivojlangan shakllari rivojlanmagan shakllariga qaraganda ustun hisoblanadi, chunki ishlab chiqarish omillarining maqbulroq taqsimlanishi va ulardan foydalanishni ta'minlaydi;

Integratsiya guruhlariga barpo etilganidan keyin, dempingga qarshi qoidalar uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan qo'llanilmasligi, uchinchi mamlakatlarga nisbatan esa ularni qo'llashning aniq qoidalari belgilanishi kerak.

5.3. Milliy xo'jaliklar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

Integratsiyalashuv mamlakatlar o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalar rivojlanishi jarayoni va qayta ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidan chetga chiqishidir. Baynalmilallashuvning o'sishiga, ayniqsa, transmilliy korporatsiyalar (TMK) faol ko'maklashadi.

TMK chet ellarda o'z aktivlariga ega bo'lgan milliy monopoliyalardir. Ularning qayta ishlab chiqish va savdo-sotiq faoliyati doirasi bir davlat doirasidan chiqib ketadi. Ishlab chiqarish va kapitalning baynamilallashuvi —yirik kompaniyalarning chet elda korporatsiyalarni transmilliy korporatsiyalarga aylantirish yo'li bilan xo'jalik aloqalarini ekspansiya qilish xususiyatiga ega bo'la boshlaydi. Kapitalni olib chiqish xalqaro korporatsiyalarni tuzish va rivojlantirishda muhim omilga aylanadi.

Integratsion jarayonlar rivojlanishining boshqa xalqaro mehnat taqsimoti tuzilishidagi chuqur ilgari siljishlar amalga oshiriladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti – mamlakatlar o'rtasida mehnatni ijtimoiyhududiy taqsim qilishni rivojlantirishning ma'lum mahsulot ishlab chiqarishni alohida mamlakatlarda barqaror kontsentratsiya qilishni nazarda tutuvchi yuqori bosqichidir.

Shunisi ayonki, nisbatan mustaqil fazalar ajralar ekan, ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarishni ma'lum hudud, alohida mamlakatlardagi alohida bosqichlari bo'yicha kontsentratsiyalashmay qolishi mumkin emas. SHuning uchun hududiy mehnat taqsimotining ikki turini ajratib ko'rsatishadi:

Mintaqalararo – bir mamlakatning turli mintaqalari o'rtasidagi mehnat taqsimoti;

Xalqaro – turli mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti.

Tarmoq ichidagi ixtisoslashuv keng tarqalib bormoqda. Ilmiy-texnik

inqilobining turli mamlakatlarda har xil tarqalganligiga qaramay uning hozirgi bosqichi ham bozor, ham ishlab chiqarishni baynamilallashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. ITI zamonaviy qayta ishlab chiqarishda tashqi iqtisodiy aloqalarning roli o'sishini keltirib chiqaruvchi mustaqil omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Boshqa davlatlardan ajralgan holda u yoki bu mamlakatda fan va texnikaning rivojlanishi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin emas.



5.4-rasm. Milliy xo'jaliklar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish

Keyingi yillarda turli mamlakatlarning firmalari o'rtasida kooperatsiyalashuvning jadal rivojlanishi yirik xalqaro ishlab chiqarishinvestitsiya komplekslarining paydo bo'lishiga olib keldi, ularni tuzish tashabbuslari ko'pincha TMKlar hisoblanadilar. Ular uchun firma ichidagi mehnat taqsimoti milliy chegaralardan chiqib ulgurdi va mohiyatan xalqaro mehnat taqsimotiga aylandi. SHu asosida milliy iqtisodiyotlarning ochikligi darajasi oshib bormoqda. Ochiq iqtisodiyot mamlakatning jahon xo'jalik aloqalariga yanada ko'proq qo'shilishi asosida shakllanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ochiq iqtisodiyotni shakllantirishda eksportga mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish, xorijiy firmalar bilan kooperatsiyalashuvga ko'maklashish va chet eldan kapitallar, texnologiyalar, malakali kadrlar kirib kelishiga ko'maklashuvchi huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha davlat tashqi iqtisodiy strategiyasi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan va rivojlanayotgan ko'plab integratsion birlashmalar aslida o'z oldiga bir-biriga o'xshash vazifalarni qo'yadilar. Bular quyidagilardan iborat:

Iqtisodiyot ko‘lami ustunliklaridan foydalanish. Iqtisodiy ko‘lam nazariyasi asosida bozor hajmini kengaytirish, transaksion xarajatlarni kamaytirish va boshqa imtiyozlar olishni ta‘minlash.

Bu o‘z navbatida, o‘zlarining ehtiyojlarini qondiradigan, mustaqil ishlab chiqarishdan manfaati bo‘lgan katta hajmli bozorlarga bajonidil kirib keladigan bevosita chet el investitsiyalarining e‘tiborini tortishga imkon beradi.

Qulay tashqi siyosiy muhit yaratish. Ko‘plab integratsion birlashmalarning muhim maqsadi ularda ishtirok etuvchi davlatlarning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa noiqtisodiy sohalarda bir-birini tushunishi va hamkorligini mustahkamlashdir. Geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan va rivojlanish sohasida o‘xshash muammolarga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun qo‘shnilar bilan o‘zaro iqtisodiy majburiyatlar orqali mustahkamlangan do‘stona munosabatlarga ega bo‘lish muhim ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Savdo siyosatidagi vazifalarni hal qilish. Mintaqaviy integratsiya, ko‘pincha, GAAT JST doirasida ishtirok etayotgan mamlakatlarning muzokara nuqtai nazaridan olib karaladi. Mamlakatlar bloki nomidan kelishilgan holdagi bayonot ancha jiddiy hisoblanadi va savdo siyosati sohasida kutilgan natijalarni beradi.

Iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga ko‘maklashishi. Bozor iqtisodiyotini yoki tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatlarning ancha yuqori bozor iqtisodiyoti rivojlanishi darajasidagi mamlakatlar bilan mintaqaviy savdo bitimlariga qo‘shilishi bozor tajribalarini berishning muhim kamoli, bozorga yo‘naltirilgan kurs o‘zgarmasligining kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z qo‘shnilarini intergatsiya jarayonlariga qo‘shar ekanlar rivojlanganroq davlatlar ham o‘sha mamlakatlardagi to‘laqonli va katga hajmli bozorlarni yaratish hamda ulardagi bozor islohotlarining ildiz otishidan manfaatdor bo‘ladilar. Evropa Ittifoqining u yoki bu shakliga qo‘shila turib, ko‘plab G‘arbiy Evropa mamlakatlari shu maqsadlarni ko‘zlagan edilar.

5.4.Global iqtisodiyotga integratsiyalashuvda ishlab chiqarish va ilmiy-texnika hamkorligi.

Ishlab chiqarish sohasida xalqaro munosabatlarning jadal sur‘atdagi yo‘nalishi va xarakteri muayyan darajada integratsion jarayonning mazmuni va rivojlanishini belgilaydi. Umuman ishlab chiqarish bilan birga aloqa o‘rnatish sohalarini qamrab oladi. Savdo munosabatlari ko‘pincha ikkinchi – darajaga surilib, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining yakunlovchi bosqichiga aylanmoqda.

Energetik kambag'allik ko'lamini qisqartirish.

Energetik jihatdan kambag'al rivojlanayotgan davlatlarni ishonchli, zamonaviy, to'xtovsiz energetik xizmatlarga bo'lgan ta'minotini yaxshilash uchun hamkorlikni amaldagi ikkitomonlama va ko'ptomonlama mexanizmini takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

Energetika-mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning muhim qismidir.

Energiya resurs bozorlari faqatgina lokal tarmoqda mavjud bo'lgan holatlari qadimda qoldi. Avval neft, keyinchalik gaz bozorlari mintaqaviy, so'ngra global holatda rivojlana boshlandi.

5.5-rasm. Global iqtisodiyotga integratsiyalashuvda ishlab chiqarish va ilmiy-texnika hamkorligi¹⁷

Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligida bir nechta bosqichni belgilash mumkin:

Birinchi bosqich – mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashganligiga suyanadi, ya'ni bunda bir ishlab chiqarish sohasining (masalan, sanoat) mahsulotini boshqa soha (masalan, qishloq xo'jaligi) mahsulotiga ayirboshlash rivojlanadi;

Ikkinchi bosqich – qisman mehnat taqsimoti bazasi asosida shiddat bilan rivojlanayotgan tarmoqlararo ixtisoslashtirish bilan xarakterlanadi, avvalambor bu ishlab chiqarishning moddiy tarafdin soha tuzilishini murakkablashtirish, ya'ni sanoat sohalarini differentsiallashtirishdir;

Uchinchi bosqich – umumiy va xususiy mehnat taqsimotiga asoslanib, xalqaro tarmoqlar o'rtasidagi ixtisoslashtirishning rivojlanishi bilan xalqaro sohalar ichidagi ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish jarayoni bilan boshlanadi, bu xususiy hamda yakka mehnat taqsimotiga asoslangandir.

Ayrim mahsulotlar qismlarini (agregatlar, detallar) ishlab chiqarish nazarda tutilmoqda, maqsad - yangi texnika va texnologiya bazasini amaliy ishlab chiqarish, mehnat unumdorligini oshirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish va h.k. Tabiiyki, bu ixtisoslashtirish asosida yakunlovchi mahsulot (mashinalar, agregatlar, ishlab chiqarish ob'ektlari) chiqarish uchun keng miqyosdagi muvofiqlashgan (kooperatsion) aloqalarni yuzaga keltirini talab etiladi.

¹⁷ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik).– T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

energetik infratuzilma ob'yektlaridagi eng jiddiy xavfli joylarini aniqlash va kategoriyalarga ajratish;

terroristok aktlar bilan bog'liq tahdidlarni baholash;

energetikaning barcha tarmoqlarida xavfsizlikni ta'minlash borasidagi jahon tajribasini umumlashtirib axborot ma'lumotlarini ishlab chiqish va targ'ibot qilish;

infratuzilmani kritik muhim ob'yektlarini himoyalashni mukammallashtirish doirasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

5.6-rasm. Hayotiy muhim energetik infratuzilmaning xavflari va tahdidlari.

Ishlab chiqarish hamkorligi tushunchasi asosida xalqaro ixtisoslashtirish bilan kooperatsiya ishlab chiqarishi o'zaro bog'liqligi yotadi.

Xalqaro ishlab chiqarish koopertsiyasi turli mamlakatlarning bir xil yoki boshqa (turli) ishlab chiqarishdagi kundalik bir-biriga bog'liq ish jarayonlarida sub'ektlar va huquqiy shaxslarning birlashmasidir.

Shunday qilib, xalqaro ishlab chiqarish koopertsiyasi aniq ishlab chiqarish maqsadi asosida birlashib, faoliyat ko'rsatuvchi huquqiy shaxslar uyushmasidir.

Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining shakllarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

- ixtisoslashtirish va koopertsiya asosida ishlab chiqarish hamda savdo ishlarini muvofiqlashtiruvchi hamkorlik;

- ilmiy-texnika hamkorligi, pudrat (pay) asosida qurilish sohalarida faoliyat yuritish (qo'shma korxonalarga ega bo'lish).

Hamkorlikning bu shakllarni sof holda bo'lmasligi mumkin. Biroq amaliyotda ko'pincha firmalar muayyan mahsulotlar ishlab chiqarish qo'shma korxonalarini tashkil etadilar yoki sohalararo va ichki ixtisoslashtirilgan sohalar asosida ishlab chiqarish xizmatlarini o'taydilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilmiy, moliyaviy va moddiy resurslarni birlashtirish yo'li bilan ilmiy-tadqiqot hamda loyihalash ishlarining dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hamkorlik qilish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar guruhlar yoki tashkilotlari hamkorligini tuzish g'oyatda muhimdir. Xalqaro ixtisoslik asosdagi ishlab chiqarish hamkorligi, odatda, xalqaro integratsion jarayonlarning yuksak darajadagi taraqqiyotini aks ettiradi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, hozirgi paytda, ayniqsa mintqaviy integratsiyalashuv jarayonlaridagi iqtisodiy aloqalarda ko'proq iqtisodiyot ko'lami ustunliklaridan foydalanishga, qulay tashqi siyosiy muhitni yaratishga, hatto buning uchun harbiy bloklarga a'zo bo'lishga va yana savdo siyosatidagi vazifalarni hal qilishga hamda milliy iqtisodiyotni tarkibiy-tuzilmaviy tizimini,

yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun qayta qurishni ham amalga oshiradilar.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Integratsiya tushunchasi nimani anglatadi?
2. Cizning fikringizcha global iqtisodiyotga integratsiyalashuvni belgilovchi omillar nimadan iborat deb hisoblaysiz?
3. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi haqida sizning fikrlaringiz qanday?
4. Sizning fikringizcha tarmoq ichidagi ixtisoslashuvning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Siz ishlab chiqarish hamkorligining o'ziga xos belgilari nima deb hisoblaysiz? Sanab bering.
6. Mamlakatlarni jahon xo'jaligiga bog'liqligini kuchayishining sabablari?
7. O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining asosiy sabablari?
8. O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining asosiy yo'nalishlari?
9. Integratsion tuzilmalarning darajalari?
10. Iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv omillari?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktaria press, 2015. -584 b.
2. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. “Global iqtisodiyot” (O'quv qo'llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –bet.
3. Xodiev B.YU., SHodmonov SH.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: —Barkamol fayz media , 2018. – 783 bet.
4. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva: Ucheb. posobie / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. M.N. Osmovoy, kand. ekon. nauk, dots. A.V. Boychenko. - M.: INFRA-M, 2006. - VIII, 376 s.
5. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.

6-MAVZU: GLOBALLASHUV VA XALQARO SAVDONING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.

REJA:

- 6.1. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdoning o'rni;**
- 6.2. Global bozorlarning shakllanishi va ularning xususiyatlari;**
- 6.3. Globallashuv sharoitida tashqi savdoni tartibga solish usullari;**
- 6.4. Xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarishlarining xususiyatlari;**

6.1. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdoning o'rni.

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi, rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an'analaridagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o'tdiki, bu bosqichni —globallashuv deb atamoqdalar.

Yangi tushuncha iqtisodiyot, siyosat va madaniyatga ham birdek taalluqlidir. Biroq aynan iqtisodiyot globallashuvi barcha globallashuv jarayonlarining negizini tashkil etadi va o'rnatilgan jahon tuzilmasiga tahdid soladi. XX asrda global iqtisodiyot kuchli dinamizm bilan rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida

savdoning o'sish sur'atlari jahon yalpi mahsulotining o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq rivojlandi.

O'tgan asrning so'nggi yillarida jahon eksporti yalpi mahsulotga nisbatan 1,7 marta tezroq ko'paydi. Bu alohida mamlakatlarning milliy xo'jaligi tobora ko'proq darajada tashqi bozorga ishlayotganligini, eksport esa global mahsulotning chorak qismidan oshib ketganini ko'rsatadi.

Iqtisodiy globallashuv qator yangi sifat belgilariga egaligi tufayli uni iqtisodiy hayot baynalmilallashuvining alohida bosqichiga ajratish mumkinki, bu bosqich o'tgan asrning boshi yoki o'rtalariga nisbatan farq qiladi. Xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'liqligi hozirgi vaqtda nafaqat kuchliroq namoyon bo'lmoqda, balki global darajaga chiqib, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oladi. Albatta, eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotlari o'zaro birikib ketadi, lekin boshqa mamlakatlar ham turli tezlik va jadallik bilan umumjahon jarayonlariga jalb etiladi.

100 yil (1890-1990 yillar) ichida tovarlar eksporti va YAIMning
28 o'zaro nisbati

Germaniya	15,9%-24%
Frantsiya	14,2-17,1%
Italiya	9,7-15,9%
Yaponiya	5,1%-8,4%
AQSH	5,6%-8%
Buyuk Britaniya	27,3%-20,6%

²⁸ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

Kompyuter texnikasi va elektron telekommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, yuqori tezlikka va tejamkorlikka ega transportning paydo bo'lishi barcha qit'alar va davlatlarni bir-biriga yaqinlashtirdi, xalqaro ayirboshlashning keskin o'sishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratdi. Mamlakatdan mamlakatga ko'chayotgan tovarlar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchi oqimlari, global kompaniyalar va axborot tizimlari, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va korporatsiyalar faoliyati global iqtisodiyotni tashkil etadiki, unga barcha milliy xo'jaliklar u yoki bu darajada qo'shiladi. Global iqtisodiyotdagi har qanday uzilishlar xavf-xatarlarni olib keladi.

Iqtisodiy globallashuvning erishilgan darajasi ko'pgina bashoratlardan o'tib ketdi. YUqorida keltirilgan jahon tovarlar va xizmatlar eksporti va jahon yalpi ichki mahsuloti o'rtasidagi o'zaro nisbat global o'zaro bog'liqlikning haqiqiy ko'lamlarini kamaytiradi. Chunki jahon YAIMning 60% i xizmatlarga to'g'ri keladi, ularning ko'p qismi esa (ta'lim, tibbiy xizmat ko'rsatish, davlat boshqaruvi, ulgurji va chakana savdo) xalqaro savdoning predmeti hisoblanmaydi. Bu savdo qilinmaydigan (nontradable) deb ataluvchi, ya'ni xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan xizmatlardir. Jahon savdosida ishtirok etmaydigan xizmatlar chiqarib tashlangan jahon YAIMda tovarlar eksportining ulushi umumiy jahon YAIM

hajmida tovarlar eksportining ulushiga nisbatan ancha ko‘p (ayrim hisoblarga ko‘ra, deyarli 50%).

Yirik mamlakatlar Belgiya, Niderlandiya kabi kichik mamlakatlarga nisbatan ko‘proq ichki bozorga tayangan holda rivojlanishga qodir. Umuman olganda, hozirgi vaqtda qator mamlakatlar uchun jahon bozori milliy bozorga qo‘shimcha sifatida emas, balki xalq xo‘jaligi amal qilishining zaruriy shartiga aylandi. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda tashqi bozorning roli ichki bozorning roliga tenglashadi.


Bu baynalmilal o‘zaro bog‘liqlik va kooperatsiyaning yangi sifat darajasi bo‘lib, zamonaviy davrning alohida hodisasi sifatida global iqtisodiyot to‘g‘risida gapirishga imkon beradi.

6.2. Global bozorlarning shakllanishi va ularning xususiyatlari.

Hozirgi sharoitda globallashuv jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo o‘rishining muhim rag‘batlantiruvchi omiliga aylandi. U shaxsiy muloqot hamda inson shaxsining ijodiy salohiyati namoyon bo‘lishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. U ob‘ektiv xarakterga ega bo‘lib, sayyorada inson hamda tabiiy resurslarning notekis taqsimlanishi bilan asoslanadiki, ulardan yanada unumli foydalanish uchun xalqaro kooperatsiyani chuqurlashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

Globallashuvning iqtisodiyot liberallashtirishiga ta‘siri davlatlarni o‘zaro bog‘liqligi va xalqaro tashkilotlarda ishtirokining ortib borishida namoyon bo‘ldi. Aynan xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish davlatlarning davlat va nodavlat segmentlarini qamrab olgan institutsional tuzilmalarining shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy globallashuv jahon bozorlari va inson faoliyatining barcha sohalaridagi hududiy iqtisodiyotlarning tizimlashgan integratsiyasi bilan tavsiflanadi, buning natijasida barqaror iqtisodiy o‘rish, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullari tatbiq etilishining tezlashishi yuzaga keladi.




6.1-rasm. Globallashuv turli mamlakatlar o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligining o‘rishi sifatida belgilanishi¹⁸

Globallashuv rivojlanishi hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyati shundaki,

¹⁸ Xajiyev B, Mamaraximov B. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan o‘quv uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2017.

jahon xo‘jaligi mamlakatlarining nafaqat o‘zaro, balki jahon xo‘jaligining yaxlit tarzidagi holati va o‘shish sur‘atlariga bog‘liqligi ham tobora ortib bormoqda.



6.2-rasm. Globallashuvning asosiy belgilari¹⁹

O‘zbekiston Respublikasi hukumati integratsion jarayonlar rivojlanishi va bozor o‘zgarishlariga alohida ahamiyat berayotgan va —asosiy ustuvor yo‘nalish - bozor islohotlarini chuqurlashtirish va keyingi iqtisodiy liberallashtirish bo‘lib qolayotgan hozirgi zamonaviy sharoitlarda —hududiy va jahon bozorlaridagi talablar va raqobatning keskin shakllari ortib boradi, ular, o‘z navbatida, —navbatdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish zaruriyatini ob‘ektiv holda talab etuvchi omillarga aylanadi. Faqat barqaror iqtisodiy rivojlanish va to‘liq quvvatdagi bozor infratuzilmasini shakllantirishgina bizning mamlakatimizga global jahon xo‘jaligi tizimiga samarali integratsiyalashish imkonini beradi.

Iqtisodiy fanda —globallashuv rivojlanish davrlari orqali belgilanuvchi iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘riladi. Birinchi davr - XIX-XX asr oralig‘i. Bu davrda o‘zaro savdo va investitsiyalarning telefon, paroxod va konveyerlar tufayli global miqyosda kengayishi hisobiga insoniyat yaqinlashish fazasiga kirdi. Globallashuvning ilk namoyondalari R.Kobden va D.Brayt ushbu masalalarni ilmiy jihatdan erkin savdo faol tarzda jahon iqtisodiy o‘shishiga aylanishi to‘g‘risidagi tezisida ko‘rsatib berdilar.

—Iqtisodiy globallashuv tushunchasi mazmunidan kelib chiqib, quyidagi bir necha darajaga ajratiladi: umumjahon, davlat, tarmoq va alohida kompaniya darajasi. Ularning har biri uchun o‘z mezonlari mavjud. Umumjahon ma‘nosida globallashuv ko‘pincha turli mamlakatlar o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligining o‘shishi sifatida belgilanadi hamda tovarlar, xizmatlar, moliyaviy resurslar va texnologiyalarni xalqaro ayirboshlashning o‘shishi bilan ifodalanadi.

Alohida davlat darajasidagi globallashuv davlat iqtisodiyoti va jahon xo‘jaligi munosabatlarining intensivligi sifatida tushuniladi. Alohida mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga tortilish darajasi turlicha bo‘lib quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi - mamlakat yalpi milliy mahsulotidagi eksport va import ulushi, xorijiy investitsiyalar hajmi, texnologiyalar almashinuvidan to‘lovlar kelishi va ketishi.

Tarmoq globallashuvi asosiy ko‘rsatkichlari tashqi bozorda sotilgan

¹⁹ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.


mahsulotning ushbu tarmoq mahsuloti umumiy hajmidagi ulushi, shuningdek unga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning ushbu tarmoqqa kiritilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmidagi ulushi hisoblanadi. Aniq bir kompaniyaning jahon xo'jaligi munosabatlariga tortilganligi uning xorijdan olayotgan daromadlari hamda uning jahonning turli hududlaridagi shoxobchalari orqali halqaro kapital, tovar va texnologiyalar ayirboshlashdagi ishtiroki bilan belgilanadi.

6.3. Globallashuv sharoitida tashqi savdoni tartibga solish usullari.

Jahon tajribasiga ko'ra, zamonaviy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish davomli jarayon bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy strategiya ishlab chiqilishini, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, xo'jalik aloqalari shakl va usullarini tubdan qayta tuzishni talab etadi.

Globallashuvning hukumat faoliyatiga ta'siri juda murakkab bo'lib, o'z ichiga siyosatdagi har xil kuchlar muvozanatini va ta'sirini qamrab oladi. Birinchi qarashda, globallashuv ba'zi bir milliy monopoliyalarni - aloqa, TV, radioni buzadi. Xalqaro telefon xizmati va fakslar jo'natilishi, odatda, boshqa tovarlar va xizmatlarga qaraganda oddiy aholi uchun ancha arzon. Bugungi kunda Internet haqiqatan ham global tarmoq bo'lib, kommunakatsiyalar va axborot almashuvida katta imkoniyatlar yaratadi.

Bu o'zgarishlar davlat funktsiyalarini faqat kamaytirib qolmasdan, balki aholining milliy tegishliligi hissasini pasaytiradi. Biroq ushbu o'zgarishlarning ahamiyatini oshirib yubormaslik kerak. Davlat modem, faks va shu kabilarni ishlab chiqarish va ishlatishni nazorat qiladi. Davlat televizion stantsiyalar, simsiz telefonlar uchun radiochastotalardan foydalanish uchun litsenziyalar berilishini ham nazorat qiladi. Davlat sirlarini, kompyuter tarmoqlari bilan ishlashning hususiy mulkchilik huquqini himoyalash uchun texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy global kommunakatsiya tizimi davlatning kuchsizlanishiga olib keladi, deb hisoblash qo'pol xatodir.



6.3-rasm. Globallashuv siyosatdagi kuchlar muvozanati va ta'siri²⁰

Shunga o'xshash holatni davlat tomonidan iqtisodiyotning rivojlanishini

²⁰ Xajiyev B, Mamaraximov B. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan o'quv uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2017.

tartibga solinishi nazarda tutilishini iqtisodiyotda ham ko‘ramiz. Bu borada bir nechta muammo ko‘rib chiqilmoqda. Birinchidan, global bozorlarning, ayniqsa bir kunlik aylanishi 1 trillion dollarni tashkil etuvchi valyuta bozorining faoliyati. Bu faoliyat, masalan, ishsizlik, inflyatsiya darajasini tartibga solish bo‘yicha davlat tomonidan o‘tkazilayotgan mustaqil milliy siyosatni o‘rnatishga putur etkazadi. Ikkinchidan, qisqa muddatli va uzoq muddatli kapital, yuqori malakaga ega mehnat resurslari kabi ishlab chiqarishning yuqori safarbarligini ko‘rsatuvchi omillar davlat tomonidan ishlab chiqarishni joylashtirish, daromadning taqsimlanishi, soliq stavkalarini o‘rnatilishi va atrof muhitni muhofaza qilish va ish bilan band qilish sohalari ustidan nazoratni ancha kamaytiradi.

Shunday qilib, globallashuv davlatlarning iqtisodiy siyosat sohasidagi harakatlarini cheklaydi, lekin uni bekor qilmaydi.

Alohida olingan mamlakatlar uchun globallashuvdan keladigan foyda yoki yo‘qotishlar integratsiya bilan emas, balki bu mamlakatlar ichki bozorining tuzilmasi xususiyatlari bilan ko‘proq bog‘liq. Globallashuv raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. SHu sababli jahon bozoriga chiqish muvaffaqiyat kafolati hisoblanmaydi. Masalan, kemasozlik, aviatashish xizmatlari, kimyoviy qayta ishlash, po‘lat ishlab chiqarish kabi sohalar xalqaro raqobat sharoitida o‘z daromadlarini yo‘qotib, tavakkal qilishga majbur bo‘lmoqdalar. Globallashuv jahon bozorida to‘g‘ri strategiyani tanlay olganlarga eng ko‘p foyda keltiradi va bu bilan xalqaro raqobatning salbiy ta‘sirini kamaytiradi.

Globallashuv fenomenining mohiyati shundaki, u jahon bozorida tan olingan va tan olinmaganlarning foydalari farqini kuchaytiradi. Bu hamma sohalarda (sport, san‘at, fan, musiqa, bank ishi yoki korporativ sohalar) ham o‘z aksini topadi.

Hozirgi sharoitda tashqi savdo siyosati davlatning iqtisodiy tizimiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim vosita hisoblanadi va tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

6.4. Xalqaro savdo dinamikasi va o‘zgarishlarining xususiyatlari.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida xalqaro savdoning mavqei XX asrda tobora oshib bordi. Buning asosida, birinchi navbatda, xalqaro savdoning hajmi 1870 yillardan boshlab muntazam ravishda o‘sib borishi yotar edi. Agar 1870-1913 yillarda eksportning o‘rtacha yillik o‘sishi 3,4 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 1950-2015 yillarda bu ko‘rsatkich 6,2 foizni tashkil etdi, savdoni YAIMdagi ulushi esa ushbu davrda 4,6 foizdan 19,4 foizgacha oshdi.

XX asrning 50-yillaridan so‘ng jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo tez sur‘atlar bilan rivojlana boshladi. Jahon eksporti 1948 yilda atigi 59 mlrd. dollarga teng bo‘lgan. Ushbu davr ichida mintaqalarning jahon eksportidagi hissasi ham o‘zgardi: SHimoliy Amerikaning hissasi 28,1 foizdan 14,5 foizgacha tushgan bo‘lsa, YAqin SHarq va Osiyoning ulushi esa qariyb ikki barobar o‘ydi.

raqobat kurashining keskinlashishi;

valuta kurslarining nobarqarorligi;

to'lov balanslarining kamomadlari;

o'tish davri iqtisodiyotidagi va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlar
kabilar.

6.4-rasm. Tashqi savdoni tartibga solish vositalari²¹

1950-2015 yillar orasidagi davrda xalqaro savdoda tovar aylanmasi 1415 barobar o'sdi. Mutaxassislarning fikricha, 1950-1970 yillarni xalqaro savdoning —oltin asri deb aytilish mumkin. Aynan ana shu davrda jahon eksporti yiliga o'rtacha 6-7% ga o'sdi. Ammo, 70-yillarda u 5,5% ga tushib, 80yillarda yanada kamaygan edi. 80-yillarning oxirida va 90-yillarda jahon eksporti sezilarli ravishda jonlanganligini ko'rishimiz mumkin (90yillarning o'rtasida 8-9% ni tashkil etgan). Bu davrda xalqaro savdoning barqaror o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ular quyidagilardir:

xalqaro mehnat taqsimotni va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvining rivojlanishi;

ilmiy-texnika inqilobi (ITI);

jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati;


xalqaro savdoning Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) faoliyati orqali tartibga solinishi (erkinlashtirilishi);

xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko'plab davlatlarning importni son jihatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qisqartiruvchi rejimga o'tishlari, erkin savdo hududlarining tashkil topishi;

savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi. Mintaqaviy to'siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo hududlarining tashkil etilishi;

sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishlari. Ularning orasida tashqi bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan —yangi industrial davlatlarning ajralib chiqishi va h.k.

²¹ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.



6.5-rasm. Tashqi savdo siyosatining raqobat qiluvchi yoʻnalishlari²²

XX asrning 50-yillaridan soʻng jahon iqtisodiyotida tashqi savdo dinamikasining notekisligi namoyon boʻla boshladi. Bu esa, oʻz navbatida jahon bozoridagi davlatlar oʻrtasidagi kuchlar nisbatiga taʼsir koʻrsatdi. Jahon iqtisodiyotida AQSHning hukmronligi pasaya boshladi. Oʻz navbatida, Germaniya eksporti Amerikanikiga yaqinlashib va hatto ayrim yillarda undan ham oshib ketdi. Germaniyadan tashqari boshqa Gʻarbiy Evropa davlatlarining eksporti ham oʻsdi. 90-yillarda Gʻarbiy Evropa xalqaro savdoning asosiy markazlaridan biriga aylandi.

XX asrning 80-yillarga kelib xalqaro savdo sohasida YAponiya katta oʻsishga erishdi. 1983 yilda u birinchi marta mashina va eksporti boʻyicha birinchi oʻringa chiqdi. YAponiya jahonda engil va yuk avtomillarini, kundalik elektrotexnika asbob-uskunalar va boshqalarni olib chiqish boʻyicha boshqa davlatlardan ancha oldinlab ketdi. YAponiya eksportining 1/3 qismi AQSHga toʻgʻri keladi.

Sof holda deyarli mavjud boʻlmaydi, chunki unga koʻra boshqa mamlakatlar bilan tashqi savdo sohasida ayirboshlash bilan bogʻliq boʻlgan munosabatlarga davlatning aralashuvi talab qilinadi. Haqiqatda esa koʻrsatib oʻtilgan jarayonlarga davlatning aralashuvi minimallashtiriladi.

6.6-rasm. Erkin savdo siyosati

Oxirgi yillarda ham jahon savdosining oʻsishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayon barcha mintaqalarga taalluqlidir. Eksport va importning eng tez oʻsish surʼatlari Janubiy va Markaziy Amerika, MDH, YAqin SHarq va Osiyoda kuzatilmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar hozircha rivojlangan davlatlar uchun asosan xom ashyo etkazib beruvchi boʻlib qolmoqda. Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlar jahon oziq-ovqat va xom-ashyo eksportidagi ulushini yildan-yilga oshib bormoqda.

²² Xajiyev B, Mamaraximov B. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan oʻquv uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2017.

Bu boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish siyosatidir. Bu siyosatning maqsadi milliy kompaniyalarning milliy va xorijiy bozorlardagi faoliyatiga xorijiy raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu ichki bozorni himoyalash va milliy kompaniyalarning xorijiy bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashish orqali amalga oshiriladi.

6.7-rasm. Proteksionizm siyosati²³

Rivojlanayotgan davlatlar o'z eksportlarini sanoat tovarlari hisobiga diversifikatsiya qilishga urinishlari sanoati rivojlangan davlatlarning u yoki bu shakldagi qarshiligiga duch kelmoqda. SHu bilan birga ba'zi bir rivojlanayotgan davlatlar, ayniqsa, —yangi industrial davlatlar o'z eksportlarining restrukturalashtirishda ancha muvaffaqiyatga erishib, unda tayyor mahsulotlar, sanoat mahsulotlarni, shu jumladan, mashina va uskunalarning ulushini ko'paytirmoqda.

Xulosa qilib aytish shuni mumkinki, umuman olganda, globallashuv jarayonlarida, uning dastlabki bosqichidan boshlab xalqaro savdoning roli juda katta. SHuning uchun ham, BJSTga O'zbekistonning a'zo bo'lishi natijasida yuzaga keladigan potentsial samara bu qisqa muddatli davrda mahsulot eksportini jahon bozorida yuz beradigan to'siq va chegaralanishlardan himoya qilish shartlarini yaxshilashdan iborat bo'ladi. Uzoq muddatli davrda esa mehnat unumdorligini oshirib, ichki va jahon bozorida xarajatlarni kamaytirish asosida korxonada ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishga erishildi. Bu holatlar tuzilmaviy o'zgarishlar jarayonini jadallashtirib eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy tizimni shakllantirishga, chet el investitsiyalarini o'stirishga, jahon xo'jaligi aloqalarida qatnashishga imkon yaratadi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Xalqaro savdoning rivojlanishi va jahon bozorini vujudga kelishining bosqichlari?
2. Sizning fikringizcha global iqtisodiyotni shakllanishida xalqaro savdo qanday rol o'ynadi?
3. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdoning o'rni va ahamiyati haqida sizning fikringiz qanday?
4. Sizning fikringizcha tashqi savdoni tartibga solishda qanday usullardan foydalaniladi?
5. Sizning fikringizcha XX asrda xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarishlarining asosiy xususiyatlari nimadan iborat bo'ldi?
6. Iqtisodiy integratsiyalashuvda xalqaro savdoning o'rni va roli?
7. Global bozorlarning shakllanishida xalqaro savdoning o'rni va roli?
8. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etilishining asosiy sabablari?

9. Erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati va turlari?
10. Erkin iqtisodiy hududlarning iqtisodiyotni globallashtirishdagi roli va ahamiyati?
11. Globallashtirish jarayonlarida erkin savdo siyosatining ahamiyati?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
2. Xodiev B.YU., SHodmonov SH.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: —Barkamol fayz media , 2018. – 783 bet.
3. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. “Global iqtisodiyot” (O‘quv qo‘llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –bet.
4. Livshits A. Prisoedinenie stran SNG k VTO: problemy i resheniya Vneshneekonomicheskii byulleten. – M. 2003. №2.
5. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.

III-BOB. GLOBAL BOZORLARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.

7-MAVZU: GLOBAL, MINTAQAVIY VA MILLIY MOLIYAVIY BOZORLARI

REJA:

7.1. Global moliyaviy bozorlarning shakllanishi;

7.2. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning xalqaro moliyaviy munosabatlaridagi o'rnini;

7.3. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarda davlatning moliyaviy siyosati;

7.4. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida xalqaro moliyaviy munosabatlarining o'rnini.

7.1. Global moliyaviy bozorlarning shakllanishi.

XX asrning so'nggi yillarida sobiq Ittifoqning parchalanishi, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishi, milliy xo'jalik aloqalarining integratsiyalashuvi bilan globallashuv jarayonlarining jadallashuvi yuz berdi. Globallashuv natijasida jahon xo'jaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy hamda texnologik to'siqlarning yo'qolishiga, uning o'rniga xalqaro iqtisodiy xo'jalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xalqaro xo'jalikning funktsional aloqalarini tatbiq etilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlar hayotidagi globallashuv – iqtisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital hamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon bo'lmoqda.

XXI asrda jahon iqtisodiyotida to'rtta asosiy an'ana kuzatiladi.

Birinchidan, xom ashyo eksportiga asoslangan hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlar. Xom ashyo etkazib beruvchi mamlakatlar va sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida an'anaviy iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lib, ularning o'zaro munosabatlar modeli quyidagicha edi: xom ashyo etkazib beruvchi mamlakatlar xom ashyoni eksport qilib, olingan valyuta tushumlaridan sanoat mahsulotlari importini moliyalashtirganlar.

XX asrning 70-yillarida "Rim klubi" nomi bilan mashhur G'arbiy Evropa olimlari dunyo miqyosida tez orada tabiiy resurslarning global taqchilligi yuzaga keladi deb bashorat qilgan edilar. Ushbu mulohazalarga asoslanib, ko'pgina xom ashyo etkazib beruvchi mamlakatlar xom ashyo sotish evaziga valyuta tushumini oshirish maqsadida kartellarga birlashdilar. Ammo sanoat texnologiyasi va qishloq xo'jalik sohasining keskin rivojlanishi xom ashyoga bo'lgan talabning qisqarishiga ta'sir ko'rsatdi va natijada xom ashyo bahosining pasayishi yuz berdi.

Ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan, bilim va malakaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tildi. Jahon iqtisodiy tuzilmasidagi ushbu o'zgarishlar natijasida bandlik tarkibida yuqori malaka talab qiluvchi mutaxassislarga ehtiyoj ortib, nisbatan past malakali

mutaxassislarga talab pasayib bordi. Axborot almashuvining osonligi tadbirkorlik faoliyatini, kichik biznes va shaxsiy tashabbusni rag'batlantirdi.

-1950 yillardan boshlab AQSH korporatsiyalarining o'z xorijiy faoliyatlarini kengaytirishga intilishi. Jahon bozorida Yevropa va Yaponiya korporatsiyalari faoliyatining sezilarli o'sishi, xalqaro maydonda ular va AQSH korporatsiyalari o'rtasidagi raqobatning kuchayishi;

- 1957 yilda Londonda Britaniya hukumatining funt-sterling ustidan nazorat o'tatishiga javob tariqasida yevrodollar bozorining yuzaga kelishi;

- 1958 yilda dastlab "Umumiy bozor" deb atalgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (EIH) - hozirgi Yevropa Ittifoqining (YEI) tashkil topishi;

7.1-rasm. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhiti shakllanishiga ta'sir etgan o'zgarishlar.

Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish bilimni va yuqori malakani talab qildi, shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish uchun inson kapitaliga investitsiya qilishning ahamiyati ortdi.

Uchinchidan, jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital harakatining sezilarli darajada ortishi. Ushbu o'zgarish xalqaro savdoga nisbatan xalqaro kapital harakatining tez sur'atda o'sishi bilan yuz berdi.

- XX asming 60-yillarida Yaponiya iqtisodiyotini tez sur'atlar bilan o'sishi, Uzoq Sharq biznes faoliyatida yangi imkoniyatlarning vujudga kelishi;

- 1971-1973 yillarda Brettonvuds tizimini qulashiga olib kelgan jahon moliya inqirozlari, valutaning belgilangan kursi tizimidan suzuvchi valuta kurslariga o'tish;

- 1971-1979 yillardagi birinchi va ikkinchi neft inqirozlarining jahon iqtisodiy tizimiga bosim o'tkazishi. Ushbu davrda neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkilotining (OPEK) neft narxini sezilarli darajada oshirishi;

- 1982 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq jahon qarzdorlik inqirozining boshlanishi;

7.2-rasm. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhiti shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar.

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan ko'lamlari, balki kapitalni olib chiqish, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlari shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valyuta bozorlaridagi aylanmalar savdo aylanmalaridan o'nlab, ba'zan yuzlab marta ortiqdir. 1997 yilda jahon aktsiyalar savdosi aylanmasi 40 trln. dollar, mamlakatlar o'rtasida valyutani xarid

qilish va sotish hajmi 400 trln. dollar deb baholangan edi.

Davlatlar, xalqaro tashkilotlar, banklar, xususiy kompaniyalar tomonidan beriladigan xalqaro kreditlar ulkan hajmlarda amalga oshirilmoqda.

To'rtinchidan, transmilliy korporatsiyalarning qo'shma korxonalarni tashkil etish uchun xalqaro investitsiyalari va hamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi. Bunda asosiy o'zgarish sifatida TMKlar va ularning turli mamlakatlardagi qo'shma korxonalar sonining o'sib borishini ko'rish mumkin.

TMKlar o'zlarining tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo'l bilan tovarlar, xizmatlar, kapital va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ta'sir etdi. Qo'shma korxonalar xalqaro biznes integratsiyasining keng tarqalgan shakliga aylandi.

Shuningdek jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur. Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro institutlar hamda etakchi mamlakatlar rahbarlari va moliya vazirlarining har yili bo'lib o'tadigan uchrashuvlarining xalqaro munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Texnologiyalar bo'yicha, atrof-muhitni asrash, moliya institutlarining faoliyati, buxgalteriya hisobotlari, milliy statistika (milliy hisoblar tizimi) va boshqalarga yagona andozalarni qo'llash kengaymoqda. Ushbu andozalar ta'lim va madaniy sohalarga ham yoyilmoqda.

7.2. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning xalqaro moliyaviy munosabatlardagi o'rni.

Davlatlararo har tomonlama hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida xalqaro tashkilotlar va fondlar yuzaga chiqmoqda. Ular siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda umumiy tusdagi maqsadlarga erishish uchun davlatlar, milliy institutlar, nodavlat assotsiatsiyalarini birlashtiradi. Xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish uchun o'z fondlarini tashkil etadilar.

Davlatlararo kelishuvlar asosida ishtirokchi davlatlarning yagona moliya va kredit siyosatlarini amalga oshirish uchun pul mablag'larining davlatlararo maqsadli fondlari tuziladi. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi.

Birinchi turga moliya-kredit tashkilotlarining davlatlararo va xalqaro fondlari kiradi. Ular nizom kapitalida ishtirok etuvchilarga maqsadli kreditlar ajratadilar va maqsadli fondlarni tashkil etadilar. Bu tashkilotlar faoliyati davomida olgan daromadlaridan ulushiga ko'ra dividend to'laydilar hamda turli maqsadlar uchun zahira fondlarini shakllantiradilar. Mazkur tashkilotlar jumlasiga Xalqaro Investitsiya bankini (XIB), Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik bankini (XIHB), ETTB, XVFni kiritish mumkin.

XVF BMTning maxsus tashkiloti bo'lib, uni tuzish to'g'risidagi kelishuv 1944 yilda Bretton-Vudsdagi valuta-moliya masalalari bo'yicha bo'lib o'tgan BMT konferensiyasida imzolangan. 1945 yilning 27 dekabrda ushbu kelishuv kuchga kirgan. XVF amalda o'z faoliyatini 1946 yildan boshladi. Brettonvuds kelishuviga muvofiq XVFning vazifasi unga a'zo bo'lgan mamlakatlarning oltin va AQSH dollarida ifodalangan valuta zahiralari tartibga solish hamda a'zo mamlakatlarning valuta paritetlarining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

7.3-rasm. Xalqaro valyuta fondining tashkil topishi va rivojlanishi.

Xalqaro banklar va fondlarning nizom kapitalining shakllanishida, olingan daromadlarni taqsimlab, turli fondlarni tashkil etishda moliya munosabatlari katta rol o'ynaydi.

Milliy va xalqaro moliya-kredit institutlarining mablag'lari, xalqaro ishtirokchi-tashkilotlar fondi, manfaatdor mamlakatlarning valyuta fondlari va byudjet mablag'lari to'lanadigan badallarning manbasi hisoblanadi.

Efida ham qator davlatlararo fondlar tashkil etilgan, jumladan, Efining byudjeti, Evropa Taraqqiyot fondi, Evropa Valyuta Hamkorlik fondi va boshqalar.

Ikkinchi tur tashkilotlarning byudjetlari ishtirokchilarning har yillik badallari evaziga tashkil etiladi. Bunday tashkilotlarga ma'lum sohalaridagi milliy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi xalqaro va umumjahon institutlari kiradi. Ularga BMT, Xalqaro vaqt byurosi, Atom energetikasi bo'yicha xalqaro agentlik, Dengiz aloqasi bo'yicha xalqaro tashkilot, Ilmiy xizmatchilarning umumjahon federatsiyasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Uchinchi tur xalqaro tashkilotlarga vaqtinchalik tusga ega bo'lgan ilmiy dasturlar va kongresslarni kiritish mumkin. Ularni moliyalashtirish

qatnashuvchi ishtirokchilar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Xalqaro biologiya dasturi (1964-1974 yy.), Xalqaro geodinamik loyiha (1971-1980 yy.), Xalqaro osoyishta quyosh yili (1964-1965 yy.), 1957 yildan boshlab har ikki-uch yilda chaqiriladigan Xalqaro tog' kongressi va boshqalar. Ushbu tashkilotlar turli mamlakat olimlari bilan yaxlit ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

To'rtinchi tur xalqaro tashkilotlar xalqaro ilmiy laboratoriyalar, institutlar, ittifoqlar, yaxlit va sohalar assotsiatsiyalari, ma'lum ilmiy sohalar bo'yicha byurolardan iborat. Ular mamlakatlarni, milliy ilmiy tashkilotlarni, assotsiatsiyalarni, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan alohida olimlarni birlashtiradi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu tashkilotlar yillik ulushli badallar, konferentsiyalarda ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya mablag'lari, davriy ilmiy nashrlardan daromadlar hisobidan tashkil etiladigan byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladilar. Mazkur tashkilotlarga misol qilib milliy va qo'shma dasturlar bo'yicha ishlaydigan Kuchli magnit maydonlari va past xarorat bo'yicha xalqaro fond, Xalqaro matematik markaz va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Beshinchi tur xalqaro tashkilotlar faoliyatning ma'lum sohalariga ko'maklashish va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag'larni yig'ish bilan shug'ullanadilar.

7.3. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida davlatning moliyaviy siyosati.

Globallashuv jarayonlari jahon xo'jaligida ishtirok etuvchi har bir mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum miqdorda ta'sir etadi. Bozorning turli ishtirokchilari o'z manfaatlari yo'lida harakat qilib, zanjirsimon jarayonni vujudga keltiradilar. Ularning faoliyat yuritish uslubi doimiy tarzda o'zgarib turishi sababli jahon xo'jaligi sohalarining bir-biriga bog'liqlik darajasi oshib bormoqda. Georg Fisherning ta'kidlashicha, jahon xo'jaligida global o'zgarishlar tarqalishining texnik mexanizmi mavjud. Bunga —Buyuk depressiya misol bo'lib, inqiroz bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'pincha zanjirsimon shaklda tarqalgan: bozorning pasayishi - kapitalning boy berilishi - talabning qisqarishi, ishlab chiqarishni qisqartirish - davlat tomonidan import qiluvchilarga nisbatan bojxona to'siqlarining o'rnatilishi - xalqaro savdo kamayishi - savdo-sotiq bo'yicha hamkor mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi - tovar sifatini bojxona to'siqlarini o'rnatilishini va hokazo.

Bundan tashqari, bozor ishtirokchilari ko'pchilik mamlakatlarda tarqalgan biznes yuritishning tamoyillarini qayta shakllantirmoqdalar. Ular go'yoki faoliyat maydonida o'zlarining tashkiliy va texnik to'rlarini yoyib tashlamoqdalar. Bu kabi korporativ to'rlar bilan birgalikda diasporaviy, diniy, mafiozli va megapolisli to'rlar ham shakllangan. Tovar va pul oqimi bilan hamohang bu kabi tarmoqlar transmilliylashuv va o'zaro bog'liqlik darajasining yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Mahalliy hukumatlarning xalqaro miqyosida amalga oshiradigan vazifalari o'zgarmoqda. Nodavlat birlashmalarining xalqaro munosabatlarga shiddat bilan kirib kelishi davlatlar hukumatlarining xalqaro miqyosidagi monopolligiga to'sqinlik qilib, siyosiy xokimiyatni barcha masalalar - iqtisodiyotdan tortib diniy va madaniy masalalargacha jamiyat fikri bilan murosa qilishga majbur qilmoqda.

Bugungi kunda XVFnning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- valuta siyosati sohasidagi xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- valuta siyosati sohasida balanslashgan rivojlanishda hamkorlik qilish;
- yuqori bandlik darajasi hamda real daromadlarni ta'minlash va rag'batlantirish, barcha a'zo-mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini asosini tashkil etuvchi, ishlab chiqarish potensialini rivojlantirish uchun jahon savdosining balanslashgan o'sishini barqarorlashtirish;
- valuta barqarorligini ta'minlash va a'zo-mamlakatlar o'rtasida valuta munosabatlarini soddalashtirish, shuningdek raqobat muhitini shakllantirish nuktai nazaridan kelib chiqqan sodda valuta devalvatsiyasini oldini olish;
- ko'p tarmoqli to'lov tizimlarini tashkil etishda ishtirok etish, shuningdek valutani o'tkazish bilan bog'liq cheklovlarni bekor qilish;
- a'zo-mamlakatlar to'lov balanslari taqchilligini yo'qotish uchun mablag'lar berish.

7.4-rasm. XVFnning asosiy maqsadlari.

Globallashuv sharoitida bu kabi jarayonlarning sodir bo'lishi shubhasiz, o'tish iqtisodiyotli mamlakatlarda tegishli iqtisodiy siyosatni olib borishini taqozo etadi. Bu vaqtda iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon ho'jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu vaziyatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni ham minimallashtirishdan iboratdir.

Har bir davlatning yillar davomida shakllangan o'z tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanish xususiyatlari mavjud bo'lib, boshqa mamlakatlarning tajribalarini ko'r-ko'rona ko'chirib olish yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan, iqtisodiy rivojlanishning hamma uchun umumiy retseptlarini qo'llash samarasiz bo'lishi va iqtisodiy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ham globallashuv jarayonida munosib siyosat yuritish ustida bosh qotirib, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshlik darajasini oshirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Globallashuv sharoitida amalga oshiriladigan vazifalarning bozor tamoyillariga qat'iy amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

Xususiyashtirish. Globallashuv sharoitida xususiylashtirish va unga xos mulkchilikning milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishdagi o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z daromadini maksimallashtirishdan manfaatdor mulkdorlar sinfining shakllanishi iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish, tovarlar sifatini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda eng muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy muhitda xususiylashtirish mulkchilik iste'molchilar talabiga munosib javob beradi, raqobatdoshlik ustuvorliklariga faol ta'sir o'tkazadi, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishga sababchi bo'ladi, iqtisodiy o'sish

sur'atlariga hamohang faoliyat olib boradi hamda ilmiytexnik taraqqiyotni jadallashtiradi. Xususiyl korxona rahbari har qanday sharoitda faoliyat bilan bog'liq mas'uliyatni to'la qonli ravishda o'z zimmasiga ola biladi. Korxonaning yuqori daromadli faoliyat yuritishidan birinchi o'rinda manfaaddor hisoblangan rahbar ichki imkoniyatlarni to'g'ri baholash, strategiyani aniq belgilash, kutilishi mumkin bo'lgan xavfni puxta anglab etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda ustuvor yo'nalishlar korxona salohiyatini to'liq anglab etish imkoniyatidan holi hisoblangan yuqori tashkilotlar tomonidan emas, balki bevosita mutasaddi rahbar tomonidan belgilanadi.

7.4.Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida xalqaro moliyaviy munosabatlarning o'rni.

O'tgan muddat jahon iqtisodiyotida muhim globallashuv jarayonlari yuz berganligi bilan ajralib turadi. Milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashib borishi xalqaro resurslar harakatining hajmlari va xarakteriga ta'sir qilish darajasiga chiqib bormoqda. Xalqaro savdoning yanada kengayishi imkoniyatlari, faqatgina xalqaro kelishuvlarni moliyalashtiruvchi bank sektori imkoniyatlari bilangina chegaralanib qolmoqda. Jahon moliya bozorlarining o'sishi, ular raqobatdoshligining oshishi va faoliyat doiralarining kengayishi daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishiga imkoniyat yaratadi. Jiddiy moliyaviy muammolar domiga tushib qolgan (investitsiyalar va asbob-uskunalar, xom ashyo, ehtiyoj qismlar importi hajmining chegaralanganligi, shuningdek, ular tomonidan tuzilgan savdo shartnomalariga ishonchning pastligi) uchinchi dunyo mamlakatlari kengayib borayotgan jahon moliya bozorlarida qatnashishni faollashtirgan holda rivojlanishning yangi imkoniyatlarini ochishi va iqtisodiy muammolarni hal qilishda tanlov va qarorlar xilma-xilligini oshirishi mumkin.

Lekin hozirgi davrda hanuzgacha uchinchi dunyo mamlakatlari xalqaro bozorlar globallashuvidan yutadimi yoki yo'qmi aniq emas. Bir qator sabablar tufayli rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida to'laqonli qatnashish imkoniyatlari xali mavjud emas.



7.5-rasm. Inqirozning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga tarqalishi

Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

1. Respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;
2. Eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun, avvalo qimmatbag'o xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish;
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, x o 'jalik ishlarini yurituvchi sub'yektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o 'matishda o'z mahsulotlarini chet ellarda sotishda ko'prok erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat o'tkazish;
4. Xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa sharoitlarni yaratish;
5. Xalqaro moliyaviy munosabatlarning tarkibiy majmuini vujudga keltirish;
6. Xalqaro huquq va xalqaro moliyaviy munosabatlar sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish.

7.6-rasm. Tashqi savdoning ustuvor yo'nalishlari.

Milliy bozorlar tobora ochiqlashib borayotgan bir paytda jahon bozorlariga chiqish hali ham qiyin bo'lib qolmoqda. Masalan, uchinchi dunyo mamlakatlari mahsulotlariga nisbatan proteksionizm oxirgi o'n yillikda sezilarli darajada kuchaydi, shuningdek, bu guruhdagi davlatlarning qarz olish foizlari sanoati rivojlangan davlatlarning xuddi shu ko'rsatkichidan besh baravar kattadir. Shunday qilib, xalqaro bozorlar globallashuvi jahon bozoriga chiqish imkoniyati bo'lgan davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlaridagi transaksion xarajatlarni kamaytiradi va shu bilan birga globallashuv natijalaridan foydalana olmagan davlatlarning nisbiy yo'qotishlarini ko'paytiradi.

Hatto globallashuv jarayonlarida bevosita qatnashib kelayotgan rivojlanayotgan davlatlar uchun ham uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari umuman noaniqdir. Hozirgi davrda moliyaviy mablag'larni er sharining istalgan nuqtasiga o'tkazish deyarli bir zumda amalga oshirilishi mumkin. Transmilliy korporatsiyalar gorizontol va vertikal ishlab chiqarish integratsiyasiga ega global fabrikalarni ko'plab davlatlarda tashkil qilmoqda. Boy davlatlarning kichik guruhi xalqaro tovarlar va xizmatlar oqimining tobora katta qismini amalga oshirmoqda.

Bu xildagi globallashuvning oqibatlari ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Bir tarafdin alohida davlatlar, ayniqsa, uchinchi dunyo mamlakatlarining kuchi va ta'siri kamayib ketadi. Ayniqsa, SHimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okeani hududi yoki Evropadagi qaytadan shakllanayotgan hududiy savdo bloklari bilan qaysidir darajada bog'liq bo'lmagan rivojlanayotgan davlatlarni yanada qiyin davrlar kutmoqda.

XXI asr boshida rivojlanmay qolib ketgan davlatlarning ijtimoiy- iqtisodiy ahvolini sezilarli darajada yaxshilash uchun samarali xalqaro tizim yaratilishi kerak. U moliya, atrof-muhit, xalqaro resurslar harakati va texnologiyalar transferti sohalaridagi global muammolarni ham hal qila olishi kerak. Zarur islohotlar sifatida ko'pincha quyidagilar ta'kidlanadi:

1. Bundan buyog'iga iqtisod qilishning qat'iy dasturlarini amalga oshirilmaydigan rivojlanayotgan davlatlarning qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha og'irlikni kamaytirish.

2. BMT tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga yordam berish ko'rsatkichiga - donor-davlatlar YAMMning 0,7% iga erishish uchun yordam hajmini ko'paytirish.

3. Rivojlanayotgan davlatlarga, ayniqsa, hududiy savdo bloklarini shakllantirayotganlarga nisbatan proteksionistik tadbirlarni bekor qilish orqali ularning jahon savdosidagi ulushini ko'paytirish.

4. XVF va Jahon bankini isloh qilish.

Oxirgi bandga nisbatan shuni aytish mumkinki, XVF ko'proq rivojlangan davlatlar va xalqaro banklarning moliyaviy nizolarini hal qilib beruvchi xalqaro politsiya vazifasini emas, balki rivojlanish instituti rolini bajarishi kerak. Bank rahbariyati moliyalashtirish shartlarini ishlab chiqishda —egiluvchanlik ni amalga oshirishi, ya'ni qat'iy shartlardan iloji

boricha voz kechishi va katta qarzlar yuki ostida qolib ketgan davlatlardan standart barqarorlashtirish dasturlarning qat'iy shartlari bajarilishini talab qilgandan ko'ra, asosiy e'tiborini bu davlatlarning milliy iqtisodiyotlari o'sishini ta'minlash

muammolariga qaratishi kerak.

Xulosa. Globallashuv investitsiya jarayoniga juda katta jiddiy tuzatishlar kiritdi. Xalqaro moliyaviy bozorlar tizimining shakllanishi butun xalqaro iqtisodiyot doirasida samarali kapital qo'yilmalari imkoniyatlarini baholash imkonini berdi. Jahon iqtisodiyotini globallashuvi jarayonlarida milliy bozorlar tobora ochiq iqtisodiyotga aylanib borayotgan bir paytda ularning jahon moliyaviy bozorlariga chiqishi hali ham turli xil to'siqlarga duch kelmoqda. Masalan, uchinchi dunyo mamlakatlari mahsulotlariga nisbatan rivojlangan va o'rta darajada rivojlangan mamlakatlarning proteksionistik siyosati oxirgi o'n yillikda sezilarli darajada kuchaydi. Bundan tashqari uchunchi dunyo davlatlarining qarz olish foizlari rivojlangan davlatlarning xuddi shu ko'rsatkichidan besh baravar ko'p.

Yuqorida aytib o'tilganidek, hozirgi davrda moliyaviy mablag'larni er sharining istalgan nuqtasiga o'tkazish deyarli bir zumda amalga oshirilishi mumkin. Transmilliy korporatsiyalar gorizontaal va vertikal ishlab chiqarish integratsiyasiga ega global korxonalarni etarli darajadagi iqtisodiy resurslarga ega va ishchi kuchi arzon davlatlarda tashkil qilmoqda. Boy davlatlarning kichik guruhi xalqaro tovarlar va xizmatlar oqimining tobora katta qismini amalga oshirmoqda.

XXI asr boshida uchunchi dunyo va rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy moliyaviy ahvolini etarli darajada barqaror rivojlanishi uchun samarali xalqaro xalqaro moliyaviy bozorlar tizimi yaratilishi kerak. U moliya, atrof-muhit, xalqaro resurslar harakati va texnologiyalar transferti sohalaridagi global muammolarni ham hal qila olishga qodir bo'lishi kerak. SHuning uchun ham, XVF va Jahon bankini isloh qilish juda ham zarur. **Sababi, yuqorida aytib o'tilganidek** XVF ko'proq rivojlangan davlatlar va xalqaro banklarning moliyaviy nizolarini hal qilib beruvchi xalqaro politsiya vazifasini emas, balki rivojlanish instituti rolini bajarishi kerak. Bank rahbariyati moliyalashtirish shartlarini ishlab chiqishda egiluvchanlik ni amalga oshirishi, ya'ni qat'iy shartlardan iloji boricha voz kechishi va katta qarzlarni yuki ostida qolib ketgan davlatlardan standart barqarorlashtirish dasturlarning qat'iy shartlari bajarilishini talab qilgandan ko'ra, asosiy e'tiborini bu davlatlarning milliy iqtisodiyotlari o'sishini ta'minlash muammolariga qaratishi kerak.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Global moliyaviy bozorlarni shakllanib vujudga kelishining ob'ektiv asoslari?
2. Sizning fikringizcha global moliya bozorlarining shakllanish xususiyatlari nimadan iborat?
3. Xalqaro moliya munosabatlarini tartibga solishda xalqaro moliya tashkilotlari Sizning fikringizcha qanday o'ringa ega?
4. Sizning fikringizcha globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat moliya siyosatini olib borish xususiyatlari qanday yo'nalishlarga ega?
5. Sizning fikringizcha xalqaro moliya munosabatlarida rivojlanayotgan

- mamlakatlarning ishtirok etishi qanday xususiyatlarga ega?
6. Siz nima deb o'ylaysiz, rivojlanayotgan mamlakatlarda nima uchun moliyaviy tizimlar islohotlarini o'tkazish zarur?
 7. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning global moliyaviy bozorlarni rivojlanishidagi ahamiyati?
 8. Global moliyaviy bozorlarning va TMKlarning o'zaro hamkorligini xususiyatlari?
 9. Xalqaro moliyaviy tashkilotlarni vujudga kelishining shart-sharoitlari va sabablari?
 10. Globallashuv sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlarning moliyaviy siyosatidagi o'zgarishlar va ularning xususiyatlari?
 11. XVF va JBni isloh qilish zarurligining sabablari?
 12. Xalqaro moliyaviy tashkilotlarni darajalariga qarab turlarga bo'ling?

Bibliografik ma'lumotlar:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
2. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. “Global iqtisodiyot” (O'quv qo'llanma), - T.: TDIU, 2019 y.232 – bet.
3. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.
4. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva: Ucheb. posobie / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. M.N. Oshmovoy, kand. ekon. nauk, dots. A.V. Boychenko. - M.: INFRA-M, 2006. - VIII, 376 s.

8-MAVZU: GLOBALLASHUV SHAROITIDA ISHCHI KUCHI BOZORI VA MIGRATSIYASI MUAMMOLARI REJA:

- 8.1. Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va nazariy asoslari;**
- 8.2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va**
- 8.3. migrantlarni o'ziga jalb qiluvchi markazlar;**
- 8.4. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining dinamikasi;**
- 8.5. Jahon moliyaviy inqirozining ishchi kuchi bozoriga ta'siri;**

8.1. Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va nazariy asoslari.

Aholining ommaviy migratsiyasi jahon hamjamiyatining XX asr ikkinchi yarmidagi hayotining eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylandi. Aholi migratsiyasi deganda ma'lum hududlarda insonlarning doimiy yashash joyini almashtirish yoki unga qaytish sharti bilan ko'chib o'tishi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro (tashqi) migratsiyaning turli shakllari - mehnat, oilaviy, rekreatsion, turistik va boshqa turdagi shakllari mavjud. Biz xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori muammolarini ko'rib chiqamiz. Xalqaro ishchi kuchi bozori milliy chegaralarni kesib o'tuvchi turli-tuman mehnat resurslari oqimini qamrab oladi. Xalqaro mehnat bozori ishchi kuchining milliy va

mintaqaviy bozorlarini birlashtiradi. Xalqaro mehnat bozori mehnat migratsiyasi shaklida namoyon bo'ladi.

• ***Jahon mehnat bozori deganda ishchi kuchini sotish, sotib olish va undan foydalanishi bilan bog'liq bo'lgan davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tushuniladi.*** Jahon mehnat bozorida ishchi kuchining qiymati baholanishi bilan birga uni yollash, ish haqining miqdori, mehnat sharoitlari, ta'lim olish va kasb mahoratini o'stirish imkoniyatlari, ish bilan bandlilik kafolatlari va boshqa bir qator shartlar aniqlanadi. Jahon mehnat bozori jahon aholisining ish bilan bandlik darajasi, uning tarmoqlar, kasb-malaka, demografik, ishsizlikning ko'lamini va o'zgarishi kabi asosiy jarayonlarni aks ettiradi.

Jahon mehnat bozori ham boshqa xil bozor tizimlaridek makroiqtisodiy usullarni qo'llash sohasi bo'lib, u bir-biriga bog'liq bo'lgan talab va taklifning ta'sirida o'zgaradi. Bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida jahon mehnat bozorining shakllanishi uchun mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan ta'minlash, bozor rag'batlari samarali ta'sir ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratuvchi tashkiliy tadbirlar tizimini vujudga keltirish lozim. Jahon mehnat bozoriga o'tishning eng muhim sharti ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi munosabatlarda tenglik va erkinlik o'rnatishdir.

Jahon mehnat bozorining iqtisodiy talablariga javob beradigan me'yorda amal qilishi esa bir qator shartlarning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Ularning asosiylari ko'yidagilar:

- talab va taklifning erkin amal qilishini kafolatlovchi huquqiy asoslarning mavjudligi;
- bozor sub'ektlarining erkin harakat qilishi uchun zarur zamin - iqtisodiy makonning mavjudligi;
- jahon mehnat bozori infrastrukturasi mavjudligi;
- ish haqi miqdorining chegaralanmaganligi, uy-joy bozorining mavjudligi va boshqalar.

Jahon mehnat bozorida amalga oshadigan munosabatlar doirasida asosan mamlakatlarning ishchi kuchini sotuvchi va sotib oluvchilar ishtirok etadi va bu jarayonga bir tomonidan ishlash istagi bor bo'lganlar (bunga ish bilan band bo'lganlar ham, ishsizlar ham kiradi), ikkinchi tomondan - tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun xodimlarni yollovchilar kiradi. Jahon mehnat bozori faqatgina bo'sh ish joylarini yaratishga va ishsizlarga ish topib berishgagina xizmat qilmasdan, balki keng mazmundagi amaliy muammo bo'lgan yollanma mehnat sohasini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.



8.1-rasm. Jahon mehnat bozorining iqtisodiy talablariga javob beruvchi shartlari.

Ana shuning uchun ham jahon mehnat bozori va aholini ish bilan band etish siyosatining ob'ekti bo'lib mehnat munosabatlari va unda jalb etilgan xodimlar bilan bog'liq keng miqyosli soha xizmat qiladi. Bunga ish haqi muammolari, mehnat sharoitlari, bajarilayotgan ishning hajmi va intensivlik darajasi, korxonalarda ish bilan ta'minlashning barqarorligi, mehnat motivlari, jahon mehnat bozorining egiluvchanligini ta'minlash, ishchi kuchini mehnatga tayyorlash va qayta tayyorlash va boshqalar kiradi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir qiladigan omil ish haqidir. Ammo ushbu mexanizmdagi har bir o'zgarish uning tarkibiga kiruvchi boshqa unsurlarning ham darhol o'zgarishiga olib keladi.

CHunonchi ishchi kuchi miqdorining ortib ketishi ish haqining kamayib ketishiga va o'z navbatida ish joylari miqdorining nisbiy kamayishiga olib keladi va hakoza. Umuman olganda bu to'g'ridagi asosiy ilmiy-uslubiy tasavvurlarni jahon iqtisodiyoti amaliyoti va nazariyasidan bilib olsak bo'ladi. Hozirgi paytda jahon mehnat bozorining amal qilinishi va nazariy tushunchasiga har xil yondoshuvlar mavjud bo'lib, ularni o'rganish mehnat bozori haqidagi dunyoqarashimizni yanada boyitadi.


8.2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va migrantlarni o'ziga jalb qiluvchi markazlar

Geografik yo'nalishga ko'ra mintaqalararo va mintaq ichidagi tashqi aholi migratsiyasi farqlanadi. Mehnat migratsiyasining oqimlarining aniq qaerga harakat qilganligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ishchi kuchining birinchi ommaviy mintaqalararo ko'chishi majburiy tarzda bo'lgan. Bu XVII-XIX asrlardagi qullar savdosining rivojlanishi bilan bog'liq edi.

SHunday oqim natijasida Afrika aholisi 1650-1850 yillarda 22 foizga qisqardi.

Ishga yollangan mustaqil shaxslar ko'chishi to'g'risida so'z yuritilganda XIX-XX asrlarda Evropaliklarning okean ortiga chiqib ketishi eng yirik migratsion oqim deb hisoblanadi. XIX asrda qariyb 30 mln. kishi emigratsiya qilgan. XX asr boshidan Birinchi jahon urushigacha Evropadan 19 mln. ga yaqin kishilar chiqib ketgan, 1914-1918 yillarda migratsiya to'xtalgan, keyinchalik esa qaytadan tiklandi, va 1918-1939 yillarda 9 mln. kishi emigratsiya qildi. Ikkinchi jahon urushi Evropadan okean ortiga aholi migratsiyasining to'xtalib turishiga sabab bo'ldi, urush tugagandan so'ng u tiklanib, so'ngra susaya boshladi.



Географик йўналишга кўра

- минтақалараро
- минтақа ичидаги

8.2-rasm. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va migrantlarni o'ziga jalb qiluvchi markazlar .


Emigrantlar asosan AQSHga yo'l olib, u erda kapitalizm jadal rivojlanar edi. SHu bilan birga Kanada, Avstraliya, YAngi Zelandiya, Argentina va boshqa davlatlarga ham ko'chish mavjud bo'lgan. Ushbu mamlakatlar aholisini o'sishining asosiy omili immigratsiya bo'ldi. Irlandiya, Angliya, Frantsiya, Germaniya kabi Evropa mamlakatlaridan immigrantlar kirib kelgan.

Oxirgi o'n yilliklarda nafaqat mintaqalararo, balki mintaqqa ichkarisida yangi jahon ishchi kuchi bozorlari paydo bo'ldi.

Mehnat migratsiyasi deyarli barcha milliy iqtisodiyotlarga xos jarayondir. Biroq uning jadallik darajasi jahonning u yoki bu hududlarida sezilarli farq qiladi. Mehnatkash-migrantlarning eng jadal oqimi ishchi kuchini eksport/import qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasida va tabiiy demografik o'sish sur'atida jiddiy farq bo'lganda kuzatiladi. Migratsiyaning asosiy to'rt yo'nalishlari ichida jami migratsiya oqimining hajmi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon ishchi kuchlarining ko'chishi birinchi o'rinda turadi. Mutaxassislar quyidagi migratsiya oqimlarini alohida ko'rsatib o'tishadi: G'arbiy Evropa va SHimoliy Amerika mamlakatlari o'rtasida, sobiq sotsialistik mamlakatlardan bozor iqtisodiyotili mamlakatlarga, rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotili davlatlar o'rtasida (masalan, Janubiy Amerika chegarasida, Ukrainadan Rossiyaga).

Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo'nalishi, ya'ni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotili davlatlarga migratsiya uchrasada, bu yo'nalishni tanlovchi migrantlar soni unchalik ko'pchilikni tashkil etmaydi va ular TMKlarning shoxobchalari va sho'ba

korxonalarida band bo'lgan kadrlar, turli xayriya tashkilotlari va fondlarining a'zolari, shuningdek, sarguzasht izlovchilar hamda tavakkalchilardan iborat.



8.3-rasm. Evropa Ittifoqi.

Migrantlarni o'ziga tortuvchi boshqa bir «ohangrabo» Evropa Ittifoqi mamlakatlaridir. Ularga xorijiy ishchi kuchi jami aylanmasining 1/4 qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Evropa Hamjamiyati mamlakatlariining o'zida migrantlar va ularning oila a'zolariining o'zi 13 mln. kishini tashkil etadi. Bu hududda Frantsiya (mamlakat aholisining 8 foizi - 4 mln.ga YAqin SHimoliy Afrikadan kelgan immigrantlar), Germaniya (7,5 foiz - 4630 ming) etakchilik qilmoqda. Belgiiyada - 1 mln.ga yaqin ispaniyaliklar va italiyaliklar, SHvetsiyada - 1 mln. finnlari hisobga olingan. Bularidan tashqari Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, SHvetsiya, Avstriya ham ishchi kuchi qabul qilishda oldingi o'rinlarda turadi.

Evropa ekspertlarining bashorati bo'yicha, umumiy bozor yaratilishidan so'ng migratsion oqimlarda bir necha o'zgarishlar ro'y beradi. Past malakali ishchilarni ommaviy immigratsiyasining yomon tashkil etilishining o'rniga maqsadga yo'naltirilgan jamoaviy kelishuvlar paydo bo'ladi. migratsiyaning ko'p qismini past va o'rta malakali ishchilar tashkil etayotganiga qaramay, yuqori malakali ishchilar ustun turuvchi huquqqa ega bo'ladilar.

Ishlovchi-migrantlarni jalb qiluvchi ikkinchi markaz 70-yillarda YAqin SHarq mintaqasida paydo bo'ldi. Neft qazib oluvchi mamlakatlar Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Iordaniya, Yaman, shuningdek, Gretsiya, Turkiya, Italiyadan ishlashga ko'pchilikni jalb qilgan. 90-yillar boshiga kelib u erda 4,5 mln. xorijliklar ishlagan. Alohida mamlakatlar ishchi kuchining umumiy miqdorida immigrantlar ulushi alohida ahamiyat kasb etadi. SHu tarzda, Birlashgan Arab Amirliklarida u 97% ni, Quvaytda - 86,5% ni, Saudiya Arabistonida - 40% ni tashkil etgan, ya'ni butun ishchi kuchining ko'p qismini tashkil etgan.

8.3. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining dinamikasi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda dunyoda migrantlarning ulushi ko'rsatkichining barqarorligi kuzatiladi.

2005-2015 yillar mobaynida jahonda migrantlar soni 18,7 million kishiga

o'sdi. Joriy o'n yillikda umuman dunyo bo'yicha xalqaro migrantlar sonining qo'shimcha o'sish sur'atlari 1990-yillarga nisbatan o'sdi.

Нефт қазиб олувчи мамлакатлар

Хиндистон,

Бангладеш,

Покистон,

Иордания,

Яман,

Греция,

Туркия,

Италиядан

ишлашга кўпчилиқни жалб қилган

8.3-rasm. Yaqin Sharq mintaqasida paydo bo'lgan markazlar.

1900-2015 yillarda rivojlangan mamlakatlarda xalqaro migrantlar sonining qo'shimcha o'sish sur'atlari rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan sezilarli yuqori edi, biroq 2005-2010 yillarda o'zaro nisbat o'zgardi: rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro migrantlar sonining qo'shimcha o'sish sur'atlari (qochoqlarni hisobga olgan holda) rivojlangan mamlakatlarda xalqaro migrantlar sonining qo'shimcha o'sish sur'atlaridan (qochoqlarni hisobga olgan va ayirgan holda) yuqori bo'ldi va yiliga 2% gacha ko'tarildi. Agar rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro migrantlarning umumiy sonidan qochoqlarni ayirib tashlasa, qo'shimcha o'sish sur'ati birmuncha pasayadi (1,6%), holbuki ilgari aynan shu guruh tezroq o'sgan edi.

Har bir mamlakatda xalqaro migrantlar soni nafaqat immigratsiya va emigratsiyaning ma'lum balansi natijasida, balki ularning tabiiy kamayishi (o'lishi) hisobiga shakllanadi. Mutaxassislar 2005-2015 yillarda xalqaro migrantlar sonining umumiy qo'shimcha o'sishi 24,4 mln. kishini, bu davrda o'lganlar soni 5,7 mln. kishini tashkil qilishini hisoblab, natijada xalqaro migrantlar sonining 18,7 mln. kishiga ko'payganligini e'tirof etadilar.

Ko'rib chiqilayotgan davrda rivojlangan mamlakatlarda sof xalqaro migratsiya 14,7 million kishini, rivojlanayotgan mamlakatlarda – deyarli 9,7 million kishini tashkil qiladi.

Evropada bu ko'rsatkich - deyarli 8,1 million kishini, shu jumladan Janubiy Evropada - 3,8 million kishini, SHimoliy va G'arbiy Evropada - 1,5 million kishidan iborat miqdori tashkil qildi. SHimoliy Amerikada – 5,8 million kishiga

teng.

Osiyoga sof migratsiya 2005-2010 yillarda deyarli 6,8 million kishini, shu jumladan G'arbiy Osiyoga - 4,2 million kishi, Janubi-SHarqiy Osiyoga - 1,2 million va Janubiy Osiyoga - 0,8 million kishini tashkil qiladi.

Xalqaro migratsiya hisobiga 2005-2015 yillarda rivojlangan mamlakatlar aholisi o'rtacha yiliga 2,2% o'sdi, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi esa 0,5% ga pasaydi.

Xalqaro migratsiya ko'p jihatdan jahon aholisi tizimida davom etayotgan demografik siljishlarga javob tariqasida rivojlanmoqda. Rivojlangan mamlakatlar aholining keksayishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan mehnat qiluvchilarning boqimandalarga nisbatan etishmasligi muammosini hal qilishga majbur, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ularning iqtisodiyoti uchun mehnatga layoqatli aholining ortiqchaligi bosimiga duch kelmoqda.

2005-2015 yillarda rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar bilan migratsion ayirboshlashning o'rtacha yillik sal'dosi yiliga 2,7 million kishini yoki 2,2% ni tashkil qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisini migratsion qisqarishining jadalligi birmuncha pastroq - 0,5%, 49 ta eng past rivojlangan mamlakatlar guruhida migratsion qisqarish 315 ming kishini yoki yiliga o'rtacha 0,4% tashkil qilgan.

Migratsion ayirboshlash natijasida absolyut ko'rsatkichlarning eng ko'p kamayishi Osiyoda, o'rtacha 1,1 million kishiga pasayish kuzatiladi. SHuningdek, migratsion ayirboshlash natijasida Lotin Amerikasi aholisi (804 ming kishiga) va Afrika aholisi (1,0 million kishiga) kamaydi. SHimoliy Amerika aholisi, aksincha, 2005-2015 yillarda migratsion qo'shimcha o'sish hisobiga yiliga o'rtacha 1,2 million kishiga, Evropa - 1,3 million kishiga ko'paydi. Migratsion qo'shimcha o'sishning jadalligi SHimoliy Amerikada, migratsion kamayish esa - Lotin Amerikasida eng yuqori bo'ldi.

Dunyoning yirik mintaqalari orasida aholining jadal migratsion o'sishini Janubiy Evropada (yiliga o'rtacha 4,9%), undan keyingi o'rinlarda SHimoliy Amerikada (3,6%) va AQSHda (3,3%) mavjudligini ta'kidlash lozim. Umuman SHarqiy Evropa bo'yicha migratsion qo'shimcha o'sish nolga yaqin bo'ldi.

Ayni vaqtda, Afrika aholisining migratsion kamayishi sharoitida, umuman SHimoliy Afrika aholisining migratsion qo'shimcha o'sishi (yiliga o'rtacha 2,4%, ya'ni G'arbiy Evropa ko'rsatkichidan yuqori va SHimoliy Evropa ko'rsatkichidan biroz past darajada) kuzatiladi. Avstraliya va YAngi Zelandiya aholisining jadal migratsion qo'shimcha o'sishi (yiliga +4,4%) holatida, Okeaniyaning orol qismida, ayniqsa Polineziyada (yiliga minus 8,5%) aholining migratsion kamayishini ko'rish mumkin.

8.4. Jahon moliyaviy inqirozining ishchi kuchi bozoriga ta'siri.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda jahonda ro'y berayotgan moliyaviy inqiroz va uning oqibatlari jahon iqtisodiy tizimining turli sohalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Odatda retsessiya uzoq muddatli iqtisodiy tendentsiyalarga kuchli ta'sir o'tkazmaydi. Biroq hozirgi inqiroz aholi daromadlari va bandligiga uzoq muddatli, balki hatto doimiy ta'sirga ega bo'ladi va bu ta'sir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ladi.

Hozirda ko‘plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko‘larni cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo‘lishi mumkinligi e’tirof etilmoqda.

Mehnat bozoridagi inqiroz eng avvalo migrantlar uchun yomon ta’sir ko‘rsatadi, chunki mamlakatlar inqirozli holatlarda birinchi navbatda xorijiy ishchilarni bo‘shatadi. O‘rtacha olganda migrantlar yoshroq bo‘lib, pastroq malakaga va ish stajiga ega, odatda vaqtinchalik lavozimlarda ishlaydi va tsiklii rivojlanuvchi tarmoqlarga jamlangan. Bu esa pasayish paytida eng zaif hisoblangan guruhga xos tavsiflardir. O‘tkazilgan tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, iqtisodiy pasayish davrida migrantlar nomigrantlarga nisbatan ko‘proq ish yo‘qotadi. 1998-2008 yillarda 14 ta Evropa mamlakatining YAIM va ishsizlik bo‘yicha choraklik ko‘rsatkichlari asosida aniqlanishicha, retsessiyani boshdan kechirgan mamlakatlarda migrantlar orasida ishsizlik darajasi boshqa guruhlariga nisbatan tezroq o‘sadi.

Шу тарзда,

Бирлашган Араб Амирликларида у 97% ни,

Кувайтда - 86,5% ни,

Саудия Арабистонида - 40% ни ташкил этган, яъни бутун ишчи кучининг кўп қисмини ташкил этган

8.4-rasm. Alohida mamlakatlar ishchi kuchining umumiy miqdorida immigrantlar ulushi.

Ishchilarning ko‘chishiga inqirozning naqadar kuchli ta’sir etishini aniqlashda bir qancha omillarni hisobga olish kerak. Ushbu omillarga vatanida va chet elda bevosita rivojlanish istiqbollari, migratsiya, chet elda yashash va qaytish tavakkalchiligini anglash va kuchayib bormuvchi to‘siqlar kiradi. Ishchilarni jalb qiluvchi ayrim asosiy mamlakatlar qaytish uchun qulay imkoniyatlar (bonuslar, chiptalar, ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha yirik mablag‘lar) yaratib berdi va mamlakatga kirish va yashash bo‘yicha to‘siqlarni ko‘paytirdi.

Hozirgi bosqichda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tuzilmaviy o‘zgarishlar turi va ko‘larnini aniq aytib berish qiyin. Ayrim olimlarning fikricha, rivojlangan mamlakatlarning muayyan tarmoqlarida inqirozning boshlanishi va faol rivojlanishi rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa, Osiyo mamlakatlarining o‘rnini kuchaytirishi va hatto jahon iqtisodiyotining tubdan boshqacha tus olishiga olib kelishi mumkin.

1. Биринчиси кучли Европа оқимини ташкил этиб, Ғарбий Европа мамлакатларидан АҚШга 6,6 млн. киши кириб келган

2. Иккинчиси 1965 йилда бошланиб, бу пайтда Осиё ва Латин Америкасидан келганларга қулай шароит яратувчи қонун қабул қилинган

3. Ҳинддан учинчи босқич бошланиб, бу пайтда Европа - Ирландия, Польша, шунингдек Аргентинадан эмигрантларга талаб кўп бўлди

8.5-rasm. Ikkinchi jahon urushidan keyingi immigratsiyaning AQSHdagi bosqichlari.

Инқироз турли мамлакатлар ва турли mintaqalarda pul o'tkazmalar hajmiga har xil ta'sir ko'rsatdi. Bashoratlarga ko'ra, SHarqiy Evropa va Markaziy Osiyo мамлакатларига pul o'tkazmalari nisbiy va miqdoriy jihatdan eng ko'p qisqaradi.

90-йиллар давомида белгиланган квота 675 минг киши бўлишига қарамай йилига 1 млн.дан ортиқ мигрантлар АҚШга кириб келган

Ҳозирги пайтда мамлакат ишчи кучининг 5% га яқинини хорижликлар ташкил этади

8.6-rasm. Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada).

Bu Evropa Ittifoqiga a'zoliq va Rossiyadagi kuchli iqtisodiy ko'tarilish orqasidan kelgan kuchli teskari oqim bilan tushuntiriladi. Moldova va

Tojikistonda YAIMda pul o'tkazmalarining ulushi dunyo bo'yicha eng yuqori (mos ravishda 45 va 38 foiz) bo'lib, ular 2009 yilda 10% ga tushadi. Salbvadorda YAIMning 18% ni tashkil qiluvchi pul o'tkazmalarining jiddiy foizli qisqarishi ro'y beradi.

Sahroi Kabirdan janubdagi Afrikaga pul o'tkazmalarining % qismi inqirozdan katta zarar ko'rgan AQSH va Evropadan kelib tushadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ko'plab мамлакатлар iqtisodiyotiga hanz ta'sirini ko'rsatmoqda. Buni dunyoning aksariyat мамлакатларida ishsizlik darajasi ortib borayotganida ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ishchi kuchi bozorining paydo bo'lishi klassik kapitalizm genezisi bilan bog'liq bo'lib, asosan XIX asrda shakllanib vujudga kelgan va uning asta-sekin huquqiy jihatdan takomillashuvi XX asrda amalga osha boshladi. Globallashuv jarayonlarida ishlab chiqarishni integratsiyalashuvi va baynalmillashuvi natijasida hamda butun jahonda demografik muammolarni vujudga kelishi ishchi kuchi migratsiyasini faollashtirdi. Bunday tendentsiyalar o'z navbatida jahon mehnat bozorini vujudga keltirib u bozorli iqtisodiyotning tarkibiy qismidan biriga aylandi. SHuning uchun ham, u boshqa bozor tizimi tarkibiga kiruvchi bozor turi bo'lib, makroiqtisodiy usullarni

qo‘llash sohasiga kiradi. Albatta, mehnat bozorini jahon mehnat bozoriga aylanishi uchun xalqaro miqiyosda mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan ta‘minlash barobarida ish beruvchi va ishga yollanuvchi o‘rtasidagi munosabatlarga tenglik va erkinlikni o‘rnatish lozim bo‘ladi. Buning uchun, jahon mehnat bozoridagi talab va taklifni erkin amal qilinishini kafolatlovchi huquqiy asoslarning mavjudligi, jahon mehnat bozori infrastrukturasining mavjudligi, ish haqi miqdorini cheklanmaganligi hamda uy-joy bozorining mavjudligi zaruriy shart-sharoit hisoblanadi.

Jahon mehnat bozori nafaqat bo‘sh ish joylarini aniqlashga hamda ishsizlarga ish topib berishga xizmat qiladi, balki keng mazmundagi doimiy va amaliy muammo bo‘lgan yollanma mehnat sohasini o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Sizning fikringizcha jahon ishchi kuchi bozori tushunchasining mohiyati va vujudga kelish sabablarini tushuntiring?
2. Jahon mehnat bozori qanday vazifalarni bajaradi?
3. Mehnat bozorida mehnat munosabatlarining huquqiy jihatdan ta‘minlanishining zarurligi?
4. Jahon mehnat bozorining iqtisodiy talablarga molik shart-sharoitlari?
5. Jahon ishchi kuchi bozorida amal qiluvchi omillar?
6. Ishchi kuchi migratsiyasining vujudga kelishi va turlari?
7. Ishchi kuchi migratsiyasining asosiy yo‘nalishlari?
8. Ishchi kuchi migratsiyasi markazlari?
9. Sizning fikringizcha xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining qanday asosiy ko‘rinishlari mavjud?
10. Xalqaro Mehnat Tashkiloti(XMT)ni tashkil etilishining sabablari va funktsiyalari?
11. Sizning fikringizcha jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining rivojlanish xususiyatlari nimadan iborat?
12. Global iqtisodiy tizimda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining dinamikasi?
13. Siz jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ishchi kuchi bozoriga qanday ta‘sir o‘tkazdi deb o‘ylaysiz?

Bibliografik ma‘lumotlar:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
2. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. “Global iqtisodiyot” (O‘quv qo‘llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –bet.
3. L.S. CHernoy. Globalizatsiya: proshloe ili budуще? Transformatsiya rynochnyx xozyaystvenno-Ekonomicheskix sistem. M.: IKTS «Akademkniga»,2003 g.
4. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.
5. Глобальное экономическое регулирование : учебник / под G54 ред. проф. V. N. Zueva. — M. : Magistr, 2009. — 574 s.

9-MAVZU: JAHON IQTISODIYOTINI GLOBALLASHUVI SHAROITIDA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.

Reja:

- 9.1. Transmilliy korporatsiyalarning mohiyati va vujudga kelishi;**
- 9.2. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning roli;**
- 9.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida TMKlar faoliyati;**
- 9.4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida TMKlarning tutgan o'rni;**

9.1. Transmilliy korporatsiyalarning mohiyati va vujudga kelishi.

Xalqaro kompaniyalar milliy kapitalni boshqa davlatlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida olib chiquvchi tashkilotlardir. Zamonaviy xalqaro kompaniyalarning ko'pchilik qismi **transmilliy korporatsiyalarni**, tashkiliy shakli bo'yicha esa **kontsernlarni** ifoda etadi. Ular ilgari turli davlatlar kapitalining oddiy birlashuvi va ishtirokchilari o'z kapitallarining mulkdori bo'lib qolgan kartellar, sindikatlar, trestlardan ma'lum darajada farqlanadi. Ularga teskari holda XX asrning tipik kontserni odatda turli tarmoqlar va hududlar bo'yicha diversifikatsiyalangan kapitalning yagona mulkdoridir.

BMT metodologiyasi bo'yicha xalqaro korporatsiyalarga an'anaviy ravishda uzoq vaqt mobaynida yillik aylanmasi 100 mln. dollardan ortiq va kamida 6 ta davlatda filiali bo'lgan firmalar kiritilgan. Keyingi yillarda boshqa bir ko'rsatkich, ya'ni rezident-davlatdan tashqarida sotilgan mahsulotlar miqdori ham kiritildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha jahonda SHveytsariyaning —Nestle firmasi (98%) ilg'orlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro kompaniyalar transmilliy, ya'ni bir millatli yoki ko'p millatli bo'lishi mumkin. Transmilliy korporatsiyalar bosh kompaniya (odatda u kompaniya millatini aniqlaydi) va uning xorijiy filiallarini o'z ichiga oluvchi sub'ektlar tizimini ifodalaydi. Bosh kompaniya boshqa davlatlardagi xorijiy filiallarining aktivlarini nazorat qiladi va odatda ularning kapitalida o'z ulushiga ega bo'ladi.

Transmilliy korporatsiyalarning huquqiy rejimi tashkil topgan filiallar va sho'ba korxonalari orqali turli davlatlarda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. Bu korporatsiyalar nisbatan mustaqil bo'lgan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotish, ilmiy tadqiqot, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish xizmatlariga egadirlar. Umuman ular yagona ishlab chiqarish - sotish majmuini tashkil etib, bu majmuada hissadorlik kapitalga faqat ta'sischi davlat egalik qiladi. SHu bilan birga filial va sho'ba korxonalari aralash korxonalar bo'lishi va ularda milliy kapital ustunlik qilishi ham mumkin. Transmilliy korporatsiyalarning optimal boshqaruvi asosiy korporatsiya tomonidan xorijiy filiallarni uzluksiz boshqarib turish imkoniyatini yaratishi kerak. Lekin ayni paytda bu boshqaruv xorijiy filiallar menejerlariga mahalliy bozor xususiyatlari va mahalliy qonunchilikka mos ravishda iste'molchilar talablarini qondiruvchi qarorlar chiqarish imkoniyatini bermog'i lozim.



9.1-rasm. Transmilliy korporatsiyalarning tuzilishi.

Asosiy korporatsiya TMK korxonalari tizimining ma'muriy markazidir. Uning vazifalari qatoriga odatda boshqa korporatsiyalar bilan qo'shilishi, yangi filiallar sotib olish va samarasiz korxonalarni tugatish to'g'risidagi qarorlar qabul qilish; korporatsiya va filiallarning uzoq muddatli ishlab chiqarish, investitsiya va moliya siyosatini shakllantirish; xorijiy filiallarning moliyasi va ITTKI (NIOKR) nazorat qilish kiradi.

Xorijiy filiallarning asosiy tashkiliy shakllari quyidagicha: -bo'lim (branch) - asosiy korporatsiya bu xorijiy filialga to'liq egalik qiladi yoki bu korxona TMK qo'shma korxonasining bir qismi hisoblanadi. Bo'limlar bir necha shakllarda bo'lishi mumkin: asosiy korporatsiyaning xorijdagi vakolatxonasi; hamkorlik, shu jumladan xorijiy sheriklar bilan; mulk shaklida (kemalar, samolyotlar, gaz yoki neft qazib oluvchi platformalar); sho'ba korxonasi (subsidiary) - xorijda joylashgan bunday korxonada asosiy korporatsiya aksiyalarining yarmidan ko'piga egalik qiladi. SHuning uchun ham asosiy korporatsiya hal qiluvchi ovozga hamda korxonaga rahbar tayinlash huquqiga ega; -assotsiatsiyalashgan korporatsiya (associate) - bu korxona aksiyalarining 10% dan 50% gacha asosiy korporatsiyaga tegishli bo'ladi. Asosiy korporatsiya korxonani to'liq nazorat qilmasada, uni boshqarishda ishtirok etadi.

Transmilliy va ko'pmilliy korporatsiyalar qatoriga xalqaro korporatsiyalar ichida ajralib turuvchi global korporatsiyalarni (GK) ham qo'shish kerak. Global korporatsiyalar zamonaviy jahon moliya kapitalining butun qudratini namoyon etib, ko'proq kimyo, elektrotexnika, elektron, neft, avtomobil, axborot, bank va boshqa bir necha sohalar bo'yicha globallashib bormoqda.

Transmilliy korporatsiyalar paydo bo'lishining umumiy sabablaridan biri milliy - davlat chegaralaridan chiqib ketgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi - yirik korporatsiyalar tomonidan xorijiy mamlakatlarda o'z bo'limlarini tashkil etilishi va milliy korporatsiyalarning transmilliy korporatsiyalarga aylanishi orqali ekspansiya xarakteri bo'lishligidadir. Kapital olib chiqish xalqaro korporatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishining eng muhim omilidir.

9.2. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiya(TMK)larning roli.

Transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng dinamik sub'ektlaridan biri bo'lib, paydo bo'lish davridan beri jiddiy taraqqiy etdi. Ular —kolonial-xom ashyo TMKlardan boshlab global kompaniyalargacha rivojlanib bordi. TMKlarning evolyutsiyasi ularning son va sifat jihatidan o'sishi bilan birga rivojlanib bordi. 30-yillarda ularning soni 300 ta bo'lgan bo'lsa, XXI asr boshida 82 mingga etdi.

80-yillarda etakchi TMKlar global kompaniyalarga (to'rtinchi avlod TMKlarga) aylandi. Global korporatsiyalar innovatsion dinamizm, ichki korporativ tuzilmaning muntazam takomillashtirib borilishi, yangi faoliyat sohalari va yo'nalishlarini faol izlash bilan xarakterlanadi. XXI asr boshlarida global korporatsiyalar orasida xalqaro ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ayrim mutaxassislar juda katta korporatsiyalarni (JK) alohida ajrata boshladilar.

- ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotchilik asosida bir necha davlat milliy korporatsiyalarini birlashtiruvchi xalqaro korporatsiyadir

Бунга мисол:

Англия-Голландия “Роял-Датч Шелл” концерни;

Швейцария - Швеция АББ (Ассан Бровн Боверй) корпорацияси

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra ularning soni 800 tani tashkil etadi. Ushbu kompaniyalar o'z qo'lida zamonaviy moliyaviy- sanoat, texnologik, intellektual kapital qudratini jamlab olgan. JKK jahon iqtisodiyotining pirovard tuzilmaviy kuchlarini va globallashuvning real omillarini» ifodalaydi.

Iqtisodiyot globallashuvining muhim tashkiliy elementi bo'lib TMKlarning turli shakllardagi qo'shilishlari va qo'shib olinishlari (M&A), ularning xalqaro kelishuvlari (ya'ni strategik alyanslari) namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon kompaniyalar o'rtasidagi kuchlarning taqsimlanishini o'zgartirib yubormoqda. Natijada ta'sir ko'rsatish hududlarini birgalikda bo'lib olish boshlanmoqda, birgalikda iqtisodiy nazorat sohasi kengaymoqda, kompaniyalar salohiyati birlashtirilmoqda.

TMKlar ishtirokida qo'shilishlar va qo'shib olinishlar shaklida kapitalning xalqaro birlashish (konsolidatsiyasi) jarayoni XX-XXI asrlar bo'sag'asida jahon iqtisodiyotining transmilliylashuvi va globallashuviga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylandi. XX asr boshidan beri ro'y bergan qo'shilishlar va qo'shib olinishlarning besh to'liqini ga globallashib borayotgan iqtisodiyotning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi ularning oltinchi to'liqini qo'shildi.

Amalda korxonalarni sotish-sotib olishga ixtisoslashgan global bozor shakllandi va faol rivojlanmoqda (bunda korxonalarni sotib olish istagini bildirganlar uni sotuvchilarga qaraganda ko'proq). Hozirgi faollik asosan global bozor tendentsiyalariga, arzon zayom vositalariga, xom ashyo tovarlariga yuqori talabga va BRIK (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy) mamlakatlarida yirik korporatsiyalarning paydo bo'lishiga asoslanadi. Uning yana bir xususiyati bo'lib, to'g'ri investitsiyalar fondlarining jadal faoliyati hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda TMKlarning jahon iqtisodiyotiga ta'siri juda yuqori. XXI asrning boshiga kelib, 700 mingdan ortiq xorijiy filiallarini boshqarayotgan 80 mingdan ziyod kompaniyalar ro'yxatdan o'tgan. TMKning qo'l ostida xususiy ishlab chiqarish fondlarining taxminan 30%, xalqaro savdoning 50% mujassamlangan. Transmilliy korporatsiyalar tomonidan jahon bozorlaridagi deyarli butun xom ashyo savdosi, shu jumladan bug'doy, kofe, jo'xori, o'rmon materiallari, tamaki, temir rudasi jahon savdosining 90%, mis va boksitning 85% i, choy va qalayning 80% i, banan, tabiiy kauchuk va xom neftning 75% i nazorat qilinadi. Ular hissasiga ilm-fan va texnika sohalarida patentlangan va tatbiq etilgan barcha yangiliklarning 80% i to'g'ri keladi.

TMKning umumiy valyuta zahirasi jahonning barcha markaziy banklarining birgalikdagi zahirasidan bir necha barobar ko'p. Xususiy sektorda bo'lgan pul miqdorining 1-2% ga siljishi istalgan ikkita milliy valyutaning o'zaro paritetini o'zgartirishga qodir. Xalqaro kompaniyalar butun dunyoni yagona bozor deb qaraydi, ko'pgina mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi, xorijiy sarmoyalar lokomotivi bo'lib qatnashadi va milliy chegaralardan qat'iy nazar strategik qarorlar qabul qiladi.

Yirik TMKlar ko'pincha o'z faoliyatini ilmiy-texnik taraqqiyotini belgilovchi tez rivojlanayotgan sanoat tarmoqlariga qaratadi. Ular 90yillarning oxirida kompaniyaning 100 ta yirik TMKlar ro'yxatiga kirgan kompaniyalar xorijiy aktivlarining 15% dan yuqorirog'i to'g'ri keladigan elektronika sanoatiga juda faol qiziqmoqda. Bu ro'yxatlarda kimyo, qazib olish va avtomobil sanoati korporatsiyalari yuqori o'rinlarni egallaydi. TMKlar katta hajmdagi xalqaro iqtisodiy bitimlarni amalga oshira turib, ularda savdogarlar (tijoratchilar), to'g'ri va portfel sarmoyadorlar, samarali texnologiyalarni tarqatuvchilar, xalqaro mehnat migratsiyasining rag'batlantiruvchi sifatida ishtirok etadi.

Transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi jahondagi uch iqtisodiy markaz: AQSH, Evropa Ittifoqi va Yaponiyaga tegishlidir.

9.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida TMKlar faoliyati.

Ma'lumki, TMKlar to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) oqimida muhim rol o'ynaydi. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) oqimlari sezilarli kamaydi.

Tovar va xizmatlarga talabning pasayishi TMKlarni o'z investitsion dasturlarini qisqartirishga majbur qildi. Dastlab TXI rivojlangan mamlakatlarda 29% pasaygan bo'lsa, ayni vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda va Janubi-Sharqiy Evropa hamda MDHning o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarida mos ravishda 17% va 26% ko'payib bordi.

Global korporatsiyalar – XX asrning 80-yillarida vujudga kelgan bo‘lib, zamonaviy jahon moliya kapitalining butun qudratini ko‘rsatdi.



9.3-rasm. Global korporatsiyalar vujudga kelishi.

Korporatsiyalar foydasining kamayishi va aktsiyalar narxlarining keskin pasayish holati xalqaro qo‘shilish va qo‘shib olishlar jarayoniga (inglizcha mergers and acquisitions - M&As) ham ta’sir ko‘rsatdi, bu esa TXIIaming rivojlangan, shuningdek tobora ko‘proq rivojlanayotgan mamlakatlarga kirib borishining asosiy usullaridan biridir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar nisbatan uzoq muddatli va ularning asosiy maqsadi - ishlab chiqarish xizmatlarini moliyalashtirish va kengaytirish hisoblanadi, shu sababli ular bosh kompaniya tomonidan sinchiklab o‘rganiladi. Boshqa tomondan, kompaniya ichida qayta sarmoyalangan daromad va kreditlar oqimlari TMKning qisqa muddatli likvidlik yoki qulay soliqqa tortishga asoslangan qiziqishi bilan aniqlanadi.

Iqtisodiyotni tiklanishi, xo‘jalik aloqalarini rivojlanishi, xalqaro valyuta fondi, xalqaro bank, xalqaro xisob-kitob banklari kabi o‘zgarishlar natijasida 1950-yillarning oxirida tashkilotni yangi shart-sharoitga moslashtirish zaruriyati tug‘ildi.

AQSH siyosiy va iqtisodiy maqsadni ko‘zlagan xolda bu tashkilotni faoliyatini yanada kengaytirish zarurligi tashabbusi bilan chiqdi. Jamiyatda 1960-yilning 14-dekabrida Parijda iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkilotini tashkil etish konsepsiyasini imzoladi va u 1962-yilning 30-sentyabrida kuchga kirdi.

Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) faoliyatini kengaytirib a‘zo mamlakatlarning iqtisodiy o‘shishiga, global iqtisodiy rivojlanishiga bu mamlakatlarni oshirish va a‘zo bo‘lmagan mamlakatlarda qashshoqlikka arshi kurashni o‘z o‘ziga maqsad qilib qo‘ydi.

Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) dunyodagi muhim iqtisodiy rivojlanish masalalarini boshqaradi, alohida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish holatini tahlil va bashorat qiladi, moliyaviy iqtisodiy muammolarni o‘rganadi va ularni bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqadi va u pirovard natijada xalqaro kelishuv va shartnomalar tuzishda asos qilib olinadi.

Ushbu konvensiyaning oxirgi natijaviy maqsadlari quyidagilar:

- A‘zo davlatlarga nisbatan yuqori va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, bandlik va yashash darajasini oshirish, jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga zarur bo‘lgan moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash;

- Iqtisodiy rivojlanish jarayonida munosib amaliy ko‘maklashish;

- Xalqaro majburiyatlarga asoslangan xolda ko‘p qirrali jahon savdosini rivojlanishiga ko‘maklashish;

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun a‘zo davlatlar quyidagi majburiyatlarni olganlar:

-qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'zaro informatsion ma'lumotlar almashish;

-mavjud bo'lgan resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash;

-xamkorlikda loyiha, tadqiqot, maslahat kabi ishlarni amalga oshirish

-ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish;

-moliyaviy barqarorlikka xarakat qilish;

-tovar va xizmatlar, kapital harakatiga qanday to'siqlarni kamaytirishga harakat qilish;

-kapital va texnik yordam rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish;

-xamkorlikda faoliyat yuritish va chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) ning eng asosiy vazifasi a'zo davlatlar va ular bilan xamkorlik qilayotgan davlatlarning iqtisodiyotini tahlil qilish va uni makroiqtisodiyot va tarmoq darajasida iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bu tashkilotning asosiy yo'nalishlari:

-makroiqtisodiyot;

-budjet va soliq siyosati;

-oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va baliqchilik siyosati;

-moliya va tadbirkorlik masalalar

-savdo;

-ta'lim;

-mehnat, bandlik, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar;

-tabiatni muhofaza qilish;

-davlatni boshqarish va mintaqaviy rivojlanish;

-fan, texnologiya va sanoat;

-informatsiya, kommunikatsiya va kompyuterlashtirish;

-rivojlanishga ko'maklashish

Evropa Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEESR-Organizatsiya Evropeyskogo ekonomicheskogo sotrudnichestv i razvitiya) ga a'zolik va uning rivojlanish strategiyasi. 1960-yil 14-dekabrda dastlab 20ta davlatlar imzolagan tashkilot sifatida boshlangan edi va uning rivojlanish strategiyasi ham qabul qilingan edi. Hozirgi kunda esa ularning soni 36tadan oshdi. Tashkilot tomonidan a'zo bo'lmagan davlatlar bilan faol hamkorlik olib borilmoqda. SHulardan 24 ta davlat vakillari muntazam ravishda kuzatuvchi sifatida bu tashkilotlarning barcha tadbirlariga qatnashmoqdalar.

Evropa Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEESR-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) a'zo davlatlarda 1.5mlrd kishi yashaydi. YA'ni er kurrasining qariyb 18% aholisini tashkil etadi. A'zo davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotning jahon yalpi ichki mahsulotidagi xissasi 60%-80% tashkil etmoqda.

Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) ga a'zolik juda murakkab bo'lib unga bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'rib boriladi. Xar bir a'zo bo'lmoqchi davlatga alohida yondashuv mavjud bo'lib u mamlakatning iqtisodiy rivojlanish

darajasi, siyosiy yo'nalishi va bu tashkilot bilan bo'lgan munosabati kabilar xisobga olinadi. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lmoqchi bo'lgan davlatlar quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

- ochiq bozorli iqtisodiyotga ega bo'lishi;
- siyosat yuritishda demokratik plyuralizm tamoyillariga asoslanishi kerak;
- inson huquqlariga amal qilishi lozim;
- ushbu tashkilotning barcha tamoyillariga amal qilishi kerak.

Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) ga a'zo bo'lmoqchi bo'lgan davlatlar, ushbu tashkilotning 200dan ortiq tartib-intizom tamoyillariga mos ravishda faoliyat yuritishi tavsiya etiladi. Agar bu tavsiyalar mamlakatlarning milliy qonun-qoidalariga zid kelsa bajarmasligi mumkin.

Ushbu tashkilotda davlatlarni doimiy a'zolariga, doimiy nazoratchilarga va vaqtinchalik nazoratchilarga bo'lib o'rganish mumkin. Bular tomonidan kun tartibiga qo'yiladigan forumdagi global muammolar quyidagilardir:

-qishloq xo'jaligi, raqobat, ta'lim, boshqaruv, xalqaro investitsiya, iqtisodiy bilimlar, xalqaro rivojlanish, xalqaro savdo va soliqlar hisoblanadi.

Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) ning faoliyati kengash boshchiligida boshqariladi. Kengashda har bir davlatning bir vakili a'zo sifatida qatnashadi. Kengash ijroiya qo'mita bajarib boradi. Kengash bir yilda bir marotaba o'tkaziladi. kotibiyat informatsion ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, hujjatlar va tavsiyanomalarni ishlab chiqadi, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha analitik hujjatlar chop etiladi.

Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) o'z faoliyatini 9 ta direktorlik orqali amalga oshiradi. Bular:

-ozuq-ovqat, qishloq xo'jaligi va baliqchilik(Directorate for food, agriculture and fisheries,AGR);

-moliyaviy va tadbirkorlik masalalari bo'yicha direktorlik(Directorate for Finance and Enterprise Affairs);

-savdo bo'yicha direktorant(Trade Directorate, ECH);

-ta'lim bo'yicha direktorant(Trade for Education EDU);

-bandlik, mehnat va ijtimoiy masalalar bo'yicha direktorant(Directorate for Employment, Labour and social Affairs, E4S);

-atrof-muhitni qo'riqlash masalalari bo'yicha direktorant(Public Governance and Territorial Development, COV);

-statistika bo'yicha direktorant (Statistics Directorate, STD);

-fan texnologiya va san'at bo'yicha direktorant (Directorate for Science, Technology and Industry, STI)

Direktorantlar umuman olganda xalqaro informasion-analitik markaz rolini o'ynaydi. Ular har yili ikki marotaba vazirlar, har bir davlatlarning vakillaridan iborat ekspert, mutaxassislarning o'zaro uchrashuvlarini tashkil etib boradi.

Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) 20ta qo'mitadan iborat

mutaxassis va ekspertlarni xulosasiga asoslanib har xil konvensiya, deklaratsiya, alohida masalalar bo'yicha kelishuv, tavsiyalar, hamkorlik tamoyillari kabilar ishlab chiqariladi.

Boshqa xalqaro tashkilotlardan farq qilib bu tashkilot moliyaviy resurslarga ega emas. Moliyaviy resurslarini taqsimoti bilan xam shug'ullanmaydi. Ammo u har bir mamlakatga ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga ko'maklashadi, analitik tahlil ma'lumotlaribilan ta'minlaydi. Siyosiy tavsiyanomalar beradi, ilg'or tajribalarni tarqatadi va normativ huquqiy bazani yaratishda amaliy yordam beradi. Bu tashkilot ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazishda har bir davlatga ilg'or tajribalarga asoslangan holda nisbatan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OEES-Organizatsiya Evropeyskogo Ekonomicheskogo Sotrudnichestv) ga a'zo bo'lishga Braziliya, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Indoneziya va JAR, taklifnoma olgan. Bu degani bu davlatlar a'zo bo'ldi degani emas. Bu davlatlar mazkur tashkilotga a'zo bo'lish uchun etakchi darajada normativ-huquqiy qonun-qoidalarni qabul qilgandan keyin, maxsus ekspert xulosasiga asoslanib keyinchalik qabul qilinishi mumkin.

Ushbu tashkilotga a'zo bo'lish istagini O'zbekiston 2010-yilning 10-martida bildirgan edi. O'zbekiston delegatsiyasi Parijda bo'lib o'tgan iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining rahbarligini 24-yilligida Istanbul harakat rejasining 20-monitoring uchrashuvida O'zbekiston delegatsiyasi qatnashdi. O'zbekiston delegatsiyasining press-xizmati ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston 21ta tavsiyanomalar reytingi va jami yo'nalishlar bo'yicha ijobiy deb baholanadi. O'zbekistonda o'zgarishlar ijobiy deb baholanadi va ikkinchi bosqichga yangi 47ta yangi tavsiyanomalar tasdiqlanadi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti asoschilari Eron, Pokiston va Turkiya 1977-yil 12-martda Izmir shaxrida ushbu tashkilotga asos soldilar. 1992-yilda 7 ta yangi davlatlar Qozog'iston, Ozarbayjon, Afg'oniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston bu tashkilotga a'zo bo'ldilar. BMT nini 1995-yildagi Bosh Asambleyasining 50-sessiyasida iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyati ma'qullandi va u bilan hamkorlik qilishga qaror qilindi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti ustavining 4-moddasiga muvofiq eng avvalo iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlarini maqullab har 2 yilda 1 marotaba davlat rahbarini uchrashuvlarini tashkil etyadi.

Ushbu tashkilotning ustavi 5-moddasiga muvofiq quyidagi tashkiliy tuzilmaga ega.

- tashqi ishlar vazirlari kengashi kamida 1 yilda 1 marta o'tkaziladi;
- har bir davlat vakillarining kengashi kamida 1 oyda 1 marotaba o'tkaziladi;
- mintaqa rivojlanishi kengashi har bir davlat vakillaridan iborat kengash har yilda kamida 1 marta o'tkaziladi;
- tashkilot kotibiyati ishni boshqarib boradi kotibiyat shtab kvartirasi Tehronda joylashgan;
- tashkilot faoliyatini bosh kotib boshqaradi. 6 ta direktor quyidagi 6 ta yo'nalishdagi mas'ullardir

- 1) Transport va kommunikasiya

- 2) Savdo va investitsiya
- 3) Energetika, mineral resurslar va atrof muhit
- 4) Qishloq xo'jaligi va sanoat
- 5) Sog'liqni saqlash, ta'lim va ma'daniyat
- 6) Iqtisodiy taraqqiyot va statistika

Kotibiyat tarkibiga quyidagilar ham kiradi. Bular narkotik moddalar oborotiga qarshi kurash organi va 6ta mintaqaviy institutlar (savdo va rivojlanish banki, sug'urta kompaniyasi, suv transporti kompaniyasi, aviakompaniya, savdo palatasi va sug'urta kolleji). Bundan tashqari yana 3ta mutaxassislashgan agentlik (ma'daniyat instituti, ilmiy fond va konsalting injineri kompaniya) faoliyat ko'rsatadi.

Tashqi ishlar vazirlarining umumiy kengashida Bosh kotib 3yil muddatga saylanadi va tasdiqlanadi.

11.2.Xalqaro tizimning norasmiy institutlari. "Katta sakkizlik(keyichalik ettilik)" guruhi.

Katta sakkizlik guruhi G-8 guruh (ing. Group Eight G-8) dunyodagi 8ta yirik davlatning sammiti bo'lib unda davlat rahbarlari dunyodagi global muammolarni operativ ravishda boshqarish uchun hamkorlikdagi o'zaro kelishuvga asoslanadi.

Bu 8ta davlatlar - AQSH, Kanad, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, YAponiya va Rossiya. Bu uchrashuvda Evroqo'mitaning va Evrokengashning raislari ham qatnashadilar.

G-8 guruhi hech qanday Ustavga ega emas u norasmiy rahbarlarining uchrashuvi bo'lib, biror bir qaror qabul qilmaydi. Yuridik majburiyatlar, kotibiyat ham yo'q.

Ilk bor katta 6ta yirik iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya YAponiya, AQSH rahbarlari Fransiyaning Rambue shaharchasida 1975-yilning 15-17 noyabrda uchrashdilar. U erda dunyodagi iqtisodiy va moliyaviy masalalar muhokama qilindi.

6ta yirik davlatlarga 1976-yil iyun oyida Kanada qo'shilganidan keyin ettilikka va 1998-yilda Rossiya qo'shilganidan so'ng G-8 norasmiy tashkilot deb yuritila boshlandi.

Rossiya 1997-yildan to 2014-yilgacha a'zoligi paytida G-8 keyinchalik esa G-7 ettilik sifatida faoliyat ko'rsatdi.

2019-yilning 24-26 avgustida Frantsiyaning Biarris shaharchasida G-7: YAponiya, Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, AQSH davlatlarining rahbarlarining uchrashuvida muhokama qilingan masalalar: Eronning yadro qurolini ishlab chiqarish dasturi, SHimoliy Koreyadagi yadro qurolini sinovi, iqtisodiy o'sishning pasayishi, ekologiya muammolari bundan tashqari Ukraina masalasi va Rossiyaning bu tashkilotga qayta chaqirish masalasi qo'yildi.

Frantsiya prezidenti Emmanuel Makron rais, mezbon sifatida dunyodagi ayollar huquqini himoya qilishda gender notenglik masalasini kun tartibiga qo'ydi. Keyingi masala afrika qit'asi bilan hamkorlikni kuchaytirish masalasi qo'yildi.

Oxirgi ko‘rilgan masala raqamli transformasiyaga bag‘ishlandi.

Ekologiya masalasi bo‘yicha BMT ning bosh kotibi ham atayin kelib qatnashdi. 2020-yilda keyingi G-7 tashkilot uchrashuvi AQSH da bo‘lishini nazarda tutgan Donald Tramp, Rossiya Prezidenti Vladimir Putinni taklifini ma’lum qildi.

Frantsiya prezidenti keyingi uchrashuvni AQSH tashkil qilar ekan u Rossiya prezidentini mehmon sifatida (qatnashuvchi a‘zo sifatida emas) qabul qilinishi mumkin dedi.

Frantsiya prezidenti atrof-muhit va iqlim masalasini muhokama qililib bo‘lganidan keyin ajoyib soatni qatnashuvchilarga sovg‘a qildi. Bu qo‘l soati okeandan terilgan plastikdan yasalganini alohida takidlab o‘tdi.

Donald Tramp Eron, SHimoliy Koreya va Suriya maslasi bo‘yicha Vladimir Putinni bu sammitga qatnashish uchun chaqirish lozimligini aytdi.

Oxirgi 30 yil mobaynida G-7 davlatlarining dunyo yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 50% dan 30% gacha tushdi. Aholini soni esa 10% ni tashkil etmoqda.

AQSH prezidenti va Kanadaning bosh vaziri Xitoyning noto‘g‘ri savdo siyosatiga qarshi chiqib, uni javobgarlikka tortish lozimligini ta’kidladi.

Eron tashqi ishlar vaziri AQSH prezidenti bilan uchrashish niyati borligini aytsada, Donald Tramp uchrashuvni rad etdi.

Ushbu sammitda Buyuk Britaniyaning Evroittifoqdan chiqish masalasi ha muhokama qilindi.

11.3. G-20 norasmiy tashkiloti tuzilishining tarixi.

1999-yil 15-16 dekabrda Berlingda G-20 norasmiy tashkilotga asos solindi. Jahon iqtisodiyotida moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun ushbu tashkilot tashkil etildi. Unga qadar bu masala AQSH da 1998-yilning aprel va oktyabr oylarida 22ta davlatning vakillari bilan uchrashuvda, 1999-yilning mart-aprel oylarida 33ta davlat vakillari bilan uchrashuvda G-20 tashkilotini tuzishga kelishildi. 1999-yilning sentyabr oyiga kelib G-7 davlatlarining moliya vazirlari va markaziy banklarning raislari tashabbusi bilan G-20 tashkilotiga asos solindi.

A‘zo davlatlar 19ta: Avstraliya, Argentina, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Indoneziya, Hindiston, Italiya, Kanada, Xitoy, Meksika, Rossiya, Saudiya Arabiston, AQSH, Turkiya, Frantsiya, JAR, Janubiy Koreya va YAponiya. Bundan tashqari ushbu tashkilotga Evropa ittifoqining raislik qilayotgan davlat rahbari va Evropa markaziy bankning raisi ham a‘zodir.

G-20 tashkilotiga bundan tashqari, jahon banki va xalqaro valyuta fondi vakillari ham qatnashadilar. Bu tashkilotga jahon yalpi ichki mahsulotining 85%, jahon savdosining 75%, va er kurrasi aholisining 2/3 qismi to‘g‘ri keladi.

G-20 tashkilotining maqsadi va vazifalari 1990-yillardan iqtisodiy va moliyaviy inqirozga qarshi kurash, shu bilan birga iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishdir. G-20 guruhi norasmiy tashkilot bo‘lib, u rivojlanayotgan davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshirib, tezkor ravishda iqtisodiy va moliyaviy muammolarni birlikda hal etish vazifasini ham o‘z zimmasiga olgan.

11.4. G-20 norasmiy tashkiloti va uning faoliyat yo‘nalishlari.

1) Globallashuv natijasida vujudga kelgan muammolarni hal qilish;

2) Iqtisodiy va moliyaviy inqirozni oldini olish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

3) Xalqaro moliyaviy tizimda mansabdan suiste'mol qilishlarni oldini olish;

4) Informatsiya almashuvida shaffoflikni ta'minlash;

5) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro bank, Jahon valyuta fondi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarga amal qilish;

6) Moliyaviy terrorizmga qarshi kurash;

7) Soliqdan qochishga qarshi kurash;

8) Savdoni liberallashtirish, savdo to'siqlarini kamaytirish;

9) Ayirboshlash kursini boshqarish;

10) A'zo davlatlarning korporativ boshqarishini yaxshilash;

11) Milliy qarzlarni tarkibiy o'zgartirish.

G-20 norasmiy tashkilotning bir nechta ijobiy ishlarini ta'kidlab o'tish mumkin. Bular:

-iqtisodiyotning inqiroz va rivojlanishi jarayonida jahon moliya tizimini barqarorligi;

-jahon moliya instituti tizimini qayta qurish;

-xalqaro savdoni yanada liberallashtirish;

-tabiiy resurslarni jumladan energoresurslar bozorini rivojlantirish;

-iqtisodiy rivojlanish ta'minlash va demografik o'zgarishlarni qonuniy tartibga solish;

-xalqaro standartlar va kodekslar;

-tashqi qarzlarni o'ndirilishini tartibga solish;

XX asrning 1997-1998 yillardagi iqtisodiy va moliyaviy inqiroz G-20 tashkilotini yanada kengaytirish zarurligini keltirib chiqardi.

2008-yildan boshlab har yili G-20 sammiti o'tkazilib kelmoqda. Jami 14 ta sammit o'tkazildi. Jumladan 2013-yilning 5-6 sentyabrida Sankt-Peterburgda 2020-yil 21-22 noyabrda Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tadi.

Oxirgi 14-sammit Yaponiyaning Osaka shahrida 2019-yilning 28-29 iyunida bo'lib o'tdi. Sammit jarayonida 2-jahon urushining 75 yilligi g'alabasini nishonlash, Ukrainadagi vaziyat, Eron yadro quroli muammosi, Suriyadagi vaziyat, Xitoy va AQSH o'rtasidagi savdo munosabatlari, SHimoliy Koreyadagi atom bombasining sinovi masalalari, neft va gaz qazib chiqarish muammolari, atrof muhitni muhofazasi, ayollarning teng huquqliligini ta'minlash, turizmni rivojlantirish, terrorizmga qarshi kurash.

11.5. G-20 tashkiloti va O'zbekiston.

G-20 norasmiy tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari albatta birinchi navbatda o'z manfaatlarini ko'zlaydilar. Rivojlanayotgan davlatlar uchun sammit natijalariga qarab, ular tomonidan ishlab chiqilgan qarorlar va kelishuvlardan kelib chiqqan holda faoliyat yuritish maqsadga muvofiqdir.

Konfutsiy so'zi bilan aytganda, baliq sovg'asi bilan baliqni ushlashni o'rganish o'rtasida katta farq bor. G-20 tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan qarorlardan O'zbekiston oqilona foydalanmoqda.

O'zbekistondagi demografik vaziyat, ortiqcha ishchi kuchini eksport

qilinishi, tashqi savdo aloqalari bo'yicha hamkorlik qilayotgan davlatlar bilan o'zaro bog'liqlik mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa sifatida quyidagini aytish joizki, hozirgi paytda mavjud xalqaro iqtisodiy institutlar asosan II-jahon urushidan keyin, Evropa mamlakatlarini vatsrona iqtisodiyotini tiklash uchun va hech bo'lamganda, urushdan oldingi darajada mamlakat iqtisodiyotini tiklash uchun boshqa davlatlar bilan, chunonchi asosan AQSH iqtisodiyotiga tayanib hamkorlik qilishlari zarur edi. Bunday sharoitda ham o'zining uzoq siyosiy va iqtisodiy istiqbolini hamda ko'proq foyda olishni ko'zlagan AQSH hukumati dastlab 1944 yilning oktyabr-dekabr oylarida Bretton-Vudss shahrida, urushdan keyin jahon hamjamiyatida o'zining salohiyatini mustahkamlash uchun xalqaro moliya-valyuta konferentsiyasini tashkil etdi. Ushbu konferentsiyaga 44 ta davlat qatnashib(jumladan SSSR ham) XVF va xalqaro tiklanish va taraqqiyot bakkari tashkil etildi. Umuman, XX asrning ikkinchi yarmida, dastlab Bosh xalqaro tashkilot BMT 1945 yilda tashkil etilib, boshqa xalqaro tashkilotlar albatta uning tarkibidan joy ola boshladi. Xususan, Evropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti 1948 yilda, 1960 yilda esa AQSH hukumati bu tashkilotni yanada kengaytirish tashabbusi bilan chiqidi va shu yilning 14 dekabrda Evropa iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining kontseptsiyasi imzolandi. 1962 yilning 30 sentyabridan boshlab kuchga kirdi.

YUqorida aytib o'tilganidek bu tashkilotning asosiy vazifasi a'zo davlatlar va ular bilan xamkorlik qilayotgan davlatlarning iqtisodiyotini tahlil qilish va uni makroiqtisodiy va tarmoq darajasida iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. O'zbekiston ham 1992 yildan beri ushbu tashkilot a'zosi bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytda ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar soni 36tdan oshdi.

Xalqaro norasmiy institutlarning tashkil etilishining asosiy sababi jahon iqtisodiyotini globallasuvi sharoitida dastlab rivojlangan mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy-siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish edi. Aynan shu maqsadda 1976 yili "katta ettilik" norasmiy tashkiloti tuzildi. Bunday tashkilotlarning norasmiy deyilishini sababi ular o'z ustaviga ega emas. Jahon iqtisodiyotida moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikga erishish maqsadida 1999-yil 15-16 dekabrda Berlingda G-20 norasmiy tashkilotga asos solindi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.Xalqaro institutlar deganda nimani tushunasiz?
- 2.Xalqaro tashkilotlarning umumiyqtisodiy vazifalariga nimalar kiradi?
- 3.Rasmiy xalqaro tashkilotlarning ustavi(nizomi) nima sababdan qabul qilinadi?
- 4.Norasmiy xalqaro tashkilotlar tuzilishining asosiy sabablari?
5. Norasmiy xalqaro tashkilotlarning asosiy vazifalari?
6. "Yigirmalik guruhi"ning vujudga kelishiga nima sabab bo'ldi?
7. G-20 va O'zbekiston. O'zbekistonning G-20 tashkilotiga qo'shilishdan asosiy maqsadi?
8. G-20 tashkilotining asosiy vazifalari?
9. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotini asoschilari bo'lib qaysi davlatlar hisoblanadi?

10. Nimauchun norasmiy tashkilotlarning ustavi bo'lmaydi?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
2. Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.
3. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva: Ucheb. posobie / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. M.N. Osmovoy, kand. ekon. nauk, dots. A.V. Boychenko. - M.: INFRA-M, 2006. - VIII, 376 s.
4. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.
5. Global'noe ekonomicheskoe regulirovanie : uchebnik / pod G54 red. prof. V. N. Zueva. — M. : Magistr, 2009. — 574 s.

12-MAVZU: IQTISODIY HAMKORLIKNING XALQARO ME'YORLARI VA TAMOYILLARI.

Reja:

- 12.1. Xalqaro hamkorlik tashkilotlarining vujudga kelishining iqtisodiy va siyosiy sabablari hamda uning bosqichlari.
- 12.2. Xalqaro hamkorlikni ta'minlash me'yorlari va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning funktsiyalari.
- 12.3. Globallashuv sharoitida xalqaro tashkilotlar funktsiyalarining o'zgarib borishi.

12.1. Xalqaro hamkorlik tashkilotlarining vujudga kelishining iqtisodiy va siyosiy sabablari hamda uning bosqichlari.

Hamkorlikka va oshkoralikka asoslangan halqaro iqtisodiy tartib o'tkazishni ta'minlash uchun asta-sekin xalqaro tashkilotlar tarmog'i yaratildi. Aynan ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin bir-biri bilan shakliga ko'ra, maqsadlariga ko'ra, masalalarni hal qilish doirasiga ko'ra bir-biridan farqlanadigan xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning oldin amal qiladigan tizimi yuzaga keldi. Ularning vujudga kelishi xalqaro maydondagi kuchlar o'zaro munosabatining, shuningdek, xo'jalik yuritishning kapitalistik tizimi ichidagi kuchlarning o'zaro munosabati o'zgarishi bilan shartlanadi. SHu bilan bir vaqtda qo'shma iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqish va jahon xo'jalik aloqalarining ko'ptomonlama boshqarish shakllari va usulublarining o'ziga xos evolyutsiyasi yuz berdi.

Birinchi bosqich (Ikkinchi jahon urushidan keyin 1950-yillarning boshlarigacha) halqaro iqtisodiyotda ham, xalqaro siyosatda ham AQSHning mutlaq ustunligi bilan xarakterlanadi. Faqat Amerika iqtisodiyotigina Ikkinchi jahon urushidan hech bir zararsiz chiqdi va 1944-1945 yillarda AQSH o'z iqtisodiy va siyosiy qarashlarini ittifoqchilar va ayniqsa, g'oliblar bilan birlashtirish holatida

bo'lgan. Aynan AQSH tashabbusi va rahbarligi ostida o'zlari uchun kerakli iqtisodiy jarayonlarni ko'ptomonlama boshqarishga yo'naltirilgan xalqaro tashkilotlar tarmog'i yaratilgan. Birinchi navbatda Bretton - Vuds institutlarini, Bretton - Vuds (AQSH)da 1944 yil bo'lib o'tgan Xalqaro valyuta-moliya konferentsiyasi qarori bo'yicha yaratilgan xalqaro tashkilotlarni ta'kidlash zarur. Unda 44 mamlakat ishtirok etdi – a'zolari o'sha paytlarda yaratilgan Birlashgan Millatlar tashkiloti a'zolaridir. Konferentsiyaning oxirigi natijasi BMTning

ikki ixtisoslashtirilgan muassasasi – Xalqaro valyuta fondi va tiklanish va taraqqiyot xalqaro banki.

Xalqaro valyuta fondi XVF (MVF) BMTning mustaqil ixtisoslashgan bo'linmasi sifatida xalqaro valyuta hamkorligi va xalqaro savdoni kengaytirishga, valyuta kelishuvlarini kuzatishga, unga kiruvchi mamlakatlarning valyuta barqarorligini himoya qilishga, to'lov balanslarini tenglashtirish uchun ularga qisqa muddatli kreditlar berishga va ko'p tomonlama hisoblar tizimini yaratishga moslashishga yordam beradi.

Valyuta barqarorligini himoya qilish uchun XVF (MVF) mazkur valyutani oltin va amerika dollari tengligida qayd qilish tizimi monitoringi bilan shug'ullangan. Valyuta kurslarini bog'lash tizimi qisman, o'z navbatida urush oralig'i davrida savdo urushlariga olib borgan, raqobatdosh afzalliklarni olish maqsadida devalvatsiyani bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan. To'lov balansi tanqisligidagi mamlakatlar (pulning oqib chiqib ketishi kirimdan oshib ketsa) eksport kirimini oshirish uchun o'z valyutasini devalvatsiya qilishga majbur bo'ladi. XVF (MVF) to'lov balansidagi vaqtinchalik muammolarni bartaraf etishga va qayd qilingan valyuta kurslarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan qisqa muddatli kreditlarni taklif etishga javobgardir.

Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki XTTB (MBRR) ham BMTning mustaqil ixtisoslashgan muassasasi sifatida tuzilgan, lekin uning a'zolari faqat XVF (MVF) a'zolari bo'lishi mumkin. Bu xalqaro tashkilotning a'zolari, uning nomiga yarasha, ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiyotini tiklash, rekonstruktsiya qilish va rivojlantirishda moliyaviy yordam ko'rsatishdan, shuningdek, ularning iqtisodiyotidagi xususiy xorijiy kapital qo'yilmalarini rag'batlantirishdan iborat.

Xalqaro Bankning roli xuddi XVF (MVF) kabi urush oralig'i davrida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishdan iborat. Birinchi jahon urushidan keyin xizmat ko'rsatish qarzlar va iqtisodiyotni tiklash xarajatlari tufayli yuzaga kelgan ko'pgina muammolar iqtisodiy ixtilof va munozalarda kelib chiqdi. Bu muammolarning oldini olish uchun Ikkinchi jahon urushidan keyin bank iqtisodni tiklash va rivojlantirish uchun uzoq muddatli kreditlarni taklif etdi.

Keyinchalik esa Tariflar va savdo bo'yicha xalqaro kelishuv imzolandi (TSXK). U vaqtinchalik maqomga ega bo'lib, xalqaro savdo tashkiloti (JST) yaratish haqida kelishuv ratifikatsiyasi davrida amal qilishi lozimi edi. Bu tashkilot XVF va XTTB bilan bir qatorda xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining urushdan keyingi uchinchi tayanchi bo'ldi. Bundan tashqari, BJST jahon yuzini ko'rmadi (AQSH uning ustavini ratifikatsiya qilishdan bosh tortdi), shuning uchun TSXKni imzolagan mamlakatlar uning tamoyillarini savdo munosabatlari sohasida qo'llashga qaror qildilar. Uning faoliyati xalqaro savdoni erkinlashtirishga, tarif va

notarif bar'arlarni pasaytirishga yo'naltirilgan. TSXK ikki asosiy tamoyilni tasdiqladi: xalqaro almashinuvda erkinlik va nodiskriminatsiya. Birinchi tamoyil miqdoriy cheklavlardan sekin-asta voz kechishni va import bojlarini sekin-asta pasaytirishni anglatadi. Savdodagi nodiskriminatsiya ikki tartibning qo'llanilishi bilan ta'minlanadi: mumkin qadar qulay shart- sharoit yaratish (u TSXK ni imzolangan) har bir davlatni ishtirokchi mamlakatlarning biridagi tashqi savdo doirasida u taklif etadigan barcha imtiyozlarni barcha ishtirokchi mamlakatlarga teng ta'minlashga majbur qiladi; ichki savdoning barcha ichki soliqlari, yig'implari va ichki savdo qoidalariga munosabat bo'yicha milliy tartib. TSXK ni imzolagan mamlakatlar barcha munozarali masalalarni, savdo urushlari yo'li bilan emas, maslahat va muzokaralar yo'li bilan hal qilishni o'z zimmlariga oladilar.

TSXK doiraviy kelishuv sifatida ishlab chiqilganligi uchun u to'liq xalqaro tashkilot bo'la olmadi. Aslida esa TSXKga qo'shilgan mamlakatlar shartnomaning rasmiy a'zolariga qaraganda qarama- qarshi tomon bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, TSXK savdoni erkinlashtirishda bir necha o'n yilliklar davomida o'zining yuqori samaradorligini isbotladi.

Modomiki, XVF, XTTB va TSXK oldin, ikki urush oraliq'ida yuz bergan muammolarni bartaraf etish uchun yaratilgan ekan, bu institutlarning vazifalari ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin yuz bergan o'zgarishlar bilan birga muqarrar o'zgarib boradi. Masalan, Evropani tiklash masalasi kutilgandan ham keng qamrovli bo'ldi va buning uchun AQSH 1948 yilda g'arbiy Evropa mamlakatlariga ikki tomonlama yordam ko'rsatish uchun Evropani tiklash dasturini ("Marshall rejasi") ishlab chiqdi. Buning natijasida xalqaro bank Evropani tiklashda minimal rol o'ynadi va o'z e'tiborini butunlay rivojlanish maqsadida kreditlar berishga qaratdi.

Evropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti(EIXT)ni yaratish ham mana shu davrlarga tegishlidir (EIXT). Uning faoliyati g'arbiy Evropada "Marshall rejasi"ni amalga oshirish bilan chambarchas bog'langan. Ma'lumki, uning vazifasiga urush harakatlaridan zarar ko'rgan g'arbiy Evropa mamlakatlari iqtisodiyotini tiklash, ularni AQSH iqtisodiyoti bilan bog'lash, shuningdek, g'arbiy Evropa bozorlarini tiklash va unda Amerika tovarlarini sotish kiradi. "Marshall rejasi" amalda Amerika TMKlari kapitalini g'arbiy Evropa mamlakatlari iqtisodiyotiga kirishi uchun yo'l ochdi. EIXT AQSH yordamini turli Evropa mamlakatlari o'rtasida taqsimlashi va ularning iqtisodiyotini qaytadan yaratishga yordam berdi. Unga g'arbiy Evropaning 16 ta mamlakati va Germaniyaning okkupatsion hududlari kiritilgan edi, lekin SHarqiy Evropadan bir mamlakat ham kiritilmagandi.

Bu to'rt tashkilotni ular xalqaro moliyada, savdoda va valyuta munosabatlarida o'ynaydigan rolini tasavvur qilish uchun xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tayanchi deb atash mumkin.

50-yillarning boshlarida shakllangan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tizimi kapitalizmning ilg'or mamlakatlari oldida turgan masalalar bilan muvofiqlashadi. Ular quyidagi jihatlar bilan xarakterladi:

-ular faqat industrial rivojlangan mamlakatlarni o'z ichiga oladi va AQSH ning bevosita kapitalizmning tashqi iqtisodiy aloqalari tizimida xokimlik qilishining quroli sifatida ular tomonidan yaratilgan "boshqarish institutlari"dan

foydalanish niyatini aks ettiradi;

-boshqarish asosan, xalqaro savdoni tashqi savdo barerlarini, avvalo, bojxona bojarini pasaytirish yo‘li bilan xalqaro savdoni liberallashtirishda va kapitallarning erkin aralashuvida jamlanadi.

Ikkinchi bosqich 1960 yillarda boshlandi. Bu vaqtga kelib xalqaro xo‘jalikdagi o‘zgrishlar va uning kapitalistik qismlari aniq belgilandi: Ikkichi jahon urushi tugaganidan boshlab kuchli milliy – qutqaruv harakati natijasida kollonial bog‘liqlikdan bir qator mamlakatlar ozod bo‘ldilar, xalqaro maydonga rivojlanayotgan mamlakatlarning katta guruhi chiqdi. Ularning ko‘pchiligi xalqaro tashkilotlarning (XVF, XTTB, TSXK) a‘zolariga aylandilarki, bu rivojlangan mamlakatlarning ulardagi miqdoriy afzalliklarini va demak, oldingi erkin harakatlarini yo‘qotdi. Butun murakkabligi bilan ilg‘or industrial mamlakatlar bu tashkilotlarning tarkibida ? ga yaqinni egallay boshladilar, modomiki, sifat afzalliklarini oldingidek saqlab qoldilar. Bundan tashqari, ularning safiga bir necha sotsialistik mamlakatlar ham qo‘shildi.

Rivojlangan mamlakatlar guruhi ichidagi o‘zgarishlar ham muhim xarakterga ega bo‘la boshladilar, xususan, AQSH o‘zining etakchilik o‘rnini yo‘qota boshladi, modomiki, jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan integratsion jarayonlar tufayli u erda o‘sib borayotgan solishtirma og‘irlikni oxir-oqibatda g‘arbiy Evropa mamlakatlari egalladilar. Yaponiya ham urush oqibatlaridan tez o‘nglanib oldi va “iqtisodiy mo‘jiza” mevalarining samarasini ko‘ra boshladi. Kuchlarni joylashtirishdagi o‘zgarishlar ko‘p tomonlama tartibga solish shakllarini tuzatish zaruratini yuzaga keltirdi.

Modomiki, EIXT g‘arbiy Evropaning iqtisodiy tiklanishga katta ulush qo‘shgan ekan, uning rolini kuchaytirish va a‘zolari sonini kengaytirish lozim edi. Natijada EIXT 1961 yilda qaytadan tashkil qilindi va u Iqtisodiy hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IXRT) deb nomlandi, unga 18 ta rivojlangan evropa mamlakatlaridan tashqari AQSH va Kanada ham kirdi. Bugun 29 ta mamlakat, jumladan, Koreya Respublikasi, Meksika, o‘tish iqtisodiyotidagi bir necha mamlakatlar IXRTning a‘zosi hisoblanadi. YAngi tashkilot vazifasiga iqtisodiyotni barqarorlashtirish, xalqaro savdo almashinuvini va valyuta kredit aloqalarini rivojlantirish yo‘li bilan a‘zo-mamlakatlarning iqtisodiy o‘rishiga yordam berish, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga munosabat bo‘yicha umumiy iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish kiradi. Bu davrda IXRT rivojlangan mamlakatlarning yagona iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va koordinatsiya qilishga yo‘naltirilgan muhim xalqaro institutiga aylandi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik sekin-asta muhim ahamiyat kasb eta boshlamoqda. Bu BMTning yangi ixtisoslashtirilgan bo‘linmalari – YUNKAD va YUNIDO larning yuzaga kelishida ham o‘z aksini topmoqda, unda “uchinchi dunyo” mamlakatlariga munosabat siyosati ishlab chiqildi, shuningdek, bu davrda XVF da rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlari bo‘yicha kreditlashtirishning qo‘shimcha va maxsus mexanizmlari shakllantirildi. Nihoyat, 1965 yildagi tarif va savdo bo‘yicha Bosh kelishuvning ko‘rib chiqilishi natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda TSXK tamoyillari bir nechasi dan voz

kechish rivojlanayotgan mamlakatlar foydasiga ko'rib chiqildi.

SHunday qilib, ikkinchi bosqichning xususiyati rivojlangan mamlakatlarning xalqaro rivojlanishga o'zlari uchun kerakli bo'lgan yo'nalishda bir butun ta'sir ko'rsatish imkoniyatining yo'qolib borishi bo'ldi.

Uchinchi bosqich. U 1970 yillarda boshlandi. U dunyodagi kuchlarning o'zaro nisbatini tubdan o'zgarishi bilan mashhur: kolonial tizim butunlay tugatildi va rivojlanayotgan mamlakatlar yangi xalqaro iqtisodiy tartibni o'rnatish uchun kurash olib bordilar. Bu barcha mamlakatlar etakchi xalqaro tashkilotlarga tavsiya etildilar

XVF, XTTB, TSXK va boshqalarga. YAngi rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga ular tarkibining kengayishi bu tashkilotlarni rivojlangan mamlakatlarning tor egoistik maqsadlariga erishishlari uchun ahamiyatini kamayтира boshladi. Bu rivojlangan va sobiq kolonial mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi. XVF haqida gapiradigan bo'lsak, 70-yillarning boshlarida suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimi bilan almashtirilgan qayd qilingan valyuta kurslari tizimi barbod bo'lgan paytda u o'zining asosiy funktsiyalaridan birini yo'qota boshladi. Bundan tashqari, XVFning funktsiyalari 80-yillarning boshlarida yanada kengaydi: u Meksika o'z zayomlari bo'yicha defolt e'lon qila boshlaganda, tashqi qarzlarning inqirozi bilan shug'ullanadigan etakchi xalqaro agentlikka aylandi.

SHu bilan bir vaqtda keskinlikni yumshatish natijasida rivojlangan mamlakatlarning sotsialistik mamlakatlar savdo-iqtisodiy hamkorligi rivojlana boshladi.

Etakchi rivojlangan mamlakatlar o'rtasida kuchlarni jiddiy o'zgartirish va qaytadan joylashtirish yuz berdi: 70-yillarning boshlarida iqtisodiy raqobatning uch markazi shakllandi – AQSH, g'arbiy Evropa va YAponiya, AQSH iqtisodiyotdagi etakchilik o'rnini yo'qota boshladi, bu vaqtda xalqaro iqtisodiyotning "lokomativi" sifatida FRG va YAponiya maydonga chiqqa boshladi.

Bu barcha sabablar yangi xalqaro institut – hayotiy zarur bo'lgan iqtisodiy muammolarni muhokama qilish uchun, pozitsiyalarni yaqinlashtirish, asosiy industrial rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini kordinatsiyalar va kelishtirish uchun forumning yuzaga kelishi bilan shartlanadi. U AQSH, Kanada, YAponiya, FRG, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Italiyaning norasmiy uyushmasi sifatida 1975 yildan faoliyat yurita boshladi. Bu forumning ishi "katta ettilik" mamlakatlari rahbarlarining yillik uchrashuvlari asosiga qurilgan bo'lib, unda rivojlangan mamlakatlarning makroiqtisodiy, valyuta, kredit-pul siyosatining eng murakkab masalalari, tashqi qarzdorlik inqirozi muammolari, Fors ko'rfazidagi urushlar va boshqalar muhokama qilinadi.

Uchinchi bosqichda XVF faoliyati rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy va moliyaviy ta'sirining saqlanib qolishi nuqtai nazaridan tub o'zgarishlarga duch keldi, lekin bu davrda kambag'al mamlakatlarni moliyalashtirishning qo'shimcha va maxsus imtiyozli mexanizmlari kiritildi.

To'rtinchi bosqich. 1980 yillarning oxiri va 1990 yillarning boshida xo'jalik yuritishning sotsialistik tizimini barbod bo'lishi va SSSRning tarqalib ketishi, markazlashgan boshqaruvga, rejali iqtisodiyotga ega mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, yagona jahon xo'jaligining tiklanishi bu mamlakatlarning

rivojlanishini tubdan o'zgartirishni va ularning boshqa mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarini o'rnatishnigina emas, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi evolyutsiyasida yangi to'rtinchi bosqich boshlanganligini ham anglatadi.

Bu bosqich "sovuq urush"ning tugashi va sobiq sotsialistik mamlakatlarning etakchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga avval kuzatuvchilik huquqi ostida, keyinchalik esa to'la huquqli a'zo sifatida kirishi bilan ham mashhurdir. SSSRdagi qayta qurish natijasida 1990 yil mayda uning kuzatuvchi sifatida TSXKga kirishi, 1991 yil oktyabrda esa uyushgan a'zo sifatida XVFga kirishi imkoniyati tug'ildi, 1992 yildan boshlab esa XVFga sobiq SSSRning barcha respublikalari, jumladan Rossiya ham to'la huquqli a'zolari safiga kirdi.

1990 yilda yangi yirik xalqaro tashkilot Evropa rivojlanish va taraqqiyot banki (ERTB) ning yuzaga kelishi ham juda muhim hodisa bo'ldi. Uning aniq maqsadi – bozor iqtisodiyotiga o'tishga, Markaziy va SHarqiy Evropa hamda MDH mamlakatlarining xususiy va tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirishga yordam ko'rsatishdan iboratdir (Nizomga muvofiq, xususiy tarmoqqa bankning 60% resurslari yo'naltirilishi lozim). Bank 62 ta aktsionerga ega: sobiq SSSRning hamma mamlakatlarini qo'shgan holda 60 ta mamlakat va 2ta xalqaro tashkilot – EI va Evropa investitsiya banki. Boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ustavlaridan farqli ravishda, bank ustavi o'z mohiyatiga ko'ra, siyosiy mandatdan iborat, bu mandat bank o'z operatsiyalarini amalga oshiradigan barcha mamlakatlar ko'p partiyali demokratiya tamoyillariga, plyuralizmga sodiq bo'lishlari lozimligini ko'rib chiqadi. Bank ERTBning asosiy resurslari hamda 11 ta maxsus fond resurslari hisobiga birdek moliyalashtiriladigan kichik va mikrobiznesning rivojlanishiga texnik yordam ham ko'rsatadi. ERTBning ish faoliyatiga atrof-muhitni muhofaza qilish, yadro xavfsizligini ta'minlash va boshqa masalalar ham kiradi. Bank faoliyati geografiyasi tinmay kengayib bormoqda. U amalda Markaziy va SHarqiy Evropa hamda MDH mamlakatlarida yirik to'g'ridan-to'g'ri investor hisoblanadi. U yoki bu mamlakatda bank faolligi – o'z mohiyatiga ko'ra, xorijiy xususiy investorlar uchun barometr hisoblanadi. Nomlanishi jihatidangina hududiy hisoblangan xalqaro iqtisodiy tashkilot ilk bor AQSH tashabbusi bilan yaratilgan edi. ERTBning tashkil etilishi ma'lum ma'noda g'arbiy Evropaning xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha jarayonlariga va shu bilan birga AQSH va Evropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi turli-tuman qarashlarni oshirishga ta'sirining o'sishini aks ettiradi.

Bu bosqichda TSXKning xalqaro savdo tashkilotiga aylanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi, uning a'zolari endi 148 ta mamlakatga etdi (2007 yil fevral ma'lumotlari). Faqatgina tovar savdosini boshqarish bilan shug'ullanadigan TSXK dan farqli ravishda yangi xalqaro tashkilotning faoliyat predmeti xizmatlar savdosi, savdo bilan bog'liq intellektual mulk va investitsiyalar huquqlarini himoya qilish hisoblanadi.

12.2. Xalqaro hamkorlikni ta'minlash me'yorlari va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning funktsiyalari.

Globalashuv sharoitida qaysidir ma'noda "lokomativ" bo'lgan, universal me'yorlar, standartlar va qoidalarni xalqaro xo'jalik munosabatlari uchun ishlab

chiqadigan va ularga joriy qiladigan xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar (BJST, XVF, Xalqaro bank, IXRT va boshqalar)ning global boshqaruvchilik roli haddan ziyod o'sib bormoqda. 1990 yil oxirlaridagi xodisalarni ko'rsatishicha, XVF va xalqaro bank tasodifiy qo'poruvchi moliyaviy inqirozlarga tayyor emas edi. Buning yana bir sababi shundan iboratki, XVF va XTTB lar butunlay boshqa davrda va butunlay boshqa vazifalar bo'yicha Bretton-Vuds kelishuvlari bo'yicha tashkil etilgan. Ular juda oddiy bo'lgan va faqat rivojlangan mamlakatlargagina tegishli bo'lgan. XVF xalqaro valyuta barqarorligini himoya qilish va valyuta operatsiyalaridagi cheklovlarni olib tashlash uchun tuzilgan edi. XTTB urushdan keyin Evropani tiklashda uzoq muddatli kreditlarni (XVFning qisqa muddatli kreditlaridan farqli ravishda) taqdim etadi. Ularni mohiyatan, "o'zaro yordam" kassasi deb atash mumkin. Keyin esa rivojlanayotgan mamlakatlarning katta miqdori yuzaga keldi va bu tashkilotlar hal qila olmaydigan muammolarga ega bo'lgan yirik moliyaviy resurslarning aralashuvi muammolari yuzaga keldi.

XVF ham, XTTB ham ko'p yillar davomida "moliyaviy barqarorlik va tuzilmaviy moslashuv" bo'yicha iqtisodiyotda qiyinchiliklarga duch kelayotgan mamlakatlarning standart tavsiyasini berdi, bundan tashqari "moliyaviy barqarorlik va tuzilmaviy moslashuv"da ularning moliyaviy tizimlarining TMK va TMB larning muvaffaqiyatli amal qilishlari uchun xalqaro moslashuvi nazarda tutiladi. Buning uchun liberalizatsiya g'oyalari rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyoti oshkoraligi kuchli tashviqot qilindi. Bu maslahatlarga amal qilgan mamlakatlar tashqi iqtisodiy ta'sirlar uchun nozik bo'ldilar. Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan etarli darajada mustaqil bo'lgan mamlakatlarning o'zlari iqtisodiy yutuqlarga erisha boshladilar.

Global iqtisodiy o'zgarishlardagi ularning rolini hisobga olgan holda rivojlangan mamlakatlar tayanch xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyati va operatsiyalari yo'nalishlarini aniqlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar XVF kreditlari va xalqaro bank zayomlarida asosiy donorlar hisoblanadilar hamda ularda ovozlar juda ko'p. Ulardagi eng ko'p ovozlar AQSH, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya va Buyuk Britaniya kiradi.

BJSTda "bir mamlakat-bir ovoz" tamoyili amal qilsa ham asosiy savdo xokimlari – rivojlangan mamlakatlar ko'ptomonlama savdo muzokaralarining kun tartibini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydilar. SHarqning etakchi mamlakatlari, ularning oliy menejerlari milliyligi bo'yicha ham ayon bo'lib qoldi. Ovozsiz kelishuvlarga ko'ra, Xalqaro bank Prezidenti har doim Amerikalik bo'lishi lozim, XVFning ijroiya direktori Evropa mamlakatlarining vakilidir; TSXK va JSTning barcha bosh direktorlari 1990 yilgacha Evropaliklar bo'lgan. "Uchinchi dunyo" mamlakatlari bu kompaniyalarning rahbariyat organlariga kamdan-kam holatlarda tavsiya etiladilar, ko'pgina sotsialistik mamlakatlar esa 1970 yilgacha umuman uning a'zosi bo'lishmagan.

Bretton-Vuds tizimi va uning institutlari tengi yo'q iqtisodiy o'sishning va keyingi 50 yil ichida dunyodagi qulay o'zgarishlarning manbalari sifatida qaralgan. Bundan tashqari, bu tashkilotlar kengaytirilgan iqtisodiy o'sishning turlari AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlarning tavsiyalaridan kelib chiqadi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar xalqaro gullab-yashnash va butun dunyo bo'ylab kapital va

tovarlarning erkin aralashuvi sharoitidagina mumkin bo'lishiga asoslangan iqtisodiy o'sishga liberal yondashuvni qo'llab-quvvatlaydilar. Bunday liberal yondashuv, keyingi o'n yillik hodisalari ko'rsatishicha, boy rivojlangan mamlakatlarga xuddi global xalqaro iqtisodiyot yadrosi kabi katta o'zgarishlarni yuzaga keltiradi va jahon xo'jaligi periferiysini xalokatli tarzda barbod qiladi.

Liberal kriteriyalardan kelib chiqib gapiradigan bo'lsak, unda tayanch xalqaro iqtisodiy tashkilotlar XX asrning 50-70 yillarida to'la samarali faoliyat yuritganlar, bunda ular liberallashtirish, iqtisodiy o'sish va barqarorlikka muvofiqlashadi. Birinchidan, "sovuq urush" AQSH ning g'arbiy Evropa va YAponiya mamlakatlari tomonidan xo'jalik kooperatsiyasini rivojlantirish niyatini kuchaytirdi; urushdan keyingi iqtisodiyotning tez tiklanishi Sovet Ittifoqining mustahkam pozitsiyasini shakllantirishning dastlabki shart-sharoiti sifatida ko'rib chiqildi. Ikkinchidan, AQSH ning xalqaro gigemon sifatidagi holati yaxshi edi va urushdan keyingi savdo, moliyaviy va kredit munosabatlarini amalga oshirishning qoida va tamoyillarini o'rnatishda etakchilikka intiladi. Uchinchidan, AQSH etakchi-ligiga rozi bo'lgan va u bilan qarashlari bir xil bo'lgan ayrim mamlakatlarga nisbatan xalqaro iqtisodiy tizimga jalb qilindi. Nihoyat, urushdan keyingi xalqaro institutlar milliy davlatlar o'z ichki maqsadlarini kuzata olishlari, masalan, to'la bandlikka harakat qilishlari va shu bilan bir vaqtda halqaro qoida va majburiyatlarni himoyalashlari mumkin bo'lgan holatda qurilgan edi.

12.3. Globallashuv sharoitida xalqaro tashkilotlar funktsiyalarining o'zgarib borishi.

Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining oldingi samaradorligiga qaramasdan, xalqaro tayanch institutlar 60-yillarning oxirlarida globallashayotgan iqtisodiyotni boshqarishda yuzaga kelayotgan muammolarga duch kelmoqdalar. G'arbiy Evropa va YAponiya 60-yillarda AQSH ga qaraganda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga ega bo'la boshladi, AQSH o'z o'rnining mustahkamligiga ishonchini yo'qotdi va xo'jalik liberalizmini kamroq himoya qila boshladi. Masalan, savdo proteksionalizmiga intilish aniq ifodasini topa boshladi, 1971 yilda bu mamlakatning savdo balansi tanqislikni his qila boshladi. g'arbiy Evropa va YAponiya AQSH etakchiligini yanada haq-huquqini, "sovuq urush"ning inqirozi rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi turli-tuman fikrlilikni kuchaytirdi. Xalqaro tayanch institutlarga chaqiriq e'lon qilgan boshqa omil "uchinchi dunyo"ning o'sib boruvchi ta'siridir. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tashkilotlar siyosati ko'ngli qolgan va 1970-yillarda o'z da'volarni (protest) kuchaytirishga muvaffaq bo'ldilar. 1973 yildagi birinchi "neft falaji" aylanma punkt bo'ldi. Bunda yaqin sharqning neft qazib chiqaruvchi mamlakatlari neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti a'zolari qo'shni arab mamlakatlarining Isroilga qarshi agressiyasini himoya qiladigan g'arb mamlakatlarining neft eksportiga blokada o'rnatdilar va neft narxini 400 %ga oshirdilar.

Jahon iqtisodiyotidagi keyingi buzg'unchilik, sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishga va xalqaro tayanch institutlari qobiliyatiga da'vo qildi.

Xalqaro institutlarga uchinchi chaqiruv globallashtirish kuchidan, xususan, kapital oqimidan kelib chiqadi. Kapitallarning o'sib boruvchi xalqaro harakatchanligi nafaqat boshqarishni, shuningdek, xalqaro iqtisodiyotda ko'pgina voqealar monitoringini ham murakkablashtiradi. Xalqaro institutlar ixtiyoridagi resurslarning umumiy hajmini har kuni mamlakat chegaralari orqali chayqov hajmi bilan umuman qiyoslab bo'lmaydi, hech bir xalqaro tashkilot yo'qki, u TMK va TMB larning ulkan moliyaviy oqimlarining sub'ektlari sifatida samarali kuzata olsin. Natijada ko'pgina analitiklar xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning global iqtisodiyotni samarali tartibga solish qobiliyatlarini nisbatan skeptitsizm ruhida bashorat qiladilar.

Nihoyat, ulardagi rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik mamlakatlardagi o'sib boruvchi a'zolari ularning samarali boshqarish qobiliyatlarini kuchsizlantiradi. SHu bilan bir vaqtda, ayrim ekspertlar xalqaro iqtisodiy tashkilotlar yanada prezentativ bo'lishlari kerak deb hisoblaydilar, boshqalari esa bunday yirik tashkilotlarda qarorlar qabul qilish juda qiyin degan nuqtai nazarni ilgari suradilar. Bu tashkilotlar a'zolarining katta miqdori iqtisodiy siyosat doirasidagi kordinatsiyalardagi, monitoring va maslahatlardagi katta qiyinchiliklarga va qo'shib ketishlarga olib keladi.

XVF, XTTB va BJST global iqtisodiyotdagi muhim funktsiyalarni bajarishda davom etmoqdalar, bundan tashqari, undagi a'zolar miqdorining ko'pligi fakti liberal analitiklarni bu tashkilotlarga iqtisodiy salohiyati etakchilik huquqini bera oladigan va bu bilan ular majburiyatini o'z zimmasiga oladigan kamgina mamlakatlar rahbarlik qilishlari lozim, degan fikrga kelishiga olib keladi. haqiqatan ham 1960 yildan boshlab etakchi mamlakatlar o'z manfaatlarini tayanch tashkilotlarga taklif etadigan kichik guruhlariga umumlashganlar. Bu guruhlar IXRT a'zolarini, "katta ettilik"ni va "katta beshlik"ni o'z ichiga oladi (AQSH, YAponiya, FRG, Frantsiya va Buyuk Britaniya). Bu kichik mustahkam guruhlar hamda iqtisodiy raqobatning uch markazi – AQSH, g'arbiy Evropa, va YAponiyaning mavjudligi globallashtirish davrida rivojlangan mamlakatlar siyosati koordinatsiyasida juda ta'sirchan va samarali bo'ladi. bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar axborotlarni bo'lishmagan holda va unchalik rivojlanmagan mamlakatlar bilan birga qarorlar qabul qilishda bunday guruhlar bilan aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Lekin iqtisodiy etakchilik va barqarorlikni ta'minlash uchun bunday guruhlar muhim deb hisoblaydigan liberal iqtisodiyotchilarga qarama-qarshi ravishda ko'pchilik ularning mavjudligi kuchli kapitalistik mamlakatlarga xalqaro iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun muhim bo'lgan jarayonlardan uzoqroq mamlakatlarni chiqarib tashlash imkonini beradi. Modomiki, XVF va Xalqaro bankda muallaq ovoz berish, turli afzal gurhlarning yo'qligi odatiy holatdir, modomiki, ularda kam rivojlangan mamlakatlar, oxir-oqibatda muzokaralar stoliga qo'yilgan.

Adolat bilan shuni ta'kidlash lozimki, ayrim rivojlangan mamlakatlar xukumatlari tayanch institutlar darajasidan qoniqmasliklarini namoyish qilganlar. Masalan, Germaniya va YAponiyada tanqidchilar ularning bu tashkilotlarga ta'siri ularning iqtisodiy quvvati bilan proporsional o'smayotganligini bir necha bor

ta'kidlaganlar. 1988 yildagi XVF va xalqaro bank direktorlari Kengashi uchrashuvining germaniya vakillari "amerikaliklarda – real kuch, frantsuzlarda – oliy rahbariyatdagi yaxshi pozitsiyalar, nemislar yaponlar esa barchasi uchun to'laydilar" deganlar. YAqin kunlarga, xalqaro iqtisodiy institutlari top-menejerlarining hech biri nemis ham, yapon ham bo'lmagan. hatto AQSH ham bir necha yillar davomida TSXKning ijroi direktorlari Evropaliklar bo'lganligiga e'tiroz bildirdilar. 1995 yilda BJST birinchi ijroyi direktorini tanlash vaqti keldi va amerikaliklar Meksika vakili nomzodini qo'llab-quvvatladilar. Lekin bunda amerikaliklar hech nimani o'zgartira olmadilar.

Xulosa. SHunday qilib, ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH xalqaro iqtisodiy va siyosiy sohalarda, qariyb 1950-yillarning ikkinchi yarmigacha mutlaq ustunlik mavqe'iga ega edi. Eng yirik xalqaro tashkilot BMT ham AQSHda joylashganligi, uning siyosiy sohadagi mavqe'ini mustahkamlardi. Binobarin u o'zining iqtisodiy-siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib o'sha paytlarda hali zaif bo'lgan Evropa mamlakatlarini o'z ta'sir doirasiga tortgan edi. Xalqaro tashkilotlarni vujudga kelishining birinchi bosqichida BMTda ratifikatsiya qilingan asosan to'rtta tashkilot XVF, XTTB, EIHT va TSXK(ta'rif va savdo bo'yicha xalqaro kelishuv, keyinchalik JST) yuqori mavqe'ga ega edi. Globallashuv jarayonlarida bu to'rt tashkilotni, ular xalqaro moliya, savdo va valyuta munosabatlarida o'ynaydigan rolini tasavvur qilish uchun xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tayanchi deb atash mumkin.

XVF, Jahon banki va BJST a'zolari miqdorining oshishi bilan muvofiqlashadi va ular birinchi bo'lib, o'z tashkiliy tarkibiga ko'ra, universal bo'lib qoldilar. Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki XTTB (MBRR) ham BMTning mustaqil ixtisoslashgan muassasasi sifatida tuzilgan, lekin uning a'zolari faqat XVF (MVF) a'zolari bo'lishi mumkin. Modomiki, globallashuv bu tashkilotlar hajmini oshirishga yordam bergan bo'lsa ham, bu institutlar bilan iqtisodiy munosabatlarga ta'sir imkoniyatini murakkablashtirdi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro Mehnat tashkiloti qachon tuzilgan va uning asosiy vazifalari?
2. Bretton-Vudd konferentsiyasi qachon bo'lib o'tgan va uning asosiy natijalari nimalardan iborat?
3. Xalqaro taraqqiyot va tiklanish bankining vazifasi nimadan iborat?
4. Xalqaro valyuta fondining iqtisodiyotda tutgan o'rni nimadan iborat?
5. Nima uchun global xalqaro tashkilotlarning tuzilishi asosan II-jahon urushidan keyin faol amalga oshdi?
6. Global xalqaro tashkilotlarning tashkil etilishini I-bosqichida qanday xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tuzildi?
7. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tuzilishining II-bosqichini o'ziga xos xususiyatlarini izohlab tushuntiring?
8. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni vujudga kelishini III-bosqichini xususiyatlari nimadan iborat?
9. Global xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni tashkil etilishini hozirgi IV-bosqichi xususiyatlarini tushuntiring?

10. Xalqaro hamkorlikni ta'minlashda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni funktsiyalari nimalardan iborat?

11. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar funktsiyalarini o'zgarib borishini ob'ektiv sabablari izohlab tushuntiring?

12. Yana qanday global xalqaro tashkilotlar haqida tushunchaga egasiz?

13. Xalqaro hamkorlik me'yorlari deganda nimani tushunasiz?

14. Butunjahon savdo tashkilotining "bir mamlakat-bir ovoz" tamoyili mohiyatini tushuntiring?

15. Xalqaro Valyuta Fondi funktsiyalarini tushuntirib bering?

Bibliografik ma'lumotlar:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. - 584 b.

2. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. "Global iqtisodiyot" (O'quv qo'llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –bet.

3. Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

4. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva: Ucheb. posobie / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. M.N. Osmovoy, kand. ekon. nauk, dots. A.V. Boychenko. - M.: INFRA-M, 2006. - VIII, 376 s.

5. Глобальное экономическое регулирование : учебник / под ред. проф. V. N. Zueva. — M. : Magistr, 2009. — 574 s.

**V-BOB. GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA VA ISHLAB
CHIQUARISHNING HAMDA XALQARO IQTISODIY
TASHKILOTLARNING BAYNALMINALLASHUVI.
13-MAVZU: GLOBALLASHUV SHAROITIDA SANOATNING
RIVOJLANISHI VA IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLANISHI.**

Reja:

13.1. Global iqtisodiy tizimda, iqtisodiy o‘shish va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlanishi?

13.2. XXI asr bo‘lag‘asida iqtisodiy o‘shish strategiyasi.

13.3. Global raqobatning kuchayishi va «qiyosiy ustunlik» tamoyiliga amal qilinishi.

13.4. BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti-YUNIDOning vazifalari.

13.1. Global iqtisodiy tizimda, iqtisodiy o‘shish va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlanishi.

XX asrning oxiri va XXI asrda sanoat ishlab chiqarishining **jami omillar unumdorligi dinamikasi**, odatda, ilmiy-texnika taraqqiyotining yangi yo‘nalishlari asosida shakllanib vujudga kelgan yosh sanoat tarmoqlarining katta ishlab chiqarish davrini tezligi bilan bog‘liq. Ishlab chiqarish davrining pasayish to‘lqiniga o‘tishi, aksariyat yangi sanoat tarmoqlarini etuklik fazasi boshlanishini anglatadi, bu esa yangi turdagi o‘xshash-o‘rindosh mahsulotlarni yaratadigan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning konstruktorlik-loyihalash tarmog‘ini zaiflashganligini ko‘rsatadi. Katta ishlab chiqarish davrining pasayish to‘lqinida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning texnologik tarmog‘i ustuvor bo‘lganligi tufayli, mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarning pasayishi ta’minlanadi. Demak, ishlab chiqarish davrini pasayish davriga o‘tishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijalaridan foydalanishning susayganligini bildiradi. SHuning uchun ham, jami omillar dinamikasi, ITTning natijalaridan foydalanishning jadalligi bilan bog‘liq. Masalan, 2007 yildan keyin AQSHda va boshqa etakchi rivojlangan mamlakatlarda, Jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida iqtisodiy o‘shishni tarkibiy qismini intensiv dinamikasini 1974-1995 yillar oralig‘idagi vaziyatga nisbatan o‘zgarish o‘rtasidagi farqning boisi shundaki, **XXI asrda katta tsiklning modifikatsiyasi global raqobatning kuchayishi natijasida iqtisodiy o‘shishdagi etakchilik rolini rivojlangan mamlakatlardan ko‘proq iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarga o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda.** Bu ishlab chiqarish miqiyosini qisqartirish orqali rivojlangan mamlakatlarda jami omillar unumdorligini oshirish darajasini va muddatlarini cheklab qo‘ydi. Buning sababi, rivojlanayotgan va yangi sanoatlashgan mamlakatlarda ITTga juda katta e‘tibor qaratiladi. CHunki, global raqobatning kuchayishi ITT natijalarini qanchalik darajada ishlab chiqarish jarayonlariga tez joriy etilishi va qo‘llanishi bilan

bog'liqdir. Natijada ishlab chiqarish unumdorligi, binobarin ishlab chiqarish omillari samaradorligi oshadi. Ishlab chiqarish unumdorligi yuqori sur'atlari bilan ajralib turadigan qayta ishlash sanoati va uning fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarini YAIMdagi ulushining pasayishi ham iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatdi. Amerika Qo'shma SHtatlarida global raqobat ta'siri ostida ishlab chiqarishning YAIMdagi ulushi 12% ga kamaydi, garchi bu ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga sarflangan xususiy xarajatlarning deyarli 80% va mamlakat eksportining 60% dan ortig'ini tashkil etsa ham.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar(AKT)da iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan - ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning texnologik tarmog'ini ustun bo'lishi muhim ahamiyatga ega. AKT tufayli omillar unumdorligi, nafaqat yangi tarmoqlarda ish bilan bandlik, balki odatdagi jarayonlarni dasturlaydigan avtomatlashtirish asosida an'anaviy sanoat korxonalarida ishchi kuchining qisqarishi hisobiga o'sib bormoqda. 1973 yildan keyin to 1997 yillarga qadar va XXI asrning 2007 yildan keyingi iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini pasayishining muhim o'xshash belgilari ham mavjud. Birinchi holda, bu energiya inqirozi, xomashyo va yonilg'i narxlarining keskin ko'tarilishi bilan bog'liq edi. O'sishning past darajasi 1973 yildan to 1980 yillarning boshlariga qadar saqlanib qoldi. Ikkinchi holda esa iqtisodiy o'sish dinamikasiga 2007 yildan keyingi moliyaviy tizimining inqirozi salbiy ta'sir ko'rsatdi.

YAqin yillarda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini namoyish etishi mumkin. Ammo o'rtacha yillik o'sish sur'atlari rivojlangan «katta ettilik» mamlakatlari uchun 2050 yilgacha YAIMni jon boshiga 1,4%ga, shuningdek yangi sanoatlashgan mamlakatlar uchun 3,1%ga o'sishi bashorat(prognoz) qilingan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarning jadal rivojlanishiga erishish imkoniyatlari juda katta. Rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan Rossiyaning iqtisodiy o'sish salohiyatiga ega bo'lishi va uni ro'yobga chiqarilishi davlatning asosiy fanlarga sarflagan mablag'lari samaradorligi, ta'lim sifatini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Bu holda davlat ajratmalariga e'tibor qaratish mantiqan to'g'ri hisoblanadi, chunki ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqarishni faqat xususiy kapital hisobiga to'g'ri rivojlantirib bo'lmaydi. * * *

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida va ayniqsa sanoatdagi pozitsiyalarining yanada mustahkamlanishiga qaramay, rivojlangan davlatlar va umuman olganda jahon hamjamiyati dolzarb iqtisodiy muammolarni, ehtimol, proteksionistik xususiyatga ega choralardan yordamida qayta hal qilishga urinishlarini rad etishlari mumkin.

Jahon iqtisodiy rivojlanish sur'atining tezlashishi globallashuvning afzalliklari va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Globallashuvning salbiy oqibatlarini bartaraf etish imkoniyatlari, rivojlangan mamlakatlarda mehnatga layoqatli(mehnatqobil) aholi bandligining kamayishi, daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning kuchayishi, aslida fan yutuqlariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning takomillashtirilishi bilan shartlangan bo'lib, aslo ob'ektiv iqtisodiy jarayonlarga qarshilik ko'rsatish istagi bilan bog'liq emas. Demak, XXI asr bo'sag'asida, har qanday mamlakt iqtisodiyotining lokomotivi bo'lgan sanoat tarmoqlarining jami omillarini rivojlanishi bevosita ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va uning natijalarini joriy etilishi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

13.2. XXI asr bo'sag'asida iqtisodiy o'sish strategiyasi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va global raqobat sharoitida zamonaviy iqtisodiy o'sish ITTning etakchi ahamiyati va asosiy ishlab chiqarish fondlarining takomillashtirilishi hamda intellektuallashtirilishi bilan tavsiflanadi. Rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalar, asbob-uskunalar, kadrlar malakasi va ishlab chiqarishni tashkil etishga mujassamlashgan yangi bilimlarning ulushi, yaratilgan YAIM o'sishining 70-85%ga to'g'ri kelmoqda(masalan, YAIMni o'sishi bazaviy yilga nisbatan 5,5% bo'lsa, unda shu o'sish miqdorini 75-80% ITT natijalari bilan bog'liq bo'lmoqda.

Global iqtisodiy tizimga xos global raqobat muhitida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, bozor raqobatini va ishlab chiqarish samaradorligi o'sishini asosiy vositasiga hamda ishlab chiqariladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini yaxshilanishini asosiy omiliga aylanadi. Rivojlangan mamlakatlarda aynan shu asnoda mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari birligi arzonlashuvini barqaror tendentsiyasiga, ijtimoiy turmush faravonligi va sifati yaxshilanishini ta'minlanishiga erishilmoqda. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yangiliklarini kiritilishi raqobat kurashining asosiy sharti hisoblanadi va u kuchli, etakchi firmalarning yangi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirishda, intellektual rentani monopollashtirish hisobidan vujudga keladigan yuqori foydaga erishishni ta'minlaydi.

Zamonaviy iqtisodiy o'sishni muhim xususiyati bo'lib, doimiy innovatsion jarayonlarga o'tish hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqiy va tajribaviy konstruktorlik ishlanmalarni amalga oshirishda investitsion xarajatlar yanada ko'proq salmoqni tashkil etib, ayniqsa fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarda asbob-uskunalarini sotib olish va ularni o'rnatishda oshib bormoqda. Bugungi kunda, ilmiy -tadqiqot va tajribaviy-konstruktorlik ishlanmalarini intentsivligi(jadalligi) iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab beradi. Global iqtisodiy raqobatda, ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot uchun qulay sharoitlarni ta'minlagan mamlakatlar g'olib chiqadi.

Zamonaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni davlat tomonidan rag'batlantirilishining beqiyos ahamiyati, innovatsion

jarayonlarning ob'ektiv xususiyatlari bilan izohlanadi. Bularga yuqori xavfsizlik, umumiy ilmiy muhitni va axborot infratuzilmasini rivojlanish darajasi, ilmiy-tadqiqot ishlarining kapital sig'imini yuqoriligi, xodimlarning ilmiy va muxandislik(injenerlik) malakalariga talablar hamda intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish zaruriyati kiradi. SHu sababli, u yoki bu firmaning(korxonaning) global raqobatdagi muvoffaqiyati uzi joylashgan davlatning ilmiy-texnikaviy siyosatiga bevosita bog'liq. Masalan, jahon bozorida faoliyat yuritayotgan 500ta eng muvoffaqiyatli firmalar orasida 203tasi AQSH, 105tasi Evropa ittifoqi firmalari, 109tasi YAponiyaniki va faqat 2tasi Rossiyanikidir.

Globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning o'ta muhim ahamiyati shundaki, milliy iqtisodiy siyosatni rejalashtirishda global texnik-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish zarurligi nazarda tutilishi kerak. Xususan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun printsipial jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy iqtisodiy o'sishning qonuniyatli xususiyati bo'lib, texnologik jihatdan ajralmas, bir-biri bilan uzviy bog'liq ishlab chiqarish tarmoqlarining majmuasi – texnologik tizimi, ya'ni texnologik ukladlarning muntazam o'zgarib turishini davriyligi bilan shartlangan notekisligi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining etakchi texnologik ukladlar almashuvi bilan kechadigan tarkibiy inqirozlarda iqtisodiy muvoffaqiyatlar uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Jahon iqtisodiyotida o'tgan(bazaviy) davrda etakchi bo'lgan mamlakatlar, amaldagi kapital qiymatini(narxini) hamda eskirgan texnologik ukladlar tarmoqlarida band ishchi-xodimlar malakasini pasayishiga duch kelmoqda. Ayni paytda, yangi texnologik ukladlarni ishlab chiqarish texnologik tizimini shakllantirishga muvoffaqt bo'lgan mamlakatlar, eskirgan ishlab chiqarish tizimidan ozod bo'lgan kapitallarni jalb qiladigan markazlarga aylanadi. Har bar davriylikda etakchi texnologik ukladlarning almashuvi, xalqaro mehnat taqsimotidagi jiddiy o'zgarishlarga olib kelmoqda va jahon iqtisodiyoti tarkibidagi tez rivojlanayotgan mamlakatlar almashuvini yangilanishi bilan kechmoqda.

Hozirgi davrdagi etakchi ukladlar XX asrning 50-60 yillarida shakllana boshlab, yaxlit takror ishlab chiqarish tizimida 70 yillardagi tarkibiy inqirozlardan keyin, jahon xo'jaligi tizimidagi etakchi mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sishning texnologik asosiga aylandi. Hozirgi paytda, bu texnologik ukladni asosini mikroelektronika, dasturiy ta'minot(programmalash ta'minoti), hisoblash texnikalari va axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari, avtomatlashtirish vositalarini ishlab chiqarish, kosmik va optik tolali aloqalar tashkil etadi. Ushbu texnologik ukladning rivojlanishi energiya iste'molida - tabiiy gaz iste'molining o'sishi, transport tizimida – havo transportida yuk tashishning o'sishi, konstruktiv materiallarni ishlab chiqarishda – oldindan belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan kombinatsiyalashgan materiallarni ishlab chiqarishni o'sishi bilan tegishli o'zgarishlar birgaligida kechadi. Ayni paytda, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi tamoyillariga o'tish amalga oshdi va bularga quyidagilar kiradi:

- Uzluksiz innovatsion jarayonlar;
- Moslashuvchan avtomatlashtirishlar;
- YAkka talabni vujudga kelishi;

- “O‘z vaqtida” tamoyili bo‘yicha moddiy texnika ta‘minotini tashkil etish;
- Ijtimoiy iste‘mol va yangi turmush tarzini shakllanishi.

Zamonamizning yangi turmush tarzi xususiyatlariga qadriyatlarning o‘zgarishi va iste‘molchilik talablarini ta‘lim afzalliklariga ko‘proq o‘tishi, axborot xizmatlari, yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ortishi, sog‘lom atrof-muhitni yaratilishiga talab, “iste‘molchilar jamiyati” stereotiplari hayotini muhim sifat belgilari bilan o‘zgarishi kiradi.

Uzoq muddatli texnik-iqtisodiy nazariyasidan ma‘lumki, hozirgi zamon texnologik ukladlarning barqaror o‘shish chegarasi asrimizning 20-yillariga kelib erishiladi, -deb taxmin qilinadi. Ayni paytda yangi texnologik ukladlarning takror ishlab chiqarish tizimini shakllanishi amalga oshmoqda. Bunday yangi texnologik ukladning eng muhim omillari bo‘lib biotexnologiya, yangi xim.texnologiya, sun‘iy intellekt tizimlari(komp‘yuter, axborot va robot texnologiyalari), global axborot tarmoqlari, yuqori tezlikda ishlaydigan transport tizimlari hisoblanadi.

Keyingi davrdagi iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarishning moslashuvchan avtomatizatsiyasi, kosmik texnologiyalar, oldindan belgilangan xususiyatga ega bo‘lgan konstruktiv materiallar ishlab chiqarish va yadroviy energetika sohaslarida amalga oshiriladi. Tabiiy gaz iste‘molining o‘shishi, vodorodni ekologik toza energiya beruvchi yonilg‘i sifatida foydalanish sohasini kengaytirilishi bilan to‘ldiriladi.

Ishlab chiqarishni yanada keng intellektuallashuvi aksariyat sanoat tarmoqlarida uzluksiz innovatsion jarayonlarga o‘tish va ko‘pchilik kasblar bo‘yicha umrbot ta‘lim olish zarurligini belgilab beradi. Axborotni qayta ishlash texnologiyalari, telekommunikatsiya tizimlari, moliyaviy texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot, iqtisodiyotni yanada globallashtirishga hamda tovar, kapital va ishchi kuchining umumiy jahon bozorlarini shakllanishiga olib keladi.

13.2. Global raqobatning kuchayishi va «qiyosiy ustunlik» tamoyiliga amal qilinishi.

Eng yangi texnologik ukladni vujudga kelishi jarayonlarida XXI asr o‘rtalaridagi geosiyosiy raqobatni belgilaydigan **qiyosiy ustunlik** tamoyili shakllanib amal qiladi. Milliy raqobat ustunliklarini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- Ta‘lim va aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilish;
- Ilm-fanning rivoji va uning natijalari;
- Informatsion(axborot) muhitining imkoniyatlari;
- Davlat boshqaruvi yordamida har bir shaxsni ijodiy qobiliyatlarini ochib berishni ta‘minlovchi shart-sharoitlar;
- Atrof-muhitning tozalligi, musaffoligi va turmush daradasini yuqori sifati;
- YAngi texnologik ukladni asosiy ishlab chiqarish texnologik tizimini o‘zib rivojlanib borishi.

Geosiyosiy raqobatda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning ahamiyati va yangi texnologiyalarning o'zlashtirish qobiliyati yanada kuchayadi, oshadi. Inson omilining roli hamda ijodiy va bunyodkorlik ishlarini tashkil etishi o'sib boradi. Aholini zaruriy bilim darajasini, ilm-fanning rivojlanishini va axborot muhitining yuqori sifatini ta'minlay olmaydigan mamlakatlar noekvivalent(teng bo'lmagan) tashqi iqtisodiy ayirboshlashga va tashqi moliyaviy hamda axborot markazlariga chuqur qaramlikka mahkum bo'lishadi. Ular asosan yirik transmilliy korporatsiyalar va global intellektual salohiyatni to'playotgan rivojlangan mamlakatlar uchun tabiiy xom ashyo manbaalari hamda "inson materiallari"(arzon ishchi kuchi) funktsiyalarini o'zlari uchun saqlab qolishga majbur bo'ladilar.

Global raqobat nafaqat mamlakatlar o'rtasida, balki transmilliy takror ishlab chiqarish tizimlari o'rtasida ham olib boriladi. Ularning har biri aholini milliy ta'lim tizimi, kapital jamg'arish va jahon bozori miqiyosida faoliyat yuritadigan ilmiy tashkilotlar hamda ishlab chiqarish – tadbirkorlik tizimlarini o'zlariga birlashtiradilar. Jahon iqtisodiyotini bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va global iqtisodiy rivojlanishni belgilaydigan bir necha shunday tizimlar shakllanib boradi. Hozirgi paytda to'rtta transmilliy tizim vujudga kelgan va rivojlanib bormoqda:

- SHimoliy amerika erkin iqtisodiy zonasi(hududi), NAFTA;
- Evropa ittifoqi;
- YAponiya va janubiy – sharqiy osiyo mamlakatlari(ASEAN);
- Hamdo'stlik mamlakatlari,Xitoy va Hindiston.

Ko'pchilik G'arb iqtisodchi olimlarining va Rossiyalik olimlarning bashorat qilib yozishlaricha, XXI asrning 30-50 yillariga borib global iqtisodiy rivojlanishning mustaqil tizimlarini MDH mamlakatlaridan tashqari(MDH mamlakatlari o'rtasidagi integratsion jarayonlar har tomonlama kuchayish tendentsiyasiga ega va yirik global raqobatni vujudga keltirishi mumkin), Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya va YAponiya bo'lishi mumkin. SHu bilan birga, bunday global tizimlar o'rtasidagi raqobat ularning hamkorligi va kooperatsiyasi hamda intellektual va iqtisodiy faoliyatining kontsentratsiyasi(qo'shib jamlanishi, to'planib ulkanlashuvi) bilan birga amalga oshadi.

13.3. BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti-YUNIDOning vazifalari.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti - YUNIDO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti - YUNIDO) 1966 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining bo'linmasi sifatida tashkil etilgan va 1985 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 16-mustaqil ixtisoslashgan tashkiloti bo'ldi. YUNIDO sanoatni rivojlantirish markazini samarali ravishda almashtirdi. Ushbu ikki tashkilotning uzluksizligi, xususan, Markazning sobiq rahbari YUNIDO ning birinchi Bosh direktori bo'lganligi bilan tasdiqlandi.

To'g'ri, Markazning 30 a'zosi bor edi va 2007 yil dekabr holatiga ko'ra YUNIDO tarkibiga 172 davlat kirdi. So'nggi bo'lib CHernogoriya, Tojikiston va Turkmaniston qo'shildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining umumiy tizimi doirasida YUNIDO barcha rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoatini rivojlanishiga ko'maklashish uchun javobgardir.

Tashkilot ustavida ta'kidlanishicha, u davlat, kooperativ va xususiy sektorda rivojlanish dasturlari, ilmiy-texnik dasturlar va sanoatlashtirish rejalarini tuzishda yordam berishi kerak. YUNIDO ning bosh qarorgohi Venada joylashgan bo'lib, ushbu sohada sarmoyalarni ilgari surish bo'yicha beshta bo'linma, 27 ta ekologik toza milliy ishlab chiqarish markazlari va 10 ta xalqaro texnologik markazlar orqali ishlaydi. .. YUNIDO 42 mamlakatda to'qqizta mintaqaviy vakolatxonalar, 20 ta mamlakat bo'yicha vakolatxonalar va oltita muvofiqlashtirish markazlar bilan faoliyat yuritadi.

YUNIDO rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ularning tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va mehnat unumdorligini oshirish orqali qashshoqlikni kamaytirish maqsadini ko'zlaydi. Bundan tashqari, YUNIDO rahbariyati globallashtirish jarayoni sharoitiga moslashish va o'z o'rnini topishga intilayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarga va o'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlarga yordam berishda Tashkilotning mas'uliyatli vazifasi sifatida ko'radi. Ushbu maqsadga asoslanib, YUNIDO o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- sanoat rivojlanishining iqtisodiy jihatdan samarali, ijtimoiy jihatdan oqilona va ekologik jihatdan barqaror sur'atlarini ta'minlash;
- ayrim mamlakatlarning individual xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash; /
- ham boshqaruv kadrlarini, ham turli sohalardagi mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- texnik hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari va maqbul yo'nalishlarini aniqlash;
- bilim, tajriba va texnologiyalarni safarbar qilish va shu bilan samarali ish bilan ta'minlash, raqobatbardosh iqtisodiyot va ekologik barqarorlikni rivojlantirish;
- sanoat muammolari bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish va hamkorlik, dialog va sheriklikni mustahkamlash maqsadida rivojlanishning turli sub'ektlari uchun asos yaratib berish;
- statistika ma'lumotlarini taqdim etish va ushbu ma'lumotlar va sanoat sohalarida standartlarining xalqaro taqqoslanishini ta'minlash;

- Monreal protokoli kabi xalqaro konventsionalarni, shuningdek me'yorlar va standartlarni, xususan ISO 9000 va ISO 14000 ni ishlab chiqish va qo'llashda yordam berish;
- texnologiya, sanoat xizmatlari va sarmoyalar bo'yicha halol vositachi sifatida harakat qilish.

SHunday qilib, YUNIDO tashkil topganidan beri rivojlanayotgan mamlakatlarga sanoat ishlab chiqarishini barpo etish va barqaror rivojlantirish, qashshoqlikni engish va aholining turmush darajasini yaxshilashda faol yordam berib kelmoqda. Hozirgi kunda Tashkilotning e'tiborini "Mingyillik rivojlanish maqsadlari"ga erishish doirasidagi uchta asosiy yo'nalishga qaratmoqdalar: sanoatni rivojlantirish orqali qashshoqlik va ochlikka barham berish, rivojlanish bo'yicha global sheriklik o'rnatish va ekologik barqarorlikni ta'minlash.

Tashkilot tarkibi. YUNIDO ishini uchta asosiy organ - Bosh konferentsiya, sanoatni rivojlantirish kengashi va kotibiyat tashkil etadi. Bundan tashqari, Dastur va byudjet qo'mitasi va texnik qo'mitalar yordamchi organlar sifatida ishlaydi.

Bosh konferentsiya UNIDO ning oliy organi bo'lib, har ikki yilda bir marta yig'ilib turadi. Bosh konferentsiya Tashkilot faoliyatining asosiy tamoyillarini, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, byudjet va ish dasturini tasdiqlaydi, moliyaviy resurslardan samarali foydalanilishini nazorat qiladi, shuningdek to'rt yil muddatga Bosh direktorni tayinlaydi. Bundan tashqari, Konferentsiya sanoatni rivojlantirish kengashi tarkibiga 53 vakilni va dastur hamda byudjet qo'mitasiga 27 vakilni tayinlaydi. Sanoatni rivojlantirish bo'yicha kengash Bosh konferentsiya tomonidan to'rt yil muddatga saylangan 53 ta a'zo davlatdan iborat. Kengash Tashkilot maqsadlariga erishishning printsiplari va siyosatni ishlab chiqadi; ushbu tamoyillarni amalda tatbiq etish bo'yicha takliflarni ilgari suradi, ko'rib chiqadi, qabul qiladi va Bosh konferentsiyada tashkilot faoliyatining dasturini ko'rib chiqish uchun taqdim etadi; BMT tizimidagi tashkilotlar sanoatini rivojlantirish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish masalalarini muhokama qiladi, tashkilot faoliyati to'g'risida yillik hisobotni BMT Bosh assambleyasiga ECOSOC orqali taqdim etadi. Bosh konferentsiya yig'ilgan yillarda Kengash yiliga bitta sessiya, shunga muvofiq ravishda qolgan yillarda esa ikkita sessiya o'tkazadi.

Kotibiyat Bosh konferentsiya va sanoatni rivojlantirish kengashi yig'ilishlari oralig'ida yuzaga keladigan barcha muammolarni hal qiladigan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organdir.

Kotibiyat Venada joylashgan. Uni to'rt yil muddatga Bosh konferentsiya tomonidan tasdiqlangan Bosh direktor boshqaradi.

Dastur va byudjet qo'mitasi, garchi u YUNIDO ning yordamchi organlariga tegishli bo'lsa ham, tashkilot ishida muhim rol o'ynaydi. U 27 a'zo davlatlardan

iborat. U yiliga bir marta yig'ilib, Kengashga ish dasturi, byudjet va boshqa moliyaviy hujjatlarni tayyorlash va ko'rib chiqishda yordam beradi.

Qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'kidlash joizki, hozirgi davrda ilmiy-texnikaviy tarqiqiyotning ta'siri ostida global raqobatning bosh omili bo'lib mehnatni intellektuallashuvi hisoblanadi. XXI asrning birinchi yarmida o'n besh yillik sifatli ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish to'laqonli hayot va faoliyat uchun juda zarur bo'ladi. O'zining aksariyat fuqarolariga bunday shartlarni kafolatlay olmaydigan mamlakatlar, aholisining hayot darajasi va sifati, bilim darajasi va intellektual salohiyati o'rtasidagi tafovut tufayli global iqtisodiy o'sishdan mahrum bo'lib, jahon iqtisodiy tizimining mustaqil sub'ektlari safidan butkul(abadiy) yo'q bo'lish xavfi ostida qoladilar.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ishlab chiqarishning jami omillari dinamikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Nima sababdan jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sishdagi etakchilik roli asosan Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tgan?
3. Axborot kommunikatsion texnologiyalarni(AKT) iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini qanday izohlaysiz?
4. Global iqtisodiy tizimga xos global raqobat muhitda sanoatning rivojlanish xususiyatini tushuntiring?
5. Zamonaviy global muhitda iqtisodiy o'sishni ta'minlanish xususiyatlarini izchil tushuntiring?
6. Zamonaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning roli?
7. Global iqtisodiy tizimda zamonaviy iqtisodiy o'sishni qaysi turi ko'proq ta'minlanadi?
8. Global jahon iqtisodiyotini etakchi texnologik ukladlariga nimalar kiradi?
9. Global iqtisodiyotning zamonaviy, hozirgi ukladlari qachon shakllangan?
10. Ishlab chiqarishni keng intellektuallashuvi sabablarini tushuntiring?
11. Global raqobatni belgilaydigan «qiyosiy ustunlik» tamoyilini mazmun-mohiyatini tushuntiring?
12. Global iqtisodiy tizimda transmilliy takror ishlab chiqarish tizimi nima ekanligini tushuntiring?
13. Global iqtisodiy tizimda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ta'limning ta'siri bormi?
14. BMTning YUNIDO tashkiloti nima sababdan va qachon tuzilgan?
15. YUNIDO qanday vazifalarni bajaradi?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
2. Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

3. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva: Ucheb. posobie / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. M.N. Oсьmovoy, kand. ekon. nauk, dots. A.V. Boychenko. - M.: INFRA-M, 2006. - VIII, 376 s.

4. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.

5. Глобальное экономическое регулирование : учебник / под Г54 ред. проф. V. N. Zueva. -M. : Magistr, 2009. 574 s.

14-MAVZU: XALQARO SAVDO TASHKILOTINI LIBERALLASHTIRISH VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.

REJA:

14.1. Butun jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishda chet el tajribasi.

14.2. BJSTning tarkibi va vazifalari.

14.3. O'zbekiston JSTga integratsiyalashuv yo'lida.

14.1. Butun jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishda chet el tajribasi.

Sobiq Ittifoq bundan o'ttiz yil muqaddam parchalangan bo'lsa-da, MDH davlatlari hali hanuz ularning o'zaro savdo munosabatlarini boshqarish uchun mos strukturani topishga harakat qilmoqdalar. Xozirgi kunda chala ijro etilayotgan ko'plab ikki tomonlama bitimlar va bir qator rasmiy kelishuvlar MDH ichidagi savdo munosabatlarini tartibga solib kelmoqda.

MDH davlatlari o'rtasida ikki va ko'p tomonlama savdo bitimlarning ijro etilishi sohasidagi siljishlar importnig erkinlashuvi bilan qiyinlashtirildi. MDH mamlakatlari 1992 yildan buyon, MDH dan tashqari mamlakatlar importi va investitsiyalari uchun iqtisodiyotini ochgan holda, savdoni erkinlashtirish jarayonida ishtirok etmoqda. BJSTga a'zolik ushbu jarayonning o'z cho'qqisiga etganligini anglatib, har bir mamlakatga savdoni erkinlashtirish jarayonini qonunchilik darajasigacha ko'tarilishini anglatadi.

MDH mamlakatlari eksport sohasida hali-hanuz bir-birlarining bozorlariga qaram bo'lsa-da, oxirgi o'n yilda, ularning har biri o'z resurslarini va import assortimentini diversifikatsiya qilishga harakat qildi.

BJSTga kirish jarayoni poyoniga etmaguncha, integratsiyaning chuqurroq shakli (bojxona yoki iqtisodiy ittifoq) tomon jiddiy siljishlar amalga oshishi ehtimoli kamdir. BJSTga kirish jarayoni mexanikasi kirish import kontsessiyalari bo'yicha ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama muzokaralarni nazarda tutgani bois, davlatlarga, ular bunday masalalarni bojxona ittifoqi bo'yicha boshqa sheriklar bilan muhokama qilishda cheklanmagan bo'lmasa, kelishishi ancha oson kechadi. (TST) Transport bo'yicha sertifikatlash tizimi tarif himoyasi va boshqa cheklovlarni o'z ixtiyoriga ko'ra belgilashga ruhsat berganligini hisobga olgan holda (ushbu mamlakatlar o'rtasidagi savdoga tegishli bo'lmaguncha), ushbu kelishuvlar davlatlarning JSTga kirish kabi jarayonlarda band bo'lmagan hollarda osonroq kechadi.

BJSTga a'zolik MDH davlatlarida mintaqaviy integratsiyaning yanada chuqurlashtirish istagini keltirib chiqarishi mumkin.

Bugungi kunda ST lar MDH davlatlarining holatida MSBning eng qulay

shakli ekanligi ravshandir. Ba'zi MDH mamlakatlari integratsiyani yanada chuqurlashtirishni rejalashtirgan bo'lsada (RF va Belorussiya), ushbu jarayonni JSTga kirish jarayoni bilan bir vaqtda olib borishi amri maholdir. Amalda, qo'yilgan maqsadlarga erishish mexanizmlarining murakkabligi sababli, bir jarayon ikkinchisiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Aslida, mintaqaviy integratsiya yana bir mintaqaviy kredit ittifoqi to'g'risida bitimni imzolash orqali emas, balki quyidagi sohalarga tegishli bir qator masalalarga chuqurroq yondashuv orqali olg'a siljishi mumkin:

bojxona faoliyati (masalan, xujjatlarga bo'lgan talablarning standartizatsiyalashuvi, sertifikatsiyaning o'zaro tan olinishi, kelib chiqish mamlakatini belgilash tartib-qoidalarini muvofiqlashgan ravishda ishlab chiqish va qo'llash);

MDH mamlakatlari o'rtasida va ular orqali yuk tashish harajatlari; to'lovlar bilan muammolar.

Bularning barchasi MDH mamlakatlari o'rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga, navbatdagi MSB haqida bitimni imzolashdan ko'ra ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Boshlang'ich tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, MDH davlatlari o'rtasida savdo masalalari yuzasidan muammo chiqib qoladigan hollarda, ushbu mamlakatlar hukumatlari MSB shartlaridan chekinib, yangi to'siqlar o'rnatishga harakat qilishi tendentsiyasi yuqori ekan.

haqiqatdan, ushbu masalada BJSTga kirish MDH davlatlari o'rtasida raqobatni yuzaga chiqarishi mumkin. Nomzod mamlakat BJST a'zolidigini qo'lga kiritishi bilan, boshqa nomzod mamlakatlarning ishchi partiyasiga a'zo bo'lishi mumkin. Bu esa yangi a'zo mamlakatning nomzod mamlakat bilan yangi bozorlarni ochish masalalarida ikki yoki ko'p tomonlama muzokaralarda ishtirok etish huquqini beradi. Ukraina Rossiyaga ba'zi mahsulotlarni (masalan, shakar) eksport qilishda ma'lum to'siqlarga ro'baro' kelish kabi holatlarda, BJSTga RFdan avvalroq a'zo bo'lish ma'lum darajada mantiqqa egadir. BJSTga kirish jarayonidagi raqobat va tashqi savdo qoidalarini muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklarga qaramasdan, MDHning ESZ chegarasida yagona tarifning o'rnatilishi bir qator ijobiy tomonlarga egadir:

Birinchidan, ijro ustidan nazorat ancha engildir va shu sababli, ancha arzon hamdir. Importyorlarda qallobchilik uchun asos yo'q. Bugungi kundagi ko'p MDH davlatlarining muammosi shundaki, import tariflar bo'yicha tartiblarning ancha chalkash va murakkabligi tufayli ba'zi importyorlarga qallobchilik uchun imkoniyatlar ochiladi. Masalan, ma'lum tovarni boshqa nom yoki tur orqali olib kirishda pastroq boj to'lovlarini to'lab, o'z daromadlarini oshirish imkoniyati. Sodda yagona tarif nafaqat bu muammoni oldini olishi, balki boj tushumlarini oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, yagona tarif nisbiy narxlarni buzib ko'rsatmaydi. Baland va maxsus tariflarning iqtisodiy samarasizligining salbiy oqibati shundan iboratki, ular import narxini buzib ko'rsatadi – ba'zi mahsulotlarni arzonlashtiradi, ba'zilarga esa narxni sun'iy ravishda ko'tarib yuboradi.

Uchinchidan, yagona boj tarifi JST qoidalari bilan mos keladi. BJSTga a'zolik

masalalarida kechgan muzokaralarda tarif chegaralaridan 20 % gacha bo'lishi lozimligi ta'kidlab o'tildi. Bu ichki bozorga jiddiy ta'sir o'tkazish uchun nisbatan kichik ko'rsatkichdir.

Avvalgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, savdo og'ishi oqibatida ESZ ichida tarif stavkalari tabiiy ravishda mos kelishi mumkin. Bundan tashqari, agar stavkalar, MDH mamlakatlari hukumatlari xozir qo'llayotgan stavkalardan pastroq bo'lsa, BJST ning a'ziligiga kirish jarayoni bunday konvergenstsiya albatta amalga oshirishini kafolatlaydi. Masalan, agarda Rossiya va Evrosiyo iqtisodiy ittifoqining boshqa a'zolari o'zlarining boj ittifoqini tuzish va yagona iqtisodiy siyosatni olib borish va'dalaridan foyda ko'radigan bo'lsalar, ularning o'z taomil(poshlina)lari darajasini qirg'iziston taomil(poshlina)lari darajasigacha pasaytirishga majbur bo'lishi ehtimoli bor. Aks holda, qirg'iziston Respublikasi Iqtisodiy Ittifoq a'zolidan chiqarib tashlanishi va ESZ tuzish to'g'risida bitimni faqatgina EI ning boshqa a'zo mamlakatlari bilan imzolash huquqini saqlab qolishi mumkin.

Mintaqaviy savdo bitimlarini tuzishda endilikda bunday noaniqliklarga yo'l qo'yilmasa kerak. MDH bozor strukturalari baho to'g'risidagi va boshqa bozor signallarini samaraliroq uzata boshlaganligi sababli, savdoning bozor integratsiyasiga iqtisodiy intilish va nisbiy ustunlikka asoslangan ishlab chiqarishdan foyda ko'rishi ravshan bo'lib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, hozirda mavjud bir qator notarif to'siqlar, importning liberallasuvi va diversifikatsiya qilinishi jarayoni ancha yaqinroq savdo munosabatlarining iqtisodiy asoslanganligi jiddiy buzib ko'rsatilganligidan dalolat beradi. Faqatgina «De-fakto» integratsiyani rag'batlantiruvchi omillar amal qilgandagina, «De-yure» bitimlar amalda qo'llanila boshlaydi.

Kun sayin yomonlashib, murakkablashib borayotgan jahon xo'jaligi kon'yukturasi sharoitida, MDH mamlakatlarining bugungi kun vazifasi o'z barqarorlik salohiyatini saqlab qolish va oshirishdir. Bunday sharoitda, o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosatning muvofiqlashganligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Nisbatan barqarorlikka erishish sharofati bilan MDH davlatlari o'z iqtisodiy salohiyatini yanada tezroq oshirish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Oxir-oqibat, ularning jahon xo'jaligi tizimiga kirib borish tezligi, MDH asosida jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti markazini yaratish imkoniyati aynan shunga bog'liqdir.

Faqat integratsion jarayonlarni mustahkamlabgina, hamdo'stlikning iqtisodiy salohiyatidan, uning a'zolarining milliy manfaatlari yo'lida, to'laqonli foydalanish, g'arb va SHarqning postindustrial davlatlaridan hozirgi qoloqlikni bartaraf etish, baynalmilallashuv va globallasuv jarayonlaridan jadal foydalanish, beqarorlik avj olayotgan bugungi kun olamida xalqlarimiz do'stligi va davlatlarimiz mustaqilligini himoyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

MDH davlatlari dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ulkan ustunliklarga egadir. Lekin ulardan foydalana olish uchun bir qaror uzil-kesil hal qilishlari kerak yoki ular barcha masalalarni hamjixatlikda hal etib doimo birga harakat qilishlari kerak (eng to'g'ri, istalgan yo'l), yoxud ularning har biri o'z tanlagan yo'lidan o'zi, ularni ko'pdan buyon bog'lab turgan rishtalardan voz kechib, qo'shnisi ishlariga aralashmasdan va halaqit bermasdan harakatlanishi

lozimdir.

14.2. BJSTning tarkibi va vazifalari.

qarorgohi: Jeneva, SHveytsariya.

Tashkil etilgan sanasi: 1 yanvar 1995 yil.

Tashkil etilishi: Urugvay raundi (1986-1994) muzokaralari natijasiga asosan.

A'zoli: 152 mamlakat (2007 yil oktyabr holatiga). Byudjeti: taxm. 100 mln. AQSH dollari.

Kotibiyat shtati: 500 ta xodim. Rahbar: Bosh direktor.

Maqsad va tamoyillari: 1947 yildan buyon amal qilib kelgan Tarif va savdo bo'yicha Bosh Bitimining (TSBB yoki GATT) "Vorisi" bo'lgan Jahon savdo tashkiloti (JST) o'z faoliyatini 1995 yil yanvarida boshlagan. BJST tashkilot a'zolarining savdo-siyosiy munosabatlarini ko'p tomonlama savdo muzokaralarining Urugvay raundi (1986-1994 yillar) Bitimlari pakti asosida tartibga soladi. Ushbu xujjatlar zamonaviy xalqaro savdoning huquqiy asosidir.

BJSTni joriy etish to'g'risidagi bitim, Urugvay raundi kelishuvlari va bitimlarini amalga oshirishni nazorat qilish va ularning ko'p tomonlama savdo munosabatlariga ta'sir o'tkazuvchi muammolarni bartaraf etish bilan shug'ullanadigan, doimiy faoliyat yuritadigan a'zo mamlakatlar forumini tashkil etishni ham nazarda tutadi. BJST ko'p tomondan TSBB kabi faoliyat olib boradi, lekin shu bilan birgalikda savdo munosabatlarining kengroq jihatlarini nazorat qiladi (shu jumladan, xizmatlar savdosi va intellektual mulk huquqining savdo aspektlari) va tashkilot a'zolari tomonidan qarorlar qabul qilish va ularga rioya etish jarayonining mukammallashuvi oqibatida, ko'proq vakolatlarga egadir. BJSTning ajralmas qismi sifatida savdo munozaralarini hal etishning nodir mexanizmi e'tirof etiladi. 1947 yildan buyon liberalizatsiyaning global muammolari va jahon savdo taraqqiyoti istiqbollarini muhokama qilish ko'p tomonlama savdo muzokaralari (KSM) qoshida, TSBB homiyliги ostida olib boriladi. 2002 yilga kelib KSMning 8 raundi bo'lib o'tdi (SHu jumladan, Urugvay raundi) va to'qqizinchi boshlandi. Ushbu nufuzli xalqaro iqtisodiy tashkilotning bosh maqsadi. Jahon savdosi liberalizatsiyasidir.

BJST hTSBBning asosiy tamoyillari va qoidalari quyidagilardir: kamsitishsiz savdo, ya'ni savdoda o'zaro maksimal qulaylik yaratib berish rejimini joriy etish, savdoni asosan tarif usullari orqali tartibga solish, miqdoriy va boshqa cheklovlarni qo'llashdan voz kechish, savdo siyosatining transparentligi, savdo munozaralarini maslahatlar va munozaralar yo'li bilan hal etish.

- BJSTning asosiy vazifalari quyidagilardir:
- Urugvay raundi hujjatlar paktining kelishuv va bitimlariga amal qilinishini nazorat qilish;
- mafaatdor a'zo mamlakatlar o'rtasida ko'p tomonlama savdo muzokaralari va maslahatlarini tashkil etish;
- savdo munozaralarini hal etish; a'zo davlatlarning milliy savdo siyosatlari monitoringi;
- JST vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik ko'mak berish;

- xalqaro ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorlik.

BJSTga a'zolikdan erishiladigan manfaatlarni quyidagicha mujassamlashtirish mumkin:

- BJST a'zolari bilan savdo munosabatlar rivojining aniq va barqarorligi asosida (shu jumladan, ularning tashqi iqtisodiy siyosatining transparentligi asosida) jahon tovar va xizmatlar bozoriga kirish uchun qulay shart-sharoitlarning yaratilishi;
- Milliy manfaatlarni himoyalovchi (agar ular sheriklar tomonidan inobatga olinmasdan, siqib borilayotgan bo'lsa) JSTning munozaralarni hal etish mexanizmidan foydalanish imkoniyati va uning orqali kamsitilishga barham berish;
- Xalqaro savdoning yangi qoidalarining ishlab chiqish bo'yicha KSMLarda jadal ishtirok etish orqali joriy va strategik savdo-iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish imkoniyati;

Barcha BJSTga a'zo mamlakatlar, "Ko'p tomonlama savdo bitimlari" (KSB) atamasi bilan nomlanadigan barcha asosiy bitimlar va yuridik xujjatlarga amal qilish majburiyatini bo'yniga oladi. SHu asosda, huquqiy nuqtai-nazardan, BJST tizimi, uning me'yorlari va qoidalari orqali jahon xizmat va tovarlar savdosining 97% tartibga solinadigan, o'ziga xos, ko'p tomonlama kontrakt (bitimlar paketi)dir.

Urugvay raundi bitimlar pakti 50 dan ziyod KSB va boshqa huquqiy xujjatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ulardan asosiylari BJSTni joriy etish to'g'risidagi bitim va unga ilova qilingan KSBdir.

Vazirliklar konferentsiyalari sessiyalari oralig'ida, zaruriyatga ko'ra (yiliga 8-10 marta), joriy va amaliy masalalarni hal etish uchun, tashkilotning barcha a'zolari vakillaridan tashkil topgan, Bosh Kengash chaqiriladi. Bundan tashqari, BK Munozaralarni hal etish organi va Savdo siyosatini nazorat qilish organlari faoliyatini boshqaradi.

BJSTning Vazirliklar konferentsiyasi, to'lov balansining muvozanatini ta'minlaydigan cheklovlar bo'yicha qo'mita, Savdo va taraqqiyot bo'yicha qo'mita, Byudjet, Moliya va ma'mur etish qo'mitasi, shuningdek, Savdo va atrof-muhit bo'yicha qo'mitasi, Mintaqaviy savdo bitimlari bo'yicha qo'mita va boshqa bir qator organlarni tasdiqlaydi.

Vazirliklar konferentsiyasi (yoki BK) BJSTning Bosh Direktorini tayinlaydi. 1999 yildan 2002 yilning sentyabrigacha bu lavozimni Mayk Mur, YAngi Zellandiyaning sobiq bosh vaziri egallagan. Lekin, Bosh Direktor vakolati uch yilgacha qisqartirilgani tufayli, 2002 yil sentyabrida, uning o'rniga bu lavozimga Supachay Panipakdi, Tailandning sobiq bosh vaziri tayinlandi.

BK boshchligida Tovarlar savdosi bo'yicha kengash, xizmatlar savdosi bo'yicha kengash, TRIPS bo'yicha Kengash va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat olib boradi. Ushbu kengashlar qoshida, JSTning barcha a'zolari uchun a'zoligi ochiq bo'lgan, bitimlar bo'yicha qo'mita va muzokaralar bo'yicha guruhlar ta'sis etilgan. SHuningdek, yana bir qator idoralar ham faoliyat yuritadi.

BJSTning ijroya organi, strukturaviy bo'limlarda 500 nafar xodimlar faoliyat ko'rsatadigan, Jenevadagi (SHveytsariya) BJST Kotibiyatidir. BJSTning rasmiy

tillari – ingliz, frantsuz va ispan tillaridir. 2002 yilda tashkilot byudjeti 143 mln. shveytsariya franki (taxm. 90 mln. AQSH dollari) ni tashkil etgan.

Qaror qabul qilish, JSTda qaror qabul qilish, de-yure bilan saylov orqali nazarda tutilgan bo'lsa-da, konsensus asosida amalga oshiriladi. Tovar, xizmatlar, TRIPS, qabul qilingan majburiyatlardan ozod etish bo'yicha (veyver) bitimlarni talqin etish ovozlarning qismini talab etadi. A'zolar huquqlari va majburiyatlariga ta'luqli bo'lmagan masalalar bo'yicha, shuningdek, yangi a'zolari qabul qilish masalalari 2-3 ovozlarni talab etadi (amalda, odatda, konsensus orqali).

A'zolik, BJSTni ta'sis etish bo'yicha Bitimga asosan, tovar va xizmatlar bo'yicha majburiyatlar ro'yxatini taqdim etgan va Urugvay raundi Bitimlari paktini ratifikatsiya qilgan, barcha kelishayotgan tomonlar – GATT ishtirokchilari (128 davlat) BJSTning ta'sischiylari hisoblanadi.

Bugungi kunda JSTning to'laqonli a'zolari soni 153 taga etdi. Ulardan faqatgina 16 tasi yangi a'zolardir: Ekvador, Bolgariya (1996 y), Mo'g'iliston, Panama (1997 y), qirg'iziston (1998 y), Latviya, Estoniya (1999 y), Iordaniya, Gruziya, Albaniya, Oman, Xorvatiya (2000 y), Litva, Moldova (2001 y), Xitoy (2001 y), Tayvan (2002 y). Makedoniya va Armanistonning qo'shilishi to'g'risidagi xujjatlar ratifikatsiya bosqichidadir.

O'ttizdan ziyod mamlakatlar BJST kuzatuvchilari maqomiga ega. Ularning ko'pi, shu jumladan, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Jazoir, Ukraina, qozog'iston, MDHning boshqa mamlakatlari (Turkmanistondan tashqari) BJSTga qo'shilishning turli bosqichlaridadir.

Bundan tashqari, BMT, YUNKTAD, XVF, JTTB, FAO, VOIS, OESR, mintaqaviy guruhlar, tovar uyushmalari kabi 60 dan ortiq xalqaro tashkilotlar BJST kuzatuvchilari maqomiga egadir. YUNKTAD va BJST homiyligi ostida, jahon savdosi sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'mak ko'rsatuvchi Xalqaro savdo markazi (XSM) faoliyat ko'rsatmoqda.

BJSTga qo'shilish protsedurasi GATT va BJSTning yarim asrlik tarixi davomida ishlab chiqilgan bo'lib, ko'p tomonlama va bir necha bosqichdan iboratdir. Ixtiyor etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu jarayon o'rtacha 5-7 yilni talab etadi. quyida qo'shilish protseduralarining barchasi sanab o'tilgan: Birinchi bosqichda maxsus Ishchi guruhlar (Rossiyaning BJSTga qo'shilish IG ida 66 mamlakat ishtirok etadi, shu jumladan, barcha savdo bo'yicha asosiy sheriklar) tomonidan qo'shilmoqchi bo'lgan mamlakatning iqtisodiy mexanizmi va savdo-siyosiy rejimini BJST me'yorlari va qoidalariga to'g'ri kelishi ko'p tomonlama, sinchkovlik bilan o'rganib chiqiladi. Bundan so'ng, ixtiyor etgan mamlakatning ushbu tashkilotga a'zolik shartlari bo'yicha muzokaralar va konsultatsiyalar olib boriladi. Odatda, ushbu muzokara va maslahatlar IGning barcha manfaatdor mamlakatlari bilan ikki tomonlama ravishda olib boriladi.

Birinchi navbatda, ushbu muzokaralar, qo'shilayotgan mamlakat BJST a'zolariga o'z tovar va xizmatlar bozoriga kirishda taqdim etadigan «Tijorat» imtiyozlari, shuningdek, BJST a'zoligi majbur etadigan burchlarni qabul etish muddatlari va shakllari masalalariga bag'ishlanadi.

O'z navbatida, a'zo bo'layotgan mamlakat BJSTning boshqa a'zolari ega

huquqlarni qo‘lga kiritadi. Bu esa, uning tashqi bozorlarda siqishga chek qo‘yilishi demakdir (Lekin, masalan, Xitoyga ushbu huquqlar faqat qisman berildi). Biron a‘zo tomonidan huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilishi holatida, har bir mamlakat Munozaralarni hal etish organiga tegishli arz bilan murojat etishi mumkin. Ushbu tashkilotning qarorlari BJSTning barcha a‘zolari tomonidan so‘zsiz davlat miqyosida ijro etilishi shart.

O‘rnatilgan protseduraga asosan, bozorlarga kirishni erkinlashtirish bo‘yicha muzokaralar natijalari va qo‘shilish shartlari quyidagi rasmiy hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

- Muzokaralar natijalariga asosan ixtiyor etgan mamlakatning majburiyatlari va huquqlari aks ettirilgan IG hisoboti;
- Tovarlar sohasidagi tarif chekinmalari va qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash darajasi bo‘yicha majburiyatlar ro‘yxati;
- Xizmatlar bo‘yicha o‘ziga xos majburiyatlar va maksimal qulayliklar yaratib berish rejimidan istisnolar ro‘yxati;
- erishilgan kelishuvlarni ikki va ko‘p tomonlama yuridik rasmiylashtiruvchi qo‘shilish to‘g‘risidagi qaror.

YAngi davlatlarning BJSTga qo‘shilishining muhim shartlaridan biri, milliy qonunchiligi va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish amaliyotini Urugvay raundi Bitimlar paketi shartlariga muvofiqlashtirishdir.

Qo‘shilishning yakuniy bosqichida, IG tomonidan muvofiqlashtirilgan va BK tomonidan tasdiqlangan xujjatlar paketining qo‘shilayotgan mamlakat milliy qonunchilik organi tomonidan ratifikatsiya qilinadi. Bundan so‘ng, sanab o‘tilgan majburiyatlar BJST va milliy qonunchilik hujjatlarining bir qismiga aylanadi, davlat esa BJST a‘zosi maqomini oladi.

14.3. O‘zbekiston JSTga integratsiyalashuv yo‘lida.

1994 yili iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi hukumati Butun jahon savdo tashkilotiga (BJST) xat yo‘lladi. Unda respublikaning rasman bu tashkilotga kirish xohishi izhor etilgan.

O‘zbekiston BJSTda a‘zolik olishga qaror qabul qilishidan maqsad ko‘pchilik mamlakatlar savdo munosabatlarini izga soluvchi xalqaro tizim bilan o‘z integratsiyasini taminlashdir. Bu respublika rivojlanish strategiyasiga mos keladi. BJSTga a‘zo bo‘lmasdan qayta ishlash sanoati tovarlari eksportining o‘sishi boshqa mamlakatlarning savdo to‘siqlari muammosi bilan ehtimol to‘qnashadi. Rivojlangan mamlakatlarda saqlanib kelayotgan notarif to‘siqlar kelajakda jiddiy qarshilikka olib kelishi mumkin, ayniqsa qishloq xo‘jalik mahsulotlari, teri, to‘qimachilik tovarlari, kimyo va metallurgiya sanoati mahsulotlari. SHu munosabat bilan savdoda eng qulay status kafolatini olish muhim va uni ko‘plab mamlakatlarga kengaytirish zarur. hozirgi vaqtda O‘zbekiston savdoda eng qulay tartibni 38 yirik savdo mamlakatlaridan olmoqda. BJSTga kirgandan keyin bu tartib kafolatlanishi kerak.

BJSTga a‘zolik O‘zbekistonga oldindan bashorat qila olinadigan va qulay savdo muhitida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga imkon beradi. Bunda barcha BJSTga a‘zo davlatlar tomonidan eksport

qilinayotgan mahsulotlar va xizmatlariga kerakli, ochiq va diskriminatsiyasiz tarzda munosabatda bo'lib, kafolatlanadi. Bu O'zbekistonga o'zining savdo va investitsiya salohiyatini ishga solish imkoniyatini beradi.

“Biznes vestnik vostoka” (1998 y. 1-2 sonlar)da chop etilgan “O'zbekistonning jahon savdo tizimiga integratsiyalanish yo'lida” nomli maqolada O'zbekistonning BJSTga kirgandan keyin oladigan foydalari sanab o'tilgan:

Xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatining oshirilishi. Bu respublikaga eksportni (tovarlarni va xizmatlarni) kengaytirish imkonini beradi. Gap shundaki, O'zbekistondan qilingan eksport boshqa JSTga a'zo mamlakatlarda eng kam tarif va KTT notarif to'siqlarga duch keladi. Bu BJST qoidalari bilan kafolatlangan bo'lib, bu tashkilotga kiruvchi mamlakatlardan import uchun kam va eng oqilona va unifikatsiyalangan KTT belgilanishini talab etadi. Birinchidan, BJST bitimlari a'zo mamlakatlarga ko'p KTTdan foydalanishni asoslab ta'qiqlaydi. Ikkinchidan, a'zolari faqat BJST bitimlari bilan ruhsat etilgan NTTlarnigina qo'llay oladilar. Uchinchidan, hattoki JSTning juda aniq qoidalariga ko'ra ruxsat etilgan savdo uchun mushkul yoki chegaralovchi bo'lmasligi kerak;

Barqarorroq tashqi savdo muhiti yaratilishi. Bu barqarorlik xorijiy bozorlarga “Kirish” bo'yicha majburiyatlar bilan belgilanib, barcha savdo tartiblarining adolatligi va ma'lum darajagacha unifikatsiyalanganligi kafolatlanishi ta'minlanadi;

Noto'g'ri sotiladigan va xarid qilinadigan mahsulotlardan himoyalaniish. O'zbekistonning BJSTga a'zolicligining qulayligi shundaki, BJST qoidalari bu tashkilot a'zolariga o'zlariga yo'l qo'yilmagan raqobat imtiyozlaridan foydalanishni ta'qiqlaydi. Bu ayniqsa o'zlarining ishlab chiqaruvchilari va mahsulotlariga (subsidiya shaklida) tegishli bo'lgan hollarda. BJST bitimlari demping bahoda eksport qilinadigan mahsulotlar va nohaq import qilinayotgan va xorijiy kompaniyalarga sotilayotgan intelluktual mulk huquqlari buzilayotgan mahsulotlarga nisbatan choralari ko'rish imkonini beradi.

Jalb qiluvchiroq turg'unlik oqibatini oldindan aytib beriladigan investitsiya muhiti yaratilishi. O'zbekistonning JSTga a'zolicligi xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Xorijiy potentsial investorlar O'zbekistonning BJSTdagi a'zolicligini ularga qator manfaatlar berishini taminlaydi deb qabul qilishadi. Bunga quyidagilar kiradi: O'zbekistonda ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlarni eksport qilish uchun jahon bozoridan barqaror foydalanish; O'zbekistonda faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan xorijiy mahsulotlardan, kapital anjomlar va texnologiyalardan doim foydalanish.

SHuni ta'kidlash zarurki, BJSTdagi a'zoliclik nafaqat xorijiy balki maxalliy investorlarga ham mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarni taminlash orqali jahon bozoriga chiqish imkonini beradi. Savdo va investitsiya tartiblari o'zining ochiqligi, turg'unligi va oqibatining oldindan bashorat qilaolishligi bilan mamlakatga investitsiya kiritish niyatining tahlikasini kamaytiradi.

Baxslarni bartaraf qilishning samarali tizimiga ega bo'lish. BJSTga a'zoliclik shundan iboratki, mabodo biror mamlakat JST qoidalarini buzib O'zbekiston manfaatlariga zarar etkazsa, O'zbekiston BJSTning baxslarni hal qilish organida (OUS) baxslarni hal qilishda odilona va samarali taomildan foydalanishi mumkin.

O'USning tuzilishi rivojlanayotgan mamlakatlar va jahon iqtisodiyotining uncha obro'li bo'lmagan qatnashchilari uchun ancha muhimdir, chunki ularni savdo bahslarini hal qilishning samarali mexanizmi bilan taminlaydi. CHunki ikki tomonlama muzokaralarni juda obro'li savdo sherigi vositachiligida o'tkazilganiga qaraganda, so'zsiz, bahslarni BJSTning aniq qoidalari tizimi bo'yicha hal qilingani maqul. SHuning uchun JSTning bosh kotibi Renato Rujeri "Ko'p tomonlama savdo tizimining markaziy tayanchi va global iqtisodiyot barqarorligiga BJSTning qo'shgan eng ulkan ulushidir" degan.

Ko'p tomonlama savdo tizimiga ta'sir qilish. Alohida ikki tomonlama o'zining savdo sheriklari bilan o'tkazilgan muzokaralarga qaraganda O'zbekistonning BJSTning turli savdo qo'mitalari va kichik qo'mitalari muzokara – raundlarida qatnashishi unga ko'proq natijaga erishish imkonini beradi.

Byurokratik tamoyillarining kamayishi. O'zbekistonning BJSTga kirishi uchun ko'plab mavjud huquqiy va tashqi savdo bitimlariga nisbatan seziluvchi cheklovlarni bekor qilishda va mavjud savdo tizimini soddalashtirishga muhtoj bo'ladi.

Davlat byudjeti daromadining oshishi. BJSTga a'zolik O'zbekiston daromadlarining sezilarli ko'payishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Agar import, eksport, xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmi oshsa, unda huquqiy qo'llanmaning fiskal daromadlari ortadi. Bu bojxona solig'i (tashqi savdo kengayishidan) va soliqlar (biznes faoliyatdan) dan jamlanadi. CHet ellik investorlarni jalb qilish uchun BJSTga a'zolik soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarga talabni eng yuqori darajaga keltiradi. O'zbekiston BJST a'zosi ekanligi yoki unga kirish arafasida ekanligini bilgan xorijiy investorlar o'z kapitallarini mamlakat iqtisodiga ishonchliroq qo'yaboshlaydilar. Xorijiy investitsiyalarning ko'payishi mamlakatda ishlab chiqarishining o'sishidan dalolat beradi. Bu yangi korxonalardan undiriladigan soliq to'lovlari va bojxona to'lovlaridan davlat daromadlarining keyingi o'sishiga olib keladi

Muzokaralar davrida O'zbekiston tashqi savdoni liberallashtirish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha masalalarni hal qilishi zarur:

Valyutani tartibga solish. Importni cheklash uchun tarifsiz kuchli to'siq sifatida u yoki boshqa mamlakat tomonidan valyutani tartibga solishdan foydalaniladi deb hisoblaydi. BJST, O'zbekistonda hozir mavjud valyutani tartibga solish tizimi, BJST ekspertlari nuqtai nazarida, import qilinadigan tovarlar turi va hajmini qisqartirishga yo'naltirilgan. Bu shundan dalolat beradiki, BJST quyidagi notarif to'siqlarni bartaraf qilish to'g'risida masala qo'yadi: valyutani almashtirish sohasidagi cheklov, import shartnomalarini majburiy ekspertizasiga talablar, xususiy banklar xisob raqamlaridagi puldan foydalanishga cheklovlar va b.q. SHu bilan birga bu cheklovlarni oson hisoblanadigan va "Tiniq" tarif to'lovlari stavkalari bilan almashtirish, chunki ular kelishuvlarga binoan o'zgarishi mumkin. SHunday qilib, hozir amaldagi sozlash tizimi o'rniga O'zbekistondan bojxona to'lovlari stavkasi tizimini ishlab chiqish va joriy etish talab etiladi. Bu tizim talabga zid bo'lgan importga yuqori tariflar, eksportga esa pasaytirilgan stavkalar o'rnatilib, bu respublika iqtisodining rivojlanishi nuqtai nazaridan eng qulaydir.

CHet el tajribalarini tahlil etish O'zbekiston uchun quyidagi xulosalarga olib

keldi:

- BJSTga a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlar bilan o'ziga muvofiq rejimda mamlakat statusini olish;
- Rivojlangan mamlakatlarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari, charm, engil sanoat buyumlari, kimyo va metallurgiya sanoat mahsulotlariga nisbatan tarif va notarif to'siqlarni bartaraf etish natijasida tashqi bozorga bo'lgan imkoniyatlarni kengaytirish;
- Savdo munosabatlaridagi diskriminatsiyani bartaraf etish, o'zbek eksportini chetga chiqish qiziqishini har tomonlama himoya qilish, chetga eksport uchun kafolatlangan rejimni tashkil etish;
- CHet el investorlarining ishonchini mustahkamlab, iqtisodiyotga investitsiyalar kirishini oshirish, xalqaro kapital bozorida O'zbekiston yo'nalishini jadallashtirish;
- BJSTga a'zo mamlakatlar chegarasida erkin tranzit huquqidan foydalanish;
- BJST qarorlarida nazarda tutilgan savdo ittifoqlari bilan yuzaga kelgan turli munozarali ishlarni turli mexanizmlar yordamida hal etish;
- BJSTga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi tashqi iqtisodiy siyosat, savda masalalarida operativ axborotlarga ochiq imkoniyatdan foydalanib maslahatlar berish;
- Davlatni fiskal daromadini oshirish-eksport, import, mahalliy va chet el investitsiyalarini hajmini o'stirish natijasidir;
- Import hom-ashyosi ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan yarimfabrikantlar, texnik ishlab chiqarishga mo'ljallangan komplektlangan va tayyor buyumlar uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarda ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish;
- SHu bilan birga chet el tajribasi asosida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston BJSTga a'zo bo'lib kirgach, o'zida ba'zi nomuvofiqliklarni kechirishi mumkin, bularga quyidagilarni kiritish mumkin:
- Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidning o'sishi, ba'zi sektorlarni rivojlanishdagi nobarqarorlik milliy iqtisoddagi ochiqlik darajasi sifatida;
- Jahon bozoridagi narxlar tebranishi tufayli respublika to'lov balansining yomonlanishi, mamlakat iqtisodini tashqi shok va xavflarga moyilligining o'sishi;
- Bojxona tarif va bojlarining kamayishi natijasida dastlabki davrda davlat byudjetining daromad qismining kamayishi;
- Mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tovarga nisbatan arzonroq tovarlarning import qilinishi natijasida ba'zi tarmoqlarda raqobatbordoshlikning kamayishi mumkinligi;
- Iqtisodning strategik muhim tarmoqlarini himoyasini manzilli qilishda hokimiyat imkoniyatlarinig kamayishi;
- Milliy iqtisodning muhim sohalarini boshqarishga chet el firmalari va TMK aralashuvi imkoniyatlarining o'sishi;

- Ichki bozorda narxlarining o'zgarmas saqlash, tabiiy monopoliya tariflari, texnik norma va standartlar, davlat sotib olish shartlarini saqlash mumkin emasligi.

Umuman olganda BJSTga O'zbekiston a'zo bo'lishi natijasida yuzaga keladigan potentsial samara bu qisqa muddatli davrda mahsulot eksportini jahon bozorida yuz beradigan to'siq va chegaralanishlardan himoya qilish shartlarini yaxshilashdan iborat bo'ladi. Uzoq muddatli davrda esa mehnat unumdorligini oshirib, ichki va jahon bozorida xarajatlarni kamaytirish asosida korxonada ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Bu holatlar tuzilmaviy o'zgarishlar jarayonini jadallashtirib eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy tizimni shakllantirishga, chet el investitsiyalarini o'stirishga, jahon xo'jaligi aloqalarida qatnashishga imkon yaratadi.

Xulosa. O'tizdan ziyod mamlakatlar JST kuzatuvchilari maqomiga ega. Ularning ko'pi, shu jumladan, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Jazoir, Ukraina, qozog'iston, MDHning boshqa mamlakatlari (Turkmanistondan tashqari) BJSTga qo'shilishning turli bosqichlaridadir.

O'zbekiston BJSTda a'zolik olishga qaror qabul qilishidan maqsad ko'pchilik mamlakatlar savdo munosabatlarini izga soluvchi xalqaro tizim bilan o'z integratsiyasini taminlashdir. Bu respublika rivojlanish strategiyasiga mos keladi. BJSTga a'zo bo'lmasdan qayta ishlash sanoati tovarlari eksportining o'sishi boshqa mamlakatlarning savdo to'siqlari muammosi bilan ehtimol to'qnashadi. Rivojlangan mamlakatlarda saqlanib kelayotgan notarif to'siqlar kelajakda jiddiy qarshilikka olib kelishi mumkin, ayniqsa qishloq xo'jalik mahsulotlari, teri, to'qimachilik tovarlari, kimyo va metallurgiya sanoati mahsulotlari. SHu munosabat bilan savdoda eng qulay status kafolatini olish muhim va uni ko'plab mamlakatlarga kengaytirish zarur. hozirgi vaqtda O'zbekiston savdoda eng qulay tartibni 38 yirik savdo mamlakatlaridan olmoqda. BJSTga kirgandan keyin bu tartib kafolatlanishi kerak.

Mustaqil takrorlash uchun savollar:

1. Butunjahon savdo tashkiloti qachon tashkil etilgan va uning sabablari?
2. BJSTga a'zo bo'lish shartlari nimalardan iborat?
3. BJSTning tuzilishi va vazifalari haqida nimalar bilasiz?
4. O'zbekistonni global jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida BJSTning roli?
5. O'zbekiston BJSTga a'zo bo'lsa, mamlakatimizga qanday imkoniyatlar yaratiladi?
6. O'zbekistonning MDH doirasidagi mintaqaviy integratsiya tarkibiga kirishining ahamiyati?
7. BJSTda eksport va import tariflarini qo'llanilishining iqtisodiy ahamiyati?
8. Mintaqaviy birlashmalar ta'riflarini BJST qoidalariga mofiqlashtirishning zarurligi?
9. MDH tarkibidagi davlatlar birlashmalarini jahonning boshqa davlatlariga nisbatan imtiyozli ustunligini qanday izohlaysiz?
10. BJSTga a'zo davlatlarni iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanadimi?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktria press, 2015. -584 b.
- 2.E.V. Skurko. VTO: v vedenie v pravovuyu sistemu. Pod.red. V.M. SHumilova. – M.: “Finansy i statistika”, 2003 g. str. 10-38.
- 3.Livshits A. Prisoedinenie stran SNG k VTO: problemy i resheniya Vneshneekonomicheskii byulleten. – M. 2003. №2.
- 4.Daniltsev A.V. Mejdunarodnaya trgovlya. Instrumenty regulirovaniya: O'quv-amaliy qo'llanma. Ikkinchi tahrir. – M.: Delovaya literatura, Paleotip, 2004.
5. Глобальное экономическое регулирование : учебник / под Г54 ред. проф. V. N. Zueva. — M. : Magistr, 2009. — 574 s.

15-MAVZU: XALQARO MOLIVAVIY TASHKILOTLAR TIZIMI VA UNING VAZIFALARI.

REJA:

- 15.1. Xalqaro moliyaviy bozorlarning vujudga kelishi va mohiyati.**
- 15.2. Jahon xo'jaligining globallashuvi va xalqaro moliyaviy bozorlarning rivojlanishi.**
- 15.3. Xalqaro moliyaviy oqimlar.**
- 15.4. Globallashuv jarayonlari da moliyaviy bozorlarning tuzilmasi va vazifalari.**
- 15.5. Globallashayotgan jahon xo'jaligida xalqaro moliyaviy markazlar.**
- 15.6. Xalqaro moliyaviy bozorlarni globallashuvining natijalari.**

15.1. Xalqaro moliyaviy bozorlarning vujudga kelishi va mohiyati.

XIX-asr tarixi inson hayotidagi turli-tuman xodisalarga xaddan tashqari boyligi bilan g'ayri tabiiydir, ularning orasida – jahon xo'jaligidagi yangi, eng muhim xodisalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oldingi asrning oxirigi o'n yilligi jahon iqtisodiyoti globallashuvining aniq tendentsiyalari belgisi ostida o'tdi. Nisbatan qisqa muddatda (1960-yildan boshlab) oldingi avlodlarga ma'lum bo'lmagan iqtisodiy hayotdagi jarayonlar shiddat bilan rivojlandi. Dastlab, avvalo, g'arbiy Evropada kuchli integratsion impulslar yuzaga keldi. Keyin esa milliy iqtisodiyotning o'zaro munosabati va o'zaro aloqalarini chuqurlashuvi va kuchayishda aks etuvchi xo'jalik hayotini baynalminallashuv bosqichlari shakllanib vujudga keldi. Nihoyat, 90-yillarda iqtisodiy faoliyatni global transformatsiyalashuvi o'zining barcha shakllarida amalga osha boshladi. Bu jarayonning jahon bozorini turli segmentlarida yagona global mavqe'ga asta-sekin aylanishi, xalqaro ishlab chiqarishning vujudga kelishi, mehnat resurslarining xalqaro migratsiyasini tez kuchayib ketishi, axborot globallashuvining vujudga kelishi, moliyaviy sohani butunlay qayta o'zgarishi,

iqtisodiy xavfsizlik, ekologiya, yadro, sog'liqni saqlash sohalarida o'zaro hamkorlikni kuchayishi kabi jarayonlar xalqaro transformatsiyalashuvning asosiy belgilari hisoblanadi.

XVF va boshqa xalqaro tashkilotlarning 1990 yillardagi xo'jalik yuritish rivojlanishining asosiy omillarini ko'rib chiqib ulardan eng muhimi sifatida iqtisodiy faoliyatni globallashuvini tan olishi bejiz emas. XXI asrning dastlabki yillarida jahon xo'jaligini globallashuv tendentsiyalari yana mustahkamlanib bordi. SHu bilan bir vaqtda bu jarayonning alohida mamlakatlar va jahon xo'jalik aloqalarining barcha tizimlari uchun salbiy hamda ijobiy tomonlari yanada ravshanroq bo'la boshladi. Iqtisodiy globallashuv natijalarining qarama-qarshiligi unga jahon hamjamiyatidagi turli-tuman munosabatlarni yuzaga keltiradi. Globallashuv tendentsiyalarini xalqaro himoya qilish va faollashtirish uchun jonbozlik ko'rsatadigan mustahkam kuchlar bilan bir qatorda bu tendentsiyalarni, birinchi navbatda iqtisodiy jihatlarni qabul qilmaydigan harakatlar ham kuchayib boradi.

Globallashuv jarayonlari barcha maktab va yo'nalishlarning iqtisodiy tadqiqotlari e'tiborida bo'ladi. Ularning baholashlari jahon xo'jaligini globallashuv manbalari, mavjudligi va natijalari bilan mos kelmaydi. Ular uchun umumiy narsa shuki, iqtisodiy tahlilda xalqaro moliyaviy bozorlarga va ularda yuz berayotgan xodisalarga alohida ahamiyat beriladi.

15.2. Jahon xo'jaligining globallashuvi va xalqaro moliyaviy bozorlarning rivojlanishi.

Moliyaviy bozor – bozor munosabatlari doirasi bo'lib, unda barcha pul vositalariga talab va taklif shakllanadi va ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish investitsiyalarini kapital bilan ta'minlash uchun ularning harakati amalga oshiriladi.

Mamlakatlararo xo'jalik aloqalarining kuchayishi, iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi, keyin esa pul vositalariga talab va taklifning globallashuvi milliy darajadan ancha o'zib ketdi. SHakllangan xalqaro ishlab chiqarish bir xil moliyaviy ta'minotni talab qildiki, uning uchun alohida mamlakatlarning resurs va imkoniyatlari aniq etarli emas. Transmilliy ishlab chiqarishning etakchilari – TMKlar – bank sohasida o'ziga o'xshash transmilliy banklarni (TMB) rag'batlantiradi. Jahon xo'jaligining butun aralash-quralashligi holatida undagi asosiy, hal qiluvchi o'rinni ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, moliya sohasida band bo'lgan yirik korporatsiyalar egallagan. Bundan tashqari, xalqaro biznesning bu ulkan tashkilotlari bir-biri bilan chambarchas o'zaro birgalikda faoliyat yuritadilar, hamkorlik qiladilar, bir-birlari bilan kuchli raqobatga kirishadilar, o'zlaridan kichik kuchli kompaniyalar va banklar ustidan nazoratni mustahkamlaydilar. Bularning barchasi mamlakatlararo kapital xarakatining intensivlashtirishiga, milliy xo'jalikda qabul qilingan davlat boshqaruvi tadbirlaridan ozod bo'lgan xalqaro moliyaviy bozorlar tiklanishiga olib keladi.

SHunday qilib, jahon xo'jaligining globallashuvi bilan xalqaro moliya bozorlarining rivojlanishi orasida chambarchas aloqa mavjud. Globallashuv xalqaro bozorlarning moliyaviy resurslarisiz taraqqiy eta olmaydi, bozorlarning

o‘zi esa, globallashuv tendentsiyalarining bevosita yordami bilan rivojlanib boradi. Moliyani globallashuvi jahon xo‘jaligini globallashuvining muhim tarkibiy qismi sifatida qamrov jihatdan mamlakatlararo pul kapitali oqib kirishiga, xalqaro moliyaviy oqimlarga asoslanadi.

15.3. Xalqaro moliyaviy oqimlar.

Xalqaro moliyaviy oqimlarning tez sur‘atda oshishi munozarasiz voqelik bo‘lib, zamonaviy xalqaro iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qamrov doirasi juda tasurotga ega: eng rivojlangan mamlakatlar orasidagi pulning joylashuvi kuniga 500 mlrd dollardan oshmoqda. 2000 yilda butun dunyoda moliyaviy oqimlarning umumiy hajmi 180 trln. doll. ga yaqinlashgan. Bu operatsiyalarga xizmat ko‘rsatish uchun alohida mamlakatlar moliyaviy bozorlararo o‘zaro faoliyat bazasini kengaytiradigan axborot va aloqaning yangi tizimidan foydalaniladi. SHunday qilib, xalqaro moliyaviy oqimlar moliyaviy globallashuv, va demak, jahon xo‘jaligini globallashuvning katalizatori sifatida xizmat ko‘rsatadi. Haddan ziyod katta hajmlarda mamlakatlararo pul va pul sifatidagi vositalarni joylashtirish barcha moliyaviy bozorlar integratsiyalashuviga olib keladi, bunda pul va kapitalning milliy bozorlari va xalqaro bozorning alohida segmentlari orasidagi aloqa ancha mustahkamlanadi. Natijada investor yoki qarzdor qaror qabul qilgan holda dunyodagi barcha moliyaviy bozorlarga yagona, yaxlit, global, xalqaro moliyaviy tizimning turli bo‘g‘inlari sifatida qaraydilar.

Xodisalar rivojlanishining bunday afzalligi shubhasiz. Jahon xo‘jaligi iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish salohiyatini ahamiyatli tarzda kengaytirdi va mustahkamlaydi (hattoki, eng murakkab va qimmatlarini ham). SHu ma’noda mamlakatlararo va mamlakat tashqarisida pul harakatining mislsiz intensivikasi jahon xo‘jaligi globallashuvining ijobiy, progressiv natijalarining moliyaviy manbasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, xalqaro darajada pulning kam darajadagi intiluvchan va keng qamrovli tovlanishi mamlakat va hududlar iqtisodiyotining qaytadan barqarorlashuvi bilan muvofiqlashadi, kuchli moliyaviy inqirozlarga olib keladi. SHu jihatdan, pulning xalqaro oqimlari jahon xo‘jaligi globallashuvining mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlari bilan muvofiqlashadi.

Dunyodagi moliyaviy oqimlarning harakati juda yuqori tezkorligi bilan farqlanadi.

Xalqaro moliyaviy oqimlarning ma’lum qismi tovar va xizmatlarning xalqaro xarakatidagi xizmat ko‘rsatish, shuningdek, kapitalning to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari bilan bog‘liq. Turli shakllarda jahonda aylanayotgan kapitalning mazkur qismi liberallashtirilishi samarali bo‘ldi va ko‘pgina milliy xo‘jaliklarda va yaxlit xalqaro xo‘jalik aloqalari tizimida juda qulay deb tan olingan.

Bundan tashqari, boshqasi ham borki, ular milliy darajadan ustun holda aylanadigan bu pullarning yanada ahamiyatli qismidir. Ularni “tezkor kapitallar” yoki “qaynoq pullar” deb ataladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- qisqa muddatli bank kreditlari;

- aktsiyadagi portfelli investitsiyalar;
- kompaniya qimmatli qog'ozlaridagi qisqa muddatli qo'yilmalar (obligatsiyalar, vekselar).

Bu "qaynoq pullar" mamlakatlararo aylanadigan katta miqyosda, qisqa muddatli qo'yilmalar natijasida (ba'zan bir sutkaga yoki xatto bir necha soatga) aniq statistik baholashda kuchsiz bo'ladi. Lekin har qanday vaziyatda ham, ular hajmiga ko'ra, kapital harakatining uzoq muddatli shakllariga qaraganda 2,5-3 marta katta.

Beqarorlikning har qanday belgilarida "tezkor kapitallar" xuddi ajiotaj talabda o'zlashtirilgan kabi texnik investirlashtirish ob'ektlarini tark etadilar. Natijada global moliyaviy tizimlarning noziklashuvi yuzaga keladi. Bu holatdan iqtisodiyoti yangi mustahkamlangan mamlakatlar aziyat chekadilar.

Xalqaro moliyaviy sohaning beqarorligi taraqqiy etayotgan globallashuv sharoitida ilk bor Lotin Amerikasida 1980 yillarda yuzaga keldi. Qisqa muddatli tashqi kreditlash va portfel investitsiyalarining ovozasi Braziliya, Meksika, Argentina, Venesuela tashqi qarzдорligining tezda oshib ketishiga olib keldi. Xizmat ko'rsatish to'lovlari bo'yicha ularning qarzlari uch marta o'sib ketdi. SHu narsa aniq bo'ldiki, qarzlarni to'lashdan bosh tortish rivojlangan kreditor mamlakatlar iqtisodiyoti barqarorligini shubha ostiga qo'ydi. Faqat yirik tijorat banklari, MVF va xalqaro banklarning katta qudrati bilan qisman hisobdan chiqarildi, qisman restruktisiya qilindi. Moliyaviy sohada barcha mamlakatlarning o'zaro chambarchas aloqasi odatiy holga aylandi.

1990 yillarda SHarqiy Osiyo mamlakatlari xalqaro moliyaviy tizim oldida himoyasiz va ochiq bo'lib qoldi. 1997-1998-yillarda Osiyo moliyaviy krizisi boshlandi. Undan shakllangan bozorlarga ega bo'lgan besh mamlakat aziyat chekdi – Indoneziya, Tayland, Janubiy Koreya, Malayziya, Fillipin. Bir qancha ichki omillar ulardagi to'liq moliyaviy tartibsizlikka olib keldi: iqtisodiy o'sish sur'atlari va eksport hajmi, iqtisodiyotning uzoq "qizishi", yuqori tashqi qarzдорlik va boshqalar. Lekin valyutani qayta barqarorlashtirishning ilk belgilaridanoq xorijiy "tezkor kapitallar"ning to'plangan oqimi katta rol o'ynadi. Bir qator mamlakatlar moliyaviy bozorlarining erkinlashtirilishi vaziyatida ASEAN bu erga 1990-1996 yillarda shu maqsadda qimmatli qog'ozlardagi investitsiyalar va kreditlar ko'rinishida xorijiy chayqov kapitalini yo'naltirdi. Ta'kidlangan besh mamlakatga kapitalning oqib kirishi yiliga o'rtacha YAIMni 6 % ni tashkil qildi. Bundan tashqari, ularning asosiy qismi "tezkor kapitallar"dir.

1997 yil iyunda Indoneziyada, masalan, mamlakatning valyuta zahiralari va qisqa muddatli qarzlarning o'zaro munosabati 100 % dan yuqorini, Janubiy Koreyada 200% ni tashkil qildi. qarzдорlarning qarzlarni to'lay olmasligi tahdidi vayuta kurslari pasayib ketishiga, keyin esa valyuta inqiroziga olib keldi. Xorijiy kapitalni jalb qiluvchi qimmatli qog'ozlarning juda yuqori kurslari birdan tushib ketdi. SHarqiy Osiyodan "tezkor kapitallar"ning birdan va ommaviy oqib chiqib ketishi boshlandi. Bu dunyoning barcha fond bozorlarida o'z aksini topdi. Osiyo moliya inqirozi shiddat bilan global moliyaviy pala-partishlikka aylandi. YAponiya iqtisodiyotida stagnatsiya juda kuchaydi. SHarqiy Osiyodagi hodisalar AQSH va g'arbiy Evropa mamlakatlari milliy xo'jaligiga ham salbiy ta'sir

ko'rsatdi. SHu bilan birgalikda SHarqiy Osiyodan chiqib ketgan moliyaviy oqimlar global moliyaviy iztiroblarni katta kuch bilan boshdan kechirgan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini to'yintirdi. Lekin jahon xo'jaligi aloqalari tizimiga ancha zarar keltirdi.

Bir oz vaqt utgandan keyin inqirozning markazi Rossiya bo'lib qoldi. Albatta bizning mamlakatimizda ham moliyaviy inqiroz oldi jarayonlari 1998 yilda Osiyo mamlakatlari inqirozi tufayli, shuningdek, ichki sabablarga ko'ra ham yuz berdi. Ularning orasida davlatning yirik qarzlar, GKOning qarzli "piramidasi", real iqtisodiyotda investitsiyalarning yo'qligi, bank tizimi faoliyatining qoniqarli emasligi va boshqalar ham bor. Mamlakatdan xorij kapitalining tez oqib chiqib ketishi Osiyo moliyaviy inqirozini ham tezlashtirdi: moliyaviy oqimlar rivojlanayotgan bozorlar barcha mamlakatlardan chiqib keta boshladi. Rossiyada rubl kursining tushib ketishi va moliyaviy sohadagi tartibsizliklar, o'z navbatida, MDH, SHarqiy va Markaziy Evropa mamlakatlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Bu hodisalarning barchasi "tezkor pullar"ning xalqaro jilolanishi nimalarga olib kelishini, xalqaro moliyaviy oqimlarning chayqov qismi aniq sharoitlarda qanday jahon xo'jaligi global destabillashuvini provokatsiya qilishini aniq ko'rish mumkin. Osiyo moliyaviy inqirozini bejiz ommaviy axborot vositalarida yangi global moliyaviy tizimning inqirozi deb bekorga aytishmagan. Dastlab Rossiyaga qisqa muddatli chayqov va GKO ga katta investitsiya kiritish maqsadlarida quyiladigan, keyin esa mamlakatdan tezda chiqib ketadigan xalqaro moliyaviy oqimlarning tartibi Rossiya iqtisodiyoti xalqaro moliyaviy sohani globallashtirish qatoriga kirganini ko'rsatdi.

XXI asr boshlariga kelib, xalqaro moliyaviy oqimlar bazasida bozorga chiqish bo'yicha milliy xo'jalikni yangilash yo'lidani borayotgan mamlakatlarga juda katta ta'sir ko'rsatayotgan mamlakatlarning o'zaro moliyaviy aloqadorligi shakllandi.

Jahon xo'jaligi globallashtirishni to'yintiradigan xalqaro moliyaviy oqimlar turli ko'rinishdagi investitsiyalar shakliga ega. Investitsiya jarayoni mubolag'asiz jahon xo'jaligining markaziy muammosiga aylandi.

Bu erda gap boy va kambag'al mamlakatlarning iqtisodiy qarama-qarshiligi yoki yangi texnologiyalarni joriy qilish fundamental ilmiy tadqiqotlar taraqqiyoti, yoki ekologiya, tibbiyot, ta'lim haqida borishidan qat'iy nazar barchasi oxir-oqibatda moliyalashtirish, investitsiyalar masalalariga borib taqaladi. SHuning uchun ham investitsiya va globallashtirish jarayonlarining o'zaro ta'siri va o'zaro aloqadorligi haqidagi mavzu katta ahamiyat kasb etadi. Bu har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim. Investitsiya jarayoni, ma'lumki, Rossiya iqtisodiyotining ham markaziy muammosini tashkil qiladi.

Globalishtirish investitsiya jarayoniga juda katta jiddiy tuzatishlar kiritdi. Xalqaro moliyaviy bozorlar tizimining shakllanishi butun xalqaro iqtisodiyot doirasida samarali kapital qo'yilmalari imkoniyatlarini baholash imkonini berdi. O'nlab mamlakatlarning investitsiya istiqbollari va biznesning juda ko'p ko'rinishlari bir vaqtda taqqoslandi.

Lekin gap faqatgina investitsion siyosatning geografik parametrlaridagina emas. Kapital qo'yilmalarining ko'rinishlari ham o'zgardi. Investitsiyalashning

an'anaviy shakllari bilan bir qatorda (qimmatli qog'ozlarga to'g'ri va portfelli qo'yilmalar, kreditlarning turi xillari va boshqalar) qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar ham ikki katta guruhga bo'lindi.

Taktik investitsiyalashda qimmatli qog'ozlar ularning bozor narxlari oshib ketganda savdo maqsadida xarid qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, investor belgilangan daromadni olishga harakat qiladi. Taktik investorga, mohiyatan, mashinasozlik kombinatining qimmatli qog'ozlarini qabul qiladimi, yoki makaron fabrikasini farqi yo'q. U shunday korxonani tanlashi kerakki, uning jamg'arma qog'ozlarining narxi oshib borayotgan bo'lsin.

Strategik investitsiyalashda kompaniyada nazoratni ta'minlaydigan yoki hech bo'lmaganda qarorlar qabul qilishda ishtirok etadigan qimmatli qog'ozlar o'zlashtiriladi. Strategik investorni bozor narxining – aktsiyalar kursining tez o'sishi, va xattoki, yaqin yillarda ular bo'yicha daromad olish uncha qiziqitirmaydi. Uni korxonani mustahkamlash, uning mahsulotlarining raqobatbardoshligi, uning bozorga chiqishi, oxir- oqibatda, kompaniya barcha kapitalini oshirish, demak, strategik investorning ulushi ham mutlaq ko'rinishda oshishi qiziqtiradi.

Bunday investor uchun qanday biznesga va qaysi mamlakatda o'z pullarini kiritish mutlaqo ahamiyatsiz. Aksincha, strategik investitsiyalashda eng muhim masala kapital qo'yilmalari yo'nalishida, etarli darajada uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolli nuqtaga "aniq tushish" hisoblanadi.

Zamonaviy investitsiyalashni bu ikki asosiy guruhga ajratish moliyaviy oqimlar harakati xalqaro xarakterga ega bo'lgan paytda yuz berdi. Faol taktik investitsiyalash uchun alohida mamlakatlarda (ayniqsa kichik) doirasida va hatto, hududlar doirasida ham joy juda kichik bo'ldi. Jahon xo'jaligi globallashtirish rivojlanishi bilan vaziyat o'zgardi. "Tezkor kapitallar" dunyoning turli tumanlaridagi qimmatli qog'ozlar kursining qisqa muddatda o'sishidan va bank foizlaridan daromad olishni mo'ljallagan taktik investorlarga yo'naltiriladi. Taktik investorlar kapital qo'yilmalari siyosati aynan, jahon xo'jaligi miqyosida moliyaviy oqimlarni joylashtirishga intilish imkoniyatiga asoslanadi.

SHu narsa tushunarliki, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlarda avval taktik investitsiyalash etakchilik qiladi va faqat ma'lum bir bosqichlardagina strategik investorlar, jumladan, xorijiy investorlar paydo bo'ladi. Bizning mamlakatimizdagi birinchi siljish 1995 yilda moliyaviy bozor infratuzilmasi bir qancha yaxshilangan: istiqbolli kompaniyalarning oldingidan ko'ra ishonchli qimmatli qog'ozlari paydo bo'lgan, emitentlar haqidagi axborotlar ustidan nazoratning yo'q qilinishi va boshqalar paydo bo'lgan paytda yuz berdi. Natijada kompaniyalar ustidan nazoratni ta'minlaydigan, hech bo'lmaganda qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatadigan qimmatli qog'ozlarning etarli darajadagi katta paketi sotiladigan strategik investirlashtirish rivojlanishi tendentsiyasi vujudga keldi. Bunday strategik investirlashtirish tarkibiga Rossiyaga kirib kela boshlagan xorijliklar ham, qamrovi bo'yicha uncha keng bo'lmasada, xalqaro moliyaviy oqimlar ham kirib kela boshladi.

Demak, jahon xo'jaligining globallashtirish investitsiya jarayoni shakllarining tashqi ko'rinishi o'zgarishiga olib keldi:

Globallashtirish tomonidan rag'batlantirilgan va shu bilan bir vaqtda uning

kelajakdagi faolligini to'yintiradigan yirik xalqaro moliyaviy oqimlar ikki guruhga ajraldi – taktik va strategik investitsiyalashga;

Xalqaro moliyaviy oqimlar ichida taktik investitsiyalash juda afzal hisoblanadi. Aynan globallashuv tufayli butun dunyoda qo'yimalarning daromadli sohalarini qidirish bo'yicha sang'ib yuradigan "Tezkor pullar" hajmi ancha oshadi;

Taktik investitsiyalashga jalb qilinadigan moliyaviy oqimlar tezligi odatdagidan yuqori. Ularning jahon xo'jaligidagi xarakati chalkash, oldindan aniqlab bo'lmaydigan xarakterga ega;

Xalqaro darajada pul joylashtirgan har qanday investor qat'iy ishlab chiqilgan investitsiya siyosatini boshqarar ekan, taktik investitsiya kapitali butun jahon xo'jaligida har qanday boshqaruvchan yoki hech bo'lmasa, nazorat qilinuvchi boshlanma ta'siridan ozod bo'ladi;

Bu barcha vaziyatlar bugungi kunda xalqaro investitsiya jarayoni juda murakkab bo'lib borayotganligini bildiradi.

U yoki bu hududdagi xo'jalikning turli tarmog'i rivojlanishi bilan muvofiqlashadigan kapital qo'yimalari bilan bir qatorda boshqa taktik investitsiyalar ham mavjud. Ularning maqsadi ochiqdan-ochiq chayqov bo'lib, ularning xarakteri – qisqa muddatlilik, ularning ob'ekti – asosan, kurslari tez o'sib borayotgan dunyo tumanlaridagi qimmatli qog'ozlardir. Taktik investitsiyalarni u erga kiritish kursni yanada oshirib yuboradi va ular o'z ortida turgan real aktivlardan yanada uzoqlashadi. Mahalliy moliya bozorlarning "qizib ketishi" yuz beradi. Globallashuv sharoitida moliyaviy- valyuta destabilizatsiyasi har qanday milliy chegaradan sakrab o'tadi va butun xalqaro xo'jalik bo'yicha aylanib yuradi.

SHunday qilib, aynan globallashuv hayotida yuz beradigan xalqaro miqyosdagi taktik investirlashtirish katta miqdorda uning salbiy va hattoki, ko'p hollarda buzg'unchi natijalari uchun aybdor.

Aynan mana shuning uchun mamlakatga xorijiy kapitalni ixtiyoriy tarzda jalb qilish haqida gap ketganda aynan qanday kapital va qanday ichki iqtisodiy vaziyatda foydali bo'ladi, qachonlardir zararli ekanligini farqlay olish lozim. SHu ma'noda eng qayg'uli misol sifatida 1996-1998 yillardagi Rossiyadagi voqealarni keltirish mumkin. GKOning hamda ayrim boshqa "piramida"li qimmatli qog'ozlarning juda yuqori daromadi xorijiy investorlarnigina emas, aynan taktik kapital qo'yimlarini jalb qildi. Ular ham o'z qo'yimalari bilan 1998 yil avgust moliyaviy xalokati yuzaga kelishiga hissa qo'shdilar.

Oldingi xatolardan o'ziga saboq olgan mamlakatimiz hamda boshqa mamlakatlar ham xorijiy kapital oqimini Rossiyaga kiritishni emas, aynan, strategik investitsiyalarni kuchaytirishga qiziqdilar. Ular iqtisodiyot turli tarmoqlarining aniq ob'ektlariga, odatdagidek uzoq muddatlarga yo'naltirildi va haqiqatan ham moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishi va tuzilmaviy qayta qurish manbasiga aylandi.

Bu Rossiya iqtisodiyotiga xalqaro taktik investorlarning ba'zi qo'yimlarini kiritish umuman mumkin emas, degani emas albatta (ularning ichida Djordj Soros juda mashhur). Lekin quyidagilarni hisobga olish juda muhim:

-mamlakatdagi iqtisodiy konyunkturaning joriy holati;

- xalqaro qarzдорlik miqyosi va tashqi qarzlarni to'lash tartibi;
- mazkur davrda asosiy byudjet parametrlari;
- mamlakat fond bozorida aylanadigan qarz qimmatli qog'ozlar hajmi – obligatsiyalar (xususan, davlat), ular kursining dinamikasi va qoplanish muddati;
- investitsiyalarni moliyalashtirishning ichki manbalari zaxiralari va ularni rag'batlantirish va faollashtirish imkoniyatlari;

-xalqaro moliyaviy bozorlar, birinchi navbatda, rivojlanayotgan xalqaro bozorlar vaziyatlari. Modomiki, Rossiya bozori shu toifaga kirar ekan, shuni e'tiborga olish lozimki, jahon xo'jaligidagi moliyaviy oqimlar keyingi yillarda bir vaqtda rivojlanayotgan ko'pgina bozorlarda tartibning bir xilligi bilan farqlanadi.

Boshqa bir qator omillar ham borki, ular u yoki bu davrda xalqaro taktik investitsiyalashga munosabatni aniqlashlari lozim.

SHunday qilib, investitsiya jarayoniga globallashuvning ta'siri uni ko'p jihatdan o'zgartiradi. Bu esa, xorijiy kapitalning joylashishi va oqimi munosabati bo'yicha davlat siyosatiga yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Afsuski, ko'pchilik mamlakatlarda bunday siyosat fragmentar xarakterga ega. Eng yaxshi holatda iqtisodiyotning u yoki bu tarmog'ida (masalan, bank) xorijiy investitsiyalar ishtirokining mumkin bo'lgan ulushi aniqlanadi. Taktik va strategik investitsiyalash xususiyatlariga tegishli bo'lgan farqlar juda kam hisobga olinadi.

Rossiyadagi qimmatli qog'ozlarni taktik investitsiyalash 1998 yil avgust voqealaridan keyin darhol mamlakatdan chiqib keta boshlaganda, Procter G'on Gemble, Nestle kabi kompaniyalarning strategik xarakterdagi kapital qo'yilmalari Rossiya korxonalarida saqlanib qoldi. Bu kompaniyalar inqiroz bilan bog'liq holda jiddiy zarar ko'rgan bo'lsalar ham, taktik investorlar kabi o'z investitsiyalarini mamlakatdan olib chiqib ketmadilar.

SHundan kelib chiqqan holda, turli ko'rinishdagi xalqaro moliyaviy oqimlarni kirishi munosabati bo'yicha tuzilmaviy soliq siyosati zarur. Iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalari bo'yicha xorijiy investitsiyalashning bu ko'rinishlarini joylashtirish tuzilmasiga davlat yordami juda zarur.

Investitsiya jarayonining globalashuvida zamonaviy kommunikatsiya va axborot vositalarining joriy qilinishi ham muhim rol o'ynaydi. Ular milliy moliyaviy bozorlarning xalqaro moliyaviy oqimlari yo'naltirilgan ob'ektlar sifatida tashqi ko'rinishini o'zgartirdilar. Moliyaviy bozorlarning bir-birlari bilan o'zaro faoliyati uchun ham yangi axborot texnologiyalardan foydalanish juda muhim. Xalqaro moliyaviy oqimlar, investitsiyalar va bozorlar uchun Internet tizimiga ulangan global kompyuter tarmoqlari bebahodir. Moliya va pul muomalasi doirasida globallashgan jarayonlarning kengligiga o'xshash moddiy baza yuzaga keldi.

Bunday baza dunyoning turli xil hududlarida investitsiya vaziyatlarini tez baholash imkonini beradi. Qabul qilingan investitsion qarorlar endi global jahon xo'jaligidagi moliyaviy ishlarda (valyuta kursining harakatlanishi, foiz stavkalari darajasi, fond indeksleri va boshqalar) joriy vaziyat haqidagi ma'lumotlar asosiga quriladi. Moliyaviy tarmoq, ijtimoiy hayot, siyosat doirasida iqtisodiyotdagi yangi voqealar, faktlar, tendentsiyalarning hisobi ham juda muhim. Zamonaviy axborot ta'minotida investor uchun butun dunyo haqiqatan ham kapital qo'yilmalarining

integrallashgan bozoriga aylandi.

Moliyaviy globallashuv jarayonlarining asosiy ishtirokchilari – transmilliy korporatsiyalar va banklar hisoblanadi. Ularning xalqaro ishlab chiqarishi va xalqaro moliyaviy operatsiyalari butun zamonaviy jahon xo‘jaligi aloqalari tizimining yadrosini tashkil qiladi. Ularning investitsiya faolligi alohida milliy xo‘jaliklardan nisbatan mustaqil va umuman olganda, jahon xo‘jaligiga yo‘naltirilgan.

SHu ma’noda TMK va TMB lar bir vaqtda ham mahsulot, ham globallashtirishning xarakatlantiruvchi kuchi sifatida ishtirok etadi.

Investitsiyani amalga oshirar ekan, TMK xalqaro moliyaviy bozorlarning barcha salohiyatidan foydalanadi. Ular TMB va boshqalardan bank kreditlarini oladilar, o‘z qimmatli qog‘ozlarini (aktsiya, obligatsiyalarini) turli bozorlarga joylashtiradilar, bir- birlarining korporatsiyalararo zayomlarini jalb qiladilar, pensiya, sug‘urta, investitsiya va boshqa moliyaviy fondlarning mijozlari, qarzdorlari hisoblanadilar. Bunda turli bozorlarda va turli manbalardan vositalarni olish shartlari baholanadi: bitimlar qiymati, o‘zlashtirish samaradorligi, risk darajasi va xakozo. Xuddi shu kabi TMK va TMB jahon xo‘jaligini globallashuvdan foydalangan va uni mustahkamlagan holda butun dunyo bo‘yicha o‘z kapital qo‘yilmalarini maqbullashtiradi.

Boshqacha qilib aytganda, bu erda gap zamonaviy biznesning transmilliy ishtirokchilari uchun odatdagi amaliyot bo‘lib qolgan investitsiyalarning xalqaro strategiyasi haqida boradi.

Bundan tashqari, TMK allaqachonlardan beri o‘z shaxsiy korporativ tizimi imkoniyatlarini amalga oshirib keladi. Dunyoning aniq hududida investitsiyalarni moliyalashtirar ekan, ular o‘nlab mamlakatlarda tashkil qilingan o‘zlarining boshqa bo‘linmalaridan pullarni ularga osonlik bilan yuboradilar. Bunday operatsiyalar xalqaro investitsiyalarning globallashuviga yordam beradi va shu bilan bir vaqtda destabillashtirish elementlarini jahon xo‘jaligiga olib kirdi. Kapitalni mamlakatlararo joylashtirish alohida TMKlarning turli yo‘nalishli moliyaviy strategiyalariga tobe bo‘ladi.

Xalqaro moliyaviy bozorlarning amaldagi infratuzilmasi – bank tarmog‘i, nobank moliyaviy institutlari operatsiyalari, Internet tizimi va boshqalar - nafaqat TMKlarga, shuningdek, ancha kamtar va kichkina bo‘lgan kompaniyalarga ham xalqaro investitsiyalashda ishtirok etish imkonini beradi.

SHunday qilib, jahon xo‘jaligini globallashuvi moliyaviy oqimlarni nafaqat keng qamrovli qildi, balki, investitsiya jarayonlariga, shuningdek, jahon iqtisodiyotidagi uning roliga haqiqiy inqilobiy o‘zgarishlarni ham kiritdi.

15.4. Globallashuv jarayonlarida xalqaro moliyaviy bozorlarning tuzilmasi va vazifalari.

Hozirgi paytda har bir mamlakatda iqtisodiyot talablariga xizmat qiladigan pul oqimlari va kapitalning barcha ko‘rinishlarini aylantiradigan milliy moliyaviy bozorlar mavjud. Alohida mamlakatlarning moliyaviy bozorlari o‘zaro faoliyatining mustahkamligi va chuqurligi ularning integratsiyalari bosqichlarini xarakterlaydi.

Keyingi bosqich bu bozorlarni jahon xo'jaligi globallasuvi jarayoniga moslashtirishdir. Xalqaro ishlab chiqarishning shakllanishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensivikasi alohida mamlakatlar moliyasining ahamiyatli qismi (hech bo'lmaganda ularning har birida turli darajada)ni tovarlar, xizmatlar, kapitalning xalqaro xo'jaligi oqimlarini ta'minlay boshlashiga olib keldi. Xalqaro moliyaviy bozorlar – pul, kredit, jamg'arma bozorlari yuzaga keldi.

Xalqaro iqtisodiyotda butunlay yangi xodisa mamlakatlar va xalqaro bozorlarning butunlay turli-tuman shakllarini birlashtiruvchi mustaqil milliy bo'lmagan moliyaviy sigmentlarining yuzaga kelishidir. Bu hodisalar jahon xo'jaligi globallasuvining natijasi sifatida va shu bilan birga uning muhim belgilaridan biri sifatida ishtirok etadi. haqiqatan ham zamonaviy moliyaviy soha milliy moliyaviy bozorlar yig'indisini, ularning o'zaro faoliyati turli-tumanligini, mamlakatlararo va bir-birlari bilan o'zaro bog'langan xalqaro moliyaviy bozorlar tizimini, alohida banklardan tortib, xalqaro Bank va XVF kabi xalqaro institutlarning keng ishtirokchilari doirasini o'z ichiga oladi.

Boshqacha qilib aytganda, moliya sohasida globallasgan jarayonlar iqtisodiyotning unga o'xshash va avtonom tarmog'iga – globallikning belgilarini aniq namoyon etadigan moliyaviy tizimga olib keldi. Bu tizimning ichida xalqaro moliyaviy oqimlar xarakatlanadi, ishtirokchilar orasida doimiy barqaror aloqalarning qat'iy tarmog'i shakllanadi, butun dunyo miqyosida moliyaviy resurslarga talab va taklif muvofiqlashadi.

Aynan moliyaviy sohada tarkibiy qism sifatida mamlakat moliyaviy bozorlarini o'z ichiga oladigan xalqaro xarakterdagi mustaqil tizimlarning shakllanishi tez va katta natijalar bilan rivojlanadi. Xalqaro ishlab chiqarish ham, xalqaro savdo ham tezlik bo'yicha hozir erishilgan moliyaviy soha natijalariga yon bosadi. Xalqaro ishlab chiqarish va tovar almashinuvi rivojlanishining shubhasiz birlamchiligida ular alohida faollik bilan taraqqiy etayotgan moliyaning globallasuvida muvaffaqiyatga erishadilar. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy tizimning o'rnatilishi ko'pgina ancha daromadli bo'lgan xalqaro chayqov operatsiyalari uchun sharoit yaratadi. Bu vaziyat tizimning dinamikasi bilan muvofiqlashadi.

Rossiya fond bozorining “oshkora emasligi”, aktsiya chiqaruvchi korxonalar haqidagi axborotlarning etishmasligi investorlar bu aktsiyalarni faol sotib olishlari uchun imkoni bermaydi.

SHu narsa xarakterliki, ayrim rossiya kompaniyalari (masalan, “Lukoil”) xorijiy auditorlarni o'z korxonalariga kiritganlaridan keyin va o'zlari haqida xalqaro me'yorlarga muvofiq axborot berganlaridan keyin, ularning aktsiyalari darhol xalqaro fond bozorlariga kiritildi.

Lekin globallasuv xalqaro aylanmada rivojlanayotgan bozorlardagi aktsiyalarning ishtirokini talab qiladi. Natijada depozitar yozuvlardan – banklar tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar, “oshkora bo'lmagan” kompaniyalarning xarid qilingan aktsiyalari, ular bo'yicha risklarning bir qismini o'z zimmasiga oluvchi qimmatli qog'ozlardan foydalanadilar. Bu ikkilamchi qimmatli qog'ozlarga xorijiy aktsiyadagi banklarning egalik qilishi bilan ham tasdiqlanadi. AQSH da sotiladigan amerika dipozitar yozuvlari (ADR), boshqa

mamlakatlarda aylanadigan global depozitar yozuvlari ham mavjud. Kompaniya va davlatga xorijda pul resurslarini egallash imkonini beradigan obligatsiyalar xalqaro bozori ham juda faol amal qiladi. Obligatsiyalarga barcha xalqaro o'zlashtirmalarning uchdan biri to'g'ri keladi.

Evroobligatsiyalar ham keng qo'llaniladi. Ular qarz majburiyatlari bo'lib, ular qarzdorlar tomonidan bir vaqtda kreditor uchun xorijiy hisoblangan valyutada bir necha mamlakatga bir paytda joylashtiriladi.

Rossiya evroobligatsiya bozorida bir necha emissiyani joylashtirgan.

Eng yirik Rossiya kompaniyalari ham xalqaro obligatsiya bozori resurslaridan foydalanish bo'yicha faollashmoqda. Xalqaro bozorlarda aylanayotgan Rossiya davlat obligatsiyalarining 1999 yildagi 85 % dan 2003 yilning oxiriga kelib 52 % gacha ulushi pasayishida korporativ tarmoq obligatsiyalari ulushi 2 dan 20 %ga o'sdi. (qolgan qismini rossiya moliyaviy muassasalari tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar tashkil qildi)⁴².

SHunday qilib, barcha muammo va ziddiyatlarga qaramay, globallashuv sharoitida moliyaviy bozorlar an'anaviy vazifalar bilan bir qatorda yangi vazifalarni ham bajaradilar, katta salohiyatga va rivojlanishning jiddiy istiqbollarga ega bo'ladilar.

15.5. Globallashayotgan jahon xo'jaligida xalqaro moliyaviy markazlar.

Xalqaro xo'jalikning globallashuvi davridagi moliyaviy operatsiyalar milliy chegaralarni "sezmaydi", ular bugungi kunda xalqaro miqyosda uzluksiz amalga oshirilmoqda. Lekin bitimlar, kelishuvlar, shartnomalar, muzokaralar va maslahatlar dunyoning hamma burchagida birdek imzolanayotgani yo'q. Moliyaviy bozorlarning ishtirokchilari asosan, xalqaro operatsiyalar yo'naltiriladigan, nazorat qilinadigan, boshqariladigan aniq markazlarda yig'iladilar. Bunday markazlar allaqachonlar paydo bo'lgan. Bundan tashqari, moliyaviy oqimlar bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga stixiyali ravishda o'tib yuradi, hamma milliy xo'jaliklar ham xalqaro darajadagi moliyaviy biznesni tashkil qilishga qodir emaslar. Buning uchun aniq tarixiy, geografik va iqtisodiy shart-sharoitlar mavjud. har bir moliyaviy markaz uchun har xil moliyaviy institutlarning katta miqdorining ishtiroki hamda amalga oshiriladigan operatsiyalarning katta hajmi xarakterlidir.

Xalqaro moliyaviy markazlar turli mamlakatlar banklari, nobank moliyaviy institutlar, sug'urta kompaniyalari, fond va valyuta birjalarining to'planadigan joylarni o'z ichiga oladi.

An'anaviy moliya bozorlari rivojlangan milliy bozorlar bazasida yuzaga keladi. Jahon xo'jaligini globallashuvi bilan birga yuzaga kelgan xalqaro moliyaviy bozorlarning yangi jihatlari markazlar faoliyatiga jiddiy o'zgarishlarni olib kirdi. Xalqaro moliya markazlarining diskolatsiya (joylashish) joylariga umumiy talablar avvalgidek o'zgarmay qolgan:

- mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganligi, uning valyutasi va moliyasining etarlicha uzoq muddatli barqarorligi;

- qulay geografik holat, zamonaviy kommunikatsiya tizimining mavjudligi;

- siyosiy sohadagi nisbatan barqarorlik;
- soliqqa tortishning yuqori emasligi (ayniqsa norezidentlar uchun);
- bozor, bank, birjalar va boshqalarga kirishning norezidentlar uchun ochiqqligi;
- fond, valyuta birjalari va boshqalarning yaxshi tashkil qilinganligi.

-Alohida moliyaviy markazlarda alohida xalqaro bozorlarning operatsiyalari jamlanadi: oltin, valyuta va bank, fond qimmatliklari.

Xo‘jalik hayotining baynalminallashuvi bilan birga an‘anaviy turdagi xalqaro moliyaviy markazlar modifikatsiya qilindi, yangi sharoitlarga moslashdi. Milliy bozorlar bazasida shakllangan oldingi markazlar endi ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Jahon xo‘jaligida xokimlik qilayotgan TMK va TMB lar uchun milliy bozorlardan biriga har qanday bog‘lanish ularning amal qilishiga qarshilik ko‘rsatadi. Eski moliyaviy markazlar davlat reglamentatsiyasidan (ko‘rsatmalaridan) ozod bo‘lmagan. Globallashuv ta’siri ostida davlat boshqaruvining mamlakat me‘yorlari xalqaro moliyaviy oqimlar uchun kam rol o‘ynay boshladilar. Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barcha joylarida norezidentlarning hisoblari ochilishi va xorij kapitali oqimining boshqa shakllari ancha erkinlashtirildi. SHuning uchun moliyaviy markazlarga mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi darajasi qandayligi, uning qaerda joylashganligi, uning valyutasining holati, bank tizimi qandayligi kabi talablar ahamiyatli tarzda o‘z kuchini yo‘qotdi. Mahalliy boshqaruvni baholashga yondashuvlar ko‘rinishi jihatdan o‘zgardi: endi xalqaro moliyaviy kapital operatsiyalari erkinligigina asosiy rol o‘ynay boshladi.

Natijada, birinchidan, yangi turdagi moliyaviy markazlar shakllandi va rivojlanmoqda; ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar miqyosida yangi turdagi moliyaviy markazlar yuzaga keldi, uchinchidan, soliq oazislari bazasida ofshor moliyaviy markazlar deb ataladigan markazlar mustahkamlandi.

Xalqaro moliyaviy markazlarning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarda joylashgan bo‘lib, ular turli vaqtlarda mamlakatning kapitalni olib chiqishdagi faoli roli bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Oldingi moliyaviy markazlar bir vaqtda milliy kapital bozorlari ham bo‘lishgan va kam darajada – xalqaro moliyaviy operatsiyalar to‘plangan joyi hisoblangan. YAngi turdagi markazlar birinchi navbatda xalqaro moliyaviy oqimlarni va xalqaro bozorlarni valyuta, kredit, fond, oltinlarni boshqarish punktlari hisoblanadi.

Ma‘lumki, qadimiy moliyaviy bozor London hisoblanadi, u bugungi kunda ham xalqaro biznesda etakchilik o‘rnini saqlab qolmoqda. Bu erda eng yirik valyuta bozori faoliyat yuritadi, eng yirik fond birjalaridan biri amal qiladi, oltin xalqaro bozori va boshqa bir qator muhim tovarlar bozorlari joylashgan. London xalqaro sug‘urta markazi sifatida ham juda mashhur. London-Siti Britaniya bank tizimining baquvvat yadrosigina emas, shuningdek, xorijiy banklar faoliyati uchun eng qulay imkoniyatlar ochiq bo‘lgan joy hamdir. Londonda turli mamlakatlarning ko‘p miqdorli filiallari va bo‘linmalari ham jamlangan. London-Sitining farqli xususiyatlaridan yana biri uning universalligi hisoblanadi. qadimiy turdagi boshqa moliyaviy markazlar ixtisoslashgandir: TSyurix – emissiya va evroobligatsiya muomalasi, Parij – xalqaro banklararo operatsiyalar, Lyuksemburg – baynalminal kredit bitimlari va boshqalar.

AQSHda moliyaviy markazlarning o'ziga xosligi bu mamlakatning ikkinchi jahon urushidan keyingi jahon xo'jaligi, moliyaviy aloqalardagi ahamiyatli rolini aks ettiradi. Amerika banklari eng yirik banklar hisoblangan. Bundan tashqari, bu mamlakatdagi davlat bank boshqaruvi spetsifikasi xalqaro kredit operatsiyalari o'tkazishga to'sqinlik qilgan. Vatanida cheklangan AQSH banklari uzoq muddat bu biznesda o'zlarining chegara ortidagi bo'linmalari orqali ishtirok etganlar (aynan mana shu narsa dastlabki TMB larning amerika erida yuzaga kelishi bilan bog'liq). Bunday vaziyat mamlakatning yirik bank kapitali manfaatlariga mos kelmaydi. Uning bosimi ostida AQSH hududida xalqaro moliyaviy markaz tashkil qilish mo'ljallandi.

1981 yilda moliyaviy sohada milliy raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida erkin bank hududini yaratish haqida qaror qabul qilindi. Bu hududda qayd qilingan banklarga har qanday xorijiy bankdan yoki boshqa moliyaviy institutdan (jumladan, markaziy bankdan ham) o'zlashtirishga; xorijiy rezidentlardan, AQSH korporatsiyalarining xorijiy filiallaridan, o'z xorijiy bo'linmalaridan kredit olishga ruhsat berildi. Bu banklarning aktiv va passivlari har qanday valyutada, jumladan, xorijiy banklardagi dollar depozitlari bazasida yuzaga kelgan evrodollarda ham aks etishi mumkin. hududdagi xorijiy banklar amerika soliqqa tortishidan ozod qilingan.

Bu AQSH da yangi turdagi xalqaro moliyaviy markazlar yaratish bo'yicha birinchi qadam bo'ldi. Dastlab hudud faoliyati N'yu-Yorkda jamlandi, keyin esa, ular mamlakatning boshqa hududlariga ham tarqala boshladi. SHunday qilib, amerika bank hududi mamlakat ichida eksterritorialdir. U AQSH chegarasida "erkin bank hududi" nomini olgan. Operatsiyalarning katta qismi bu erda norezidentlar bilan; qolgan qismi rasmiy ravishda xorijiy (norezident) hisoblangan amerika banklari bo'linmalari bilan olib boriladi. Ularning barchasi evrodollarlar bilan operatsiyalar olib borish huquqiga ega, rezerv talablari me'yorlarini, foiz stavkalari balandligini kuzatishga majbur emas, soliqlardan qisman ozod etilgan.

Amerika moliyaviy markazi universal bo'lib, u erda bir xil faollikda bo'lmasada, operatsiyalarning ko'pgina turlari amalga oshiriladi. Agar valyuta bozori bu erda London bozorlariga ochiqdan-ochiq yon bossa, jamg'arma qimmatliklarining amerika bozori dunyoda etakchi hisoblanadi. Mamlakatda xalqaro miqyosda ahamiyatli bo'lgan, kapital bozorlari markazlaridan biri hisoblangan monitar oltin bozori faoliyat yuritadi

1960-1970 yillarda xalqaro kapitalistik xo'jalikda YAponiya rolining kuchayishi bilan Tokio xalqaro moliyaviy markaz atributlarini egallay boshladi. Uning ahamiyati YAponiya netto-kreditor bo'lgan yirik mamlakatga aylanganligi sababli yanada oshdi. Bundan tashqari, xalqaro miqyosdagi yirik Tokio moliyaviy markaziga qat'iy davlat nazorati va milliy bozor boshqaruvi uzoq vaqt qarshilik ko'rsatdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi birinchi o'n yillikda rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy markazlar paralel emas, aksincha bir-biri bilan kuchli raqobat ostida shakllandi va rivojlandi. g'arbiy Evropada moliyaviy markazlar tarmog'ida etakchilik uchun kuchli kurash boshlandi, ularning faoliyat ko'rsatishi mamlakatlarga katta daromad keltiradi. Londondagi qadimiy xalqaro moliyaviy

markazlar va ularning Parijdagi, Tsyurixdagi, keyinroq esa Frankfurt-na – Maynedagi “opponentlari” oʻrtasidagi raqobat natijasida TMK lar, ayniqsa TMB lar hal qiluvchi rol oʻynay boshladilar. Aynan ular bu moliyaviy markazlarda milliy bozorlardan tashqarida ssuda kapitalining katta qismini jamladilar va shu erdan turib uning xalqaro joylashuvini yoʻnaltirdilar. Bu erda qimmatli qogʻozlarning xalqaro aylanmasi va emissiya, yirik hajmdagi valyuta operatsiyalari mujassamlandi.

TMK va TMB nuqtai nazaridan Londondagi xalqaro moliyaviy markaz, baribir juda qulay hisoblanadi. Juda qadimiy boʻlishiga qaramay, u rivojlangan infratuzilmaga ega.

Xalqaro biznes uchun Londonning eng muhim argumenti quyidagilar hisoblanadi: SHaharning xalqaro moliyaviy markaz sifatidagi universalligi, va uning 1960-1970 yillardagi boshqa markazlarga qaraganda iqtisodiyotning davlat boshqaruvidagi milliy tadbirlarga bogʻliqligining kamligidir.

Xalqaro bozor mexanizmining keyingi rivojlanishi baynalminallik, keyin esa sanoati rivojlangan etakchi mamlakatlar xalqaro moliyaviy bozolarining globallasuvi belgisi ostida yuz berdi. Bu jarayonlarga kirishishda mazkur mamlakatlarda bir-biri bilan raqobatlashayotgan moliyaviy markazlar xalqaro biznesga xizmat qiluvchi yagona tuzilmani tashkil qildilar. Boshlangʻich asosda bunday tuzilmani tuzishga mamlakatlardagi davlat boshqaruvi tizimi doirasida reglamentli cheklovlar qarshilik koʻrsatdilar.

1980 yillarda rivojlangan mamlakatlar xalqaro xoʻjalikni globallashtirishning obʻektiv bosimi ostida oʻz moliyaviy bozorlarini erkinlashtirishga majbur boʻldilar: mamlakatlararo kapital harakatidagi toʻsiqlarni olib tashlash, xorijiy moliyaviy muassasalar uchun risklarni kamaytirish boʻyicha talablarni va soliqqa tortishni yumshatish, operatsiyalarning maʼlum koʻrinishlari uchun cheklovlarni olib tashlash va boshqalar.

SHu munosabat bilan xalqaro moliyaviy markazlar oʻrtasidagi raqobat kurashi boshqa yanada murakkabroq shaklga ega boʻldi. Ularning yagona xalqaro tizimga integratsiyasi bilan bir vaqtda ularning har birining amal qilishi dereglamentatsiyasining dinamikligi va chuqurligi boʻyicha hamkorligi rivojlandi.

Bu yoʻnalishda AQSH dastlabki qadamlarni qoʻydi, chunki bu erda moliyaviy kapital evrobozorlarning va harbiy Evropa moliyaviy markazlarining mustahkamligi tufayli ancha xavfsiz edi.

AQSH bilan qadam baqadam depozitlar va kreditlar boʻyicha “potolok” deb nomlangan foiz stavkalari bekor qilindi, foizlarni joriy hisoblar boʻyicha hisoblashga ruhsat berildi, amerika bozorida chiqarilgan xorijiy obligatsiyalar boʻyicha foizlarga qoʻyilgan juda yuqori soliqlar olib tashlandi.

Amerika bozorini erkinlashtirish boʻyicha koʻrilgan bu va boshqa chora-tadbirlar uning raqobatbardoshligini oshirishga va xalqaro investorlarning AQSH moliyaviy markazlariga qiziqishlarini yanada faollashtirishga yoʻnaltirilgan.

Globallasuv sharoitida amerika moliyaviy markazlari koʻpgina cheklovlarni maqsadga yoʻnaltirilgan tarzda olib tashlanishi tufayli markazlarning xalqaro tuzilmasiga yozildi, va bundan tashqari, juda muhim tarmoqda etakchilik qila boshladi. Aynan mana shu erda kapital bozorining yangi boʻshligʻi yuzaga keldi:

qimmatli qog'ozlar chiqaradigan moliyaviy fyucherslar, opsiyonlar bozorlari. 1980 yildan boshlab AQSH dagi moliyaviy markazlarning ko'pgina yangi moliyaviy institutlarni davlatlararo amaliyotda yaratish va joriy qilish bo'yicha tengi topilmadi.

Okeanorti raqobatga duch kelgan Evropadagi etakchi London moliyaviy markazi moliyaviy bozorlarni erkinlashtirishga kirishdi. Bu 1980 yillarda Buyuk Britaniya iqtisodiyotida davlat roli pasayishining umumiy kursi bilan muvofiq keldi. Birja operatsiyalarining katta qismini N'yu-Yorkka joylashtirishning oldini olish maqsadida xorijliklar uchun birja savdosi qoidalari ancha soddalashtirildi, davlat qimmatli qog'ozlariga kirish osonlashtirildi. 1979 yilda bekor qilingan valyuta nazorati, 1980 yillardagi moliyaviy bozorning liberal islohotlari Sitiga yanada ko'proq yangi xorijiy moliyaviy institutlarni jalb qildi.

London nafaqat xalqaro moliyaviy markaz sifatida mustahkamlandi, balki, AQSH dagi markazga innovatsiyalar sohasida jiddiy raqobatchi sifatida ham gavdalandi. Qaytadan tartibga solish bo'yicha Parijdagi moliyaviy markazlar ham AQSH va Buyuk Britaniya ketidan bordi. Frantsiyada bank faoliyati reglamentatsiyasi an'anaviy tarzda juda qat'iy tus oldi. Davlat tijorat banklariga foiz stavkalari darajasi belgilandi, kreditlarning alohida ko'rinishlari hajmi tartibga solindi, banklarning valyuta operatsiyalari nazorat qildi. 1980 yillarning o'rtalarida bank sohasini erkinlashtirish va modernizatsiya qilish boshlandi. Modomiki, frantsuz moliyaviy bozorlarining dastlabki holati ko'p jihatdan davlatga bog'liqligi bilan xarakterlansada, bu erdagi o'zgarishlar boshqa Evropa mamlakatlariga qiyoslaganda alohida radikal edi.

Parij birjasi, frantsuz banklari, qimmatli qog'ozlarning turli ko'rinishlari norezidentlar uchun juda qulay bo'ldi. Parijdagi xalqaro moliyaviy markaz innovatsiyalarga erishdi va shu asosda London va Amerika markazlari bilan aloqalarini mustahkamladi.

FRGning mustahkam bozor iqtisodiyoti moliyaviy bozorni rivojlantirish ma'nosida juda o'ziga xos ko'rinadi. Frantsuz iqtisodchisi Mishel Pebro buni "german paradoksi" deb atadi: "Germaniya moliyaviy bozorlari ular moliyalashtirishlari kerak bo'lgan iqtisodiyotga mos kelmaydi... German banklari va moliyaviy bozorlari novatorlik nufuziga ega emas".

Gap shundaki, bu mamlakatda moliyaviy barqarorlikka juda katta ahamiyat beriladi, bu esa, juda qat'iy valyuta va boshqa cheklovlarga olib keladi. SHu bilan birga moliyaviy bozorda etakchilik qiladigan yirik nemis banklari juda konservativ bo'lib, aniq vaqtgacha xorijliklar va innovatsiyalar kirishiga ko'nika olmadilar.

YAgona Evropa bozorining o'rnatilishi va jahon xo'jaligi globallashtirishining umumiy jarayoni Germaniya moliyaviy bozorini erkinlashtirishga olib kelmay iloji yo'q edi, bu esa Frankfurt- na- Maynening xalqaro moliyaviy markaz sifatidagi o'rnini yaxshilaydi. Buyuk Britaniya va Frantsiyadan sal keyinroq FRGda norezidentlarning obligatsiyalarga kirishi soddalashtirildi, emissiya va qimmatli qog'ozlarning bir qator ko'rinishlarining muomalasiga ruhsat berildi, moliyaviy innovatsiyalarni joriy qilish faollasha bordi. YAngi asrda Germaniya o'z moliyaviy tizimini globallashtirish vaziyatiga yanada chuqurroq moslashtira oldi, frankfurt moliyaviy markazi xalqaro markazlar tizimiga muvaffaqiyatli integralashdi.

Evropa hamjamiyatining yaratilishi va rivojlanishi yangi jarayonni – ko‘p qarama-qarshiliklarga qaramasdan yanada ravshanroq namoyon bo‘layotgan Evropa moliyaviy markazlari integratsiyasini bir necha marta tezlashtirdi.

Davlat boshqaruvining erkinlashtirilishi moliyaviy markazlar ko‘rinishlarini o‘zgartirdi. Jahon xo‘jaligini globallashtirish rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi moliyaviy markazlarga ikki yo‘nalish bo‘yicha ta’sir ko‘rsatdi:

ular ishtirokchilar tarkibi, olib borilgan operatsiyalar, foydalanilgan moliyaviy operatsiyalar bo‘yicha bir-birlariga oldingiga qaraganda bir necha marta o‘xshash bo‘la boshladilar. Bu ularning orasida raqobat yo‘qolganligini bildiradi;

Evropa, AQSH va Yaponiya moliyaviy institutlari o‘rtasidagi aloqalarning xarakteri o‘zgardi (keyingisi ham oldingilariga qaraganda sekin va kuchsiz bo‘lsada, erkinlashtirilmogda). Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti miqyosida ham xalqaro moliyaviy markazlar vujudga kela boshladi.

Jahon iqtisodiyotini globallashtirish taraqqiyoti shunga olib keldiki, moliyaviy bozorlarning shakllanishi u joylashgan mamlakatning xo‘jalik rivojlanishi darajasiga, mahalliy valyuta holatiga va milliy kredit-bank tizimi holatiga bog‘liq bo‘lmadi. Moliyaviy operatsiyalar ustidan davlat boshqaruvining yo‘qligi, erkin valyuta qonunchiligi, soliqlarning va operatsion xarajatlarning pastligi juda katta rol o‘ynadi. SHunday qilib, xalqaro toifadagi Panama, Singapur, Gongkong va boshqa moliyaviy markazlar vujudga keldi. Bu erda banklararo, kredit, valyuta va fond bozorlari faol amal qilmoqda.

Jahon xo‘jaligi doirasidagi moliyaviy markazlarning boshqa guruhi soliq va moliyaviy oazislar deb ataladi. Bu erda operatsiyalarning asosiy qismi norezidentlarga to‘g‘ri keladi va mazkur mamlakat uchun xorijiy hisoblangan valyutada yuritiladi. Bunday moliyaviy markazlar Bogam, Kayman orollarida, Men va Kipr orollarida faoliyat yuritadilar. Ofshorlarda, qonunga ko‘ra, shaxsiy rivojlangan valyuta, kredit va fond bozorlari yo‘q. Davlat boshqaruvi erkinlashtirilganligiga qaramasdan, jahon xo‘jaligining globallasuvi sharoitida ofshor moliyaviy markazlarning roli oshmoqda. Ularning soliq va boshqa afzalliklaridan foydalangan ko‘pgina TMK va TMB lar ularda nafaqat o‘z sho‘ba korxonalarini, shuningdek, ko‘p hollarda o‘z shtab-kvartiralarini ham rasmiylashtirganlar.

Afsuski, ofshor biznesni Rossiya kompaniyalari ham o‘zlashtirganlar, bunda ular o‘z daromadlarini katta soliqlardan saqlaganlar.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotni globallasuv sharoitida xalqaro moliyaviy operatsiyalarning o‘sib borayotgan qismi xalqaro moliyaviy markazlar o‘rtasida bitimlar shakliga ega bo‘ladi.

15.6. Xalqaro moliyaviy bozorlarni globallasuvining natijalari.

Moliyaviy globallasuv – bu ziddiyatli jarayondir. SHubhasiz u jahon iqtisodiyoti uchun juda ijobiy natijalarni olib keladi. Ulardan eng asosiysi xalqaro ishlab chiqarishni, savdoni, iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini moliyalashtirishning baquvvat salohiyati va to‘g‘rilangan mexanizmini yaratish hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida barcha moliyaviy bozorlar bu mexanizmlardan global miqyosda foydalanadilar va uni yangi texnologiyalarni qo'llash hisobiga modernizatsiya qiladilar. Dunyoning iqtisodiy yaxlitligi moliyaviy axborotlar amalda bir lahzada uzatilishi, xalqaro bozorlar va moliyaviy markazlar eng zamonaviy aloqa vositalari bilan birlashganligi va bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda tunu-kun chambarchas faoliyat yuritayotganligi tufayli shakllanib bormoqda.

Dunyo bo'yicha xalqaro miqyosdagi moliyaviy oqimlar bilan birgalikda yangi texnologiyalar ham kirib kelmoqda. Ko'p mamlakatlarda iqtisodiy tizim modernizatsiya qilinmoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar guruhida xalqaro moliyaviy bozorlarning globallashuvi tomonidan himoya qilinadigan valyuta kursining nisbatan barqarorligi kuzatilmoqda.

Bu bozorlardagi hodisalarning rivojlanishi xalqaro miqyosda moliyaviy resurslarni joylashtirishni oldingidan ko'ra samaraliroq ta'minlaydi. Kapitallarga talab va taklif o'zaro muvofiqligi milliydan ortiqroq darajada shakllanadi, u investitsiyalardan yanada yaxshiroq foydalanishni nazarda tutadi. Yirik kompaniyalar o'z moliyalashtirish ehtiyojlarini qisman bo'lsada, o'z mamlakati ichki bozorida ham qondiradi. Kapitalning xuddi mana shunday qo'yilmalari butun jahon xo'jaligi doirasida juda foydali bo'ladigan joyda amalga oshiriladi.

Xalqaro moliyaviy bozorlarni globallashuvi ko'pgina moliyaviy innovatsiyalarni vujudga keltirdi, valyuta, kredit, fond operatsiyalarining riskini kamaytirish imkonini beradigan yangi murakkab moliyaviy instrumentlari yuzaga keldi. Yirik investorlarning global investitsion dasturlari alohida mamlakatlar doirasida oldingi kapital qo'yilmalariga nisbatan biznes rejada ancha xavfsiz hisoblanadi. Korporatsion moliyaviy boshqaruv globallashayotgan xalqaro iqtisodiyotning yangi asoslariga etarli darajada dinamik tarzda moslashadi.

SHu bilan birga o'tgan asrning oxiriga kelib xalqaro iqtisodiyotning globalashuvi muvaffaqiyatlari bo'yicha eyforiyalar, shubhasiz o'z nihoyasiga etdi. Buning ustiga aynan moliyaviy soha xalqaro iqtisodiyotning destabillashuvi fokusida bo'lgan.

YUqorida ta'kidlangan, mamlakatlararo aylanib yuradigan "qaynoq" moliyaviy oqimlar globallashayotgan moliyaviy oqimlar qanchalik darajada beqarorligini ko'rsatuvchi keng qamrovli moliyaviy inqirozlarga olib keladi.

Globallashuv xalqaro qarzdorlik muammosini bir necha bor kuchaytiradi, alohida mamlakatlarning milliy pul siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiyalar riskini kamaytiradigan tezkor innovatsiyalar va yangi moliyaviy instrumentlarga bu risklarni haddan ziyod oshirib yuboradigan moliyaviy biznesning globalligi va nazoratsizligi qarma-qarshi turadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar uchun moliyaviy bozorlarni globallashuvidan foyda butun dunyo hamjamiyatiga mutlaqo yoyilmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning valyuta, kredit, fond bozorlaridagi vaziyat nobarqarorligicha qolmoqda. Xalqaro moliyaviy sohadagi bosh harakatlanuvchi shaxslar – TMK va TMB lar – barchaga ma'lum bo'lgan iqtisodiy besaromjonlik va ko'pgina o'nlab mamlakatlarning xo'jalik hayotiga ziddiyatlarni keltirganlar va bugun ham keltirib chiqarishda davom etmoqdalar.

Aynan moliyaviy doirada globallashtirish kam mamlakatlarga va uning xalqlariga foyda keltirmoqda, ko'pchiligi esa bundan zarar ko'rmoqda. Iqtisodiyotning globallashtirish kirishishiga qo'shilish uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari qobiliyatsizligining o'sib borayotganligi faktini ta'kidlash mumkin.

Xalqaro moliyaviy sohani globallashtirish iqtisodiyotni davlat boshqaruvining milliy tadbirlarini erkinlashtirishga ham olib keldi. Bundan tashqari, tashqi boshqaruvning har qanday shaklidan ozod bo'lgan iqtisodiy jarayonlar ko'pincha xavfli bo'lib qolmoqda. Paradoks vaziyat yuzaga keldi. Erkinlashtirishga qaramasdan, barcha rivojlangan mamlakatlarda milliy moliyaviy bozorlar ishlab chiqarish va savdo hamda tashqi bozorlarga qaraganda qat'iy boshqarilmoqda.

SHu bilan birga xalqaro milliydan tashqaridagi moliyaviy operatsiyalar, yirik moliyaviy oqimlar, xalqaro moliyaviy markazlar nafaqat boshqarilmaydi, shuningdek, ba'zi paytlarda hatto tashqaridan oddiy nazorat ham qilinmaydi. Axir butun dunyoda milliylikdan ustun bo'lgan darajada mamlakatlar markaziy banklari vazifalariga o'xshash vazifalarni bajaradigan moliyaviy institut yo'q.

Bank sohasida rezerv talablarini unifikatsiya qiladigan, bank reviziyasining yagona uslubiyoti bo'lgan depozitlarni sug'urtalash xalqaro tizimi yo'q. Bank bankrotligi haqida milliylikdan ustun bo'lgan darajada umumiy yoki hech bo'lmasa koordinatsiyalangan qonunchilikning etishmayotganligi aniq ko'rinib turibdi. Bu dunyoda banklarning juda zichligi sharoitida juda muhim. Bu erda gap dunyodagi kapital harakatini cheklash haqida emas, investitsiyalar tuzilmasini tartibga solish zarurligi haqida bormoqda.

Bunda CHilini misol qilib keltirish kifoya. U erda qisqa muddatli portfelli investitsiyalar oqimiga ("qaynoq pullar") cheklovlar joriy qilingan edi. Natijada mamlakatga joylashtiriladigan xorij kapitali hajmi pasaymadi, bu kapital qo'yilmalarining o'rtacha muddati esa tezda oshib ketdi.

Jahon xo'jaligini globallashtirish doirasida xalqaro moliyaviy bozorlarni tartibga solishning eng jiddiy muammosini alohida mamlakatlarning kuchi bilan hal qilib bo'lmaydi. Milliylikdan ustun bo'lgan, jarayon qamroviga o'xshash chora-tadbirlar zarur.

Xalqaro valyuta fondi o'z maqomi bo'yicha globallashtirish moliyaviy bozorlarni xalqaro tartibga solish tizimini konstruksiya qilishdek murakkab muammosi bilan shug'ullanmayapti. Kreditorlarning London va Parijdagi klublari boshqarilmaydigan moliyaviy oqimlarni, ayniqsa "qaynoq pullar"ni tartibga solish bilan band emas. Bundan tashqari, moliyaviy sohada globallashtirish jarayoniga milliylikdan ustun bo'lgan koordinatsiyalangan yordam ko'rsatish ehtiyoji yanada muhim bo'lmoqda. Buni xattoki, bu jarayonning afzalliklaridan ozmi-ko'pmi foydalanayotgan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ham his qilmoqdalar.

Bozori rivojlanayotgan mamlakatlar juda murakkab vaziyatni boshdan kechirmoqdalar, ularga Rossiya ham kiradi. Bizning va shunga o'xshash boshqa mamlakatlar uchun dunyoda globallashtirish jarayonlari kechayotgan bir paytda milliy moliyaviy bozorlarda barqarorlikni saqlash jiddiy ichki o'zgarishlarni talab qiladi. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh milliy moliyaviy tizimni butunlay qayta qurishni nazarda tutadi, u quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- bank qonunchiligini takomillashtirish va qat'iy bajarish;
- fond bozori munosabati bo'yicha ham xuddi shunday;
- moliyaviy soha oshkoraligini ta'minlash;
- moliyaviy soha amal qilish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish;
- kuchsizni himoya qilish emas, berkitish va etarlicha barqaror moliyaviy muassasalarni rag'batlantirish;
- moliya ishida operatsiyalarning samarali instrumentlari va mexanizmlarini joriy qilish va boshqalar.

Ikkinchi guruh mamlakat ichidagi moliyaviy oqimlar harakatiga, shuningdek, xorijiy kapitalning oqib kirishi va joylashishiga davlat yordamining qat'iy va aniq tizimini joriy qilishni o'z ichiga oladi. Unisi ham bunisi ham bozor iqtisodiyoti doirasiga kiradi va ko'pgina bozor mamlakatlari amaliyotida qo'llaniladi. Bu erda masala shundaki, mamlakat ichidagi bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy erkinlashtirish darajasidadir, bunda xalqaro darajadagi yuqori harakatchanlikka va bashorat qilib bo'lmaydigan qisqa muddatli moliyaviy oqimlar hisobga olinadi. Ko'z ilg'amas moliyaviy erkinlashtirish, davlatning ichki milliy xo'jalik va chegaralar orqali kapitallar harakati ustidan nazoratining butunlay yo'qligi juda katta zarar keltirishi mumkin.

SHubhasiz, davlat boshqaruvining quyidagi yo'nalishlari zarur:

- real iqtisodiyot tarmog'idagi investitsiyalar uchun qulay shart- sharoit yaratish;

- to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish, ularning tarmoq yo'nalishlarini tartibga solish;

- xorijiy qisqa muddatli kapital oqimini cheklash, ularning qamrovi va foydalanish shakllari ustidan qat'iy nazorat o'tkazish;

- xorijiy portfelli investitsiyalar bilan bog'liq risklarni baholash;

moliyaviy boshqaruvning xorijiy organlari bilan moliyaviy oqimlar harakati ustidan xalqaro nazorat tizimini shakllantirish maqsadida hamkorlik qilish. Rossiya iqtisodiyotining moliyaviy sohadagi globallashuvning salbiy oqibatlari keltirib chiqargan zaif tomonlarini bartaraf etishning ayrim mumkin bo'lgan yo'nalishlari shulardan iborat.

Qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, moliyaviy bozorlar hozir xalqaro xo'jalikning eng dinamik tarmog'ini o'zida mujassamlashtiradi. Iqtisodiy globallashuv rivojlanishining hozirgi bosqichining ob'ektiv ehtiyoji bo'libgina qolmasdan, shuningdek, moliyaviy bazaga ham muhtoj. Bir tomondan, kapital, valyuta, qimmatli qog'ozlar xalqaro bozorlarining tezlik bilan shakllanishi globallashayotgan jarayonlarning xarakatlantiruvchi kuchlari sifatida muhim rol o'ynaydi. Ikkinchi tomondan, jahon xo'jaligining globallashuv taraqqiyoti bilan uning xalqaro moliyaviy bozorlar, ularning qamrovi, tuzilmasi, ishtirokchilari tarkibi va ularning operatsiyalariga aylanma ta'siri kuchaytiriladi. Xalqaro moliyaviy bozorlarning amal qilishiga olib keluvchi moliyaviy globallashuv, ayni kunlarda yaxlit iqtisodiy globallashuvning yadrosiga aylandi. Xo'jalik hayotining baynalminallashuvi rivojlanishi bilan mamlakatlararo moliyaviy bozorlar orasidagi aloqalar yanada mustahkamlandi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Xalqaro moliyaviy bozorlarni vujudga kelishining tarixiy bosqichlari?
2. Iqtisodiy faoliyatni global transformatsiyalashuvining shakllari?
3. Moliyaviy bozorlarning globallasuvi kapitalizm genezisi davrida bshlganmi?-izohlab tushuntiring?
4. XVFnig tashkil etilishining asosiy sabablari?
5. XVFEHTBlari qachon taʼkil etilgan va ularning maqsadi?
6. Moliyaviy bozorni oʻzi nima?
7. Xalqaro moliyaviy tashkilotlarni transmilliylashuv jarayonlarini tushuntiring?
8. Xalqaro moliyaviy bozorlarni rivojlanishi haqida tushuncha bering?
9. Globallashtirish jarayonida xalqaro moliyaviy bozorlarni vazifalari nimalardan iborat?
10. Jahon xoʻjaligida qanday xalqaro moliyaviy markazlar mavjud?
11. Xalqaro moliyaviy bozorlarni globallashtirish natijalari qanday yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi?
12. Moliyaviy oqimlar deganda nimani tushunasiz?

Bibliografik maʼlumotnoma:

1. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. "Global iqtisodiyot" (Oʻquv qoʻllanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –bet.
2. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktaria press, 2015. -584 b.
3. Xodiev B.YU., SHodmonov SH.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: —Barkamol fayz media , 2018. – 783 bet.
4. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva: Ucheb. posobie / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. M.N. Osmovoy, kand. ekon. nauk, dots. A.V. Boychenko. - M.: INFRA-M, 2006. - VIII, 376 s.
5. Globalnoe ekonomicheskoe regulirovanie : uchebnik / pod G54 red. prof. V. N. Zueva. — M. : Magistr, 2009. — 574 s.

16-Mavzu. GLOBAL IQTISODIY TIZIMDA XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI.

Reja:

16.1. Global iqtisodiy tizimda xalqaro turizmning xususiyatlari va uning integratsiyasi.

16.2. Xalqaro turizmdagi zamonaviy tendentsiyalar va uning yangi turlari.

16.3. BMTning jahon sayyohlik tashkiloti(BMTJST) va uning tarkibiy tuzilishi.

16.4. Xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratilgan asosiy tadbirlar va ularning amalga oshirish mexanizmlari.

16.5. BMTJST va boshqa tashkilotlar hamda uning istiqbollari va

16.1. Global iqtisodiy tizimda xalqaro turizmning xususiyatlari va uning integratsiyasi.

Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida vujudga kelgan raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy turizmni rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri - bu xalqaro sayyohlik oqimining turli mintaqalar va mamlakatlarda notekis taqsimlanishidir. Sayyohlik oqimi dunyoning bir necha mintaqalarida to'plangan, ularning harakati asosan mintaqalararo xarakterga ega. Turistik oqimlar asosan Evropa va Osiyoda to'plangan. SHu bilan birga, YAngi Dunyo mamlakatlarining sayyohlar almashishidagi roli oshib bormoqda.

Hozirgi vaqtda quyidagi nisbatlar kuzatilmoqda: ommaviy yoki guruhli turistlar, umumiy sayyohlar sonining 20-30% ini tashkil qiladi; qolgan 70-80%-yakka davlatlarga sayohat qiladigan yakka sayyohlardir. So'nggi yillarda bu nisbat ommaviy turizm foydasiga o'zgarmoqda, buning sabablari quyidagicha: ketma -ket ta'til kunlari sonining kamayishi va shu bilan birga ta'tillarning ko'payishi; havo transportining arzonligi; charterli reyslar sonining ko'payishi; turoperatorlarning ommaviy turizmga bo'lgan qiziqishining ortishi; katta afzalliklarga ega bo'lgan yangi yo'nalishlarni qidirish; ommaviy turizmda ish o'rinlari sonini ko'paytirish; avtobusda sayohat qiladigan sayyohlar sonining ko'payishidir.

Dam olish maqsadida sayohatlar miqdori biznes-turizm miqdoriga nisbatan ancha dinamik ravishda o'sib bormoqda. Agar XX asrning 70-yillarida ishbilarmonlar, ya'ni biznes segmenti xalqaro sayyohlik bozorida ustunlik qilgan bo'lsa, hozirgi paytda bu nisbat rekreatsion turizm tomonga o'zgardi: sayyohlarning 60 foizi hordiq chiqarish uchun, faqat 40 foizi tijorat maqsadida. Ishbilarmonlik turizmining umuman jahon sayyohligi uchun muhim bo'lishiga qaramay, turizmni rivojlanishi asosan dam olish uchun sayohatchilar sonini ko'payishi hisobiga amalga oshadi deb taxmin qilish mumkin.

XX asr oxiriga va XXI asr boshlariga kelib, xalqaro sayohat paytida qolish muddati va yil davomida qilingan sayohatlar sonining ko'payish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Birinchisi, asosan, keksa sayyohlar, pensionerlar soniga bog'liq. SHu bilan birga, jahon turizmida dam olish kunlari yoki 2-3 kechada qisqa muddatli sayohatlar sonining ko'payishi ham kuzatilmoqda. Bu o'z ish joylarida uzoq vaqt uzilishlar bo'lmasligi uchun bir necha kunlik sayohatga chiqmoqchi bo'lgan yosh sayyohlar hisobidan amalga oshmoqda.

Mijozlarning xizmatlarga bo'lgan talabi oshmoqda. Bu, ayniqsa, sayyohlar tobora ko'proq sayohat qilib, zamonaviy xizmatlar haqida bilib olishlariga to'g'ri keladi. Sayyohlar qanchalik tez -tez sayohat qilsalar, shuncha qulaylikni

xohlaydilar, ko'rsatiladigan xizmat darajasini taqqoslaydilar, ko'pincha biror narsani tanqid qiladilar, shikoyat qilishni talab qiladilar.

Keyingi yillarda aholining harakatchanligi ancha oshdi. Ko'pchilikda mashinalar bor, ularni joyidan osongina olib ketish va sayohat qilish mumkin. Sayohat xarajatlari oshdi va sayohatchilar sayohat paytida ko'proq pul sarflay boshladilar. Hozirgi vaqtda noan'anaviy turar joy uylari mashhur - tog ko'chma uychalari, ovchilik uylari, avtouylar va boshqalar. Turistik mahsulot yanada takomillashib bormoqda. So'ngi yillarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu gorizontal va vertikal deb ataladigan, ya'ni alohida kompaniyalar kapitalining tashqi sayyohlik bozorlariga birlashishi yoki shu kabi korxonalarni yoki tegishli (sherik) kompaniyalarni qo'shilish orqali faol kirib borishi bo'lib hisoblanadi.

Gorizontal integratsiya - bu bir hil kompaniyalarni birlashtirish yoki sotib olish yo'li bilan alohida kompaniyalar kapitalining tashqi turizm bozorlariga konsolidatsiyasi va faol kirib borishidir. Bu, ayniqsa, mehmonxona biznesi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, SHeraton, Mariotte, Novotel, Sofitel, Hilton va boshqalar kabi mehmonxona zanjirlari butun dunyoda keng tarqalganini hamma biladi. Yirik mehmonxona korporatsiyalari ko'chmas mulkni sotib olish, franchayzing shartnomalari, boshqaruv shartnomalari orqali tashqi bozorga faol kirib boradilar.

Hozirgi vaqtda SHimoliy Amerika va Evropada uch mingdan ortiq mehmonxona tarmog'i mavjud, ularning har biri kamida o'n kishidan iborat. Ulardan eng kattasi reytingini «Hotels» jurnali muntazam nashr qilib turadi. U mehmonxona tarmog'ining uch turini ajratadi: *korporativ kompaniyalar, mehmonxona boshqaruvi kompaniyalari va mustaqil mehmonxonalar uyushmalari.*

Vertikal integratsiya - bu turistik xizmatlarning turli sohalarida kompaniyalarning birlashishi yoki qo'shilishi orqali kapitalning tashqi bozorga konsolidatsiyasi va kirib borishidir. Turizmdagi integratsiyaning bu turini mavjud uchta Evropa modeli misolida ko'rib chiqish mumkin: nemis, ingliz va frantsuz.

Kontsentratsiya(ulkanlashuv) jarayonlari nafaqat gorizontal va vertikal yo'nalishda, balki **diagonal** yo'nalishda ham sodir bo'ladi. Birinchi ikkisidan farqli o'laroq, **diagonal integratsiya yoki diversifikatsiya deyilib funktsional va texnologik jihatdan bog'liq bo'lmagan korxonalarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi.** Ko'p tarmoqli tuzilmalar bitta katta afzalliklarga ega. Ular moliyaviy va iqtisodiy xatarlarni o'zaro kompensatsiya qilish imkoniyatini yaratadi, bunda ba'zi tarmoqlarning zarari boshqalarning foydasi bilan qoplanadi.

Keyingi yillarda mehmondo'stlik sanoatining ko'plab korxonalari yirik iqtisodiy komplekslarga birlashib, alohida mintaqalar chegaralaridan o'tib, milliy to'siqlarni buzilishiga olib keldi. Qisqa vaqt ichida ular xalqaro hayotning ko'zga ko'ringan hodisasiga aylandi va o'rab oluvchi iplar to'ri singari dunyo makonlarini

qamrab oldi va ishlab chiqarish hamda kapitalning yuqori darajadagi konttsentratsiyasi va markazlashuviga mos keladigan bu yangi raqamli iqtisodiy tuzilmalar turistik xizmatlarning xalqaro standartlarini o'rnatish va tarqatishga yordam beradi. Sayyohlik biznesidagi bunday jarayonlar raqamli texnologiyalardan foydalangan holda olib boriladigan tadqiqotlarga alohida talablarni qo'yadi.

16.2. Xalqaro turizmdagi zamonaviy tendentsiyalar va uning yangi turlari.

Zamonaviy sayyohlik biznesini tegishli axborot vositalari yordamisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hatto eng oddiy turni ishlab chiqish ham katta hajmdagi ma'lumotni talab qiladi. Bunday ma'lumotlarga, xalqaro yoki ichki yuk tashish jadvallari va tariflari, xizmatlar narxi, mehmonxona klassi va boshqa turistik xizmatlar kirardi. Ilgari, firma bunday ma'lumotlarni maxsus tuzilgan ma'lumotnomalar to'plamidan olgan. Ularni yig'ib saqlardi va o'z maqsadlarida ishlatar edi. Asta-sekin ko'p sahifali fayllar kompyuter axborot texnologiyalari bilan almashtirildi.

XX asrning oxirgi yillarida turistik talab asosan turistlar taklifi ta'siri ostida shakllangan bo'lsa, hozirgi davrda vaziyat aksincha o'zgargan. Turistik bozorlarning tobora ko'payib borayotgan va moliyaviy hamda vaqt imkoniyatlari keng bo'lgan iste'molchilar o'z ehtiyojlarini yaxshiroq tushunadigan zamonaviy sharoitda ularning talabi taklifning rentabelligini(foydaliligini) belgilaydi. SHuning uchun turistik taklifni shakllanishiga imkon berish uchun hozirda turistik talabni batafsil va sinchkovlik bilan o'rganish va prognoz qilish juda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda ***mintaqalarni o'rganish(kognitiv)*** turizmi xalqaro turizmning etakchi tarmoqlaridan biri aylangan. Globallashuv sharoitida o'rganish(**kognitiv**) turizmi nafaqat turistik faoliyat turi, balki xalqlarning madaniyatlararo muloqotini boshqarishning muhim mexanizmi, turli sub'ektlar darajasidagi ijtimoiy sheriklik tamoyillarini amalga oshirishning samarali usuli sifatida qaraladi. Ijtimoiy taraqqiyotda madaniyat haqidagi yangi tushuncha va kishilik jamiyatlarida madaniy xilma-xillikni saqlash zarurligini anglash, mintaqalarni o'rganish(kognitiv) turizmining istiqbollari mintaqaviy rivojlanish omili sifatida kengaytiradi.

Ekskursiya dasturlari taklifining ko'payishi insonlarning muhim rolini anglash uchun va uning **rekreatsiyasini** ta'minlash, insonning madaniy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun madaniy-ma'rifiy mashg'ulotlar va hordiq chiqarish, ular tarixini bilish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligini anglash bilan bog'liq din, urf-odatlar, turmush tarzi va uning o'ziga xos xususiyatlari, umuman boshqa xalqlar madaniyati o'rganish turizmini mintaqalarni o'rganish(kognitiv) turini

asosiy maqsadidir. Kognitiv turizmning asosini madaniy kapital tashkil etadi, u kundalik va yuksak badiiy, umumiy va aristokratik va boshqa madaniyat manbalarida ifodalanadi.

Kognitiv turizm jahon iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, dunyo mintaqalarida rivojlanishning o'ta notekis darajasi bilan ajralib turadi, bu ham dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining turli ijtimoiy va demografik guruhlarining iste'mol talabi va hayotiy munosabati, **rekreatsion** va turistik resurslarning notekis taqsimlanishi, davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ko'p o'lchovli sayyohlik siyosatining farqlari hamda ularning farqlanishi bilan izohlanadi. Bunday farqlanishni faqat axborot vositalari asosida kiritilgan ma'lumotlar bo'yicha va ularni qayta ishlab differentsiyalash orqali amalga oshirish mumkin.

YUqorida **rekreatsiya** yoki **turistik ekskursiya takliflarini rekreatsiyasini** ta'minlash haqida so'z yuritildi. SHuning uchun ham "rekreatsiya" tushunchasini aniqlab olishimiz zarur. Rekreatsiya so'zi pol'shalik polyaklar tilida – bayram, ta'til yoki vaqtni xush o'tkazish ma'nolarini anglatadi. Lotin tilida esa – tiklanish ma'nosini anglatadi. Frantsuz tilidagi recreation so'zi - mehnat faoliyatidan tashqi holatda, yashash joyidan boshqa makonda faol dam olish va vaqtni xush o'tkazish ma'nolarini anglatadi. Umuman olganda rekreatsion turizm, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida paydo bo'lgan turizmning eng asosiy turlaridan biri hisoblanadi. **Rekreatsion turizm – bu kishilarning mehnatdan tashqi holatda va o'z yashash joylaridan boshqa makonlarda dam olish hamda jismoniy qobiliyatlarini tiklash maqsadidagi sayohat qilish turidir.**

Turizmning bu turi kishilarning o'z vatanidan boshqa mamlakatda jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini tiklash maqsadida turli xildagi sog'liqni tiklash markazlarida, sanatoriyalarida dam olishini, u yoki bu mamlakatning tabiiy-iqlim sharoiti, relexi, flora va faunasi bilan tanishish maqsadidagi sayohatini ham o'z ichiga oladi.

XX asr o'rtalaridan boshlab va XXI asr boshida xalqaro turizmning tarkibiy tuzilmasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Mintaqalarni o'rganish turizmining oqimlarini geografik taqsimoti o'zining asosiy xususiyatlari bo'yicha XX-asrning 70-80 yillariga kelib allaqachon rivojlangan edi, *lekin hozirgi vaqtda global va mahalliy jarayonlar ta'siri ostida doimiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.* XX asrning oxirida dunyo mintaqalari bo'yicha xalqaro turizm dinamikasi muhim farqlarni ochib berdi va u mintaqalarni o'rganish turizmini rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini o'zida aks ettiradi.

SHunday qilib, turizm endi tobora global miqyosda rivojlanmoqda. Umuman olganda, dunyoning turli mintaqalariga xalqaro sayyohlar kelishida kuzatilayotgan

o'zgarishlar turizmni rivojlanishining global tendentsiyalarini takrorlaydi. 1980-90-yillar boshidagi iqtisodiy inqirozlar tufayli sayyohlar oqimining o'sish sur'atlarining pasayishi, XX asr va 2001 yildagi teraktlar, 2003 yilda SARSning tarqalishi, 2008-2009 yillardagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va boshqa siyosiy-iqtisodiy omillarning ta'siri barcha turistik mintaqalar darajasida kuzatilmoqda. Biroq, har bir mintaqaning o'ziga xos o'sish, pasayish, turg'unlik davrlari bor, ular mahalliy omillar ta'siridan ham kelib chiqadi.

Evropa mintaqasi **kognitiv** turizmning asosiy xalqaro markazi bo'lib qolmoqda. Ammo, SHarqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida yosh sayyohlik sanoatining o'sish sur'atlari yuqori bo'lganligi sababli, turizm nuqtai nazaridan eski turizm makoni bo'lgan Evropa va Amerika mintaqalari ulushining barqaror pasayishi boshqa makrohududlarga qaraganda juda kam darajada bo'lsa ham kuzatilmoqda. Lekin, xalqaro turizmdagi bunday o'zgarishlarga qaramasdan Evropa va Amerika hali ham jahon sayyohlik bozorining 3/4 qismini o'zida jamlagan.

Madaniy va ma'rifiy turizmning ikkinchi mintaqasi – OTOM(ATR)dir. Ming yillar davomida madaniy an'analar almashinuvi Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi noyob me'moriy yodgorliklar va ibodat joylarining noyob kombinatsiyasini belgilaydi. Osiyo sog'liqni saqlash (kurort) turizmining rivojlanishi tufayli emas, balki xalqaro miqyosda sayyohlar kelishi bo'yicha etakchiga aylandi. Hozirgi vaqtda Xitoy, Hindiston va Tailand mintaqani o'rganish(kognitiv) turizmning yirik xalqaro markazlariga aylanmoqda.

YAngi tajribalarni izlash Afrika va YAqin SHarqqa sayohatga bo'lgan talabning oshishini belgilaydi. Birlashgan turlar asosan Marokash, Suriya, Janubiy Afrika, Tunisga taklif etiladigan ushbu hududlarda yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Biroq, daromadning asosiy qismi plyajdagi dam olishni tashkil etishdan kelib chiqadi (BAA, Misr, Tunis). Tanzaniya, Keniya, Zambiya, Zimbabve va boshqa mamlakatlarga mintaqalarni o'rganish turizmi turlarining mashhurligi asta-sekin o'sib bormoqda.

Xalqaro turizmni rivojlanishining qiziqarli tendentsiyalaridan biri ularning milliy va diniy xususiyatlarini hisobga olgan holda turizmni rivojlanishi uchun maxsus shart -sharoitlar yaratish (turar joy, transport, ovqatlanish, sayohat dasturlari va boshqalar) bo'lishi mumkin. Bu yondashuv, masalan, **"halol" turizmini** (islom qonunlari bo'yicha turizm) rivojlanishiga, YAqin SHarqdan turistlar oqimining kutilayotgan tez o'sishi sharoitida yordam beradi. Boshqa Osiyo mamlakatlaridan (masalan, YAponiya yoki Xitoydan) kelgan sayyohlarga maxsus talablarni shakllantirish haqida ham gapirish mumkin, ularning taklif etilayotgan sayyohlik imkoniyatlari g'arb tsivilizatsiyasi vakillari tomonidan qabul qilinganidan tubdan farq qiladi.

Madaniyati, urf-odatları, mentaliteti bo'yicha o'z mamlakatlari aholisidan tubdan farq qiladigan chet ellik sayyohlar oqimi ham an'anaviy tushunishdan ko'ra kengroq masalalarni qamrab olgan madaniy-ma'rifiy turizmning yangi g'oyasini shakllantiradi. Madaniyat, ta'lim va ko'ngilochar turistik mahsulotni yaratishni talab qiladi, bu sayyohlar tashrif buyuradigan jamiyat hayotining barcha jabhalari bilan tanishish imkonini beradi. Bunday o'zgarishlar nafaqat tarkibga, balki sayohat texnologiyasiga ham tegishli.

Shunday qilib, *zamonaviy turizmni rivojlanishining asosiy xususiyati - turistlar ehtiyojlarining doimiy o'zgarib turadigan xususiyatiga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va jahon iqtisodiyoti rivojlanishining boshqa omillari ta'sirini hisobga olgan holda moslashuvchan va tez o'zgarishi mumkin bo'lgan individual turistik mahsulotni yaratish zarurati bilan izohlanadi.*

16.3. BMTning jahon sayyohlik tashkiloti(BMTJST) va uning tarkibiy tuzilishi.

Jahon turistik tashkiloti birlashgan millatlar tashkilotining muxtor tashkilotlaridan biri bo'lib, u hech qanday davlat siyosatiga aralashmaydi. Halqaro turistik tashkilotida 330 dan ziyod hamkor tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bular aviakompaniyalar, transport kompaniyalari, mehmonxona va restoranlar, tur operatorlar, sayyohlik agentliklari, bank muassasalari, sug'urta kompanilari, konsalting markazlari, nashriyotlar va boshqalar shular jumlasidan. 2005-yilda BMTJST Bosh Assambleyasining 16-sessiyasidagi nizomga muvofiq barcha a'zolar hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan tahririyatga o'zgartirish kiritilgandan so'ng hamkor a'zolar toifasiga kiritildi.

BMTning Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasiga muvofiq a'zo davlatlar va kompaniyalar faoliyat ko'rsatishi bilan birga ayrim davlatlar a'zo bo'lishdan oldin kuzatuvchi sifatida ishtirok etishlari e'tirof etilgan.

BMTJSTning tarkibi. Jahon turistik tashkilotining asosiy organlari: Bosh Assambleya, ijroiya qo'mitasi va kotibiyat hisoblanadi. SHo'ba organlari – hududiy komissiyalar va ixtisoslashtirilgan komissiyalaridir. Hamkorlik a'zolari BMTJST biznes kengashi, ta'lim kengashi va turistik markazlarini boshqarish uchun operatsion guruhlar hisoblanadi.

Bosh Assambleya jahon sayyohlik tashkilotining oliy organi bo'lib hisoblanadi. Har ikki yilda bir marta chaqiriladigan majlisning har bir sessiyasida tashkilot byudjeti, uning ish dasturi hamda turizm sohasidagi dolzarb muammolarni muhokama qiladi. Navbatdan tashqari sessiyalar ijroiya qo'mitasi yoki to'liq a'zolarning ko'pchiligi iltimosiga ko'ra o'tkazilishi mumkin. Har to'rt yilda Bosh Assambleya tashkiloti bosh kotibini saylaydi. Amaliy va u bilan bog'liq bo'lgan a'zolar esa tayinlanadi.

Tashkilotning tuzilishi. Hamkorlik a'zolari va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari Bosh Assambleya ishida kuzatuvchi sifatida ishtirok etib hamkorlik a'zolari uch nafar kuzatuvchini nomzod qilib ko'rsatishi mumkin.

Majlis quyidagi masalalarni muhokama qiladi:

- * Ijroiya qo‘mitasi tavsiyasiga ko‘ra tashkilot Bosh kotibini tayinlash;
- * Kengash a‘zolarini saylash;
- * tashkilotning byudjetini tasdiqlash;
- * faoliyatning umumiy sohalarini aniqlash;
- * tashkilot faoliyatini, birinchi navbatda, moliyaviy va hokazolarni nazorat qilish.

Ijroiya qo‘mitasi tashkilotning belgilangan byudjetga muvofiq o‘z dasturini amalga oshirishi uchun mas‘ul BMTJST boshqaruv organi hisoblanadi. Ijroiya Kengashi bir yilda ikki marta uchrashadi. Bu organ Bosh Assambleya tomonidan har besh to‘liq a‘zoga Kengashda bir o‘rin miqdorida saylanadigan 29 ta a‘zodan iborat. Kengash a‘zolarini saylashda ular adolatli va teng geografik taqsimotga intiladilar. Kengash a‘zolarining vakolat muddati to‘rt yil. Kengashning yarmi ikki yillik muddatga saylanadi. Ispaniya, BMTJST shtab mezbon mamlakat sifatida, Ijroiya Kengashida bir doimiy o‘ringa ega. Kengash ishida sherik va hamkor a‘zolari kuzatuvchi sifatida ishtirok etadilar.

Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- * Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan barcha qaror va tavsiyalar ijrosini ta‘minlash;
- * bajarilgan ishlar bo‘yicha Bosh Assambleyaga hisobot berish;
- * tashkilot faoliyati bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalar.

Kotibiyat Madrid shahrida joylashgan bo‘lib uning shtab kvartirasida 90 nafar xodim ishlaydi. Kotibiyat xodimlari BMTJST ning dasturlarini amalga oshirish uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirib boradilar.

Ijrochi direktor Ispaniya hukumati tomonidan moliyalashtirilib tashkilot faoliyatini Madrid qarorgohida boshqaradi. Bundan tashqari kotibiyat YAponiyaning Osaka shahrida va O‘zbekistonning Samarqand shahrida mintaqaviy ko‘llab quvvatlash byurosini ham o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda BMTJST ning Bosh kotibi Zurab Pololikashvili bo‘lib bu tashkilot o‘z ichiga 158 ta davlatlarni, 6 ta mintaqani va 500 dan ziyod kuzatuvchi korxona va tashkilotlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Bosh Assambleyaning har 4 yilda bosh kotib saylanadi. O‘z navbatida tashkilot faoliyati, ma‘muriy hisob-kitoblar, ijrochi ish loyixalari, byudjet ijrosi va boshqalar bilan bog‘liq yuqori organlarga qilingan ishlar bo‘yicha barcha hisobotlarni taqdim etadi.

BMTJST ning yordamchi organlari a‘zolar tomonidan maxsus tavsiyalar ishlab chiqish uchun tashkil etiladi. Bular birinchi navbatda dastur qo‘mitasi, statistika va turizm makro-iqtisodiy tahlil qo‘mitasi, byudjet va moliya qo‘mitasi, bozor tadqiqot va rag‘batlantirish qo‘mitasi, turizm, barqaror turizmni rivojlantirish qo‘mitasi, sifatni ta‘minlash qo‘mitalaridan iboratdir. Bu bilan birga alohida ta‘lim qo‘mitasi, biznes kengashi va jahon turizm ahloqiy qo‘mitasi ham faoliyat yuritadi.

BMTJST da rasmiy tillar: ingliz, fransuz, rus, arab va ispan tillari bo‘lib, nashrlar asosan ingliz va ispan tillarida chop etiladi.

Tashkilotning byudjeti. BMTJST ning byudjeti uning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan narxlar shkalasiga muvofiq hisoblangan to‘liq va

sharikchilik a'zolarining badallaridan iboratdir. Har bir mamlakatning ushbu tashkilot byudjetini shakllantirishda uning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab va turizmning ahamiyatiga qarab aniqlanadi. Byudjet loyihasi kengash tomonidan ko'rib chiqilib, tasdiqlash uchun Bosh Assambleyaga taqdim etiladi. Xolisona auditorlar tomonidan byudjet tahlil qilinadi va moliyaviy davr 1-yanvarda boshlanib 2 yil davom etib, kelgusi yilning 31-dekabrida tugaydi.

16.4. Xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratilgan asosiy tadbirlar va ularning amalga oshirish mexanizmlari.

BMTJST asosan turizmni rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni kengaytirib rag'batlantirishni tashkil etadi. Bu o'z navbatida turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ta'sirini maksimallashtirib uning imkoniyatidan to'liq foydalanish uchun shart-sharoitni kengaytirishga amaliy yordam ko'rsatadi. SHu bilan birga turizmning salbiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirini minimallashtirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratib beradi. Jahon sayyohlik tashkiloti har bir mamlakatda turizmni rivojlantirishda xususiy sektorga, mahalliy ma'muriyatga va nodavlat tashkilotlarga alohida e'tiborni qaratmoqda.

Xalqaro turizmning rivojlanishini ta'minlash. Xozirgi zamon sharoitida turizmni rivojlantirish tashkiloti uni kelajakda yanada rivojlantirish bo'yicha ko'plab dasturlar ishlab chiqib ularni amalga oshirmoqda. Bunday dasturlarni ishlab chiqishdan asosiy maqsad mutaxassislarni turistik xizmatlar bozoridagi vaziyat bilan tanishtirib borish. Turizmni rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish qisqa va uzoq muddatli prognozlash, tarmoqni bozor iqtisodiyoti sharoitida moslashtirib, faoliyatini takomillashtirish kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. SHu bilan birga ekoturizm, agroturizm, sport turizmi, kruiz, biznes turizm kabi yangi turistik maxsulotlarni o'rganishga alohida e'tiborni qaratmoqda.

Turizmini rivojlantirishda ta'lim, tarbiya, inson resurslari, sifat, standart kabi turizmning alohida komponentlariga e'tiborni kuchaytirish nazarda tutilgan.

Mamlakatlar bo'yicha dasturlar. Jahon sayyohlik tashkilotining asosiy vazifalaridan biri har bir mamlakatda uning rivojlanish darajasiga qarab turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqib va uni tavsiya etish asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Jahon turistik tashkilotining yana bir asosiy vazifalaridan biri jahondagi turizm sohasidagi ilg'or tajribalarni keng o'rgangan holda jahon miqyosida turizmni rivojlantirish strategisini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash, marketing va turizm loyihalarini tayyorlash, statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha treninglar o'tqazish, fikr almashish, faoliyatni yuritishni soddalashtirish kabilarni rivojlantirish orqali turizm sohasini rivojlantirishni o'z ichiga qamrab oladi.

Jahon sayyohlik tashkilotining mintaqaviy vakillari har bir mintaqadagi xususiyatdan kelib chiqqan holda milliy va mintaqaviy turizmga rivojlantirish bo'yicha seminarlar tashkil etish, tajriba almashish va qo'shimcha muammolarni aniqlash hamda ilg'or tajribani keng yoyish maqsadida mintaqaviy konferensiyalar o'tkazishni nazarda tutadi.

Jaxon sayyohlik tashkiloti mintaqaviy rivojlanish loyihalarini amalga oshirishda BMTning ta'lim, ilmiy va madaniy tashkiloti (YUNESKO) bilan hamkorlikda "Ipak yo'li" va "Qul yo'li" kabilardir.

Marko Polo bosib o'tgan "Ipak yo'li" loyihasini 1994-yilda ishga tushirilishi qadimiy yo'nalishlardan biri bo'lib, u turizmni rivojlantirishga qaratilgandir. Ipak yo'li Osiyodan Evropaga 12 ming km ga cho'zilgan bo'lib, u o'z ichiga 22 mamlakatni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu loyihani targ'ib qilish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar, seminarlar, broshyuralar va videolar ishlab chiqilib, turizm targ'ibot qilinmoqda.

BMT tomonidan e'lon qilingan xalqaro bag'rikenglik yili doirasida 1995 yilda ishga tushirilgan "Qullar yo'li" loyihasi G'arbiy Afrika mamlakatlarida turizmni rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan. Uning bevosita vazifalari yodgorliklarni tiklash, tarixiy muzeylarni boyitish va xorijiy sayyohlarga ushbu mamlakatlar tarixi bilan tanishish imkonini beruvchi ayrim mamlakatlarda reklama kompaniyalarini tashkil etishdir. 1980 yildan boshlab jahon sayyohlik tashkiloti a'zolari har yili 27 sentabr kuni jahon sayyohlik kunini nishonlab kelmoqda. "Bayram" tadbirlariga paradlar, kontsertlar, sayyohlik yarmarkalari, seminarlar, gala-tantanalalar, raqs partiyalari va bepul muzey tashriflari, shuningdek jamoatchilik e'tiborini tortadigan boshqa tadbirlar kiradi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 sentabr, 720-sonli «Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashning hamda davlat budjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.// <http://lex.uz/docs/3901273>
6. Uzbekistan napravit na pererabotku mineralno-syrevyx resursov \$40 mlrd.
<http://www.podrobno.uz/cat/economic/uzbekistan-napravit-na-pererabotku-mineralno-syrevykh-resursov-40-mlrd/20> Yanvarya 2017g.
7. Turamuratov I. Na territorii Uzbekistana otkryto 1895 mestorojdeniy.
<http://1news.uz/na-territorii-uzbekistana-otkryto-1895-mestorojdeniy/>
8. Maxmudov E. Rasshiryayetsya syrevaya baza promyshlennosti.
<http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/50422-rasshiryatsya-sirvaya-baza-promishlennosti> 25.09.2017.
9. Dmitriyev V.G. Otsenka ekologicheskogo riska. analiticheskiy obzor./ <https://narfu.ru/upload/iblock/cfb/11.pdf> .

19-MAVZU: JAHON IQTISODIYOTINI GLOBALLASHUVI SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK VA MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.

REJA:

- 19.1. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati;**
- 19.2. Iqtisodiy xavfsizlikning turlari;**
- 19.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi omillarning roli;**
- 19.4 Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar;**
- 19.5. Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlanishi.**


19.1. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.

Jahon rivojlanishi zamonaviy jarayonlarining muhim yo'nalishi bu jahon iqtisodiyoti globallashuvidir. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, fan, texnika va texnologiya harakatining tezlashishi asosida iqtisodiy globallashuv xavf va tahdidlarning o'sishiga ham olib kelmoqda.

XX asr 90-yillarining boshidan iqtisodiy xavfsizlik muammosi alohida keskinlik va dolzarblikka ega bo'ldi. Bu zamonaviy globallashuv sharoitida

«iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasining nihoyatda murakkabligi va kengqirraliligi bilan bog'liqdir. An'anaviy yondoshuvlar va usullar bu hodisani to'liq tavsiflab bermaydi, demak barqaror iqtisodiy munosabatlarni saqlashning amaliy usullarini va avvaldan aytib berish mumkin bo'lgan yo'llarini ham ko'rsatmaydi.

Globallashuv jarayoni jahon xo'jaligining barcha jabhalarini qamrab olayotgan bir sharoitda rivojlangan mamlakatlar va ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda demografik holat yomonlashmoqda, ya'ni nafaqa oluvchilar soni ishchilar soniga nisbatan ko'proq sur'atlar bilan oshmoqda, boshqa tarafdin malakali ishchilarning, ayniqsa yuqori texnologik sohalarda, etishmasligi sezilmoqda. Jahon bozorlaridagi narxlarning, etakchi mamlakatlarning jahon bozoridagi valyuta kurslarining tebranishlari bilan bog'liq xavflar iqtisodiyoti xom ashyoga yo'naltirilgan rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga salbiy ta'sir etadi yoki inqirozga uchrashiga sabab bo'lishi mumkin. Dollar kursining pasayish tarafga tebranishi rivojlanuvchi mamlakatlar tovarlarining raqobatbardoshligini pasaytiradi, agar dollar kursi keskin ohsa ko'p mamlakatlar aholisi uchun import tovarlarini xarid qilish qiyinlashadi, ularning ichki ishlab chiqarishi raqobat yo'qligi tufayli susayadi. Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy xavfsizlik ko'larni ham, darajasi ham xilma-xil. SHuning uchun ham ko'p mamlakatlarning oliy organlari darajasida iqtisodiy xavfsizlikni bir xil tushunchasi yo'q. SHuningdek, iqtisodiy xavfsizlikning ustuvorlik va unga erishishni ta'minlash masalalari bo'yicha aniq kontseptsiya va strategiya ham mavjud emas.



19.1-rasm. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning huquqiy kafolatlari

Iqtisodiy xavfsizlik g'oyalari va u bilan bog'liq bo'lgan «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi mamlakatimizga respublikamiz mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng kirib kela boshladi.

Iqtisodiy xavfsizlik davlatning milliy xavfsizligini ta'minlovchi asosiy bo'g'inlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash yo'llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlarning yig'indisidir. Konseptual ko'rinishda u davlat iqtisodiy potentsialining holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi. Davlatning xavfsizligi kuchsiz va samarasiz iqtisodiyotda, ayniqsa ijtimoiy nizolarga to'la jamiyatda ta'minlanishi mumkin emas, chunki —iqtisodiy xavfsizlik va —ijtimoiy xavfsizlik o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida rivojlanish va rivojlanish barqarorligini ta'minlovchi muhitga o'xshash muhitni tashkil etuvchilar yotadi. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Barqarorlik – jamiyatning favqulodda holatlarda hamda o'z manfaatlarini qondirish qobiliyati, vaziyatni tiklash

imkoniyatidir.

—Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi ilk bor resurslarni chegaralanganligi to‘g‘risidagi masalaning keskinlashishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi.

—Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasiga ko‘plab ta’riflar berilgan. Ularni umumlashtirgan holda, iqtisodiy xavfsizlik - bu davlat iqtisodiy tizimiga ta’sir qiluvchi va uning eng kam chiqim bilan, bosqichma-bosqich barqaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potentsial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng ko‘p ifodalanishiga imkon beruvchi (ichki va tashqi) shart va omillar yig‘indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflar va yo‘qotishlarga qarshi turish qobiliyati, deb ta’riflash mumkin.

O‘zbekiston uchun tashqi xavflarga quyidagilar kiradi:

-O‘zbekiston Respublikasini xomashyo bazasi va past sifatli, raqobatbardosh bo‘lmagan mahsulotlarni o‘tkazish bozori sifatida saqlab qolish;

-mamlakatni xorijiy bozorlarga chiqishiga, uni xalqaro moliya-iqtisodiy va savdo tartiblash mexanizmlarida ishtirokiga, yangi texnologiyalarga erishishiga to‘sqinlik–qilish;

-O‘zbekistonni global jahon savdo tizimiga va Markaziy Osiyo mintaqasi doirasidagi iqtisodiy integratsiyasiga to‘sqinlik qilish;

-tashqi transport, axborot va ilmiy-texnika kommunikatsiyalar tizimining rivojlanmaganligi va boshqalar.

19.2. Iqtisodiy xavfsizlik turlari.

Iqtisodiy xavfsizlikni ikki turga ajratish mumkin: xalqaro va milliy. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik bu jahon hamjamiyatining har bir a’zo mamlakati o‘z ijtimoiy va iqtisodiy strategiyasini mustaqil tanlash va amalga oshirishni ta’minlaydigan, tashqi va siyosiy bosim bermaydigan va o‘zaro manfaatli hamkorlikka tayaniladigan xalqaro kelishuvlar yordamida amalga oshiriladigan tushunchadir.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning huquqiy kafolatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

har bir davlatning, uning ijtimoiy va siyosiy tuzilishidan qati nazar tenglik tamoyilining tan olinishi;

rivojlanish yo‘lini erkin tanlashi;

tabiiy resurslardan va iqtisodiy salohiyatdan foydalanishda davlat suverenitetini tan olish va iqtisodiy bahslarni kuch ishlatmasdan hal etish.




19.2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik turlari.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik - milliy manfaatlarni ichki va tashqi tahdidlardan, hamda mamlakat iqtisodiy salohiyatini etarlicha himoyalashni ta'minlab bera oladigan iqtisodiy holatga aytiladi.

Ko'pgina mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarini erkinlashtirish orqali izchillik va asta-sekinlik bilan jahon bozoriga chiqish maqsadida olib borayotgan siyosatlarida iqtisodiy xavfsizlikning yangidan-yangi tahdidlari bilan to'qnash kelmoqdalar.

Mustaqil O'zbekiston qariyb o'ttiz yil mobaynida juda katta, asrlarga teng yo'lni bosib o'tdi va bugun yurtimizda olib borilayotgan islohotlar hech qachon ortga qaytmaydigan jarayonga aylandi. Bu, avvalo, istiqlolning, uni mustahkamlash, shuningdek xavfsizlik va tinchlik uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning natijasidir.



19.3-rasm. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning huquqiy Kafolatlari.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik borasidagi milliy ustuvorliklariga to'xtalishni lozim topdik. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy ustuvor yo'nalishlari milliy manfaatlar, real va potentsial xavflarga bog'liq ravishda aniqlanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-Bozor iqtisodiyotini shakllantirishga, real mulkdorlar sinfini shakllantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlarni ketma-ket o'tkazish;

-Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishini rag'batlantirish;

-Mulkdorlarning huquqlari va xususiy mulkni himoyalash, iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlashni amaliy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirish;

-Barqaror va dinamik iqtisodiy o'sish asosida insonlarni munosib hayot sharoitlarini tashkil etish;

-Investitsion faoliyatini faollashtirish, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarning zamonaviy ishlab chiqarishini tashkil etish hisobiga mamlakatning iqtisodiy mustaqilligiga erishish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgartirishlarini amalga oshirish;

-Makroiqtisodiy barqarorlik, moliya pul-kredit tizimlari barqarorligini ta'minlash, milliy valyutani kuchaytirish;

-Agrar sektorda tub islohotlarni amalga oshirish, qishloqda bozor mexanizmini rivojlantirish, dextqonlarda xo'jayinlik xissini uyg'otish;

-Tabiiy, mineral xomashyo, iqtisodiy va ilmiy-texnika salohiyati oqilona ishlatish, mamlakat hududlarini majmuiy rivojlantirish;

-Iqtisodiyotni favqulodda holatlarda barqaror ishlashini ta'minlash;

Tashqi iqtisodiy integratsiyani faollashtirish, xorijiy karitalni keng kiritish, eksport salohiyatini rivojlantirish, eksport va import tarkibini takomillashtirish va boshqalar.

Iqtisodiy xavfsizlikning tekshirish predmeti davlatning tashkil etilgan va muvofiqlashgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatidagi iqtisodiy tizimidir. Iqtisodiy xavfsizlik sohasida davlat faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

-kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy tizim va davlatni beqarorlashtiruvchi qisqa va uzoq muddatli omillar monitoringi va tavsifi;

-bu omillarning zararli ta'sirini yuqotadigan yoki yumshatadigan iqtisodiy siyosat va institutsional o'zgarishlarni iqtisodiy islohotlarning yagona dasturi chegarasida shakllantirish;

Iqtisodiy xavfsizlik inshootlari - bu xavfsizlik siyosatining asosiy mazmuni va strategik maqsadini tashkil etuvchi, real mavjud bo'lgan hodisa, jarayon va munosabatlardir. Iqtisodiy xavfsizlik inshootlariga shaxs, jamiyat, davlat ham kiradi.


19.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi omillarning roli.

Davlatlar tomonidan iqtisodiyotning ochiqqligini ta'minlashga bo'lgan harakat ko'plab murakkab muammolarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda, ularning biri iqtisodiy xavfsizlik muammosi bo'lib, ya'ni jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorlik qilishning muqobil shart-sharoitlarini aniqlab olish muammosidir. Asosan, o'zining etarli energiya va xom ashyo zahiralariga ega bo'lmagan sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun iqtisodiyotning ochiqqligi, ularning yanada taraqqiy etishida bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Dunyodagi qolgan mamlakatlarning barchasi ham o'zaro savdo munosabatlarini o'rnatish va rivojlantirish maqsadida xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etmoqdalar, bu esa xalqaro mehnat taqsimoti sub'ektlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligining kuchayishiga va tashqi salbiy ta'sirlardan himoyalaniish maqsadida ixtisoslashuv va kooperatsiyadan olinadigan foydalarni hisob-kitob qilish zaruratining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Buning natijasida milliy iqtisodiyotning beqaror tavakkalchiligi paydo bo'ladi, bunda dunyodagi barcha mamlakatlar o'zining —ochiqlik darajasidan kelib chiqib, absolyut xavfsiz bo'lgan savdo (tijorat) munosabatlariga kirisha olmaydilar. SHuning uchun ham tashqi savdo rivojlanayotgan bir paytda, dunyoning qaysidir mamlakatlaridagina, o'zaro aloqadorlikdan kelib chiqib, nisbiy iqtisodiy xavfsizlik xukm surishi mumkin bo'ladi.

Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida o'zaro aloqadorlik mohiyatan o'zida ma'lum bir aloqalarni namoyish etadigan iqtisodiy bog'liqliklarga olib kelishi mumkin, bunday sharoitda tashqi omillar u yoki bu holatlarning rivojlanishida salmoqli ta'sir ko'rsatadi.



19.4-rasm. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi omillarning roli

Moslashuvchanlik deyilganda, davlatlarning tashqi omillar keltirib chiqaradigan zararli holatlarga nisbatan ta'sir qila olish qobiliyati tushuniladi, shu orqaligina, tashqi sabablarga yoki umuman barham berish, yoki uning oqibatlarini umuman tugatish, yoki mavjud imkoniyatlarning ortiqcha qismini boshqa bir mamlakatlarga qaratish lozim bo'ladi.

Moslashuvchanlikning mavjud bo'lishi, ma'lum bir chegaraviy cheklanishlarga ega bo'ladi. Moslashuvchanlik bilan bog'liq bo'lgan choratadbirlar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- savdo munosabatlarining diversifikatsiyasi;
- ko'p tomonlama hamkorlik;
- aloqalarining mustahkamlanishi va jadallashtirilishi;
- tejash va zaruriy zahiralarining yaratilishi;
- eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishning shakllanishi.

Aloqadorlik eng avvalo iqtisodiy moslashuvchanlikda o'z aksini topadi. Iqtisodiy moslashuvchanlik deyilganda, milliy iqtisodiyotning tashqi omillar salbiy ta'siriga, ya'ni ushbu holatlarning yomon oqibatlarini bartaraf etish maqsadida,

ularga nisbatan ma'lum bir imkoniyatlar qo'llanilgunga qadar bo'lgan ta'sirchanligi tushuniladi. Iqtisodiy zaiflik aloqadorlikning ancha yuqori darajasi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy zaiflik deyilganda, xattoki ichki holatlar to'g'rilanib yoki yoppasiga o'zgartirilgandan keyin, moslashuvchanlik haddan tashqari ortiqcha bo'lgan sharoitda ham tashqi omillar ta'sirining muqarrarligi tushuniladi. Iqtisodiy zaiflik shunday vaziyatda yuzaga keladiki, bunda moslashuvchanlik ortiqchaligining bir qator tanqidiy nuqsonlariga yo'l qo'yilgan bo'ladi. Aynan iqtisodiy zaiflik to'liq bo'lmasada, iqtisodiy xavfsizlik muammosini vujudga keltiradi. Tahdid iqtisodiy xavfsizlikni izdan chiqarishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Tahdid - bu moddiy, mehnat, ilmiy-texnikaviy zahiralarga va marketing tizimiga bo'lgan imkoniyatlarning cheklanishidir. Tahdid ikki turga bo'linadi:

1. Maqsadli tahdid;
2. Iqtisodiy turmush sharoitiga bo'lgan tahdid.

Tahdidning ikkala turi ham davlatning oldindan mo'ljallangan faoliyatlaridan yoki jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyalaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Tahdidning zaruriy vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy blokada qilish;
- to'siqlar o'rnatish;
- zaifliklar tizimini yaratish;
- diskriminatsiya qilishning har xil usullarini qo'llash.


Ana shu tartibda, milliy iqtisodiyot xavfsizligini qandaydir holat sifatida baholash mumkin bo'ladi, bunda tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishiga tahdid soladigan tashqi omillarning ta'siridan himoyalangan bo'ladi. Agar YAIM darajasi oldindan ko'zda tutilgan yoki to'satdan sodir bo'lgan tashqi yangiliklarga bevosita bog'liq bo'lmasa, u holda milliy iqtisodiyot barqaror bo'ladi. Agar YAIM darajasi tashqi omillarga ta'sirchan bo'lsa va mazkur tashqi omillar oqibatlarini zararsizlantirish mumkin bo'lmasa, u holda iqtisodiy xavfsizlik darajasi beqaror bo'ladi.

19.4. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlariga tahdidlar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan-texnika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatning kuchayishi, o'zaro hisob-kitob va transport aloqalarining murakkablashuvi, kerakli tajribaning kamligi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarning etishmasligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifa xorijiy davlatlar bilan savdo, ilm-fan, texnika, ta'lim, investitsiya va shu singari sohalarida o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdan iboratdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim yo'nalishi xalqaro savdo bo'lib, bunda mamlakat chegarasidan tashqarida amalga oshiriladigan tovar va xizmatlar almashuvi tushuniladi. Xalqaro savdoning vujudga kelishi mutlaq xarajatlardagi tafovutlar va qiyosiy xarajatlardagi tavofutlar bilan tavsiflanadi. SHunga ko'ra

korxonalar (yoki mamlakatlar) tashqi savdoni amalga oshirayotganida, o'zlari ishlab chiqarmagan (yoki bu ular uchun chetdan sotib olish arzonga tushadigan) mahsulotlarni sotib oladilar hamda o'zlari foydalanmaydigan (yoki foydalanishdan ortib qoladigan) mahsulotlarni chet el mamlakatlari yoki korxonalariga sotadilar.



19.5-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlariga tahdidlar

Bu hol ularning ma'lum tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishini bildiradi. Oqibatda ular boshqalar ishlab chiqarmaydigan yoki ishlab chiqarish ular uchun qimmatga tushadigan tovarlarni tayyorlab, sotadilar. Bunday ixtisoslashuv savdoda ustunlikni vujudga keltirib, ularga foyda keltiradi.

Mamlakat va xorijiy davlat o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshirilgan transoperatsiyalar statistikada to'lov balansida aks ettiriladi. To'lov balansi joriy moddalar, ya'ni savdo balansi, xizmatlar va o'tkaziladigan balanslar, shuningdek, kapital harakati balansini o'z ichiga oladi. Ayrim mamlakatlarning to'lov balanslari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Hozirgi jahon xo'jaligi globallashtirishning muhim xususiyatlaridan biri mamlakatlarning ochiq iqtisodiyot tamoyillari bo'yicha rivojlanishidir. Umuman olganda, globallashtirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib turli mamlakatlarning tadbirkorlarini daromadlarini oshirish, iqtisodiy o'sishini tezlashtirish va aholi farovonligini oshirish uchun xalqaro savdodan, investitsiyalar ayirboshlashdan, ishlab chiqarish kooperatsiyasidan, ilmiy-texnik hamkorlikdan foydalanishga intilish hisoblanadi.

Ochiq iqtisodiyotga ega mamlakatlarda tashqi savdo faoliyati ancha erkinlashtirilgan. Ammo barcha mamlakatlarda ham hukumatlar ta'sirida cheklangan, tartibga solinadigan tashqi savdo amalga oshiriladi. Uning asosiy vositasi tarif to'sig'i deb ataladigan bojxona boji hisoblanadi. Shuningdek, notarif cheklashlar ham mavjud bo'lib, u import va eksport kvotalarini belgilashni hamda o'zini-o'zi cheklash usulini o'z ichiga oladi. O'zini-o'zi cheklash usuli eksport qiluvchi mamlakat hukumati o'zining eksportni amalga oshiruvchi korxonalardan savdo bozoriga chiqariladigan tovarlarning ma'lum yillik hajmidan (qiymatidan) oshib ketmaslikni talab qilgan holda namoyon bo'ladi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalanish limitini belgilash ham tashqi savdoni cheklashning o'ziga xos turi hisoblanadi.

1. Savdo munosabatlarining diversifikasiyasi;

2. Kўp tomonlama hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi va jadallanishi;

3. Tejam va zaruriy zaxiralarning yaratilishi;

4. Eksportga mўljallangan ishlab chikarishning shakllanishi.

19.7-rasm. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning tashqi omillar.

Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- eksportning optimal tarkibini shakllantirish. Uning tarkibida tayyor yuqori texnologik, ilmtalab mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarning ulushini keskin oshirish chora-tadbirlarini ko'rish lozim;

- mamlakatning mavjud raqobat ustunligi imkoniyatlaridan foydalanib, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini eksport qilishning yangi, istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish;

- ularda muvaffaqiyat qozonish uchun xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirish;

- ishlab chiqarish kooperatsiyasini, injiniring, lizingni rivojlantirish;

- xorijiy davlatlar ularning savdo-iqtisodiy tashkilotlari, uyushma va ittifoqlari bilan o'zaro munosabatlarda qulay imtiyozli savdo rejimlariga erishish;

- mamlakat korxonalariga eksport va import qiluvchi sifatida xalqaro zamonaviy mashina, texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalar, axborot va kapital bozorlariga chiqishlari, transport kommunakatsiyalaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashish;

- kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamda qarzdor davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro valyuta, moliyaviy muammolarni tartibga solish.

19.5. Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlanishi.

Iqtisodiyotning globallashuvi jahon iqtisodiyoti subektlari o'zaro aloqalarining kuchayishi, iqtisodiy sanksiyalar (savdoda kamsitish, ekspansiya, embargo, qamal), huquqiy asosda xalqaro iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish vazifalarini qo'yadi.

Mamlakatning ichki holati, uning resurs salohiyatidan foydalanish va xalqaro munosabatlardagi obro'sini saqlashga bog'liq. Mamlakat hayoti va faoliyatini bashoratlashning iqtisodiy asosini xo'jalik maqsadlari va rejalari,

moddiy xarajatlar va iqtisodiy faoliyat natijalari tashkil qiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni, aholining normal hayoti va faoliyatini, jumladan uning ish bilan bandligi, iqtisodiy jihatdan o'sish imkoniyatini ta'minlovchi rivojlanish darajasida saqlashni bildiradi.

Global (texnologik, moliyaviy, informatsion) tizimlarning jadal rivojlanishi barcha darajalarda migratsiya oqimlarining keskin ko'payishi bilan kechadi. Ushbu hol inson resurslarini boshqarishning yangi vazifalarini qo'yadi. Mamlakatlar, ularning guruhlar, alohida mintaqalar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farq davlatlar ichida va o'rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy keskinlik bo'lishini istisno etmaydi.

Jahon iqtisodiy taraqqiyotiga xalqaro munosabatlar tizimining jadal o'zgarishi xosdir. Unda ikki tamoyil ko'zga tashlanadi:

1) iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ekologik va axborot omillari asosida xalqaro jarayonlarni ko'p tomonlama boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida ko'plab davlatlar va ularning integratsiyaviy birlashmalari iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarining mustahkamlanishi;

2) xalqaro munosabatlarning rivojlanishi tabiiy, texnologik va axborot resurslaridan foydalanishda, iqtisodiy afzalliklarni ta'minlash, tovarlarni sotish va kapitalni kiritish bozorlari uchun kurash raqobat bilan kechmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi iqtisodiy jinoyatchilik – kapitalni noqonuniy olib chiqish va «halollash», soliq va boj manipulatsiyalari, narkotik moddalar va qurol-yarog'ni qonunga xilof tarzda muomalaga chiqarish uchun sharoit yaratadi.

Bugungi jinoiy vaziyat miqyosi bo'yicha ham, davlatning faoliyat ko'rsatishi va xavfsizligiga tahdid solish darajasi bo'yicha ham sifat jihatdan yangicha hodisa, bu korruptsiya, jinoiy qatlamlar va davlat apparatining birlashib ketishi, transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va narkobiznesni o'z ichiga oladigan hodisadir.

Iqtisodiy xavfsizlikning bosh vazifasi – mamlakatning oliy milliy davlat manfaatlariga javob beradigan va milliy resurslarni nazorat qilishga asoslangan iqtisodiy mustaqil iqtisodiy siyosat olib borilishini ta'minlashdir. Iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyotning barqarorligi, o'zini rivojlantirish va taraqqiy toptirishga qodirligini kafolatlashi kerak.

Milliy iqtisodiy xavfsizlikka milliy davlat manfaatlarining amalga oshirilishida izchillikni, xo'jalik yurituvchi subektlarning barqaror faoliyatini, aholining hayoti va faoliyati uchun normal sharoitni saqlash qobiliyati sifatida qarash lozim. Milliy iqtisodiy xavfsizlik xavf-xatar hamda iqtisodiy manfaatlariga bo'ladigan tahdidlarga qarshilik ko'rsatish tizimini yaratish borasidagi harakatlar majmuidir. Iqtisodiy xavfsizlik – milliy iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirish va normal iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash qobiliyati. Bu tashqi va ichki iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, harbiy, tabiiy va texnogen beqarorlashtiruvchi ta'sirlar chog'ida yuksak darajadagi barqarorlikni saqlash qobiliyatidir.

Xulosa. Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonida milliy iqtisodiyotning ochiqlik chegaralari milliy davlat manfaatlarini himoya qilish sohasi hisoblanadi. Bir tomondan, iqtisodiyotning ajralganligi va biqirligi mamlakatni jahon taraqqiyotining chetiga surib chiqaradi. Boshqa tomondan, to'liq ochiqlik milliy iqtisodiyotning tanazzuliga va resurslarning tor bir guruh mamlakatlardagi moliyaviy markazlarga oqib ketishiga olib keladi. Iqtisodiyotning ochiqligi hozirgi moliyaviy bozorlarning nomukammalligi, beqarorligi va keskin inqirozli tanazzullar tufayli ham muayyan chegaralarga ega bo'lishi kerak.

Globalashuv sharoitida O'zbekistonda milliy iqtisodiyotimizni raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida makro va korporativ strategik boshqaruv va rejalashtirishning yangi shakllariga e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda tovar ishlab chiqaruvchilari uchun ichki va tashqi bozorda qulay sharoitni ta'minlash maqsadida bozor xo'jaligining zamonaviy institutlari, korporativ boshqaruv mexanizmlari, moliya bank tizimini yaratish yo'lida chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu geosiyosiy strategiya va globalashuv jarayonlari nuqtai nazaridan ichki va tashqi tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini va xususiyatlarini qanday izohlaysiz?
2. Milliy iqtisodiy xavfsizlik deganda nimani tushunasiz?
3. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi nimani anglatadi?
4. Iqtisodiy xavfsizlik va ijtimoiy xavfsizlik farqlarini va umumiy jihatlarini tushuntiring?
5. Iqtisodiy xavfsizlik qanday turlarga bo'linadi?
6. Tashqi iqtisodiy integratsiya deganda nimani tushunasiz?
7. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning asosiy funktsiyalari?
8. Sizning fikringizcha globalashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi omillar qanday rol o'ynaydi?
9. Sizning fikringizcha milliy iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari nimadan iborat?
10. Iqtisodiy moslashuvchanlik tashqi omillar bilan bog'liqmi?
11. Milliy iqtisodiy manfaatlarga tahdid deganda nimani tushunasiz?
12. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?
13. Iqtisodiy raqobatbardoshlik deganda nimani tushunasiz?
14. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning bosh vazifasiga nimalar kiradi?
15. Iqtisodiyotning ochiqligi va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi mutanosiblik qanday ta'minlanadi?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.

2. Livshits A. Prisoedinenie stran SNG k VTO: problemy i resheniya Vneshneekonomicheskii byulleten. – M. 2003. №2.
3. L.S. Chernoy. Globalizatsiya: proshloe ili budushee? Transformatsiya rynochnykh xozyaystvenno-ekonomicheskix sistem. M.: IKTs «Akademkniga», 2003 g.
4. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – M.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.
5. Daniltsev A.V. Mejdunarodnaya trgovlya. Instrumenty regulirovaniya: O'quv-amaliy qo'llanma. Ikkinchi tahrir. – M.: Delovaya literatura, Paleotip, 2004.
6. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva i evolyutsiya ekonomicheskoy roli gosudarstvo. Pod. Red. Prof. M.V. Kulakova, prof. M.N. Osmovoy. – M.: TEIS 2001. str. 1-20.

20-MAVZU: GLOBALLASHUVGA QARSHI HARAKATLAR, NORASMIY TASHKILOTLAR VA ANTIGLOBALIZM FENOMENI

REJA:

- 1. Globalizmga qarshi harakatlarning vujudga kelish sabablari, mondializm.**
- 2. Antiglobalizmning asl mohiyati va uning ko'lam.**
- 3. Antiglobalizmning asosiy shakllari.**

1. Globalizmga qarshi harakatlarning vujudga kelish sabablari, mondializm.

O'tgan asrning 90 yillaridan buyon va XXI asrda jahon iqtisodiyotining globallashuvi qariyb har bir ma'lumotli kishining nazarida turgan jarayondir. Bu jarayonga salbiy munosabatda bo'lgan va milliy davlatchilik asoslariga hamda jamiyat qadriyatlariga putur etkazayotgan va boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaramlikni kuchayishiga olib keladigan jarayon deb hisoblaydigan kimsalar "globalizm" so'zini o'zlarini muloqot muomalasida ishlatishni umuman istamaydilar. Ular qoida tariqasida bu so'zni o'rniga "mondializm" (frantsuz tilidagi Le monde- butun dunyo yoki jahon) so'zini afzal ko'rishadi. Lekin "global" so'zi uzoq vaqtlardan beri butun dunyoni anglatuvchi so'z sifatida ko'pchilik davlat rahbarlari va olimlarning muloqot va ilmiy muomalalarida davlatlararo va jamiyatlararo kishilar o'rtasidagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy aloqalarni kengayib borayotganligini anglatadigan ob'ektiv jarayonlarni ifodalovchi atama, tushuncha sifatida ishlatiladi. Sababi, qadim zamonlardan beri turli millatlarga mansub kishilar va alohida mamlakatlar bir birlari bilan savdo-sotiq qilishgan, madaniy aloqalarda va turli xil munosabatlarda bo'lishgan. Aloqa vositalari rivojlanib borgan sari, bunday aloqa va munosabatlar chegaralarini kengayib borishi globalizatsiya-globallashuv deb atala boshladi.

Biroq, globallashuv, hozirgi paytda butun jahondagi mamlakatlar, xalqlar va alohida kishilar:- fan nomoyondalari, tadbirkorlar va boshqalar o'rtasidagi

ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ehtiyojlardan kelib chiqadigan jarayonlarning maqbul ob'ektiv ifodasi bo'lib, inkor etilishi mumkin bo'lmagan hodisadir. Lekin, mondializm nomoyondalari bu jarayonlarning oqibatlarini ro'kach qilib, o'zlarini milliy, diniy va mamlakat aholisini mentaliteti bilan uning sotsial-iqtisodiy jihatlarini uyg'unligiga putur etkazadigan jarayon sifatida qarab globallashuvni inkor etuvchilardir.

Globallashuv va mondializm o'rtasidagi farqning tub mohiyati shundaki, globalizm har qanday tarzda ham ijtimoiy tuzum asoslariga kuchli ta'sir qilmaydi, aksincha, millatlararo aloqalar qanchalik kengaymasin, ular davlatlar tomonidan aniq tartibga solinadi va bunday jarayonlar bilan bog'liq tovarlar oqimi, kapital va mehnat resurslari(ishchi kuchi) migratsiyasi nazorat qilinadi. Umuman olganda bu jarayonlar mamlakatlararo va millatlararo globallashuv jarayonlaridir va u tabiiy – ob'ektiv hisoblanadi. Masalan, mamlakatlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi savdo-sotiq va boshqa aloqalar uzoq tarixiy davrlardan beri mavjud. Miloddan avvalgi davrlarda va o'rta asrlarda, ayniqsa sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari va buning uchun o'sha davrlarga xos infratuzilmalarni yaratilishi islom davlatlari o'rtasidagi chegaralarning shaffofligi, ayrim hollarda chegaralarning noaniqligi o'ziga xos globallashuvga misol bo'la oladi. Lekin bunday globallashuv o'z davriga xos ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. Yana bir misol, o'rta asrlarda Novgorodliklar va Prussiya knyazliklari o'rtasidagi savdo-sotiq ishlari rus va nemis xalqlari o'rtasidagi millatlararo munosabatlar sirasiga kiradi. Keyinchalik, XV asrda Germaniyada tashkil topgan “Ganza” savdo kompaniyasining savdo aloqalari, Evropa davlatlarida XIII-XVI asrlarda mavsumiy savdo yarmarkalarining o'tkazilishi ham davlatlararo va millatlararo globallashuvning bir shakli sifatida nomoyon bo'lgan edi.

Ta'kidlash joizki, ayniqsa kapitalizm genezisi davrida(XVII-XIX asrlarda) globallashuv jarayonlari o'ziga xos shaklda biroz jadallashdi. Bunga mustamlakachilik bilan bog'liq harbiy-siyosiy harakatlarning, iqtisodiy manfaatlarni ro'yobga chiqarish uchun amalga oshirilishi yaqqol misol bo'la oladi.

Fanimizning dastlabki mavzularidan sizga ma'lumki, globallashuv jarayonlari kapitalga asoslangan tovar ishlab chiqarishning, ya'ni kapitalistik bozorli iqtisodiyotni buyuk geografik kashfiyotlardan keyin asta-sekin shakllanib rivojlanishi davrlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, XIX asrning oxiri va XX asrda tez rivojlanib, uning ob'ektiv asoslari vujudga keldi. Ayniqsa, Sovet ittifoqi va sotsialistik davlatlarda yuz bergan parchalanishlardan keyin, yangi bozorli iqtisodiy tizimlarning shakllanib vujudga kelishi keng qamrovli globallashuvga sabab bo'ldi.

Antiglobalizmni vujudga kelishini asosiy sabablarini ko'rib chiqishdan oldin, uni mohiyatini chuqur anglab ta'rif berishimiz kerak. Antiglobalizm, ya'ni “mondializm” biz yuqorida ko'rib chiqqan jarayonlarni inkor etmaydi, lekin, hozirgi globallashuv jarayonlarini boshqacha talqin etadi. Ularning fikricha, hozirgi globallashuv jarayonlari ob'ektiv hodisa emas, balki iste'molchilarni ko'payib borayotganligi tufayli turli xil moddiy ne'matlarni ishlab chiqaradigan va sotadigan transmilliy korporatsiyalarning manfaatlariga buysungan jarayon bo'lib, u mamlakatlar ustidan hukmron globalizatsiyadir va u davlatlar va xalqlar

o'rtasidagi chegaralarni emirib, ularni yo'q qiladigan jarayondir. Mondializmning asl mohiyati aynan shundan iborat bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin:- ***Antiglobalizm(mondializm)- bu globallashuv jarayonlarining alohida jihatlarini zamonaviy shakllariga, xususan, global transmilliy korporatsiyalar va butunjahon savdo tashkiloti(BJST) kabi hukumatlar savdo tashkilotlarining ustunligiga qarshi qaratilgan siyosiy harakatdir.***

Bizni davrimizga xos bo'lgan ommaviy antigloballashuv namoyishlarini vujudga kelishini ob'ektiv sabablarini mufassal tasavvur qilish uchun hozirda globallashayotgan dunyoning asosiy xususiyatlarini mantiqan sarhisob qilish joiz bo'ladi. Avvalambor ta'kidlash joizki, savdo oqimlari to'siqlarini kamayishiga qaramay, faqatgina kapital bozorlari haqiqatdan ham global hisoblanib, u banklarning, trastfirmalarning, maslahatlar va takliflar beruvchi konsalting kompaniyalarning, shimoliy postindustrial qutb korporatsiyalarining (Shimoliy Amerika, Evropa, Yaponiya) qo'lida saqlanmoqda. Ko'p jihatlarni o'z ichiga qamrab olgan nomiga qaramasdan, globallashuv jarayonlari shimoliy hududlarda joylashgan rivojlangan mamlakatlarni o'z ichiga olib, ulkan mintaqalar bo'ylab o'tib, lekin, qolgan mamlakatlarni jahon taraqqiyotining bir chekkasiga qoldirmoqda.

Globallashuvning yana bir muhim jihati shundaki, u imtiyozlarga ega tizimni bir qismi bo'lish imkoniyatini bermaydi. Globallashuv Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarini ko'pchiligini, Yaqin Sharq (Isroildan tashqari) va Osiyoning ayrim mamlakatlariga haligacha etib bormagan. Globallashuv jarayonlaridan dunyoning aksariyat davlatlarini va uning butun bir mintaqalarini chetlashtirilishi, ularni istisno etilishi, globallashuvga qarshi harakatlar, etnik-milliy nizolar, terrorizm va qurolli to'qnashuvlar xavfini shubhasiz oshiradi. Bunday globallashuv jarayonlari barqarorlikni keltirib chiqarmaydi, aksincha, jahondagi umumiy vaziyatni beqarorlashtiradi.

Aslida globallashuv dunyoning barcha mintaqalari va joylari uchun qariyb bir xil rivojlanish sharoitlarini talab qilishi kerak. Lekin, real hayotda, yaxshi rivojlanmagan-kambag'al va rivojlangan boy mamlakatlarda yashovchi aholining daromadlari o'rtasidagi nomutanosiblik nafaqat o'sib bormoqda, balki eng rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tor doirada o'zaro amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo davlatlarga qaraganda, hukumatlari o'z eksportchi korxonalariga yordam beradigan va mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari ancha past bo'lgan mamlakatlarga moliyaviy vositalar va texnologiyalarni o'tkazishga hamda ulardan o'z bozorlariga raqobatbardosh mahsulotlarni qabul qilishga qarshi chiqmoqdalar.

Globallashuv apologetlari jahon bozori globallashib borayotganligiga ishontirishga harakat qilmoqdalar. Yalpi mahsulot ishlab chiqarishda etakchi mamlakatlar faqat o'zlarini ichki bozorlarini, aynan o'zlarida ishlab chiqarilgan mahsulot bilan ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib qolmoqdalar. Masalan, AQSH sanoatining tashqi savdo va ayirboshlashga jalb etilmagan tarmoqlari va sohalari mamlakatdagi barcha ishchilarni 82%ni qamrab oladi, ish bilan band bo'lganlarning qariyb 90%i o'z aholisini iste'moliga mo'ljallangan ishlab

chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlaydi. Zamonamizning iqtisodiy hududlarini uchta qutbidagi rivojlangan mamlakatlar AQSH, Evropa Ittifoqi davlatlari va Yaponiya iqtisodiyotida yaratilgan YAIMning atigi 12%i eksport qilinadi. Bu mamlakatlarning milliy kapitali hajmini nazarda tutadigan bo'lsak, bu ancha katta ko'rsatgich.

Afsuski, keyingi paytlarda globallashuv jarayonlari tobora ashaddiy kurash maydoniga aylanib bormoqda. Bu jarayonlarga qarshi kurashadiganlar, o'zlarini himoyasizlik hissi qamrab olgan va boshqarib bo'lmaydigan jarayonlar hamda ko'r-ko'rona hayot adolatsizligi qurbonidek his qiluvchi toifadagi odamlar kiradi. "O'z sha'nini ta'qirlangan deb hisoblagan, vujudga kelayotgan vaziyatlar qurboni bo'lish hissi bilan g'azablanganlar, globallashuvga qarshi harakatdagilarni ancha kuchaytirishi mumkin va bu globallashuv jarayonlari ularga ko'proq AQSH uchun foydalidek ko'rinishi mumkin"- deb yozgan edi F.Keyzberg,- London Xalqaro Institutining sobiq direktori. Yana uning yozishicha, "o'tgan asrda Germaniya, Italiya va Yaponiya militarizmining o'zlarini "proletar millatlar"- deb e'lon qilishlari, bu mamlakatlarda keng tarqalgan va ommaviy tus olgan tuyg'u,- o'z davrining iqtisodiy rivojlanishidan boshqa mamlakatlar o'rtasida o'zaro taqsimlangan foydadan, nafdan umuman foyda olmaganlik hissida o'z aksini topadi". Uning ogohlantirishicha, Ikkinchi jahon urushidan keyin 70 yil o'tgach, dunyodagi eng nufuzli mamlakatlarda shu kabi his tuyg'ular va qarashlar yana paydo bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, globallashuv jarayonlari bo'yicha G'arb mamlakatlari va boshqa ayrim mamlakatlar tadqiqotchilari, dunyo miqiyosida deyarli barcha iqtisodiy to'siqlarni bartaraf qilinishi, birinchi navbatda eng kuchli davlatlar uchun foydali ekanligini tan oladilar. Jahon iqtisodiyotini globallashuvdan eng ko'p foyda ko'rgan mamlakat AQSH hisoblanadi. Hattoki, 1997-1998 yillardagi iqtisodiy inqiroz Osiyo davlatlarini bir qismini qamrab olishiga va Evropa ittifoqi mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarini keskin pasayishiga qaramay, AQSH sanoati va qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy rivojlanish haqiqiy odimlovchi o'sishni eslatardi. "Globallashuvdan eng ko'p foyda olishda, -ta'kidlagan edi amerikalik siyosatshunos olim E.Basevich, -AQSH vujudga kelayotgan qulay shart-sharoitlardan unumli foydalanayapdi. Ularning bosh vazifasi kelajakda Amerikaning jahondagi gegemoniyasini uzoq muddatga mo'ljallangan kengaytirish strategiyasini ishlab chiqishdir".

Antiglobalizmni vujudga kelish sabablarini aniqlashda, uning yana bir jihatini eslatib o'tish lozim bo'ladi. Jahon iqtisodiyotini globallashuvi natijalaridan asosan bir guruh sanoati rivojlangan mamlakatlar va "o'yin qoidalari"ni belgilaydigan hamda bozorlarni shakllantiradigan transmilliy korporatsiyalar juda katta foyda oladilar. Xalqaro savdo va kapital harakatining katta qismi aynan sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladi. Bu jarayonlarda transmilliy korporatsiyalar hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, ular jahon eksportining qariyb 2/3 qismini nazorat qiladilar. Jahondagi eng boy 200 kishining aktivlari, iqtisodiy tabaqalarning boshqa tomonida joylashgan 2 milliard kishining umumiy daromadidan oshib ketishi, dunyo boyligini ular qo'lida to'planayotganligining yaqqol nomoyon bo'lishidir. Lekin, shu bilan bir vaqtda

qashshoqlik dengizida g'arq bo'layotganlarning mavjudligi, tarixan ijtimoiy qo'zg'olonlarga va sotsial portlashlarga tayyorgarlik bo'lib kelayotganlik ehtimolini vujudga keltirmoqda.

Xalqaro savdo hajmining oshib borishi, jahon iqtisodiyotidagi umumiy iqtisodiy o'sishga olib kelmadi. XX asrning keyingi ikki o'n yilligida faqat 33ta mamlakat aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAAlpi Ichki Mahsulot(YAIM)ning yillik o'sishini 3% darajasida ushlab tura oldi. 59ta mamlakatda jon boshiga to'g'ri keladigan YAIMning hajmi pasayib ketdi, va 80ta mamlakat aholisi bundan o'n yillar oldingi darajaga qaraganda aholi jon boshidan ancha past darajaga ega bo'lib qolmoqda. SHu bilan birga, kam rivojlangan mamlakatlar ko'pincha global savdoda eng ko'p integratsiyalashgan mamlakatlar hisoblanadi. Masalan, Lotin Amerikasi mamlakatlari qaraganda, Afrikaning sahroi kabirdan janubroqda joylashgan mamlakatlar YAIMning tarkibida eksportning miqdori nisbatan ancha yuqori, lekin, ularning eksporti asosan qishloq xo'jaligi va undirma sanoati mahsulotlariga to'g'ri keladi. Bunday iqtisodiy sharoitda ular oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan jahon bozori noaniqligi oldida zaif bo'lib qoladi.

2. Antiglobalizmning asl mohiyati va uning ko'lami.

Hozirgi paytda, antiglobalistlarni ta'kidlashlaricha, G'arb mamlakatlari nazariyotchilari va siyosatchilari, boshqa davlatlarning milliy mustaqillik suverenitetiga qarshi chiqib, milliy davlatchilik pozitsiyalariga hujum qilmoqdalar. Ayrim olimlarning va siyosatchilarning fikricha, har qanday davlat aslida arxaizm bo'lib, globallashuv sharoitida u o'z pozitsiyasini millatlararo tuzilmalarga bo'shatib berishi kerak. Darhaqiqat, globallashuv sharoitida milliy davlatchilik asoslari nafaqat umuman so'nmasligi, balki, aslida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini kuchaytirishi kerak. Agarda u yoki bu mamlakat barcha iqtisodiy to'siqlarni bartarf etadigan bo'lsa, unda milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish imkoniyatlari kamayadi va bu holat milliy davlatchilik asoslarini zaiflashishiga olib keladi. Bunday sharoitda millionlab ishchi-xodimlar an'anaviy milliy iqtisodiyotni zaiflashtiradigan global iqtisodiy tizimda o'z mavqe'larini yo'qotadilar.

Antiglobalistlar aslida globallashuvga qarshi emasliklarini va birinchi navbatda uni aloqa tizimlarini rivojlantirish bilan bog'liq foydasini ularning o'zlari bir necha bor ta'kidlamoqdalar. Biroq, ular bozor raqobati tamoyillarini inkor etsalar ham "boshqacha, ya'ni xalqaro tovarlar va xizmatlar bozoriga erkin kirishni ta'minlaydigan globallashuv tarafdorlari". SHuning uchun bo'lsa kerak, globallashuvga qarshi antiglobalistlar harakatida turli xil kuchlar va oqimlar nomoyon bo'lmoqda:

Asl globallashuv jarayonlariga qarshi turuvchilarga;

O'z maqsadlarini globallashuvning muqobil, ya'ni yanada demokratik va insonparvar modelini topishda ko'radigan oqimga tegishlilarga bo'linmoqda.

XXI asrga kelib antiglobalizm, milliy davlatchilik chegaralaridan chiqib ketgan qudratli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylandi. Rossiyalik iqtisodchi olim E.A.Arzoysning ta'kidlashicha, globallashuvga qarshi harakat tufayli "yovvoyi globallashuvni jilovlash" zaruratini tushunib etish tobora ortib bormoqda. Keyingi paytlarda, neoliberal globallashuv inqirozidan chiqishning "milliy" yo'lining

yoʻqligi va faqat “transmilliy” yoʻlining mavjudligi tobora ravshanlashib bormoqda. Bir qutbli dunyoni barpo etishning neoliberal(yangi liberal) nazariyasi va amaliyotiga qarshi boʻlgan antiglobalistlar, zamonaviy dunyoning sotsial-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining boshqa modelini taklif qilmoqdalar.

Antiglobalizmning sotsial-reformizm(sotsial-islohotchilik) varianti, hech boʻlmaganda demokratiya etarlicha rivojlangan, inson huquqlari va demokratik qoidalarga hurmat bilan qaraydigan, fuqarolik hokimiyati davlat siyosatidan ustunligi bilan ajralib turadigan ijtimoiy bozorli iqtisodiyot tamoyillarini roʻyobga chiqaradigan modelini yaratishni nazarda tutadi, yaʼni ular nazariy jihatdan SHved iqtisodiy modelini butun jahon iqtisodiyotiga oʻtkazishni taklif qilmoqdalar.

Eng muhimi shundaki, globalizmga qarshi harakatning mohiyati, uning erkin va hurfiylik tamoyillariga hamda koʻp jihatlilikka egaligidir. Bu harakat tabaqalashmagan oʻzaro gorizontal aloqalardan iborat boʻlib, ishtirokchilarining hamkorligi, harakat tuzilmasining aniqligi va tezkor yaratilishi(tashkil etilishi) hamda uni tezda barham topishi, harakatlar hamkorligiga “kirish” va “chiqish” uchun ochiqligi, foydalanadigan umumiy resurslarning(birinchi navbatda informatsion axborot resurslarining) mavjudligi bilan va ishtirokchilarning roli, koʻlami(oz yoki koʻpligi), faoliyat mazmuniga nisbatan uning ikkilamchi shakli va tuzilmalaridan qatʼiy nazar teng huquqli ekanligi, tarmoq tamoyili yoki kelishuvlarga asoslangan xalqchilligi, yaʼni ishtirok etishni demokratiyalashganligi bilan tavsiflanadi.

Antiglobalizmning, yaʼni, globalizmga qarshi kurashning yana bir muhim jihati, uning baynalmillikka asoslangan sinfiylik xususiyatidir, yaʼni ishtirokchilarning qanday tabaqaga tegishlilikidan qatʼiy nazar, oddiy xalq manfaatlarini koʻzlanishida, uning mentalitetiga molik tarzda milliy qadriyatlarni saqlanishida oʻz ifodasini topadi.

SHunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib antiglobalizm harakatiga yana bir taʼrif berishimiz mumkin: ***Antiglobalizm – bu globallashuvga qarshi xalqaro jamoatchilik harakati boʻlib, uning maqsadi globallashuvni rad etish va globallashuvning demokratik-xalqchil modelini shakllantirishga qaratilgan chiqishdir.***

3.Antiglobalizmning tasnifi va asosiy shakllari.

Antiglobalizm harakatining tasnifi, har qanday tasniflar singari nisbatan shartlidir, chunki amalda antiglobalizm harakatining barcha shakllari bir-biri bilan uzviy bogʻliqdir. Biroq nazarda tutilayotgan tasnif, antiglobalizm harakatining asosiy shakllariga xos belgilari xususiyatlarini yanada aniqroq namoyish etishga imkon beradi. Tasnif natijasi oʻlaroq, antiglobalizmni oltita asosiy shaklini ajratib koʻrsatish mumkin:

1.Iqtisodiy antiglobalizm. Antiglobalizmning iqtisodiy shakli, uning boshqa shakllariga nisbatan eng muhimi deyish mumkin va uning asosiy koʻrinishlari boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

-milliy iqtisodiy manfaatlardan farqli oʻlaroq, transmilliy korporatsiyalarni iqtisodiy manfaatlarini qoʻllab – quvvatlovchi hukumatlarga qarshi qurolli kurash;

-globallashuv siyosatini olib boruvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatiga qarshi kurash;

-antiglobalistlar o'zlarining sammitlarini va konferentsiyalarini o'tkazishi, yangi tarafdorlarni jalb qiladigan qarshi kurash nazariyasini(mavkurasini) ishlab chiqish;

-transmilliy korporatsiyalar faoliyatiga qarshi harakatlar(tovar va xizmatlarni kuch ishlatish yo'li bilan va sud orqali baykot qilish).

Iqtisodiy antiglobalizmni keng jamoatchilikka ko'proq ma'lum bo'lgan shakli bu mitinglar, namoyishlar va manifestatsiyalardir. Ular birinchi navbatda "katta sakkizlik" mamlakatlari sammitlari va jahon iqtisodiy forumlari, Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon Banki yig'ilishlari paytida olib boriladi.

2.Moliyaviy antiglobalizm. Hozirgi zamonda shakllangan ijtimoiy siyosiy sharoitda iqtisodiy globalizm moliyaviy globalizm bilan uyg'unlashib ketadi. Moliyaviy antiglobalizmni etakchi o'ziga xos avangardi bo'lib ATTAS hisoblanadi. Attas- bu 1998 yilda Frantsiyada tashkil etilgan bo'lib, u "moliyaviy operatsiyalarda fuqarolar foydasiga soliq solishni qo'llab – quvvatlash uchun ijtimoiy(sotsial) harakat"dir. ATTAS – antiglobalizm harakatining eng kuchli yadrosi – markazi hisoblanadi.

Moliyaviy sohada antiglobalistlarning talablarini bir nechta qoidalarda umumlashtirish mumkin:

-qarzdor rivojlanayotgan va sobiq kommunistik mamlakatlarni qarzlarini bekor qilish;

-xalqaro kreditlar berishni yangi qoidalarini ishlab chiqish;

- Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon Bankini demokratik tamoyillar asosida tashkil etiladigan mintaqaviy banklar tizimi bilan almashtirish.

Ularning talablaridan ko'rinib turibdiki, barcha sohalarda va ayniqsa moliyaviy-iqtisodiy sohada mamlakatlarning va TMK larning faoliyatlarini muayyan darajada tartibga solish, barcha mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlarini xalqchil qoidalar asosida ro'yobga chiqarish talab qilinadi.

3.Siyosiy antiglobalizm. Siyosiy antiglobalizm harakatining asosiy shakli, uni o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari bilan bog'liq bo'lib, siyosat sohasidagi globallashtirishning ziddiyatlari va kamchiliklarini ajratib olib, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish va jahon hamjamiyatiga ma'lumot sifatida etkazib berishdan iborat. Yana shuningdek, "molekulyar aksiyalar"(molekulyar aksii protesta) va jahon mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni xalqchillashtirib uyg'unlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdir.

Siyosiy antiglobalizmni boshqa antiglobalizm harakatlaridan ajratib alohida ko'rib chiqish juda muhim, chunki globallashtirish nafaqat texnik-iqtisodiy rivojlanishning, balki asosida iqtisodiy manfaatlar yotgan siyosatning ham ob'ektiv natijasidir. Global iqtisodiyotni vujudga kelishining asosiy agentlari bo'lib "Katta ettilik" mamlakatlari hukumatlari va ular tomonidan nazorat qilinadigan xalqaro tashkilotlar(institutlar) – Xalqaro Valyuta Fondi(jamg'armasi), Jahon Banki(JB) va Butunjahon Savdo Tashkiloti(BJST) hisoblanadi. Bu tashkilotning(institutning) asoslarini "Katta ettilik " hukumatlari va tashkilotlari tomonidan Vashington Konsensusi – deb nomlangan talablar ruhida olib borilgan siyosat, ya'ni qayta tartibga solish, erkinlashtirish va xususiylashtirish siyosati yaratdi.

4.Informatsion antiglobalizm. Informatsion (axborotlashgan)

antiglobalizmning eng ko'p tarqalgan shakllari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- transmilliy korporatsiyalar va kompaniyalarga qarshi maqsadli informatsion aksiyalar, ya'ni ularga qarshi chora-tadbirlar va chiqishlar(shu jumladan xakerlar yordamida);

- antiglobalistlarning informatsion – axborotli targ'ibot va tashviqotlari;

- turli mamlakatlarda omaviy chiqishlarni tashkil etish uchun internetdan foydalanish.

Globallashuvga qarshi harakatda internet juda muhim rol o'ynaydi. U gorizontal aloqalarni amalga oshirishga va globallashuvga qarshi harakatda kichik guruh bo'g'inlarini tezkor ravishda yaratishga imkon beradi. Transmilliy koaporatsiyalarga va kompaniyalarga qarshi maqsadli chiqish uchun antiglobalistlar harakati faollari internetda o'zlarining ixtisoslashgan saytlarini yaratganlar.

5. Gumanitar(insonparvar) antiglobalizm. Gumanitar – insonparvar antiglobalizmning nomoyon bo'lish shakllari siyosiy va informatsion antiglobalizmning shakllariga o'xshaydi va ular quyidagilardan iborat:

- “molekulyar aksiyalar” orqali;

- antiglobalistlar o'zlarining insonparvarlik g'oyalari va harakatlari bo'yicha sammitlar o'tkazadilar;

- Ommaviy axborot vositalari orqali insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladilar.

- Globallashuvga qarshi harakat nomoyondalari o'z faoliyatlarida umuminsoniy-insonparvarlik tamoyillari va g'oyalarini hamda mavkuralarini himoya qiladilar. Unga ko'ra har bir inson, qanday etnik guruhga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar huquqlari, erkinliklari va burchlari bo'yicha umuminsoniy tenglikka ega.

Antiglobalistlarning talablari umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi:

- erkin mehnat;

- zamonaviy qulaylik darajasini ta'minlovchi etarlicha moddiy ne'matlar;

- madaniyat va madaniy yutuqlardan erkin foydalanish asosida ta'lim va shaxsning intellektual hamda ma'naviy rivojlanish imkoniyati;

- oila va bolalar muhofazasi, oilaviy qadriyat;

- sog'liqni saqlash va uni ishonchli himoya qilish;

- shaxsni qadr-qimmatini hurmat qilish va uni xavfsizligini ta'minlash;

- qarigan uni yashashini va maishiy faravonligini ta'minlash.

Bu harakat nomoyondalari safi ko'proq yirik olimlar, yozuvchi-publitsistlar, san'atshunos va ma'rifatparvar shaxslardan iborat.

6.Ekologik antiglobalizm. Antiglobalistlar tomonidan jamoatchilikni e'tiborini qaratadigan eng muhim jihatlardan biri ekologik muammolar hisoblanadi. Ekologik antiglobalizmni asosiy shakllari bo'lib ekologik forumlar va ekologik muammolarni hal etish yo'nalishidagi uchrashuvlar hisoblanadi. Bu ekologik forum va uchrashuvlarda quyidagi dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi:

Ekologik muvozanatni buzilishini turli shakllariga qarshi ommaviy va maqsadli harakatlar;

Genetik jihatdan o'zgartirilib modifikatsiya qilingan o'simliklar ekilgan

maydonlarni yo‘q qilish;

O‘rmonlarni kesilishiga qarshi kurashish va ularni kengaytirish hamda ko‘paytirish choralari ishlab chiqish va qo‘llash;

Yirik va o‘rta miqiyosdagi shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish, chiqindilarni qayta ishlash va zaharlilarini yo‘q qilish orqali ekologik muhitni yaxshilash.

Ekologik antiglobalizmning vujudga kelishi XX asrning ikkinchi yarmida yadroviy qurollarni ishlab chiqarilishi va sinovdan o‘tkazilib turilishi hamda tabiiy resurslarni ayovsiz ishlatilishi, sanoat chiqindilarini tabiatni ifloslanishiga olib kelishi natijasida amalga oshdi. Dastlab bu harakatning nomoyondalari ilm-fan vakillari bo‘lib, ular o‘zlarining atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan takliflari va ilmiy ishlanmalari bilan tashabbus ko‘rsatib chiqdilar. Natijada, 1972 yili eng yirik jahon tashkiloti BMT, atrof – muhitni muhofazasi bo‘yicha alohida maxsus dastur(YUNEP)ni ishlab chiqib, hozirgi kungacha shu dastur asosida BMTga a‘zo mamlakatlarning qariyb barchasida atrof – muhit muhofazasi bo‘yicha talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 1992 yili atrof – muhit muhofazasi bo‘yicha Rio-De-Janeyroda o‘tkazilgan BMTning konferentsiyasida 27ta tavsiyaviy xarakterdagi tamoyillar ishlab chiqilib, shu asosda ekologik xavsizlikning universal me‘zonlari qabul qilinib, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, sanoat va harbiy sohadagi chiqindilardan rejali foydalanish, yangi avlodni atrof muhitni asrab – avaylashga qarata tarbiyalash borasidagi ishlarni amalga oshirish belgilanlan edi. Hozirgi kunga kelib, ekologiyani – tabiiy muxitni tiklash va uni asrash eng dolzarb masalaga aylangan.

XULOSA. SHunday qilib, antiglobalizm(mondializm)ning vujudga kelishi ob‘ektiv asosga ega, chunki globallashuv, ishlab chiqarish kooperatsiyasining dastlabki bosqichidan boshlab asta-sekin keng qamrovli integratsiyaga aylanishi, jahon bozorini vujudga kelib kengayishi, yirik kapital egalari manfaatlari ko‘zlanib kapital migratsiyasining kuchayishi va uning turlarini ko‘payishi, mustamlakachilik siyosati tufayli rivojlanmagan mamlakatlarni iqtisodiy va siyosiy qaramlikka tortilishi, ularga qarshi kuchlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

XX asrda yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlarni kengayishi va transformatsion tus olishi, ya‘ni iqtisodiy resurslarga boy mamlakatlarni Transmilliy korporatsiya va kompaniyalar tomonidan qamrab olinishi, “katta ettilik” davlatlari, ayniqsa AQSHning dunyo gegemonligiga intilishi va shu jarayonlar bilan bog‘liq barcha siyosiy – iqtisodiy harakatlar tufayli va yana foyda – naf ketidan quvib, mamlakatlar hukumatlari yordamida Transmilliy korporatsiya va turli savdo kompaniyalarining yangi bo‘g‘inlarini – filiallarini tashkil etilishi hamda ular faoliyatini kengayishi, tabiiy resurslarni maksimal darajada o‘ndirilib ishlatilishi va hokazo, natijada, mamlakatlararo iqtisodiy, siyosiy, Fan-texnika, informatsion va boshqa aloqalarning kuchayishi hamda kengayishi, ushbu jarayonlarni tartibga olish va boshqarish uchun xalqaro tashkilotlar(institutlar)ning tashkil etilishi, ular faoliyatining kengayishi, globallashuv jarayonlarini baynalminallashuviga olib keldi. Baynalminallashuv esa jahon miqiyosidagi sotsial-iqtisodiy va siyosiy aloqalarning kuchayishiga, mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib qolishiga, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning, rivojlangan mamlakatlarga iqtisodiy va ayniqsa moliyaviy jihatdan qaramligini hamda ularning

qarzlarni ortib borishiga olib keldi. Buning natijasida, nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham globallashuv jarayonlariga qarshi harakatlar kuchayib ketdi.

Globallashuv jarayonlariga qarshi harakat turli shakllarda nomoyon bo'lib, u globallashuvning salbiy oqibatli tendentsiyalariga qarshi harakat sifatida tavsiflanadi. Antiglobalizm(mondializm)ning har bir shakli o'ziga xos tarzda rivojlanib, uning ko'lami kengayib bormoqda.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Antiglobalizm tushunchasi mohiyatini tushuntiring?
2. Globallashuv va mondializm tushunchalarini mazmun-mohiyatini tushuntiring?
3. Antiglobalizm(mondializm)ni vujudga kelishining sabablari?
4. Antiglobalizmni vujudga kelishi ob'ektiv sabablarga egami?
5. Antiglobalizm va sotsial-reformizm variantini qanday tushunasiz?
6. Antiglobalizmni asosiy turlarini vujudga kelishini sabablari?
7. Iqtisodiy antiglobalizmni mohiyati?
8. Moliyaviy antiglobalizmni mohiyati?
9. Siyosiy antiglobalizmni mohiyati?
10. Informatsion antiglobalizmning mohiyati?
11. Gumanitar(insonparvar) antiglobalizmning mohiyati?
12. Ekologik antiglobalizmning mohiyati?

Bibliografik ma'lumotnoma:

1. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. "Global iqtisodiyot" (O'quv qo'llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –bet.
2. Глобальные тенденции 2030: Альтернативные миры [Электронный ресурс]. Национальный Совет по разведке. — Декабрь 2012. — Режим доступа:<http://www.nkibrics.ru/system/asset/publications/data/53c7/b3a1/676c/7631/400a/0000/original/Global-Trends-2030-RUS.pdf?1408971903>.
3. Zaytseva I.A. Глобальные риски, как факторы, влияющие на современную систему международных отношений // Проблемы постсоветского пространства. — 2017. — Т. 4. — № 4. — С. 356–363.
4. К середине века 68% населения планеты будет жить в городах [Электронный ресурс]. Организация Объединенных Наций, Департамент по экономическим и социальным вопросам. — Нью-Йорк. — Май 2018.

XULOSA

Global iqtisodiy tizim- bu milliy iqtisodiyotlarni yagona jahon bozor tarmog'lariga birlashtirgan iqtisodiy, huquqiy va siyosiy munosabatlar majmuidir. Jahon iqtisodiyotini shakllanishining asosi ayrim tovarlarni yoki xizmatlarni ishlab chiqarishda mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuvidir. Umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish o'zaro manfaatli almashinuvga qaratilgan. Jahon iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati - bu bir xil bo'lmagan milliy iqtisodiyotlarni o'zaro munosabatlarning teng sharoitlariga ega bo'lgan yagona iqtisodiy makonga qo'shilishidir. Milliy xo'jaliklarni unifikatsiyasi(yopiqligi, biqiqligi) jarayonida iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining siyosiy manfaatlari zarar ko'radi, tashqi siyosiy omillar va jahon bozorining holati o'zgaradi, shuning uchun global iqtisodiyotda qabul qilingan qarorlarning nomuvofiqligi, uni bashorat qilishning murakkabligi bilan ajralib turadi.

Global iqtisodiyotining asosiy xususiyatlaridan biri - bu ilmiy- texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi va uning natijalarini, ya'ni yangi texnologiyalar, materiallarni va biznesni boshqarish usullarini faol joriy etilishi iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlanishini ta'minlaydi hamda nomoddiy aktivlarning (intellektual mulk, ishbilarmonlik obro'si) rolini oshiradi. Milliy xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiy hajmini oldi-sotdi qilinadigan (jahon bozorida taqdim etiladigan) va sotilmaydigan (faqat ishlab chiqarilgan mamlakatda taqdim etiladigan) turlarga bo'linishi jahon iqtisodiyotini vujudga kelishi va uning globallasuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Ammo, hozirgi paytda zamonaviy global iqtisodiyotda moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiyalar va ommaviy axborot vositalari ustunlik qilmoqda. Ushbu holat moddiy ne'matlarni haddan tashqari ko'paytirish inqirozi va tabiiy resurslarning etishmasligi va xalqaro transportni legallashtirishga katta xarajatlar bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Xalqaro global iqtisodiy aloqalarni rivojlanishida transmilliy korporatsiyalar kapitallari va texnik jihatdan murakkab mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar etakchi o'rinlarni egalladi. TMKlar (transmilliy korporatsiyalar) jahon bozoriga doimiy ravishda yuqori hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradilar va etkazib beradilar, infratuzilmani tashkil etadilar va mavjud bo'lgan hududlarda ish o'rinlarini yaratadilar. Bunday tadbirlar muntazam ravishda kapital qo'yilmalarni talab qiladi.

Kapitalni jalb qilish va taqsimlash uchun mamlakatlarni mintaqaviy iqtisodiy va siyosiy birlashmalarga qo'shilishi natijasida, ularning ochiq iqtisodiyotini shakllanishi, milliy iqtisodiyotlarni nisbatan barqaror rivojlanishiga asos bo'ladi. Umuman olganda, mamlakatlar va mintaqalarning birlashishi xalqaro raqobatga qarshi turishga, hamkorlik uchun qulay sharoitlarga ega yagona bozorni shakllantirishga yordam beradi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlar chet el kapitali va ishlab chiqarish quvvatlarini jalb qilish, boshqa davlatlar hisobidan ish o'rinlari yaratish maqsadida soliq imtiyozlari va offshor zonalarini yaratadilar.

Global iqtisodiy tizimda jahon iqtisodiyoti tarkibidagi mamlakatlarning notekis rivojlanish tendentsiyasi mavjud bo'lib, u mamlakatlarni iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasiga qarab differentsialashtiradi. Jahon iqtisodiyotini hozirgi globallasuvi natijasida uchta mamlakatlar guruhi shakllangan:

- eng rivojlangan ("oltin milliard") yuqori turmush darajasi bilan;
- o'rtacha darajada rivojlangan - mahsulotlar bozorlari, xom ashyo va materiallar etkazib beruvchilar, texnik jihatdan murakkab tovarlarni yig'ish joylari sifatida ishlatiladi;
- "uchinchi dunyo" mamlakatlari jahon ishlab chiqarishidan chetlashtirilib, hayot darajasi o'ta pastligi, zararli tarmoqlarning joylashuvi va uchinchi tomonning moliyaviy yordamiga bog'liqligi bilan ajralib turadi.

Muammolar va istiqbollar. Jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishi XX asrning oxirgi yillarida AQSHning TMKlari va yirik kompaniyalarini jahon tovar bozoriga faol ravishda kirib kelgandan keyin boshlandi. G'arbiy biznesni boshqarish modelining intensiv rivojlanishi va ustunligi 2000 yilgacha davom etdi, undan keyin Xitoy maydonda arzonroq va diversifikatsiyalangan past sifatli mahsulotlar bilan paydo bo'ldi. Xitoyning hukmronligi 2008 yilgacha davom etdi - 2010 yilgacha kuchaygan global moliyaviy inqirozning boshlanishi, shundan so'ng milliy iqtisodiyotlarning bosqichma-bosqich tiklanishi boshlandi. 2010 yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr BRIKS mamlakatlari (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Afrika rivojlanayotgan iqtisodiyotlari) ning intensiv o'sishi, ekologik va oziq-ovqat muammolari va siyosiy bo'linishlarning kuchayishi bilan ajralib turadi. Tabiiy resurslarning etishmasligi va bank va moliya sohasidagi qonunchilikning kuchayishi moliya va ishlab chiqarish kompaniyalarining rolini pasaytirmoqda. Ko'pgina sohalarda sun'iy intellekt va ish oqimlarini avtomatlashtirishning joriy etilishi biznesni boshqarishning yangi modelini shakllantiradi.

ГЛОССАРИЙЛАР

Атаманинг ўзбек тилида номланиши	Атаманинг инглиз тилида номланиши	Атаманинг рус тилида номланиши	Атаманинг маъноси
Антиглобализм	Anti globalization	Анти-глобализация	глобаллашув жараёнларнинг ҳозирги кунда намоён бўлаётган баъзи жиҳатларига қарши йўналтирилган сиёсий ҳаракат
—АТТАС (Assosiation for the Taxation of Financial Transactions for the Aid of Citizens)	АТТАС (Assosiation for the Taxation of Financial Transactions for the Aid of Citizens)	АНОПГ (Ассоциация для Налогообложения Финансовых Операций для Помощи Гражданам)	антиглобалистлар ташкилоти
Божхона иттифоқи	Customs union	Таможенный союз	икки ва ундан ортиқ давлатларнинг бир-бирига ва учинчи мамлакатларга нисбатан соддалаштирилган тариф сиёсатини ўтказишидир
Божхона тарифи	Customs tariff	Таможенный тариф	товар оқимларининг чегарани кесиб ўтишида давлат томонидан олинадиган солиқ микдори кўрсатилган тартибланган товарлар рўйхати

Валюта	Currency	Валюта	маълум бир давлатнинг қонун билан ўматилган пул воситаси (миллий валюта), бир ёки бир неча етакчи мамлакатларнинг валютаси кўринишидаги жаҳон резерв пуллари, ХВФ ва Европа валюта тизими аъзолари томонидан кўп томонлама ҳисоб-китобларда фойдаланиладиган халқаро валюта бирликлари
Глобал муаммолар	Global problems	Глобальные проблемы	оламшумул аҳамиятга эга бўлган ва ўз ечимини топишида жаҳондаги барча мамлакатларнинг биргаликдаги ҳаракатларини талаб этувчи цивилизациямизнинг энг долзарб масалалари
Глобал молиявийиқтисодий бозор	Global financial and economic market	Глобальный финансовоэкономический рынок	жаҳон мамлакатлари ўртасидаги молиявий-иқтисодий алоқаларни ягона хўжалик тарзида амал қилишига асосланган муносабатлар
Давлат бюджети	State budget	Государственный бюджет	давлат даромадлари сарфларининг молиявий режаси

Дефляция	Deflation	Дефляция	инфляция даврида муомаладаги қоғоз пулни камайтириш. Давлат томонидан муомаладаги пул миқдорини камайтиришга қаратилган молия ва пул-кредит тадбирларини қўллаш орқали амалга оширилади
Диверсификация	Diversification	Диверсификация	(лотинча диверсус-ҳар хил ва фасере-қилмоқ, бажармоқ) - ишлаб

			чиқаришнинг самарадорлигини ошириш, маҳсулот ва хизматларни сотиш бозорларини кенгайтириш мақсадида тармоқ ва корхоналар фаолият соҳаларини кенгайтириш, маҳсулот ва хизматлар ассортиментларини кўпайтириш
Диверсификация стратегияси	Diversification strategy	Стратегия диверсификации	корхона фаолиятини мавжуд маҳсулотлар ва бозорлар турини кенгайтириш орқали ривожланиш стратегиясидир
Дивиденд	Dividend	Дивиденд	акционерлик жамияти соф фойдасидан акция эгаларига тўланадиган қисми бўлиб, у

			акционерларга нақд пул ёки акциялар билан тўланади
Жаҳон банки	World bank	Всемирный банк	1944 йилда Халқаро валюта жамғармаси билан бир вақтда тузилган биринчи давлатлараро инвестиция институтидир, ўз фаолиятини 1946 йил 25 июндан бошлаган
Жаҳон бозори	World Market	Мировой рынок	моддийлаштирилган ва моддийлаштирилмаг ан кўринишидаги ижтимоий маҳсулотни ишлаб чиқариш, тақсимлаш, айирбошлаш ва истеъмол босқичларни ўз ичига олувчи халқаро иқтисодий муносабатлар субъектларининг (миллий ва ҳудудий иқтисодиётлар, халқаро ташкилотлар ва корпорацияларнинг) ўзаро иқтисодий таъсирлашиш глобал муҳитидир
Жаҳон бозори конъюнктураси	World market conjuncture	Конъюнктура мирового рынка	жаҳон товар бозорларидаги сотиш шарти, ушбу бозорлардаги талаб,

			таклиф, нархлар даражаси, уларнинг ўзгариш тенденциялари
Жорий конъюнктура	Current conjuncture	Текущая конъюнктура	муайян даврда товарларга бўлган талаб ва таклифнинг таркиби, динамикасини шакллантирувчи иқтисодий шароит ва омиллар мажмуи
Жаҳон нархи	World Price	Мировая цена	талаб ва таклиф эгри чизиқлари таъсирини ҳисобга олган ҳолда миллий нарх кўрсаткичлари таъсирида халқаро савдо марказларида ҳосил бўлади
Жаҳон савдо ташкилоти (ЖСТ)	World Trade Organization(WTO)	Всемирная торговая организация (ВТО)	халқаро савдони институционал ва ҳуқуқий асосини ташкил этувчи мустақил давлатлараро ташкилот
Иқтисодиёт рақобатбардошлиги	Economy competitiveness	Экономическая конкурентоспособность	мамлакат иқтисодиётининг халқаро савдода иштирок этиш, жаҳон бозоридаги ўз ўрни ва мавқеини сақлаб қолиш ва кенгайтира олиш, жаҳон талабларига жавоб берадиган

			маҳсулотлар ишлаб чиқара олиш лаёқати
--	--	--	---------------------------------------

Иқтисодиётнинг реал сектори	Real sector of economy	Реальный сектор экономики	иқтисодиётнинг бевосита моддий неъматлар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш билан боғлиқ соҳаси бўлиб, у ўз ичига саноат, қишлоқ хўжалиги, қурилиш, транспорт, алоқа тармоқларини олади
Иқтисодий ўсиш	Economic growth	Экономический рост	реал ялпи ички маҳсулот умумий ҳажмининг ёки аҳоли жон бошига тўғри келадиган реал ялпи ички маҳсулотнинг олдинги йилга нисбатан ўсиши
Импорт	Import	Импорт	мамлакат ички бозорларида сотиш учун чет эл молларини, капиталини, технологиясини ва хизматларни олиб келиш
Инвестицион ҳамкорлик	Инвестицион ҳамкорлик	Инвестиционное сотрудничество	халқаро иқтисодий муносабатларнинг бир кўриниши бўлиб, ресурсларни рационал тақсимлаш, халқаро меҳнат тақсимоотида иштирок этиш натижасидаги устуналикларидан фойдаланиш орқали давлат томонидан иқтисодиётда нисбатан юқори натижаларга эришиш, технологик ишлаб чиқариш тузилмасини янгилаш кабиларни мақсад қилган

Инвестиция	Investment	Инвестиция	иқтисодий самара (фойда, даромад) олиш ёки ижобий ижтимоий натижага эришиш учун сарфланадиган пул маблағлари, банкларга қўйилган омонатлар, пайлар, қимматли қоғозлар (акция, облигациялар), технологиялар, машиналар асбоб-ускуналар, лицензиялар ва самара берадиган бошқа ҳар қандай бойликлардир
Инвестиция дастури	Investment program	Инвестиционная программа	ишлаб чиқаришни ривожлантириш мақсадида мамлакат ёки чет элларда иқтисодиётнинг турли тармоқларига узок муддатли капитал киритиш учун ишлаб чиқилган дастур
Инвестиция муҳити	Investment climate	Инвестиционный климат	инвестициялар жозибадорлиги ҳамда хавф-хатар даражасини белгилаб берувчи ижтимоийиқтисодий, молиявий ва сиёсий омиллар мажмуи
Инқирозга қарши мўлжалланган чоралар дастури	Anti-crisis program	Антикризисная программа	Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан 2009-2012 йилларга мўлжалланиб инқирозга қарши ишлаб чиқилган чоралар дастури бўлиб, мазкур дастурда талабни рағбатлантиришга йўналтирилган

			бир қатор молиявий имтиёзлар ва барқарор иқтисодий ўсиш суръатларини таъминловчи чоратабдирлар мажмуи ўз аксини топган
Инновацион технологиялар	Innovative technologies	Инновационные технологии	иқтисодиётга янгиликларни татбиқ этиш босқичларида қўлланилувчи усул ва воситалар мажмуи бўлиб, ўз ичига жорий этиш, тренинг, консалтинг, трансферт, аудит, инжиниринг каби турларини олади
Инновация жараёни	Innovation process	Инновационный процесс	янгилик ғоясини ривожлантиришдан унинг пировард истеъмолчи томонидан истеъмол қилинишигача бўлган мантикий изчилликда ҳаракатланувчи жараён
Инфляция	Inflation	Инфляция	пул муомаласи қонунларининг бузилиши натижасида миллий валютанинг кадрсизланиши, нархларнинг ўсиши
Инфляция даражаси	Inflation rate	Уровень инфляции	маълум вақт ичида (ой, йил) нархлар даражасининг фоиздаги ўзгариши
Инфраструктура	Infrastructure	инфраструктура	товар ишлаб чиқариш шартларини таъминловчи ишлаб чиқариш ва ноишлаб чиқариш тармоқлари комплекси: йўллар, алоқа, транспорт,

			маориф, соғлиқни сақлаш
Ипотека	Mortgage	Ипотека	банкнинг гаров хат, кўчмас мулк гарови асосида муайян муддатга ссуда бериши
Ишлаб чиқариш инфратузилмаси	Manufacturing Infrastructure	Производственная инфраструктура	ишлаб чиқаришнинг ривожланиши учун ташқи шарт-шароитларни таъминловчи тармоқлар мажмуи бўлиб, ўз ичига темир ва автомобил йўллари, электр, газ ва сув таъминоти, алоқа коммуникациялари, омбор хўжалиги ва бошқаларни олади
Ишлаб чиқаришни модернизациялаш	Modernization of production	Модернизация производства	ишлаб чиқаришни замонавий технологиялар билан жиҳозлаш, уни маънавий жиҳатдан янгилаш, таркибий жиҳатдан техник ва технологик қайта тузиш каби чора-тадбирларни ўз ичига олувчи жараён
Ишсизлик	Unemployment	Безработица	иқтисодий жиҳатдан актив (фаол) аҳолининг бир қисми ўз кучини қўллай олмай «ортиқча» бўлиб, меҳнат захираси армияси бўлиб қолиш ҳодисаси

Иқтисодий ва ижтимоий кенгаш (ЕКОСОС)	Economic and Social Council (ESC)	Экономический и Социальный Совет(ЭСС)	БМТнинг асосий бошқарув органларидан бири бўлиб, унинг халқаро иқтисодий муносабатлар соҳасидаги фаолиятини мувофиқлаштириб туради
Иқтисодий	Economic	Экономическая	худудий миқёсда сифат жиҳатдан

интеграция	integration	интеграция	янги иқтисодий муҳитни яратиш йўли орқали миллий хўжалик комплексларини ўзаро яқинлашиш ва бир-бирига кириб бориши жараёни
«Катта йигирмалик»	Big Twenty	Большая Двадцать	20 та йирик мамлакатлар гуруҳи бўлиб, унга жаҳондаги энг бой мамлакатлар ва йирик ривожланаётган давлатлар киради ва улар хиссасига жаҳон ялпи ички маҳсулотининг 90 фоиз улуши тўғри келади
Конъюнктура	Conjuncture	конъюнктура	бозорда маълум бир вақтда юзага келган иқтисодий ҳолатдир (асосан талаб ҳамда таклиф нисбати ва у билан боғлиқ бўлган нархлар даражаси орқали юзага келади)
Кооперация алоқалари	Cooperative relations	Кооперативные отношения	турли соҳа ишлаб чиқариш тармоқларида маълум маҳсулотни

			тайёрлаш бўйича узок муддатли алоқаларни ўрнатиш
Корхоналарга преференция бериш	Preference for enterprises	Предпочтение для предприятий	миллий иқтисодиётда фаолият кўрсатувчи корхоналарни молиявий қўллаб- қувватлаш мақсадида улар томонидан ишлаб чиқаришга чет элдан олиб кириладиган хом ашё ва материаллар, ярим тайёр маҳсулотлар, шунингдек асбобускуналарни олиб киришда бож тўловлари ва бошқа жараёнлар бўйича енгилликлар (имтиёзлар) берилиши
Корхонанинг инновацион салоҳияти	Innovative potential of the company	Инновационный потенциал компании	корхонанинг янгиликларни жорий қилиш ёрдамида бозор шароитларида фаолиятнинг самарадорлигини ошириш мақсадида корхонанинг ўзига хос хусусиятлари билан белгиланадиган ривожланиш қобилияти
Кредит	Credit	Кредит	жисмоний ва юридик шахсларнинг вақтинчалик бўш маблағларларини муайян тамойиллар асосида қайтариш шарти билан фойдаланишга бериш жараёнида вужудга келган иқтисодий муносабатлар мажмуи

Модернизация	Modernization	Модернизация	объектни такомиллаштириш, яхшилаш, янгилаш, уни янги талаб ва меъёрларга, техник шарт- шароитларга, кўрсаткичларига мослаштириш
Молия тизими	Financial system	Финансовая система	молиявий муносабатлар ва турли даражада уларга хизмат қилувчи молиявий муассасалар мажмуаси
Молия-банк tizimi	Financial and banking system	Финансовобанковская система	тарихан шаклланган ва белгиланган қонун қоидалар асосида фаолияти юритувчи мамлакатдаги молия-

			кредит муассасалари мажмуидир
Молиявий «кўпиклар»	Financial "bubble"	Финансовые "пени"	реал қийматга эга бўлмаган пул ва облигациялар ҳажмининг кўпайиши
Молиявий институтлар	Financial Institutions	Финансовые институты	белгиланган қонун- қоидалар доирасида фаолият юритувчи мамлакатдаги молия-кредит ташкилотлари
Молиявий манбалар	Financial Resources	Финансовые ресурсы	иқтисодиётнинг турли даражасидаги чора- тадбирларни амалга ошириш учун тақозо этилувчи молиявий маблағларнинг келиб чиқиш манбалари. Масалан, молиявий манбалар аҳоли ва корхоналарнинг манбалари, давлат бюджети маблағлари, қарзга олинган

			маблағлар, хорижий инвесторларнинг маблағлари ва бошқа кўринишларда бўлиши мумкин
Нарх	Price	Цена	товар қийматининг пулдаги ифодаси
Ноу-хау	Know-how	Ноу-хау	муаллифлик гувоҳномаси (патент) билан ҳимояланмаган ишлаб чиқариш тажрибаси ва махорат сирлари
Портфель инвестициялар	Portfolio Investments	Портфельные инвестиции	хўжалик объектини эксплуатация қилиш туфайли даромад олиш ҳуқуқини кафолатловчи капитал қўйилмалари
Преференция	Preference	предпочтения	иқтисодиётни мақсадга мувофиқ ривожлантириш ва тартибга солишда айрим соҳа ва тармоқлар, корхона ва ишлаб чиқариш турларига нисбатан берилувчи имтиёз, афзаллик ва устуворликлар
Протекционизм	Protecionism	Протекционизм	давлатнинг хориж рақобатидан ички бозорни ҳимоя қилиш сиёсати, мамалакатга олиб келинаётган товарларга юқори божлар белгилайди, айрим товарларни олиб келиш чекланади ёки умуман тақиқланади

Пул-кредит сиёсати	Monetary Policy	Денежная политика	давлат томонидан иқтисодий ўсишни таъминлаш мақсадида пул муомаласини ташкил этиш ва барқарорлигини таъминлаш учун амалга ошириладиган барча чоратадбирлар мажмуи
Пул	Money	Денги	ҳамма товар ва хизматлар айирбошланадиган, умумий эквивалент сифатида фойдаланиладиган, бошқа барча товарлар қийматини ифодалайдиган махсус товар
Сальдо	Saldo	Сальдо	муайян вақт давомида молиявий тушумлар ва сарфлар, экспорт ва импорт қиймати (савдо баланси

			сальдоси), хорижий тўловлар ва тушумлар (тўлов баланси сальдоси) ўртасидаги фарқ
Самарали иқтисодий сиёсат	Effective economic policy	Эффективная экономическая политика	давлатнинг иқтисодиётни барқарор ривожлантиришга қаратилган, ҳар томонлама асосланган, изчил ва ўзаро уйғунлаштирилган чоратадбирлари мажмуи
Солиқлар	Taxes	Налоги	белгиланган ва муайян микдорларда ундириладиган, мунтазам, қайтариб берилмайдиган ва беғараз хусусиятга эга бўлган, бюджетга

			йўналтириладиган мажбурий пул тўловлари тушунилади
Солиқларни унификация қилиш	Taxes unification	Унификация налогов	солиқ механизмини соддалаштириш мақсадида иқтисодий моҳияти, солиққа тортиш объекти ўхшаш бўлган солиқ турларини бирхиллаштириш
Савдо ва тараққиёт бўйича БМТ Анжумани (ЮНКТАД)	United Nations Conference on Trade and Development(UNC TD)	Конференция Организации Объединенных Наций по торговле и развитию(ЮНКТА Д)	БМТ тизими доирасидаги махсус муассаса
Савдода энг қулай шароит яратиш режими	Favorable conditions for trading	Благоприятные условия для торговли	мамлакатлар ўртасида келишилган ҳолда ўрнатилган савдо операцияларининг имтиёзли тартиби
Саноат тараққиёти бўйича БМТ Анжумани (ЮНИДО)	UN Industrial Development Conference (UNIDO)	Конференция ООН по промышленному развитию (ЮНИДО)	БМТ тизими доирасидаги махсус муассаса
Таркибий ўзгаришлар	Структурные изменения	Structural Developments	миллий иқтисодиётнинг самарали ва барқарор таркибий тузилишини таъминлаш мақсадида унинг тармоқ ва соҳаларини изчил равишда ўзгартириб бориш
Ташқи қарз	External debt	Внешний долг	мамлакат ҳукумати, молия-кредит ташкилотлари, йирик корхоналарининг бошқа мамлакатлар

			молия-кредит муассасаларидан қарзга олган молиявий маблағларининг жами ҳажми
Ташқи нодавлат қарзлар	Foreign nongovernment debt	Иностранный негосударственный долг	мамлакатдаги хусусий шахслар (молия муассасалари, корхоналар ва аҳоли) томонидан бошқа мамлакатлар молия- кредит муассасаларидан қарзга олган молиявий маблағларининг жами ҳажми
Ташқи савдо	Foreign Trade	Внешняя торговля	бир мамлакатнинг бо мамлакатлар билан савдоси
Ташқи савдо	Политика внешней	Foreign Trade	бир мамлакатни бошқа мамлакатлар

сиёсати	торговли	Policy	билан олиб бораётган савдоси (экспорти ва импорти) борасидаги сиёсати
Телекоммунакация	Telecommunication	Телекоммунакация	симли, радио, оптик ёки бошқа электромагнит тизимлардан фойдаланиб сигнал, белги, матн, тасвир ва товушларни ёки бошқа қўринишдаги ахборотни узатиш, қабул қилиш ва унга ишлов бериш

			жараёни
Тобин солиғи	Tobin tax	Тобинский налог	1972 йилда Джеймс Тобин томонидан киритилган бўлиб, барча молиявий операциялардан 0,1 фоизини қашшоқликни йўқотиш ва учинчи дунё мамлакатлари иқтисодиётини ривожлантиришга йўналтиришни кўзда тутди
Трансмиллий корпорациялар (ТМК)	Transnational corporations (TNC)	Транснациональн е корпорации (ТНК)	чет эл активларига эга бўлган йирик компанияни иқтисодий ташкиллаштириш кўриниши
Турмуш даражаси	Living standard	Уровень жизни	аҳолининг зарурий, моддий ва номоддий неъматлар ҳамда хизматлар билан таъминланганлик ҳамда уларни истеъмол қилиш даражаси
Тўғридан-тўғри инвестициялар	Direct Investment	Прямые инвестиции	бевосита маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш жараёнини ташкил этиш ёки янада

			кенгайтириш мақсадида хорижий шериклар томонидан узоқ муддатли капитал қўйилмалар киритиш
Тўлов баланси	Balance of Payments	Платежный баланс	муайян муддат давомида мамлакатнинг чет элларга тўлаган ва худди шу давр мобайнида мамлакатга чет элдан тушган тўловлар суммалари нисбатини тавсифлайди
Узоқ муддатли депозитлар	Long-term deposits	Долгосрочные депозиты	жисмоний ва юридик шахсларнинг тижорат банкларига бир йилдан ортиқ муддатга қўйилган пул кўринишидаги жамғарма ва омонатлар
Унификация	Unification	Объединение	турли хилдаги маҳсулотлар, деталлар, узеллар ва бошқа қўлланиладиган материаллар ва технологик жараёнларни рационал жиҳатдан бир хиллигини таъминлаш

Уяли алоқа	Cellular communication	Сотовая связь	уяли тармоққа асосланган мобил радиоалоқанинг бир тури
Умумий бозор	Common market	Общий рынок	ишлаб чиқариш омилларини миллий чегаралар орқали эркин кўчиб ўтиши таъминладиган иқтисодий интеграция кўриниши
Франчайзинг	Franchise	Франчайзинг	бир компаниянинг бошқа йирикрок ёки бош компаниянинг савдо маркаси, товар белгиси ва бошқа

			атрибутларидан фойдаланиш
Фонд бозори	Stock market	Фондовый рынок	қимматли қоғозлар ва бошқа молиявий воситаларнинг олдисотди жараёнлари амалга оширилувчи махсус ташкиллаштирилган бозор
Халқаро ташкилотлар	International organizations	Международные организации	уларнинг ҳар бири халқаро сиёсатда ўзларининг фаолият мақсадлари йўналишларига қараб, ер юзи тараққиётида эгаллаб турган мавқеларига қараб, умуман халқаро сиёсий- амалий

			муносабатлар жараёнида ҳаракатларга киришадиган бошқа халқаро ташкилотлар тизимидаги мақомларига қараб аҳамият касб этадилар
Халқаро транзит	International transit	Международный транзит	хорижий юкларни жўнатиш ва қабул қилиб олиш пунктлари берилган мамлакат худудидан ташқарида бўлиши шартда ташилишидир
Хизмат кўрсатиш соҳаси	Service sector	Сфера услуг	ижтимоий ишлаб чиқаришнинг моддий- буюмлашган кўринишга эга бўлмаган истеъмол қийматларини яратишга йўналтирилган соҳалари
Хусусий ташкилотлар	Private Organizations	Частные организации	демократик давлатларда, индивидуаллар ва хусусий ташкилотлар мустақил иш юритишга ҳаракат қилади. Масалан, рўзнома ва ойномалар хусусий тарзда бошқарилади. Давлат мактаблари билан хусусий мактаблар ҳам фаолият кўрсатади. Кўплаб корхоналар хусусий тарзда бошқарилади. Британия, Швеция ва кўплаб давлатларда (яъни демократик давлатларда) саноат ва хизмат кўрсатишнинг

			айрим тармоқларига давлатнинг ўзи эгалик қилади. Тоталитар давлатларда эса ҳукуматнинг ўзи аксарият уюшмалар ва ташкилотларни шакллантиради ва назорат қилади. Бу давлатларда одамлар давлатнинг рухсатисиз бирор-бир гуруҳга бирлаша ҳам олмайдилар
Халқаро валюта фонди (ХВФ)	International Monetary Fund (IMF)	Международный валютный фонд (МВФ)	халқаро савдо ва валюта ҳамкорлигини ривожлантиришга таъсир кўрсатиш мақсадида 1944 йилда ташкил этилган халқаро валюта-молия ташкилоти
Халқаро иқтисодий муносабатлар	Международные экономические отношения	International economic relations	мамлакатлар ва ҳудудлар ўртасидаги, халқаро ташкилотлар ва корпорациялар иштирокидаги
			хўжалик алоқалари тизими
Халқаро ишлаб чиқариш кооперацияси	International Manufacturing Cooperative	Международный производственный кооператив	ишлаб чиқариш босқичларининг ўзаро бир-бирини тўлдириши ва уларни мувофиқлаштириш мақсадида миллий иқтисодий комплексларнинг ҳамкорлик

			қилиши
Халқаро ишлаб чиқаришнинг ихтисослашуви	Specialization of International production	Специализация по интернационализации	мамлакатлар ўртасидаги меҳнат тақсироти кўриниши бўлиб, унда ўзларининг ички эҳтиёжларидан ортиқча бир турдаги махсулотлар тайёрлаш билан шуғулланувчи миллий ишлаб чиқаришларнинг табақаланиши юз беради
Экспорт	Export	Экспорт	товарлар, хизматлар, инвестиция, қимматли қоғозлар, технологиялар ва бошқаларни ташқи бозорга чиқариш
Экспорт квотаси	Export quota	Экспортная квота	мамлакат экспорти қийматининг униг ялпи ички махсулотига нисбати (фоизларда)
Эмиссия	Emission	Эмиссия	қоғоз пулларнинг ғазнахонага ёки бошқа давлат молия органлари томонидан муомалага чиқарилиши; барча шаклдаги пул белгиларини муомалага чиқариш
Эмбарго	Embargo	Эмбарго	алоҳида мамлакат ёки давлатлар гуруҳи билан савдони бутунлай тақиқлаш

Эркин иқтисодий ҳудудлар	Free economic zones	Свободные экономические зоны	мамлакатнинг шундай ҳудудики, бу ерга олиб кирилган товарлар миллий божхона юрисдикциясидан ташқарида ҳисобланади, бинобарин божхона назорати ва соликка тортишдан озод этилади, яъни - бу миллий иқтисодиётнинг бир қисмини ташкил этиб, бу ерда мамлакатнинг бошқа ҳудудларида қўлланилмайдиган ўзига хос имтиёзлар ва рағбатлантиришлар тизимидан фойдаланилади
Эркин савдо ҳудудлари (ЭСҲ)	Free trade zones (FTZ)	Зоны свободной торговли (ЗСТ)	преференциал ҳудуд ҳисобланиб, унинг доирасида божхона ва миқдорий чеклашлардан холи савдо тартибига риоя қилинади
Ялпи ички маҳсулот	Gross Domestic Product	Валовой внутренний продукт	мамлакатда бир йил давомида ишлаб чиқарилган жами пировард маҳсулот ва хизматларнинг бозор қиймати
Янги индустриал давлатлар (ЯИД)	New Industrial Zones (NIZ)	Новые промышленные зоны (НПЗ)	иқтисодий жиҳатдан энг тез ривожланаётган Осиё, Африка ва Лотин Америкасидаги давлатлар гуруҳи

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // [http:// www.Lex.uz](http://www.Lex.uz).
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 10.01.2018 y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
- 1.3. «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son, 17.10.2018 y., 03/18/501/2056-son.
- 1.4. «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019 y., 03/19/537/3113-son.
- 1.5. «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 17-son, 188-modda.
- 1.6. «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 39-son, 488-modda.
- 1.7. «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019 y., 03/19/537/3113-son.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni // <http://www.Lex.uz>.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni // Xalq so'zi, 2017-yil 25-may.
- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 22-son, 420-modda, 37-son, 982-modda.
- 1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-maydagi «Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari

to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 19-son, 338-modda.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi «Har bir oila – tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risida»gi Qarori // O'zA, 2018-yil 8-iyun.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori // Xalq so'zi, 2018-yil 6-iyul.

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzalari

2.1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2016-yil 8-dekabr.

2.2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz /O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq // Xalq so'zi, 2016-yil 15-dekabr.

2.3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak / Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2017-yil 17-yanvar.

2.4. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutq // Xalq so'zi, 2017-yil 1-iyul.

2.5. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2017-yil 8-dekabr.

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. www.uza.uz

III. Kitoblar va monografiyalar

1. Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014.

2. [N.Gregory Mankiw](#). Principles of Economics, 7th edition. [Amazon, USA](#) 2016.

3. [Paul A. Samuelson](#), [William D. Nordhaus](#). Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.

4. Huwart, J.Y. and L. Verdier (2013), Economic Globalisation: Origins and Consequences, OECD Insights, OECD Publishing. <http://dx.doi.org/10.1787/9789264111899-en>

5. Ходиев Б.Ю., Шодмонов Ш.Ш. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: —Баркамол файз медиа , 2018. – 783 бет.
6. Мамбетжанов Қ.Қ. Ижтимоий-иқтисодий тараққиёт назарияси. Ўқув қўлланма. Т.:ТДИУ, 2015.
7. Глобализация мирового хозяйства: Учеб. пособие / Под ред. д-ра экон. наук, проф. М.Н. Осъмовой, канд. экон. наук, доц. А.В. Бойченко. - М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.
8. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktria press, 2015. - 584 b.
9. Avdokushin E.F. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. – М.: Ekonomist. – 2003.
10. Kireev A. Mejdunarodnaya ekonomika. – М.: Mejdunarodno`e otnosheniya. – М.: 2001. Mirovaya ekonomika: Uchebnik. Pod. Red. A.S. Bulatova.- М.:Yurist, 2002. Mirovaya ekonomika: Ucheb. Posobie. Pod. Red. Maslova - Penza: Izd-vo Penz. gos. un-ta, 2001.
11. Livshits A. Prisoedinenie stran SNG k VTO: problemo` i resheniyaG`G` Vneshneekonomicheskiy byulleten. – М. 2003. №2.
12. O.T. Bogomolov. Mirovaya ekonomika v vek Globalizatsii. Uchebnik. – М.: ZAO Izd-vo «Ekonomika», 2007 g.
13. Daniltsev A.V. Mejdunarodnaya trgovlya. Instrumento` regulirovaniya: O`quv-amaliy qo`llanma. Ikkinchi tahrir etilgan nashr. – М.: Delovaya literatura, Paleotip, 2004.
14. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva i evolyutsiya ekonomicheskoy roli gosudarstvo. Pod. Red. Prof. M.V. Kulakova, prof. M.N. Osmovoy. – М.: TEIS 2001. str. 1-20.
15. N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA2016.
16. Mambetjanov Q.Q. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi. O`quv qo`llanma. Т.:ТДИУ, 2015.

IV. Internet resurslari

1. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali;
2. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;
3. www.press-service.uz-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati;
4. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumat portal;
5. www.stat.uz– O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti;
6. www.cbu.uz– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiysayti.
7. www.min.economy.uz- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi rasmiysayti;
8. www.mf.uz- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiysayti;
9. www.norma.uz-O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi sayti;

10. www.tdiu.uz– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy sayti;
11. www.economist.com;
12. www.worlddeconomics.com;
13. www.tradingeconomics.com;

**Djumayev A.X., Sharifov Sh.S.,
Nizamov A.N., Ergashev I.I.**

GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH

O‘quv qo‘llanma

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir

X. Rahimova
N. Isroilov
O. Shukurov

ISBN 978-9943-5943-3-3

2021-yil 17 dekabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.
2021-yil 22 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. “Times New Roman” garniturası.
Offset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı – 14,0.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 587

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

